

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

---

---

**YUQUMLI KASALLIKLAR**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
5720100 – «Davolash ishi» – 5720300 – «Tibbiyot profilaktika ishi»  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

**«NOSHIR»  
TOSHKENT-2012**

**УДК: 616-002.8**

**КБК 55.14**

**Y 91**

**Yuqumli kasalliklar:** darslik. / M.D.Ahmedova [va boshq.]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: Noshir 2012. — 304 bet.

**КБК 55.14**

M u a l l i f l a r:

**M.D.Ahmedova, X.A. Abduqodirov, M.T.Karimova,  
D.B. Mirzajonova**

**T a q r i z c h i l a r:** **G.A. Ibadova** — Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, bolalar yuqumli va parazitlar kasalliklari kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori;  
**A.G. Valiev** — Epidemiologiya, Mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy tekshirish instituti laboratoriya mudiri, professor;  
**A.X. Zakirxo‘jaev** — Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti, bolalar yuqumli kasalliklar kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada yuqumli tropik va parazitlar kasalliklarning tarixi, etiologiyasi patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari yoritilgan. Shuningdek, shu yuqumli kasalliklarga mos test savollari va pedagogik texnologiyalardan namunalar keltirilgan

Ushbu o‘quv qo‘llanma tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining yuqori kurs talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan umumiy amaliyot shifokorlari ham foydalanishlari mumkin.

---

## **SHARTLI QISQARTMALAR**

**AG — A** hepatiti

**ALT — alaninaminotransferaza**

**VG — V** hepatiti

**DG — delta** hepatit

**DSEND — Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati departamenti**

**EG — E** hepatit

**JSST — Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti**

**IFA — immun ferment analiz**

**KBR — komplementni bog‘lash reaksiyasi**

**MSB — markazlashgan sterilizatsiya bo‘limi**

**OITS — orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi**

**OISV — odamda immunodefitsitga sababchi virus**

**ORP — og‘izdan suyuqlik ichirib davolash (oral regidratatsiya)**

**punkti**

**PGAR — passiv gemagglutinatsiya reaksiyasi**

**PTI — protrombin indeksi**

**RIA — radioimmun analiz**

**ROPGA — teskari passiv gemagglutinatsiya reaksiyasi**

**CG — C** hepatiti

**SNP — sanitariya nazorat punkti**

**SSV — sog‘lijni saqlash vazirligi**

**SENM — sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi**

**TB — ta’sir birligi**

**XB — xalqaro birlik**

**O‘JE — o‘tkir jigar ensefalopatiyasi**

**QShA — qishloq shifokorlari ambulatoriyasi**

**EChT — eritrotsitlarning cho‘kish tezligi**

**EQFK — epidemiyaga qarshi favqulodda komissiya**

**g — gramm**

**nm — nanometr (metrning millionidan bir ulushi)**

**t/o — tomir orqali**

---

## MUQADDIMA

Inson tug‘ilganidan to umrining oxirigacha tashqi muhitning turli omillariga duch keladi. Ana shunday omillardan biri — mikrodunyo deb atalmish ko‘pdan-ko‘p turlari, ko‘z ilg‘amas mikroblar olamidir. Mikroblarning ayrim turlari inson tanasiga tushganida, bu holatga befarq qarab turmaydi. Boshqa somatik kasalliklardan farqli o‘laroq, mikroblar ta’siri natijasida kelib chiqqan xastalik bemordan atrofdagi sog‘lom odamlarga ham tarqalishi mumkin. Shu bois bu xastaliklar yuqumli kasalliklar deb ataladi. Yer kurrasida uchraydigan yuqumli kasalliklar g‘oyat ko‘p bo‘lib, ularni turli mikroblar qo‘zg‘atadi.

Yuqumli kasalliklarning insoniyat orasida kelib chiqishi, tarqalishi va tugatilishining o‘ziga xos qonuniyatları mavjud. Kuzatuvlardan ma’lum bo‘lishicha, yuqumli kasalliklarning butunlay yo‘q bo‘lib ketishi yaqin yillar ichida kuzatilmaydi. Zeroki, ba’zi kasalliklar tugatilayotgan bo‘lsa, o‘rniga yangilari kelib chiqmoqda. Shu sababli yuqumli xastaliklar uzoq yillardan beri tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu darslik yuqumli, tropik va parazitar kasalliklarning respublikamiz sharoitida tutgan o‘rni, namoyon bo‘lishi, tarqalish yo‘llari, ularni davolash, epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish borasida oliy ta’lim bosqichidagi talabalarga bilim beradi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ilk marta chop etilganli bois, ayrim xato va kamchiliklardan xoli bo‘imasligi mumkin, shuning uchun kitobning sifatini yaxshilashga qaratilgan har qanday fikrmulohazalar mualliflar tamonidan mammuniyat bilan qabul qilinadi.

*Mualliflar*

---

## I. UMUMIY QISM

### YUQUMLI KASALLIK HAQIDA TUSHUNCHА

### VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI

Qadim zamonlardan beri insoniyatga yuqumli kasalliklar ma'lum. Ko'pgina yuqumli xastaliklar qadimda g'oyat keng tarqagan, og'ir kechgan va minglab odamlarning yostig'ini quritgan. O'sha davrdayoq olimlar vabo, chinchechak, o'lat kabi ko'p uchraydigan kasalliklar yuqumli ekanligini ta'kidlab, ularning tirik qo'zg'atuvchilari bo'lishi mumkinligini gumon qilganlar. Buqrot ularni "miazma"lar deb atagan. Hatto kasallikdan saqlanishning oddiy ehtiyyot choralari ishlab chiqilgan.

Tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino (980—1037) uzining "Tib qonunlari" kitobida "Kasalliklardan ba'zilari yuqumli bo'ladi" deb ko'rsatadi. "Bular, deb yozadi u — moxov, qo'tir, chechak, vabo isitmasi, yiringlagan yaralar kabi xastaliklardir".

Undan besh asr keyingina italiyalik shifokor D.Frakostoro (1483—1553) "Kontagiyalar va kontagioz kasalliklar" deb nomlangan kitobida yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilarini tirik mavjudotlar "kontagiyalar" deb atagan.

O'sha davrdagi fan va texnika taraqqiyoti alohida yuqumli kasallikning qo'zg'atuvchisini aniq topish imkonini bermagan. Shu boisdan yana bir necha asrgacha bu kasalliklar mavhum bo'lib golavergan.

XVII asrda golland tabiatshunosi Antoniy van Levengukning mikroskopni kashf eshshi mikroblar dunyosini o'rganishda olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shu kashfiyotdan keyin ham ayrim mikroblar ma'lum yuqumli kasallik qo'zg'atuvchi (patogen) ekani isbotlangucha II asr muddat o'tdi. Shu davrda ham ko'pgina yuqumli kasalliklar alohida nomga ega bo'lmay, umumlashgan holda "isitma kasalliklari" yoki bezgak deb atalardi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab patogen mikroblastining u yoki bu yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi ekanligi isbotlana boshlandi. 1875-yilda amyobiaz kasalligi

qo‘zg‘atuvchilar, 1880-yilda esa bezgak va ich terlama, 1898-yilda leyshmanioz kasalligi qo‘zg‘atuvchilar aniqlandi. Keyinroq sil, qaytalama tif, quturish kasalligi qo‘zg‘atuvchilar ham ma’lum bo‘ldi. Bu tadqiqotlarga fransuz olimi Lui Paster (1822—1895), nemis olimi Robert Kox (1843—1910), rus olimlari I.I.Mechnikov (1845—1916), D.I.Ivanovskiy (1864—1920), N.F.Gamaleya (1859—1949), P.F.Borovskiy (1863—1932) va boshqalar salmoqli hissa qo‘shdilar.

XX asrda ko‘pgina rikketsioz va virusli kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilarani aniqlandi. Bu borada L.A.Zilber, M.P. Chumakov, A.K.Shybladze va V.D.Solovpev kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

Yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarining aniqlanishi, har bir kasallikning kelib chiqishi, tarqalishi xususiyatlari, patogenezi, klinikasi va profilaktikasini osonlashtirdi. Shuningdek, bu kasalliklarda immunitet jarayonini o‘rganish uchun ham imkoniyat yaratildi. Bu sohada erishilgan yutuqlar natijasida birinchidan, etiologik diagnostikadan tashqari, bemorning qon zardobida paydo bo‘ladigan maxsus antitelolarni aniqlashga asoslangan serodiagnostika usullari ishlab chiqildi. Ikkinchidan, immunitet qonuniyatlariga asoslanib, davolash va profilaktika maqsadida ishlatiladigan zardob va vaksinalar kashf etildi. Jumladan, difteriya va botulizm kasalliklarini davolashda hanuzgacha ularga qarshi antitoksim zardob qo‘llanib kelmoqda. Bolalarni ko‘pgina yuqumli kasalliklardan saqlash maqsadida maxsus taqvim (kalendor) asosida ularni sil, poliomielit (shol), difteriya, ko‘kyo‘tal, qoqshol, qizamiq, tepki kasalliklariga qarshi emlanadi. Virusli gepatit B ga qarshi vaksina ham qo‘llanmoqda.

Yuqumli kasalliklarni davolash sohasida erishilgan yutuqlar antibiotiklar qo‘llanishi bilan bevosita bog‘liq. 1941-yilda dastlabki antibiotik — penitsillin kashf etilgan bo‘lsa, hozirgi kunda davolash jarayonida o‘nlab antibiotiklardan foydalanilmogda. Ularni ishlatish natijasida yuqumli kasalliklar soni ham, o‘lim hodisalari ham muttasil kamayib bormoqda. Ikkinchidan, antibiotiklar qo‘llanganida organizm mikroblardan tez forig‘ bo‘lib, bakteriya tashuvchilik holati rivojlanishi keskin kamayadi. Bemordan atrofidagi sog‘lom odamlarga kasallik yuqish ehtimoli sezilarli darajada pasayadi.

O‘zbekistonlik olimlar ham yuqumli kasalliklarni ilmiy o‘rganish borasida katta tajribaga ega. Asrimiz boshlarida Turkistonda yuqumli kasalliklarni o‘rganish shu o‘lkada yashagan rus olimlari P.F.Borovskiy (teri leyshmaniozi qo‘zg‘atuvchisini topgan), A.D.Grekov, N.I.Xodukin, L.M.Isayev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, 1940-yillarga kelib, mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan olimlar amaliy tibbiyot sohasida katta ilmiy izlanishlar olib bordilar. Dastlabki vaqtarda M.S.Sofiev, S.N.Bobojonov, A.B.Inog‘omovlarning ilmiy ishlari asosan o‘sha davrda keng tarqalgan parazitar kasalliklarga bag‘ishlangan edi.

Yuqumli kasalliklar bo‘yicha bevosita ilmiy ish olib borgan va ko‘plab ilmiy xodimlar tayyorlagan olimlardan I.Q.Musaboyev, T.X.Najmitdinov, V.M.Majidovlarni ko‘rsatib o‘tish lozim. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a’zosi, professor I.Q.Musaboyev boshchiligidagi tif.paratif kasalliklari, ichburug‘, vabo, virusli gepatitlar, difteriyaning patogenezini o‘rganish va davolash usullarini takomillashtirishda katta ilmiy ishlar bajarilmoqda. Bu olim rahbarligida 120 dan ortiq fan doktorlari va fan nomzodlari tayyorlangan.

Bolalarda ko‘p uchraydigan yuqumli kasalliklarni o‘rganishda professorlardan X.A.Yunusova, O.S.Maxmudov, T.O.Daminov, Sh.N.Nazarovlar boshliq ilmiy jamoalar keng ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Brutsellyoz xastaligini o‘rganishda professorlar Sh.X.Xo‘jayev, V.M.Majidov, K.J.Jalilovlarning xizmati katta.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining hamda Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a’zosi A.O.Obidovning mikrobiologiya va immunologiya sohasidagi, professor—virusolog S.S.Maxsumovning virusologiyaga oid ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish barcha tibbiyot xodimlarining vazifasi hisoblanadi. Chunki, kasallik tarqalmasligi uchun uni o‘z vaqtida aniqlab, bemorni alohidalash lozim. Shunga ko‘ra barcha tibbiyot xodimlari bu kasallikning asosiy belgilari, ayniqasa dastlabki alomatlarini yaxshi bilmoqlari shart. Tibbiyot

xodimlari feldsher-akusherlik punktlari (FAP) da, poliklinika va qishloq shifokorlari qabulga kelgan har bir bemorda “yuqumli kasalligi yo‘qmikan”, degan taxminni yodda tutib ishlashlari kerak. Bunday kasallikka biroz gumon bo‘lganda ham, darhol bemorni alohidatalash zarur. Nima sababdan bemorga nisbatan shunday chora ko‘rilayoganini uning o‘ziga yoki (bola kasal bo‘lgan holda) onasiga tushuntirish lozim. Ba’zi yuqumli kasalliklarda bemorni albatta maxsus shifoxonaga yotqizib davolash talab etiladi. Bunday holda tibbiyot xodimi, yuqumli kasalliklarni tashishga ixtisoslashgan transport (epidperevozka) ga telefon orqali talabnomha beradi. Shuningdek, bemor bilan yaqin muloqotda bo‘lganlar ro‘yxati olinadi. Ular ustidan ma’lum muddatda kuzatuv olib boriladi, ba’zan laboratoriyada tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Har bir tibbiyot xodimi o‘zini ham kasallik yuqib qolishidan muhofaza qilishi lozim. Yuqumli kasalliklar bilan muttasil ishlaydigan tibbiyot xodimlari rejali ravishda ayrim kasalliklar (masalan, ich terlama, difteriya) ga qarshi emlanib turishi ham profilaktika maqsadida o‘tkaziladi. Bemorni yoki u bilan muloqotda bo‘lganlarni (laboratoriya tekshiruvlarida) tekshirganda ehtiyyot bo‘lish, o‘z terisini tasodifan jarohatlashdan saqlanish kerak.

Barcha tibbiyot xodimlarining asosiy vazifalaridan biri, aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlari olib borishdir. O‘zini xizmat ko‘rsatadigan hududda aholi bilan yuqumli kasalliklarning yuqish yo‘llari, undan ehtiyyot bo‘lish tadbirlari haqida suhbatlar o‘tkazib turish zarur. Bu maqsadda odamlarni atayin to‘plash biroz mushkulroq. Lekin mahalla qo‘mitalari, qishloq kengashlari, jamoat tashkilotlari turli mavzularda o‘tkazadigan yig‘ilishlarda faol ishtirok etib, aholi orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish bo‘yicha tushunchani shakllantirib borish kerak. Avvalo, xalqimizning qadimiy an‘anasi bo‘lgan pokizalikka e’tiborni qaratish lozim. Oilada, bog‘cha va maktablarda bolalarni yoshligidan oq ozoda bo‘lishga, qo‘lni tez-tez yuvib turishga odatlantirish zarur. Atrof-muhitni toza tutish, oqar suvlar iflosanishiga yo‘l qo‘ymaslik yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga egadir. Tashviqot ishlari samarali bo‘lishi uchun, avvalo tibbiyot xodimining o‘zi turmushda gigiyena talablariga qat’iy rioya qilishi, pokizalikda boshqalarga namuna bo‘lishi lozim.

## **Respublikada sanitariya-profilaktika tashkilotlarining tizimi.**

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida yuqumli kasalliklar bilan kurashish sohasida faoliyat ko'rsatadigan maxsus tashkilot va muassasalar mavjud. Sog'liqni saqlash vazirining o'rindo-sarlaridan biri, bu sohaning barcha ishlariga rahbarlik qiladi. U O'zbekistonning Bosh sanitariya shifokori hisoblanadi va vazirlik qoshidagi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati departamenti (DSEND) orqali ish olib boradi. Infeksiyaga qarshi kurashish ishi sanitariya-epidemiologiya nazorati markaz (SENM) lari orqali amalga oshiriladi. Ular 3 bo'limdan iborat:

1. O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari. Ular jami 14 ta.
3. Shahar va tuman sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari. Ular jami 220 ta.

Bulardan tashqari, Respublika, viloyat va tuman profilaktik dezinfeksiya stansiyalari, orttirilgan immunitet tanqisligi (O'ITS-SPID) ga qarshi kurashish Respublika va viloyat markazlari bor. Respublika, viloyat, tuman "Salomatlik markazlari" ham yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish shoxobchalari hisoblanadi.

O'ta xavfli kasalliklar sohasida va respublika hududini karantin kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi oldini olish masalalari bilan maxsus O'zbekiston karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar muhofazasi markazi faoliyat ko'rsatadi.

Respublika Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmgohi, sanitariya-gigiyena va kasb kasalliklari ilmgohi, virusologiya ilmgohi, tibbiyot parazitologiya ilmgohi, mikologiya markazlari yuqumli va parazitar kasalliklar bo'yicha izlanishlar bilan shug'ullanadigan ilmiy dargohlar hisoblanadi. Respublika Fanlar akademiyasi ham yuqumli kasalliklarning turli jabhalarida faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy mas-kanlar hisoblanadi.

## **Yuqumli kasalliklarning umumiy xususiyatlari**

Yuqumli (infektion) kasallik aslida lotincha “*infecio*” so‘zidan olingan bo‘lib, “ifloslanish” ma’nosini bildiradi. Inson organizmi (makroorganizm) bilan kasallik qo‘zg‘atuvchi mikrob (mikroorganizm) ning ma’lum sharoitda o‘zaro ta’siri oqibatida yuzaga keladigan o‘zgarishlar **infektion jarayon** deb ataladi. Bu jarayon kasallik alomatlari ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, u *yuqumli kasallik* deb yuritiladi. Xastalik alomatlari yaqqol, yoki biroz sezilarli darajada ifodalangan bo‘lishi mumkin. Qanday darajada ifodalanishidan qat’i nazar, yuqumli kasallik bemor organizmida chuqur patofiziologik, immunologik va funksional o‘zgarishlar paydo bo‘ladi.

Ba’zi hollarda kasallik mikroblariga inson organizmi befarq qaraydi. Mikrobgaga nisbatan immunoallergik javob reaksiyasi rivojlanmaydi. Kasallik alomatlari bo‘lmaydi. Mikrob esa ma’lum vaqtgacha biror a’zoga joylashib olib, faqat laboratoriya tekshiruvdagina aniqlanadi. Masalan, difteriya tayoqchasi yoki meningo-kokkler odam tomog‘ida ma’lum muddatgacha topilib tursa ham, kasallik alomatlari bo‘lmasligi mumkin. Bunday holat *bakteriya tashuvchanlik holati* deyiladi. Odamda kasallik qo‘zg‘atuvchi mikrob bir marotabagina topilib, kasallik kuzatilmagan holat *tranzitor* (tasodifiy — organizmga tushdiyu, chiqib ketdi) *bakteriya tashuvchilik* deb hisoblanadi.

Yuqumli kasalliklarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Barcha yuqumli kasalliklar bemor yoki bakteriya tashuvchilardan atrofdagi sog‘lom kishilarga yuqishi mumkin. Kasallikning atrofdagilarga yuqish ehtimoli kasallik turiga va kechish davriga bog‘liq.

2. Yuqumli kasalliklarda **o‘ziga xoslik** mavjud. Har bir kasallik ma’lum turdagи patogen mikrob tomonidan qo‘zg‘atiladi. Masalan, difteriya (bo‘g‘ma)ni difteriya tayoqchasi, qizamiqni — qizamiq virusi, vaboni—vabo vibrioni qo‘zg‘atadi (hech qachon vabo vibrioni difteriyani qo‘zg‘atmaydi, yoki aksincha ham bo‘lmaydi).

3. Yuqumli kasalliklar kechishida ma’lum davriylik kuzatiladi. Patogen mikrob odam organizmiga tushganidan so‘ng ma’lum muddatgacha kasallik alomatlari ko‘rinmaydi. Uni yuqumli

kasallikning *yashirin* (*inkubatsion*) *davri* deb ataladi. Bu davr muddati turli kasalliklarda turlicha bo‘ladi. Masalan, grippda bir necha soatdan 2 kungacha, ich terlamada — 2—3 hafta va hokazo. Keyingi davr *kasallik alomatlari namoyon bo‘lgan davr* hisoblanadi. Unda kasallikning umumiyligi alomatlari ham, har bir xastalikning o‘ziga xos bo‘lgan klinik alomatlari ham yuzaga chiqadi. Bu belgilar dastlab paydo bo‘ladi (prodromal davr), rivojlanib avjiga yetadi va ma’lum muddatdan so‘ng borib, yo‘qoladi. Kasallik alomatlari kamaya boshlagandan bemor o‘zini durustroq his qila boshlaydi. Bu *tuzalish* (*rekonvalessensiya*) *davri* boshlanganidan darak beradi. U ko‘pincha sog‘ayish *davri* bilan tugallanadi. Ayrim hollarda, bu davrda *kasallik zo‘rayishi* mumkin.

Yuqumli kasalliklarda “to‘la sog‘ayish” deganda faqat kasallik alomatlarining to‘la tugashi emas, balki *bakteriologik sog‘ayish ham* nazarda tutiladi. Chunki bemor kasalliklar to‘la forig‘ bo‘lganida, uning organizmidan patogen mikroblar ajralishi ham to‘xtash kerak. Bemor tuzalganidan so‘ng qilinadigan tahlilda (surtma yoki ekmalarda) patogen mikroblar 2—3 karra tekshirilganda topilmasligi babakteriologik sog‘ayishdan darak beradi. Ba’zi kasalliklarda, masalan ich terlama yoki paratiflarda, bemor tuzalib ketganidan so‘ng ham, uning tanasidan patogen mikroblar ajralib turadi. U *kasallikdan so‘nggi bakteriya tashuvchilik* holati deb ataladi. Bu holat 3 oygacha danom etsa, *o‘tkir bakteriya tashuvchilik*, 3 oydan ortiq cho‘zilsa *surunkali bakteriya tashuvchilik* hisoblanadi.

1. Yuqumli kasalliklardan so‘ng bemor organizmida aynan shu kasallik mikroblariga nisbatan turg‘unlik — immunitet paydo bo‘ladi. U orttirilgan immunitet bo‘lib, himoya qobiliyati turli muddatgacha saqlanib qoladi. Masalan, grippdan so‘nggi immunitet kuchi aynan shu turdagи virusga nisbatan 3 yilgacha yetadi. Qizamiq na ich terlamadan so‘ng paydo bo‘ladigan immunitet butun umrga yetadi na odam bu kasalliklar bilan qaytadan og‘rimaydi. Keyingi yillarda ilmiy tekshirishlar natijasida, yuqumli kasalliklardan so‘ng shakllanadigan immunitet ko‘p jihatdan bemor organizmning genetik na fenotipik xususiyatlariga bog‘liq ekanligi isbotlandi.

2. Emlash yo‘li bilan keng tarqalgan yuqumli kasalliklarning oldining olish mumkin. Bolalarni bir necha yuqumli kasalliklarga qarshi emlashdan maqsad, ularning oldini olishdir. Difteriya, ko‘kyo‘tal, qizamiq, poliomielit (shol) ga qarshi emlashlar shular jumlasidandir.

Kasallik qo‘zg‘atish xususiyatlariga ega bo‘lgan mikroblar *patogen mikroblar* deb ataladi. Ular inson tanasiga tushganida ko‘pincha kasallik qo‘zg‘atadi. Kasallikning qanday og‘irlikda kechishi mikrobning virulentligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Demak, virulentlik mikrobning patogenlik darajasini ko‘rsatuvchi o‘lchov. Odatda, o‘ta virulentli xususiyatga ega bo‘lgan mikrob odamda og‘ir kechadigan kasallik qo‘zg‘atadi. Virulentligi pastroq mikrob yuqqanida kasallik yengilroq o‘tadi. Umuman olganda, kasallik alomatlarining qay darajada namoyon bo‘lishiga qarab, yuqumli kasallikning *yengil, o‘rta va og‘ir kechadigan turlari* farqlanadi. Yuqumli kasalliklar o‘ta og‘ir kechgan hollarda ba’zan o‘lim bilan tugaydi.

Har qanday patogen mikrob tarkibida zaharli modda — **toksin** bor. Toksin mikrobning hayot faoliyati oqibatida hosil bo‘lib, atrof-muhitga tarqalsa, **ekzotoksin** deb ataladi. Grammusbat mikroblar asosan ekzotoksin hosil qiladi. Masalan, difteriya tayoqchasi, botulizm mikrobi. Ekzotoksin tarkibiga ko‘ra oqsil modda bo‘lib, ferment xususiyatiga ega. Uning ta’sirida moddalar almashinushi buzilishi oqibatida odamning hayotiy zarur sistemalari zararlanadi.

Mikrob tanasi parchalanishi oqibatida atrof-muhitga tarqaladigan toksinlarga *endotoksin* deyiladi. U tabiatan polisaxarid birikma-larga kiradi va asosan grammansiy mikroblar ishlab chiqiladi. Masalan, vabo kasalligi vibrioni, ich terlama mikrobida kuchli endotoksin mavjud.

Patogen mikrobning odam tanasiga tushish yo‘llari bir xil emas. Har bir kasallikda mikrobning o‘ziga xos tanaga kirish yo‘li bor. Tananing mikrob kirib, tarqaladigan joyi **infeksiyaning kirish darvozasi** deb ataladi. Gripp, qizamiq, suvchechak, ko‘kyo‘tal kabi kasalliklarda infeksiyaning darvozasi yuqori nafas yo‘llari hisoblanadi. Ichak infeksiyalari: tif—paratiflar, ichburug‘ va vabo kasalliklari mikrobi og‘iz orqali tushganida xastalik rivojlanadi. Ba’zi yuqumli kasalliklarda infeksiyaning kirish darvozasi turlichcha bo‘lishi

mumkin. Masalan, kuydirgi va toun mikroblari odam tanasiga teri, nafas yo'llari va og'iz orqali tushadi. Kasallik mikroblining odam tanasiga qaysi yo'l bilan tushishiga ko'ra har bir yuqumli kasallikkda u yoki bu a'zolar asosan jarohatlanadi. Jumladan, asosan nafas yo'llari orqali yuqadigan kasallikkarda asosan nafas olish sistemasi, og'iz orqali yuqadigan xastaliklarda — ovqat hazm qilish sistemasi jarohatlanadi.

Yuqumli kasallikning ayrim davrlarida tanaga tushgan mikrob qonga ham o'tishi mumkin. Bunday holat **bakteremiya** deyiladi. Ba'zi kasallikkarda bemor vena tomiridan qon olib mikroblarni axtarish, ya'ni tashxisot (diagnostika) da foydalanish shunga asoslangan. Masalan, tif—paratif kasalliklarida bakteriemiya ro'y beradi. Shuning uchun tashxis qo'yish maqsadida, boshqa tekshirishlar qatori, bilakdan qon olib, safroli suyuqlikka ekiladi. Keyinchalik unda kasallik mikroblini topish mumkin.

## **Yuqumli kasalliklarning tasnifi (klassifikatsiyasi)**

Yuqumli kasalliklar qaysi muhitda tarqalishiga qara 2 ga bo'linadi. Faqat odamzodga xos bo'lgan kasalliklar *antropoz kasalliklar* deb ataladi. Bu kasalliklar hayvonlarda aslo uchramaydi. Qizamiq, difteriya, ich terlama va boshqalar ana shu guruhga kiradi.

Brutsellyoz (qora oqsoq), quturish, toun (o'lat), salmonellyoz kabi xastaliklar odamda ham, hayvonlarda ham uchraydi. Bunday kasalliklar zoonoz xastaliklar deb ataladi.

Yuqumli kasalliklarni sinflarga bo'lishda yuqish mexanizmini asos qilib olgan holda, epidemiologik nuqtayi nazardan guruhlarga bo'lish qulay hisoblanadi. Ana shu jihatdan yondoshilganda, kasallik mikrobi asosan qayerda joylashishiga qarab, yuqumli kasalliklar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**1. Ichak infeksiyalari.** Bu kasalliklarda mikrob odam tanasiga zararlangan suv yoki oziq-ovqatlar orqali tushadi. Kasallik mikrobi asosan, me'da-ichak yo'llarida joylashib, ko'payadi. Shuning uchun kasallikka xos patogistologik o'zgarishlar ichakda ro'y beradi. Ba'zan, masalan, virusli A va E gepatitlarida kasallik qo'zg'atuvchisi ichaklardan jigarga ham o'tib, uni jarohatlaydi.

Bu guruhga kiruvchi infeksiyalarda kasallik qo‘zg‘atuvchisi bemor tanasidan asosan najas, ayrim hollarda, siyidik orqali tashqariga chiqadi. Tashqi muhitda mikrob turli yo‘llar bilan suv va oziq-ovqatlarga tushib qolishi mumkin. Hojatxonalar suv bo‘yiga yoki unga yaqin joyda qurilganda, ekinlar sharbat usulida sug‘orilganida, pashshalar sababli shunday tarqalish hollari kuzatiladi. Bemorni bevosita parvarish qiluvchilar ozodalikka e’tibor berma-ganlarida, ifloslangan qo‘llari orqali kasallik mikroblarini o‘zlariga yuqtirib oladilar. Bu kasalliklarni kamaytirishda aholi saniatriya madaniyatini oshirish va toza ichimlik suv bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

**2. Nafas yo‘llari infeksiyaları.** Bu guruhga kiradigan kasallik mikroblari bemor tanasidan nafas chiqarganida, yo‘talganida, aksirganida yoki gapirganida atrofdagi havoga ajralib chiqadi va sog‘lom kishi tanasiga nafas yo‘llari orqali tushadi. Shu tariqa kasallikka xos bo‘lgan o‘zgarishlar, asosan, burun, tomoq, halqum, kekirdak, bronxlar shilliq qavatida ro‘y beradi, ba’zan o‘t ham jarohatlanadi. Ayrim kasalliklarda esa mikrob qonga o‘tadi.

Bu guruhga kiruvchi gripp va o‘tkir respirator kasalliklar g‘oyat keng tarqalgan xastaliklar hisoblanadi. Bolalarda nafas yo‘llari kattalarga nisbatan ko‘proq uchraydi.

Boshqa guruhga kiruvchi xastaliklarga nisbatan bu guruhga mansub kasalliklar tez va oson tarqalishini e’tiborga olib, o‘z vaqtida aniqlab bemorni alohidalash zarur. Kasallikdan saqlanish maqsadida ba’zi hollarda, doka niqob taqish tavsiya etiladi. Qizamiq, ko‘kyo‘tal, difteriya, epidemik parotit (tepki), meningokokkinfeksiyasi, gripp va o‘tkir respirator kasalliklar shu guruhga kiradigan xastaliklardan hisoblanadi.

**3. Qon orqali o‘tadigan (transmissiv) infeksiyalar.** Bu guruhga mansub kasalliklarda sog‘lom odamga kasallik qo‘zg‘atuvchisi turli hasharotlar chaqishi natijasida qon orqali yuqadi. Ular asosan rikketsioz kasalliklardir. Ushbu kasallikni qo‘zg‘atuvchi rikketsiyalar bakteriyalar va viruslar o‘rtasida oraliq o‘rinni egallaydi. Rikketsioz-larning ba’zilari bemordan sog‘lom odamga qon so‘ruvchi bo‘g‘imyoqlilar vositasida yuqadi. Masalan, toshmali tifda bit ana shunday vositachi hisoblanadi. Boshqa ko‘pgina rikketsiozlar sog‘lom odamga

kanalar rikketsioz kasalliklarining ko‘pchiligi kanalar faoliyati uchun qulay tabiiy sharoit mavjud joylarda qayd qilinadi. Shu sababli ularni kasalliklarning oldini olishda hasharotlar chiqishidan saqlanish muhim ahamiyatga ega.

Yuqish mexanizmi jihatdan bezgak va gemorragik isitmalar ham shu guruhga kiradi.

**4. Tashqi qoplam infeksiyalari.** Kasallik mikroblari odamga teri orqali yuqadi. Bu guruhga asosan 2 ta kasallik kiradi: saramas va qoqshol. Saramas qo‘zg‘atuvchisi streptokokk sog‘lom odamga bemor yoki bakteriya tashuvchidan yuqsa, qoqshol mikrobi va uning sporalari tuproqda bo‘ladi. Teri shikastlanganda ular tuproq orqali tushib kasallik paydo bo‘ladi.

**5. Turli yo‘llar bilan yuqadigan infeksiyalar.** Bu guruhga mansub kasalliklarda patogen mikrob odam tanasiga turli yo‘llar bilan tushadi. Ayniqsa, zoonoz kasalliklardan brutsellyoz, tulyaremiya, kuydirgi, toun mikroblari shu tariqa yuqadi. Brutsellyoz teri va og‘iz orqali yuqsa, tulyaremiya va kuydirgi kasalliklari qo‘zg‘atuvchisi odam tanasiga teri, nafas yo‘llari va og‘iz orqali tushishi mumkin. Keyingi yillarda fan erishgan yutuqlarga asoslanib, virusli hepatitlarni ham shu guruhga kiritish mumkin. Virusli hepatit *A* va *E* lar og‘iz orqali yuqadi. Virusli hepatit *B* teri va shilliq qavatlardan bevosita yoki bilvosita muloqotda, shuningdek, tibbiyot anjomlaridan parenteral yo‘l bilan yuqadi. “*C*” virusli hepatit esa virus tutgan donor qoni orqali yuqadi.

Hozirgi vaqtida “**boshqariladigan infeksiyalar**” degan ibora ham paydo bo‘ldi. Bu guruhga emlash yo‘li bilan oldini olish mumkin bo‘lgan yuqumli kasalliklar kiradi. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ning tavsiyasiga ko‘ra, 5 yoshgacha bo‘lgan har bir bola quyidagi 6 ta kasallikka qarshi albatta emlangan bo‘lishi kerak: sil, poliomielit, difteriya, ko‘kyo‘tal, qoqshol va qizamiq. Bularidan tashqari mamlakatimizda bolalar, shuningdek, tepki (epidemik parotit) ga qarshi ham emlanadi. Bu kasalliklar boshqariladigan infeksiyalar guruhiga kiradi.

Qisqa vaqt ichida juda keng tarqaladigan, ko‘pincha og‘ir kechadigan yuqumli kasalliklarga o‘ta xavfli xastaliklar deyiladi. Bu guruhga vabo, toun (o‘lat) va kuydirgi kasalliklari kiradi. Har bir

mamlakat o‘z hududini ushbu kasalliklar chetdan kirib kelishi va tarqalishining oldini olish tadbirlarini ko‘radi. U xalqaro shartnoma talablariga mos bo‘lishi kerak.

## **Yuqumli kasalliklar tashxisining asosiy usullari**

Yuqumli kasalliklar avj olgan davrda tashxis qo‘yish unchalik murakkab emas. Bu davrda har bir kasallikning o‘ziga xos bo‘lgan klinik alomatlari yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Eslatib o‘tilganidek, *yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishning asosiy tamoyillaridan biri — kasallikni erta aniqlash va tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik*. Bu ancha murakkab ish va ko‘p jihatdan mutaxassisining tajribasi hamda malakasiga bog‘liq. Yuqumli kasallikni aniqlashda boshqa sohalarda foydalaniладigan ananaviy usullar bilan bir qatorda ba’zi maxsus usullardan ham foydalaniлади.

**Anamnez.** Albatta bemorning hayot anamnezi bilan bir qatorda ushbu kasallik anamnezi ham surushtiriladi. Imkon boricha, kasallik qachon va qanday alomatlar bilan boshlanganligi aniqlanadi. Keyingi kunlarda ularga qanday alomatlar qo‘shilgani, dastlabki alomatlar qaysi yo‘sinda rivojlangani so‘raladi. Bemorning o‘zi tibbiyot xodimi uchun anamnezda nimalar e’tiborga loyiq ekanini bilmasligi mumkin. Shu sababli savollar orqali undan kerakli ma’lumotni olish zarur. Jumladan, tana harorati ko‘tarilgani, necha darajaga borgani, kunning qaysi davrida ko‘proq namoyon bo‘lganini bilish ahamiyatli. Bosh og‘rishi, uyqu buzilishi faqat umumiyl alomatlar bo‘lmay, ayrim yuqumli kasalliklarga xos bo‘ladi. Hatto boshning qaysi joyi og‘riyotganini bilish ham ahamiyatga ega. Tanada toshmalar paydo bo‘lishi, ularning ko‘rinishi, qaysi tartibda toshgani, qancha muddat saqlanib turgani kabi ma’lumotlar ham kasallikning asl mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Ichak infeksiyalariga tashxis qo‘yishda qorindagi og‘riq, uning qaysi joyda ko‘proq sezilayotgani, ko‘ngil aynishi, quşish, ich buzilishi, bu alomatlarning takrorlanishi kabi ma’lumotlar tashxis qo‘yishni osonlashtiradi.

Bemorning kasallik anamnezini yig‘ganda, unda turli narsalar va dori-darmonlarga nisbatan o‘ta sezuvchanlik (allergiya) holati bor-yo‘qligini bilish ham zarur.

Yuqumli kasallik bilan og‘rigan bemordan anamnez yig‘ishda kasallikning qaysi yo‘l bilan yuqib qolgani ham surishtiriladi. Uni *epidanamnez yig‘ish* deyiladi. Bu maqsadda bemor yuqumli kasalligi bor odam bilan muloqotda bo‘lganligini, u qachon ro‘y berganini aniqlash muhimdir. Ayniqsa, oila a’zolaridan birortasida shunday xastalik oldinroq boshlangan bo‘lsa, uning atrofidagi oila a’zolariga kasallik yuqish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bemorning turmushda yoki kasb sohasiga ko‘ra kasal hayvonlar bilan muloqotda bo‘lishi esa zoonoz kasallikkarga e’tiborni qaratadi.

Epidanamnezi yig‘ishda bemorning kasallik yuqishi mumkin bo‘lgan joylarga borib qaytganini bilish ham zarur. U yerda qachon va qancha muddat turganini aniqlash, o‘sha yerdan biror yuqumli kasallikni orttirib kelganini gumon qilishga asos bo‘ladi. Parenteral muolojalar vositasida yuqadigan kasalliklar (virusli B, C va D gepatitlar) ni aniqlashda yuqadigan kasalliklar, jarrohlik operasiyalar, qon quyish, tishni davolash, akusher-ginekolog tekshiruvi kabi tadbirlar bo‘lganini surishtirish zarur. Bemorning hayot tarzi, kasbni aniqlash ham tashxis qo‘yishga yordam beradi.

Bemor ilgari boshidan kechirgan yuqumli kasallikkarni hamda qanday emlashlar olganini aniqlash ham, epidanamnez tarkibiga kiradi.

Yuqumli kasallik anamnezini yig‘ayotganda gumon qilinayotgan xastalikning yashirin (inkubatsion) davrini ham esda tutish lozim.

Anamnezdan so‘ng bemorni ko‘rilayotgan vaqttagi shikoyatlar hisobga olinadi.

Bemorni bevosita ko‘zdan kechirganda avvalo uning ruhiy holatiga e’tibor beriladi. Bemor betoqat yoki aksincha atrofdagilarga befarq bo‘lishi, shok yoki hushsiz (koma) holatda bo‘lishi mumkin. Ba’zan ayrim mushaklarda tutash tirishish kuzatiladi (masalan, qoqsholda). Bosh orqaga tortib ketish hollari ham bo‘ladi. Odatda, shu alomatlarga tayanib, bemorning umumiyligi ahvoliga baho beriladi. U qoniqarli, o‘rta og‘irlikda, og‘ir va g‘oyat og‘ir bo‘lishi mumkin.

Bemorni obyektiv ko‘zdan kechirish e’tibor bilan amalgalosha, kasallik tashxisini aniq qo‘yishga yordam beradigan anchagini alomatlarni topish mumkin. Teri va ko‘rinib turadigan shilliq qavatlarda intoksikatsiyaga xos bo‘lgan belgilari ko‘rinadi. Ko‘p

yuqumli kasalliklarda intoksikatsiya ta'sirida teri oqaradi (ayniqsa tif—paratif kasalliklarida, difteriyada). Gri pp, qizamiq kasalliklarida esa aksincha teri va shilliv qavatlarda gi peremiya ro'y beradi. Tanada ko'p miqdorda suv va tuz yo'qotilganida esa teri tarangligi pasayib, u bujmayib yoki burishib qoladi. Bu holat vabo va boshqa o'tkir diareya kasalliklarida kuzatiladi. Uzoq davom etgan yuqumli kasallikda bemor ozadi. Bu holat ham terini ko'zdan kechirganda aniq ko'rindi. Asosan jigar xastalanishi bilan kechadigan yuqumli kasalliklarda teri va ko'zga ko'rindigan shilliq qavatlar sarg'ayadi. Gemorragik isitmalarida esa teri, ko'z va ko'rindigan shilliq qavatlarida qon quyilishlar — gematomalar bo'ladi.

Ba'zan yuqumli kasalliklarda terida turli toshmalar paydo bo'ladi. Ular ekzantemalar deb umumiy nom bilan yuritiladi. Ichki a'zolar yoki shilliq qavatlardagi toshmalar *enantema* deb ataladi. Ekzantemalar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

**1. Rozeola** — pushti rang kichkina (diametri 2—3 mm) dog'lar. Ular teri ustida bo'rtib turmaydi. Terini bosilsa yoki tarang qilinsa, rozeola yo'qoladi. Uzoq saqlanmay, 1—2 hafta davomida iz qoldirmay yo'qolib ketadi. Ich terlamasi, paratiflar va toshmali tifda paydo bo'ladi.

**2. Petexiya** — rozeoladan biroz maydaroq bo'lib, teri orasiga qon quyilishi natijasida paydo bo'ladi. To'q qizil rangli, terini bosilsa yoki tarang qilinganda yo'qolmaydi. Toshmali tif, gemorragik isitmalar meningkokksemyada kuzatiladi.

**3. Papula** — rozeolaga o'xshab pushti rangli bo'ladi. Farqi shuki, papula teri yuzasidan biroz bo'rtib turadi. Barmoq uchi bilan paypaslaganda seziladi. U qizamiq kasalligiga xos xarakterli toshmalardir.

**4. Vezikula** — ichida tiniq suv tutgan mayda pufakcha. U suvchechak kasalligiga xos toshma hisoblanadi va juda ko'p toshadi. Odatda, terida vezikula toshmagan joy qolmaydi. Keyin ular qurib, tushib ketadi. Hozir butunlay tugatilgan chinchechakda ham avval vezikula toshadi. Keyinroq pufakcha ichidagi suyuqlik yiringlab, toshma pustulaga aylanadi.

**5. Eritema** — ma'lum kattalikda terida yaxlit qizarish paydo bo'lishi, masalan, saramas kasalligida.

**6. Allergik toshma.** U, odatda, allergiyasi bor odam o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan ovqat mahsulotlarini iste’mol qilganda, dordin darmon qabul qilganda yoki chang ta’sirida kelib chiqadi. Bunday toshmalar o‘zbek tilida *eshakyem* deb ataladi. Ular yirik, qattiq bo‘lib, teri ustidan bo‘rtib turadi. Butun tanaga yoki tananing bir qismiga toshishi mumkin. Toshma bor joyda kuchli qichishish sezildi.

Ba’zi yuqumli kasalliklar, masalan, tounda periferik limfa tugunlari kattalashadi.

Yuqumli kasalliklarda organizmning mikrobgaga nisbatan javob reaksiyasi sifatida, odatda, tana harorati ko‘tariladi. Uning davomiyligi va xususiyatini kuzatib borish ham tashxis qo‘yishda yordam beradi. Uzoq kunlar davomida ertalabki va kechki tana harorati ko‘rsatkichlarini chizib borish natijasida ***isitma egri chizig‘i*** kelib chiqadi. Tana haroratining o‘zgarib borishi va harorat egri chizig‘ining ko‘rinishiga qarab, yuqumli kasalliklarda isitmaning quyidagi turlari faqlanadi.

**1. Doimiy isitma.** Tana harorati bir necha kun baland bo‘ladi. Ertalabki isitma kechkisidan pastroq bo‘ladi, lekin ularning farqi bir gradusdan oshmaydi. Bunday isitma ich terlama va toshmali tif uchun xos.

**2. Remittirlovchi (darmonni quritadigan) isitma.** Unda tana harorati bir necha kun baland bo‘ladi. Ertalabki va kechki isitmalar farqi 1°C dan ortiq bo‘ladi. Ammo ertalab pasaygan holida ham tana harorati 37°C dan yuqoriligidcha qoladi. Sepsisda, sil kasalligida kuzatiladi.

**3. Intermittirlovchi (almashib turadngan) isitma.** Tana harorati to‘satdan 39—40°C gacha ko‘tarilib, kun davomida normaga tushadi. Haroratning ko‘tarilgan va tushgan vaqtdagi farqi 3—4°C gacha bo‘ladi. Bir xil vaqt oralig‘idan so‘ng harorat shunday ko‘tarilib, yana tushishi bir necha marta takrorlanadi. Bunday isitma bezgak kasalligiga xosdir.

**4. Qaytalama isitma.** Tana harorati qisqa muddatda yuqori ko‘tarilib, 5—6 kun doimiy isitmadagidek saqlanib turadi. Keyin to‘satdan me’yorgacha pasayib, 5—6 kun 37°C dan oshmay turadi. So‘ngra yana shiddat bilan ko‘tarilib, avvalgisiga o‘xshash holat

takrorlanadi. Shunday ahvol 3—4 marta qaytalanishi mumkin. Qaytalama tiflarda uchraydi.

**5. To'lqinsimon isitma.** U asosan brutsellyoz kasalligiga xarakterli. Tana harorati asta-sekin, kuniga 0,5—1°C dan ko'tarilib, bir necha kundan so'ng, pasaya boshlaydi. So'ng yana asta ko'tarilib, keyin pasayadi.

Tana harorati 38°C dan oshmasdan bir necha kun saqlanib tursa va asta me'yorga kelsa, *subfebril isitma* deyiladi. U ko'pincha yuqumli kasalliklar yengilroq kechgan hollarda kuzatiladi.

Isitma davri tugaganida tana harorati to'satdan yoki asta-sekin pasayishi mumkin. Haroratning 2—3 soat mobaynida to'satdan pasayib, me'yorga kelishi ***kritik pasayish*** deyiladi. Harorat 3—4 kun mobaynida asta-sekin pasaya borib me'yorga kelishi ***lizis*** deb ataladi. Isitma kritik pasayishini bemor juda og'ir o'tkazadi, yurak va qon tomir sistemasiga zo'r keladi. Shy boisdan ko'pincha ana shu davrda ***kollaps holati*** ro'y beradi. Uni e'tiborga olib hamshira postida doimo efedrin, kordiamin, kofein kabi dorilar oldindan tayyor turishi kerak.

Yuqumli kasalliklarga tashxis qo'yishda laboratoriya usullaridan keng foydalaniladi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra 2 guruhra bo'linadi:

1. Bemorda yuqumli kasallik qo'zg'atuvchisini bevosita topishga qaratilgan usullar. *Bakteriologik* va *bakterioskopik* usullar shu maqsadda qo'llanadi

2. Yuqumli kasallik mavjudligini bemor tanasida ro'y beradigan o'zgarishlar vositasida (bilvosita) aniqlash. Bu maqsadda *serologik*, *allergik*, *biokimiyoviy* va boshqa usullar hisoblanadi.

Laboratoriya tekshirishlarini amalga oshirishda kasallikning kechishi, davri va o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Masalan, xastalikning dastlabki davrida bakteriologik usuldan kengroq foydalanilsa, 5—6 kundan so'ng serologik usullar ko'proq qo'llaniladi. Har qanday laboratoriya tekshiruvida hamshira albatta unga tegishli yo'llanma to'ldirishi kerak. Yo'llanmada shifoxonanining nomi, bemorning ismi-sharifi, yoshi, kasallik bayon raqami, qachon, qanday tahlil va nima maqsadda olingan, kim olgani ko'rsatiladi. Olingan tahlil yo'llanma bilan birga (biksda) laboratoriya yuboriladi.

Bakteriologik yoki bakterioskopik tekshirish maqsadida bemordan turli tahlil olinadi. Bo‘g‘ma, meningokokk infeksiyasiga tekshirish uchun tomoqdan sterilangan tampon bilan surtma olinadi. Tif—paratif kasalliklarida bilak venasidan qon olib ekiladi. Umuman olganda, *bakteriologik tekshirishga olinadigan tahlil maxsus muhitlarga ekiladi*. Bu muhitlar aynan shu kasallik mikroblari ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratib, boshqa mikroblar o‘sishiga yo‘l qo‘ymaydi. Material ekiladigan muhitlar bakteriologiya laboratoriyalarda tayyorlanib, sterillanadi. Keyin bo‘limlarga tarqatiladi. Masalan, tif—paratif mikroblarini topish uchun bilakdan olingen qon steril holatda safroli muhitga ekiladi. Tekshirish natijasi esa 3—4 kun, ba’zan 5—7 kundan so‘ng ma’lum bo‘ladi. Bakterioskopiya usulidan foydalanilganida natija tez olinadi. Jumladan, bezgak, qaytalama tiflarga tashxis qo‘yishda bemor barmog‘idan qon olib, maxsus oynachaga surtma tayyorlanadi. Uni mikroskop ostida ko‘rib, kasallik qo‘zg‘atuvchisini bir necha soat ichida topish mumkin. Kuydirgi kasalligida teridagi yaradan biroz olinib, surtma tayyorlanadi. Mikroskopdan foydalanib, unda kuydirgi mikrobi topiladi.

Virusologik tekshirishlar, bakteriologik usullarning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Lekin ular ancha murakkab, uzoq davom etadi va malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Viruslar ko‘payishi uchun bakteriyalar o‘sishi mumkin bo‘lgan muhitlar *to‘g‘ri* kelmaydi. Shunga ko‘ra bemordan olingen surtma yoki boshqa narsa viruslarni topish maqsadida, hujayra kulturasiga yoki tovuq tuxumiga ekiladi. Natija 1—2 hafta yoki undan ham ko‘proq vaqt o‘tgandan so‘ng ma’lum bo‘ladi. Gripp, poliomielit, quturish kasalliklari va boshqalarga tashxis qo‘yishda bu usul qo‘llanadi. Virusologik tekshirishlar uchun olingen ashyo (maxsus muhitga ekilguncha) muzlatilgan holda laboratoriyyaga yetkaziladi.

Eslatib o‘tilganidek, yuqumli kasalliklarga tashxis qo‘yishda serologik usullardan ham keng foydalaniladi. Agglyutinatsiya reaksiyasi, passiv (bilvosita) gemagglutinatsiya reaksiyasi, komplementni bog‘lash reaksiyasi, presipitatsiya, O — agregatgemagglutinatsiya reaksiyalari *serologik reaksiyaning* turli ko‘rinishi hisoblanadi. Qaysi xilidan foydalanishdan qat’i nazar, barcha

serologik reaksiyalar qon zardobida yuqumli kasallik mikrobiga qarshi paydo bo‘ladigan antitelolarni aniqlashga asoslangan. Bu zid tanachalar, odatda, qonda kasallikning 3—4 kunidan boshlab paydo bo‘ladi va kasallik davom etgan sari ularning qondagi miqdori orta boradi. Jarayonning ana shu mohiyatini e’tiborga olib, serologik reaksiyalar uchun tekshirishda bemor qoni kasallikning 3—4 kunlari (passiv gemagglutinatsiya reaksiyasi uchun), hatto 7—8 kunlari (agglutinatsiya reaksiyasi uchun) va undan so‘ngi muddatlarda olinadi.

Serologik reaksiya qo‘yishi uchun bemordan 3—4 ml (passiv gemagglutinatsiya uchun 0,5—1,0 ml) qon olib, zardobi ajratiladi. Ularga tegishli diagnostikum qo‘silsa, mikroblar bir-biriga yopishib, cho‘kma hosil qiladi. Bu **agglutinatsiya** deyiladi. Odatda, reaksiya qo‘yish oldindan qon zardobi probirkalarda bir necha marta suyultiriladi. Ular ko‘pincha quyidagi raqamlar bilan belgilanadi: 1:2, 1:4, 1:8, 1:16, 1:32, 1:64, 1:128, yoki 1:10, 1:20, 1:40, 1:80, 1:160, 1:320, yoki bo‘lmasa 1:100, 1:200, 1:400, 1:800 va hokazo. Demak, navbatdagi probirkadagi zardobning suyulish darajasi oldingidan 2 hissa ko‘p bo‘ladi. Qator terilgan probirkalarda cho‘kma hosil bo‘lsa, uning eng oxirisidagi zardobni suyultirish darajasi inobatga olinadi. U reaksiya titri deb hisoblanadi. Masalan, 1:2—1:128 nisbatlarida eritilganiga to‘g‘ri kelsa (tabiiyki, bu holda 1:2—1:16 larda ham cho‘kma hosil bo‘lgan bo‘ladi) reaksiya titri 1:32 deb belgilanadi. Odatda, yuqumli kasallikning 2-haftasi davomida olingan qondagi serologik reaksiya titri 1-haftadagi olingan natijadan yuqoriroq bo‘ladi.

Tif-paratif kasalliklari, qaytalama tiflar, brutsellyoz diagnostikasida, difteriya, qoqsholga qarshi immunitet holatini aniqlashda serologik reaksiyalardan foydalilanildi.

Serologik reaksiyalar turkumiga kiruvchi lyuministent diagnostika, immunoferment analiz (IFA) va radioimmun analiz (RIA) usullari keyingi yillarda yuqumli kasallikla diagnostikasida tobora keng qo‘llanilmoqda. Bu reaksiyalarni qo‘yish uchun g‘oyat kam miqdordagi (0,05—0,1 ml) qon zardobi yetarli. Bu miqdordagi zardobni olish uchun bemor barmog‘idan qon olinsa ham yetarli bo‘ladi. Hozirgi vaqtida virusli hepatitlar diagnostikasida IFA va RIA

usullaridan keng foydalaniladi. Shuningdek, qondagi immunoglobulinlar, ayniqsa M va G immunoglobulinlarni aniqlash ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Yuqumli kasalliklar diagnostikasida allergik usullar boshqalarga qaraganda kamroq qo'llaniladi. Bu reaksiya bemor organizmining u yoki bu mikrobdan tayyorlangan allergenga sezgirligini aniqlashga asoslangan. Reaksiyaning qo'yish uchun bemorning bilak sohasiga shpris va igna vositasida 0,1 ml allergen teri orasiga yuboriladi. 24—48 soat davomida igna sanchilgan joy atrofida diametri 20 mm dan ortiq bo'lган yaqqol qizarish va bo'rtish paydo bo'lishi ijobiy natija hisoblanadi, ya'ni bemorda ushbu kasallik bor, deb gumon qilish mumkin. Sil kasalligini aniqlashda tuberkulin, brutsellyozni aniqlashda esa brutsellin yuborib allergik sinov qo'yish usullaridan foydalaniladi. Odatda, kasallik to'satdan boshlanadi. Badan qaqshab, bemor sovqotadi. Ustiga duch kelgan narsani yopib yotsa ham isimaydi. Oradan 1—2 soat o'tgach, isitma ko'tarilib ketadi va tana harorati 41°C, ba'zan undan ham yuqori darajaga ko'tariladi. Bu vaqtda bemorning badani qizib ketadi, ustidagi barcha narsalarni olib tashlaydi. Isitma ko'tarilgan vaqtida bemor bosh og'rishi, ko'ngil aynashidan shikoyat qiladi. Bemorning yuzi va terisi qizargan, paypaslab ko'rganda issiq bo'ladi.

Tashxis qo'yishda biokimyoiy usullardan foydalanish bevosita kasallik qo'zg'atuvchisini aniqlash imkonini bermaydi. Ammo ayrim a'zo to'qimalarining jarohatlanishi, u yoki bu kasallikka xos bo'lган o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Jumladan, qondagi bilarubin hamda alanin va aspartat transaminazalar miqdoriga qarab virusli gepatitlar haqida o'ylash mumkin.

Yuqumli kasalliklarga tashxis qo'yishda qon, siydik, najas va safroni umumiy klinik tekshirish ham kerakli ma'lumotlar beradi. Ba'zan yuqumli kasalliklarning dastlabki davrida periferik qonda leykotsitoz, neytrofilez va eritrotsitlarning cho'kish tezligi (EChT) tezlashishi kuzatiladi. Ayniqsa, meningokoksemiyada leykotsitlar soni nihoyatda ( $1\text{litrd} 30-40$ ,  $10^9\text{gacha}$ ) oshib ketishi kuzatiladi. Virusli gepatitlar, gripp kasalligida, odatda, leykotsitlar soni kamayishi va EChT sekinlashishi xarakterli. Yuqumli kasallik cho'zilib ketgan hollarda qonda limfotsitoz va monotsitoz ko'proq uchraydi.

Masalan, brutsellyozning surunkali turlarida shunday holat ko‘proq uchraydi.

Ko‘pgina yuqumli kasalliklarda mikrobynning zaharli mahsulotlari buyrakka ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun intoksikatsiya avjiga chiqqan davrda siyidik ajralishi kamayadi. Ba’zan siyidikda oqsil moddasi paydo bo‘ladi (albuminuriya). Bunday holatda siyidikdan solishtirma og‘irligi ham ortadi. Virusli gepatitlarda qondagi miqdori ortib ketgan bilirubinning ma’lum qismi urobilin holida siyidik bilan ajralib chiqadi. Natijada siyidik to‘q sariq rangga ega bo‘ladi. Unga yodning spirtili eritmasidan tomizilsa yashil halqa hosil bo‘lib, o‘t pigmentlari borligidan darak beradi.

Kasallikning turli davrida najasni tekshirib borish ham ayrim yuqumli kasalliklarda yordamchi ahamiyatga ega. Virusli gepatitlar avjiga chiqqan davrda safro jigarda dimlanib, ichakka tushmay qolgani tufayli najas rangi oqish bo‘lib qoladi. O‘tkir diareya kasalliklari uchun najas ko‘rinishining o‘zgarishi asosiy belgilardan hisoblanadi. Suyuq najasda qon, shilimshiq aralashmasi bo‘ladi. Undan tayyorlangan surtmani mikroskop ostida qaralganda, shilliq, leykotsitlar va hatto eritrotsitlar bo‘lishi mumkin. Shuningdek (parazitar kasalliklarda), xastalik qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan oddiy mikroblar, gijjalarni yoki ularning tuxumlari ko‘rinadi.

Bemorning turli a’zolarini bevosita tekshirish ham kasallik tashxisini to‘g‘ri qo‘yishda yordam beradi. Ko‘pgina yuqumli kasalliklarda intoksikatsiya oqibatida til quriydi, karash bilan qoplanadi. Ba’zi xastaliklarda(gripp, difteriya) tomoqda yallig‘lanish alomatlari, parda paydo bo‘lishi kuzatiladi. Ichak infeksiyalarida qorinni paypaslaganda uning turli sohalarida og‘riq borligi aniqlanadi. Virusli gepatitlar uchun jigar kattalanishi o‘ziga xos klinik alomatlar dan hisoblanadi. Bezgak, visseral leyshmanioz kasalliklarda jigar va taloqning sezilarli darajada kattalashganini kuzatish mumkin.

Yuqumli kasalliklarda turli a’zolarning holatini o‘rganishda tibbiyot asboblardan ham keng foydalilanildi. Me’da-ichak yo’llari holatini tekshirishda gastrofibroskopiya, kolonofibroskopiya kabi endoskopik usullar keng qo’llanadi. Bu asboblar yordamida me’da va ichaklar shilliq qavatining holatini bevosita ko‘rish, rasmini olish

yoki bir parchasini namuna sifatida kesib olib, mikroskopda tekshirish mumkin.

Avvalgi paytlarda virusli gepatitlarda jigar to'qimasining morfologik holatini tekshirish uchun shu sohada terini maxsus igna bilan teshib, jigar to'qimalaridan namuna olinar edi. Uni mikroskopda ko'rib, jigar to'qimasidagi o'zgarishlarga baho beriladi. Bu usul ancha murakkab va bemorga jarohat yetkazishi tufayli hozir kam qo'llaniladi. Keyingi yillarda ichki a'zolar, jumladan, jigar va o't pufagi holatini aniqlashda ultratovush apparatlari ko'p qo'llanmoqda. Ular foydalanish uchun g'oyat qulay va bemorga hech qanday ozor bermaydi.

O'pkadagi o'zgarishlarni aniqlashda rentgen apparati va flyurograflardan keng foydalaniladi.

### **Yuqumli kasalliklarni davolash asoslari**

Yuqumli kasallik bilan og'rigan bemorlarni davolash murakkab jarayon bo'lib, ko'p omillarni e'tiborga olish lozim. Davolashni tashkil etishda bir tomondan kasallik qo'zg'atuvchisidan tezroq qutulishga harakat qilinsa, ikkinchi tomondan, bu maqsadga erishish uchun bemor organizmiga yordam berish, uning himoya kuchlarini oshirish kerak. Ikkala tomonning o'zaro ta'siri oqibatida to'qima va hujayralarda ro'y beradigan patologik jarayonlarni tezroq tugatishga ham intilish zarur. Dori-dormonlarni tayin qilishda kasallik davri ham hisobga olinadi. Har bir kasallik turiga qarab davolash sxemalari mavjud. Lekin, kasallikni emas, balki bemorni davolash lozim. Shuning uchun davolash jarayoni har bir bemorning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tayinlanadi.

Dori-dormanlar qanday maqsadda tavsija etilishiga qarab yuqumli kasalliklarda quyidagi davolash usullaridan foydalaniladi:

1. Etiotrop ( spesifik ) davolash.
2. Patogenetik (nospesifik) davolash.
3. Simptomatik davolash.

*Etiotrop (spesifik) davolash* maqsadida kasallik qo'zg'atuvchisiga ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar qo'llanadi. Ular juda xilma-xil. Antibiotiklar, sulfanilamid preparatlar, boshqa kimyoviy prepa-

ratlar, bakteriofaglar, spetsifik zardoblar, gamma-globulinlar yuqumli kasalliklar mikroblariga bevosita ta'sir etuvchi preparatlar hisoblanadi.

Spetsifik davolash tayin qilinganda quyidagi taomillarga e'tibor qilish lozim:

1. Preparat kasallik qo'zg'atuvchisiga ta'sir kuchiga ega bo'lishi kerak.
2. Qo'llanadigan dori yetarli dozada va ma'lum muddatga tayinlanadi.
3. Preparat yaxshi so'riliishi va infeksiya o'chog'iga yetib borib ta'sir qilishi lozim.
4. Tayinlanayotgan dori bemor organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi yoki bunday ta'siri juda kam hollarda uchraydigan bo'lishi darkor.

Keyingi yillarda yuqumli kasalliklarni davolashda keng qo'llanib kelayotgan preparatlar *antibiotiklar* hisoblanadi. Ular mikroblarga nisbatan asosan *bakteriostatik* ta'sir ko'rsatadi, ya'ni kasallik mikroblarning ma'lum taraqqiyot bosqichini to'xtatadi. Oqibatda mikrob bemor organizmida ko'payish xususiyatini yo'qotadi. Bunday holatda bemorning himoya kuchlari mikrobni oson yengish imkoniyatiga ega bo'ladi. Patologik jarayon tez to'xtaydi va tuzalish boshlanadi. Ba'zan antibiotiklar ta'sirida mikroblar nobud bo'ladi. Bunga antibiotiklarning **bakterotsid** ta'siri deyiladi.

Yuqumli kasalliklarni davolashda antibiotiklardan foydalanish tibbiyot sohasida yaxshi natija berdi. Yuqumli kasalliklardan o'lim hollari va asoratlari keskin kamaydi. Bemorlarning shifoxonalarda yotish muddati sezilarli darajada qisqardi.

Har bir antibiotik ma'lum guruh mikroblariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, penitsillin guruhga kiruvchi antibiotiklar (benzilpenitsillin, oksatsillin, ampitsillin, ampioks, bitsillin va h.k.) asosan kokk guruhi mikroblariga qarshi keskindir. Shu xususiyatiga ko'ra, bu antibiotiklar meningit, pnevmoniyada yaxshi naf bersa, ichak infeksiyalarida kam qo'llaniladi.

Keyingi yillarda sintetik ravishda olingan antibiotiklar amaliyotda ko'p ishlatilmoqda. Jumladan, sefalosporinlar. Hozirgi vaqtida sefalosporinlarning 3 avlodи tibbiyot amaliyotida keng qo'llanmoqda.

Seporin, kefzol, sefamezin, sefaleksin, mefoksin, sefobid, klofaranlar shular jumlasidan.

Shuningdek, tetratsiklin guruhiga kiruvchi antibiotiklar: tetratsiklin, oksitetratsiklin kabi preparatlar, kamroq hollarda bo'lsa ham, qo'llanib kelmoqda. Ular tabletka holida chiqarilgani uchun foydalanishga qulaydir. Grammusbat va grammanfiy mikroblar qo'zg'atgan kasalliklarni davolashda yaxshi naf beradi.

Levomitsetin (xloramfenikol) ichak infeksiyalarini davolashda yaxshi naf beradi. Ayniqsa ich terlama, vabo, rikketsiyalarda keng qo'llanadi. Levomitsetin tabletka va inyeksiya qo'llash uchun levomitsetin suksinat holida chiqariladi.

Ichak infeksiyalari salmonellyoz, shigellez, esherixiozlarni davolashda polimiksin guruhiga kiruvchi polimiksin, aminoglukozidlardan gentamitsin, kanamitsin kabi preparatlardan foydalilanadi.

Brutsellyoz, sil, rikketsiozlarni davolashda streptomitsin, linkomitsin, rifampitsin, doktsitsiklin kabi preparatlar yaxshi samara beradi.

Keyingi yillarda xorijiy farmatsevtik korxonalar antibiotiklarni suspenziya holatida chiqarilmoqda. Siklar, baktrim, oriprin deb nomlangan preparatlar shular qatoriga kiradi. Ular bolalarni davolashda juda qulay. Shakar aralashtirib tayyorlangan uchun ta'mi ham achchiq emas. Shuning uchun bolalar uni bajonidil ichadilar.

Odatda, antibiotiklar bilan davolash kursi tayinlanadi. Bunda preparat ma'lum muddat (3—5—7 kun va h.k.) davomida aniq soatlar (6—8, yoki 12 soat) oralig'ida takroran yuborib turiladi.

Antibiotiklar tabletka, kapsula, suyuqlik yoki suyultirib yuboriladigan kukun (poroshok) holida chiqariladi. Ichiladigan antibiotiklar foydalanish uchun qulay. Inyeksiya qilib yuboriladigan antibiotiklar mushak orasiga (meningitda, shuningdek, orqa miya kanaliga) shpris vositasida yoki vena tomiriga tomchilab yuboriladigan suyuqliklar (glukozaning 5% li eritmasi, fiziologik eritma) bilan aralashtirib yuboriladi. Shpris bilan inyeksiya qilib yuboriladigan antibiotiklar, odatda, 0,5% novokain, distillangan suv yoki korxona tomonidan antibiotikka qo'shimcha qilib chiqarilgan suyuqlikda eritilib, dumba sohasiga yuboriladi.

Antibiotiklarni faqat zarurat bo‘lgan hollardagina qo‘llash lozim. Ularni zaruratsiz ishlatalish, palapartish davolash natijasida mikrob-larda *antibiotikka nisbatan turg ‘unlik xususiyati* paydo bo‘ladi. Shu sababli bemordan yuqumli kasallik mikrobi topilganda laboratoriyyada bu mikrobynning qaysi *antibiotikka sezuvchan ekanligi* ham aniqlanadi. Keyin aynan mikrob sezgir bo‘lgan antibiotik tayin qilinadi. Mikrobnii sezgir bo‘lmagan antibiotik bilan davolash natija bermaydi.

Antibiotiklarning salbiy ta’siri ham bor. Antibiotikni inyeksiya sifatida yuborganda nisbatan ko‘proq uchraydi. Allergiya reaksiyasi teri qizarishi, toshma toshishi, badan qichishishi, qusish, tomir urishi tezlashuvi holida namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zan allergik shok *ro‘y* beradi. Uning oqibatida onda-sonda o‘lim hollari uchrab turadi. Bunday ko‘ngilsiz hodisalarining oldini olish uchun hamshira bemorga birinchi marta dori ichirish, ayniqsa inyeksiya qilish oldidan, ushbu dorilar jumladan, *antibiotiklarga nisbatan allergiya bor-yo‘qligini surishtirish shart*. Antibiotiklar qo‘llaganda bemorda yuz bergen har qanday g‘ayri-tibiyy reaksiya haqida (hatto u yengil bo‘lsa ham) hamshira shifokorni xabardor qilishi lozim.

Antibiotiklar uzoq muddat yoki katta dozalarda qo‘llanganida zamburug‘li kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Ular *kandidoz kasalliklari* deb ataladi. Tilning chaqa bo‘lishi, og‘iz shilliq qavatida mayda oq toshmalar paydo bo‘lishi kandidozning ko‘p uchraydigan va dastlabki alomatlari hisoblanadi. Bunday hollarda qo‘srimcha ravishda vitamin preparatlari, shuningdek, zamburug‘larga qarshi nistatin, levorin kabi dorilar tavsiya etiladi.

Antibiotiklar og‘iz orqali buyurilganida me’da-ichak yo‘llaridagi foydali, normal flora vakillari bifido— va laktobakteriyalarni ham kamaytirib yuboradi. Buning oqibatida ichakning normal mikroflorasi, ya’ni foydali va shartli—patogen mikroblar o‘rtasidagi mutanosiblik buziladi. Bu holat *ichak disbakteriozi* deb ataladi. Utana haroratining ko‘tarilishi, qaytadan ich ketishi kabi alomatlar bilan namoyon bo‘ladi. Disbakteriozni davolash uchun bifidum-bakterin, laktobakterin, bifikol, kolibakterin kabi preparatlari qo‘llanadi. Ularni 2—3 hafta davomida kuniga 2 marta og‘iz orqali ichish tavsiya etiladi. Bunday hollarda bifidobakteriya achitqisidan foydalanib tayyorlangan qatiq — bifillin ham yaxshi naf beradi.

Uni bolaning yoshiga qarab 50—100 ml dan kuniga 1—2 marta ichish buyuriladi. Davolash kursi 3—4 hafta.

Yuqumli kasalliklarni davolashda sulfanilamid preparatlardan ham foydalilanadi. Norsulfazol, streptotsid, etazol, sulgin, ftalazol kabi preparatlar shular jumlasiga kiradi. Odatda, sulfanilamid tabletka holida chiqariladi va kasallik turiga qarab har 6 soatda 0,5—1 grammdan ichish uchun buyuriladi. Uzoq ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan sulfapiridazin, madribon kabi preparatlarni kuniga 1—2 marta ichish yetarlidir. Sulfanilamid preparatlar ko'p hollarda antibiotiklar bilan birga beriladi. Bunda ular bir-birining ta'sirini kuchaytiradi. Bu preparatlarning ham odamga salbiy ta'siri bo'lishi mumkin. Me'da va ichak shilliq qavatlari shikastlanishi, me'da va ichak shirasi ajralishining kamayishi bunga misol bo'la oladi. Sulfanilamidlarni ko'p dozada va uzoq vaqt ichilsa buyrakda tosh paydo bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun ko'p miqdorda suyuqlik ichish, ayniqsa ishqorli mineral suvlar tavsiya etiladi.

Kimyoterapevtik preparatlardan nitrofuran va 8-oksixinolin guruhg'a mansub dorilar ham yuqumli kasalliklarni davolashda qo'llanadi. Ayniqsa, furazolidon, furadonin, enteroseptol, intestopan, furatsillin, 5-NOK preparatlari ba'zi hollarda ta'sir kuchi jihatdan antibiotiklardan qolishmaydi. Ulardan ayrimlari parazitar va zamburug' kasalliklarida ham ta'sir ko'rsatadi.

80-yillargacha yuqumli kasalliklarni davolashda bakteriofaglar ham keng qo'llanar edi. Bakteriofag so'zi aniq tarjima qilinsa, mikroblar yalmog'izi ma'nosini bildiradi. Bakteriofag mikrobynning o'zi ishlab chiqargan mahsulot, ba'zilar uni mikrobynning virusi, deb ham ataydilar. Bakteriofag ta'sirida mikrob qobig'i yoriladi va mikrob hujayrasini leykotsitlar osongina yutib yuboradi. Mikrob yo'q joyda bakteriofag bo'lmaydi. Har bir mikrobynning o'z bakteriofagi bor. U o'ziga xos ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega, ya'ni faqat o'z "xo'jayiniga" qarshi ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, shigellyoz bakteriofagi ichbyrug' mikroblariga, salmonellyoz bakteriofagi—salmonella mikroblariga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Bakteriofaglar suyuq va tabletka holida chiqariladi. Amaliyotda ichterlama, shigellyoz va salmonellyoz, stafilokokk bakteriofaglari

qo'llanadi. Ular kasallikning dastlabki kunlarida qo'llansa, yaxshi natija beradi. Odatda, bakteriofagni och qoringa ichish tavsija etiladi, chunki me'da shirasi ta'sirida bakteriofag tez parchalanadi. Bundan ehtiyot qilish maqsadida bakteriofag tabletkalarining usti pektin qobig'i bilan qoplanadi. Hozirgi vaqtida bakteriofaglar ko'proq profilaktika maqsadida qo'llanmoqda. Uni yuqumli kasallik o'chog'ida bemor bilan yaqin muloqotda bo'lganlarga beriladi.

Keyingi yillarda yuqumli kasalliklarning oldini olishda va davolash maqsadida *interferondan* foydalanilmoxda. U viruslar qo'zg'atadigan kasalliklarda qo'llanadi. Virus odam organizmiga ta'sir etishiga javoban hujayralarda virusga qarshi ta'sir etuvchi interferon hosil bo'ladi. Bu preparatni hozir sanoat sharoitida odam leykotsitlaridan ajratib olinadi. Hozirgi vaqtدا interferon gripp va virusli gepatitlarni davolashda yaxshi samara bermoqda. Mikrobnинг o'zi emas, uning toksini bemor organizmiga kuchli ta'sir ko'rsatishi tufayli kelib chiqadigan yuqumli kasalliklarni davolashda hozir ham *davolash zardoblari* keng qo'llanadi. Ulardan foydalanish, zardoblar tarkibida muayyan kasallik mikroblariga qarshi zid tanacha (antitelo) lar ko'p miqdorda mavjudligiga asoslangan. Odatda, zardob olish uchun otdan foydalaniladi. Ma'lum muddat davomida otga mikrob yoki uning toksini yuborib turiladi. Oqibatda ot organizmida kuchli zid tanachalar paydo bo'ladi. Mikrob yuborish yo'li bilan olinadigan zardob *antimikrob zardob* deb ataladi. Toksin yuborilishiga javoban hosil bo'ladigan, antitoksin tutgan zardob *antitoksik zardob* deb ataladi. Hayvondan olingan zardob avval texnologik jarayonlar vositasida qo'shimcha moddalardan xoli qilinadi va quyuqlashtirib, kuchi oshiriladi. Korxona sharoitida tajriba hayvonlarida zardobning kuchi va shikastlovchi ta'siri yo'qligi sinab ko'rildi. Unga yopishtirilgan qog'ozda preparat va uni ishlab chiqargan korxonaning nomi, miqdori, turkumi, tekshirilgan kuni va yaroqlik muddati ko'rsatiladi. Odatda, bu muddat 6—12 oyga teng bo'ladi. Zardobni salqin joyda, ya'nisovutgichda saqlash lozim. Antitoksik zardob dozasi xalqaro birlik (XB) da antimikrob zardob kuchi — ml da ifodalanadi.

Zardob qo'llanishidan oldin xona harorati darajasida iliq bo'lishi kerak. Uni muskul orasiga, vena tomiriga, teri orasiga va teri ostiga

yuborish mumkin. Davolash maqsadida zardobni kasallikning dastlabki kunlarida qo'llash samaralidir. Baqt o'tishi bilan qondagi toksinlar organizmning hujayra va to'qimalari bilan birikma hosil qiladi. Bu birikmalarga zardob yetarli ta'sir ko'rsata olmaydi.

Zardob hayvonlar qonidan olib tayyorlangani uchun uning tarkibida odam organizmiga yot oqsillar saqlanib qoladi. Uni to'g'ridan-to'g'ri odam organizmiga yuborilsa, *allergik reaksiya* ro'y berishi mumkin. Uning oldini olish maqsadida zardobni bemor organizmiga avval oz miqdorda, bo'lib-bo'lib yuboriladi. Bu usul *Bezredka usuli* deb ataladi. Undan foydalanganda organizmning begona oqsilga sezuvchanligi pasayadi. Uni *desensibilizatsiya* deyiladi. Shunday usul vositasida yuborilgan zardobga nisbatan, odatda, allergiya reaksiyasi kuzatilmaydi.

Bu usul quydagicha amalga oshiriladi. Dastlab suyultirilgan (1:100 nisbatda) zardobdan 0,1 ml olib teri ostiga yuboriladi. Hech qanday noxush alomatlar bo'lmasa, 30 daqiqadan so'ng 0,2 ml zardob muskul orasiga yuboriladi. Undan so'ng 1,5 soat o'tgach, zardobning qolgan hamma dozasi yuboriladi.

Zardobni vena tomiri orqali yuborilganida dastlab 0,1 va 0,2 ml zardobni ko'rsatilgan vaqt oralatib, teri ostiga va muskul orasiga yuboriladi. Qolgan doza 400,0 ml osh tuzining 0,9% li eritmasi yoki 5% li glukozaga aralashshrib, tomchilab yuboriladi.

Dastlabki soniyalarda ogoh bo'lib turiladi. Allergik reaksiya alomatlari paydo bo'lsa, dori yuborish darhol to'xtatiladi. Vena tomiriga zardob yuborish faqat shifokor nazoratida amalga oshiriladi.

Zardob bilan davolash bir necha kun davom etsa va ular orasidagi muddat 3 kundan oshmasa, qayta yuborilayotganida zardob bir yo'la belgilangan dozada yuboriladi (desensibilizatsiya qilinmaydi).

Davolash maqsadida zardob qo'llanganida ba'zi bemorlarda 3 xil allergik reaksiya kuzashlishi mumkin.

1. O'sha zahoti ro'y beradigan reaksiya. U, odatda, *anafilaktik shok* sifatida namoyon bo'ladi. To'satdan teri rangi oqarishi, qattiq terlash, ixtiyorsiz peshob ro'y berishi, qon bosimining pasayib ketishi, tomir urishi g'oyat tezlashishi, nafas qisishi anafilaktik shok alomatlari hisoblanadi. Bunday holatda zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatilmasa, o'lim ro'y berishi mumkin. Eslatib o'tilgan

alomatlardan birortasi paydo bo‘lgan zahotida, zardob yuborish to‘xtatiladi. Yurak tomirlar faoliyatini yaxshilash uchun efedrin, mezaton (1,2 ml), sulfokamfokain (2,4 ml) teri ostiga yuboriladi, kislorod beriladi. Nafas qisganida atropin (0,5—1 ml) qilinadi. Desensibilizatsiya qiluvchi preparatlardan dimedrol yoki pi polfen, tavegil muskul orasiga yuboriladi. Og‘irroq hollarda muskul orasiga gormonal preparatlar prednizolon (30—60 ml) yoki gidrokortizon (125 ml) yuboriladi. Bemorga issiq choy ichiriladi.

2. Erta paydo bo‘ladigan reaksiya, kasallikning 4—6 kunlari paydo bo‘ladi. Belgilari: badan uvishib, tana harorati ko‘tariladi, yuz qizaradi, terida qichishadigan toshmalar paydo bo‘ladi. Bu reaksiya bir necha soatdan 1—2 kungacha davom etadi. Ko‘pincha desensibilizatsiya qiluvchi preparatlar: dimedrol, pi polfen, kaltsiy xlorid eritmasi bilan davolash yaxshi natija beradi.

3. Kechikib ro‘y beradigan reaksiya u zardob yuborilganidan so‘ng 8—10 kun o‘tgach namoyon bo‘ladi. Uni *zardob kasalligi* deb ataladi. Bu kasallikda tana harorati ko‘tariladi, limfa tugunlari kattalashadi, qichishadigan toshma paydo bo‘ladi, bo‘g‘imlarda shish va og‘riq yuzaga keladi. Barcha allergik holatlarda kuzatilganidek, qonda eozinofiliya aniqlanadi. Davolash desensibilizatsiya qiluvchi dorilar bilan olib boriladi.

Davolash zardob qo‘llanishiga javoban ro‘y berishi mumkin bo‘lgan nohush ta’sirotlar oldini olish uchun har safar bemordan, ilgari shunday preparatlar olgani, u holda qanday reaksiya bo‘lgani surilishтирiladi. Mabodo, ilgari allergik reaksiya alomatlari kuzatilgan bo‘lsa, zardob tavsiya etilmaydi.

Amaliyotda quyidagi zardoblar davolash va profilaktika maqsadlarida qo‘llanadi: bo‘g‘maga, qoqsholga, botulizmga, kuydirgiga va ilon zahariga qarshi va h.k.

Davolash zardoblari qo‘llanganida kutilmagan reaksiyalar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va foydalanish qulay bo‘lishi uchun zardobdan uning asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi qismi ajratib olinadi. Gammaglobulin — shunday preparat hisoblanib, zardobdag‘i zid tanachalar asosan qon oqsillarining ana shu turida bo‘lar ekan. Gammaglobulin donor qoni yoki yo‘ldosh (platsenta) qonidan olinadi. Bu preparatlar asosan profilaktika maqsadida, ba‘zan

davolash uchun ishlatiladi. Ko‘pincha 1,5—3 ml dan ampulada chiqariladi. Profilaktika maqsadida gammaglobulin qizamiq, virusli gripp va virusli gepatitda bemor bilan muloqotda bo‘lganlarni kasallanishdan muhofaza qilish uchun qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda hayvonlardan olingan (geterogen) gammaglobulin ishlatilmaydi. Asosan odam qonidan olingan qizamiqqa, virusli gepatitga, grippga va stafilokokka qarshi gammaglobulinlar hozirgi kunda qo‘llanilmoxda. Odatda, gammaglobulin yuborilganida allergik reaksiya kuzatilmaydi. Preparat muskul orasiga yuboriladi.

Ilgari ba’zi yuqumli kasalliklar (brutsellyoz, ich terlamasi, kuydirgi, ichburug‘ va h.k.) ni davolashda vaksina ham qo‘llanar edi. Ularning samarasi kam bo‘lganligi tufayli keyingi yillarda deyarli foydalanilmaydi.

**Patogenetik davolash.** Ilgari ta’kidlab o‘tilganidek, yuqumli kasalliklarni davolash murakkab jarayon bo‘lib, faqat mikroblarga qarshi ta’sir etuvchi dorilarni qo‘llash yetarli samara bermaydi. Davolash jarayonida hayotiy muhim a’zolar va qon aylanish, nafas olish, moddalar almashinushi sohalaridagi o‘zgarishlarni bartaraf etish ham katta ahamiyatga ega. Bemor organizmi himoya quvvatini oshirish ham muhim. Ana shu maqsadlarni ko‘zlab olib boriladigan davolash muolajalari *patogenetik davolash* hisoblanadi.

Avvalo, yuqumli kasallikning o‘rtta va og‘ir kechishida doimo uchraydigan intoksikatsiyani kamaytirish va yo‘qotishga harakat qilanadi. Unchalik og‘ir bo‘limgan hollarda ko‘p miqdorda suyuqlik (mineral suvlar, choy, qatiq, kompot va h.k) ichirib turish organizmning zaharli moddalardan tezroq xalos bo‘lishiga yordam beradi. Og‘irroq hollarda qo‘srimcha ravishda 2—3 kun suyuqliklarni vena tomiriga ham tomchilab yuboriladi. Bu maqsadda osh tuzining 0,9% li eritmasi, Ringer eritmasi, 5% li glukoza eritmasi, gemodez qo‘llanadi. Bemorning ahvoliga qarab kuniga 0,5—2 litr suyuqlik tomchilatib yuboriladi. Tuzli eritmalarga 5% askorbin kislotadan 5—10 ml qo‘sib yuborilsa, davolash samarasi yuqoriroq bo‘ladi.

Bemorga ko‘p miqdorda suyuqlik berilganida, organizmdan ajralib chiqayotgan suyuqlik miqdorini ham hisoblab borish lozim. Agar siydiq kam ajralayotgan bo‘lib, qon bosimi me’yorida saqlanib qolgan bo‘lsa, siydiq haydovchi gi potiazid, furosemid kabi

tabletkalar ichiriladi. Lozim bo‘lgan hollarda, laziksdan 2—4 ml muskul orasiga yuborib, ortiqcha suyuqlikni tanadan chiqarib yuborishga erishiladi.

Intoksikatsiya yurak-tomir tizimi faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uni e’tiborga olib, kofein, kordiamin kabi preparatlari ichish uchun beriladi yoki ukol qilib yuboriladi. O‘pka va yurak faoliyatiga bir yo‘la ijobiy ta’sir qiladigan sulfokamfokain preparatini 2—4 ml dan teri ostiga yuborib turish tavsiya etiladi. Kasallik og‘ir kechganda to‘satdan o‘tkir yurak-tomir yetishmovchiligi (kollaps) ro‘y berishi mumkin. Bunday holatda to‘satdan bemor rangi oqaradi, labi ko‘karadi, qo‘l-oyoqlar muzlaydi, ko‘zlarini ichiga botib ketadi. Bo‘yin tomirlari bo‘rtib chiqadi. Tomir urishi tez va sustroq bo‘ladi. Nafas olish tezlashadi. Qon bosimi pasayadi. O‘z vaqtida tabiiy yordam ko‘rsatilmasa ahvoli mushkullashib, *infektion-toksik shok* sindromi yuzaga keladi. U kapillarlarda qon aylanishi (mikrosirkulatsiya) buzilishi, gi poksiya va metabolik atsidoz alomatlari bilan namoyon bo‘ladi. Birinchi navbatda yurak, buyrak, o‘pka va jigar faoliyati keskin buziladi. Shok avjiga chiqqan davrida bemorning butun tanasi sovib qoladi, teri nam bo‘ladi, ko‘karib ketadi. Maksimal qon bosimi simob ustuning 90 mm idan ham pasayib ketadi. Nafas olish g‘oyat yuzaki 40—50 gacha boradi. Siyidik ajralishi keskin kamayib, to‘xtab qoladi.

Bunday holatdagi bemorlarga tibbiy yordam zudlik bilan ko‘rsatilishi kerak. Qo‘l-oyoqlariga issiq rezina xaltacha qo‘yiladi. Darhol gormon preparatlari: prednizolon (60—90 mg), gidrokortizon (125—200 mg), yoki geksametazon tomir orqali tuzli eritmalarga aralashtirib yuboriladi. Reopoliglukin, trisol, preparatlari infektion-toksik shokni davolashda yaxshi naf beradi. Geparin, kontrikal, trental kabi preparatlari mikrotsirkulatsiyani yaxshilaydi. Yurak faoliyatini yaxshilash uchun vena tomiriga korglukon yoki strofantin ham eritmaga qo‘shiladi. Tuzli eritmalar bilan askorbin kislota eritmasi (10 ml) ham qo‘shib yuborish maqsadga muvofiq, 1—2 kun 100 ml dan albumin qo‘yib turish foydalidir. Bemorga albatta kislород berish lozim. Ma’lum vaqtgacha kislородни uzlusiz berib turish tavsiya etiladi. Buning uchun kislород burunga kiritilgan rezina kateter vositasida yzoq muddat berib turiladi. Bemor biroz

tuzalganidan so‘ng uni barokamerada kislorod berib davolash mumkin.

Yuqumli kasalliklarda o‘tkir nafas yetishmovchiligi, o‘pka tifilishi kabi holatlar ham uchrab turadi. Jumladan, poliomielit, gripp, difteriyada nafas olish buzilishi mumkin. Bunday holatda sun’iy nafas oldirish apparati ulanadi, traxeostomiya qilinadi. Sun’iy apparat bemorning bir maromda nafas olishini taminlaydi. Difteriyada esa hijildoqdan havo butunlay o‘tmay qolishi mumkin. Shunga ko‘ra traxeostomiya qilinadi.

Gripp g‘oyat og‘ir kechganidao‘pkatiqilishi holati ro‘y berishi mumkin. U nafas qisishi, havo yetishmovchiligi, yo‘tal, ko‘piksimon, qon aralash balg‘am ajralishi bilan ifodalanadi. Bemor bezovtalanadi, ko‘karib ketadi. Qon bosimi pasayadi.

O‘pka tifilishi holati ro‘y bergenida bemor o‘tqizib qo‘yiladi. Ma’lum muddatda qo‘l-oyoqlariga rezina bog‘lag‘ich taqiladi. Bilakdan 300—400 ml qon olish mumkin. Bemorga spirtdan o‘tkazilgan kislorod berib turiladi. Eufillinning 2,4% li eritmasidan 5—10 ml vena tomiriga yuborilsa, yaxshi naf beradi. Shuningdek, 40% li 10 ml glukozaga korglukon yoki strofantin (0,5—1 ml) aralashtirib yuboriladi. Efedrin, glukonat kaltsiy preparatlari ham qo‘llanadi, 2—4 ml laziks muskul orasiga yuboriladi.

Yuqumli kasalliklarni patogenetik davolashda vitamin preparatlari ham keng qo‘llanadi. Ular bir tomondan organizmning himoya quvvatini oshirsa, ikkinchi tomondan kasallik natijasida kamayib ketgan vitaminlar o‘rnini qoplaydi. Vitaminlar vositasida moddalar almashinuvni ham yaxshilanadi. Amaliyotda davolash uchun B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>, P, C vitaminlari keng qo‘llanadi. Ular kukun, tabletka, draje holida ichish va ampulada inyeksiya qilish uchun chiqariladi.

Ilgari yuqumli kasalliklar og‘ir kechganida organizm himoya kuchlarini ko‘tarish maqsadida qon yoki plazma quyish tavsiya etilar edi. Qon quyish uchun ko‘rsatmalar hozip qayta ko‘rib chiqilgan. Uni faqat hayotiy zarur hollardagina quyishga ruxsat etiladi. Masalan, ichterlamada ichakdan qon ketganida yoki virusli gepatit komasida. Qon plazmasi quyilganida virusli gepatitlar va SPID tarqalish xavfi g‘oyat yuqoridir. Shu sababli bu preparat

hozir “quvvatni oshirish” maqsadida qo‘llanmaydi. Ularning o‘rniga albumin, alvezin, protein kabi preparatlar muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda.

Gormonal preparatlar ham yuqumli kasalliklarni davolashda patogenetik vosita sifatida ishlataladi. Ular moddalar almashinuvini yaxshilash vositasida organizmning himoya kuchlarini oshiradi, yallig‘lanish jarayonini pasaytiradi. Bu preparatlar kuchli desensibilizatsiya xususiyatiga ham ega. Shu bilan bir qatorda ularning salbiy tomonlari ham bor. Qondagi qayd miqdorining ko‘payishi, qon bosimining ko‘tarilishi, immunitetning pasayishi shular jumla-siga kiradi. Gormonal preparatlar qo‘llanilganda organizmda natriy tuzlari ko‘proq ushlanib qoladi va shish paydo bo‘lishi mumkin. Kaliy tuzlari esa aksincha, ko‘plab ajralib, gi pokaliemiya yuzaga keladi.

Ijobiy va salbiy tomonlarini e’tiborga olib, yuqumli kasalliklarni davolashda gormonal preparatlar puxta o‘ylab, qisqa muddatga tayinlanadi. Asosan ular kasallik og‘ir kechgan hollarda qo‘llanadi. Amalda prednizolon, gidrokortizon, geksametazon preparatlari (tabletka yoki ampulada chiqarilgani)dan foydalilanadi. Qandli diabet, gi pertoniya, me’dayarasi kasalliklari bor bemorlarga o‘ta zarurat bo‘lmasa, gormonal preparatlar buyurilmaydi.

Fizioterapeutik muolajalar ham ba’zan yuqumli kasalliklarni davolashda patogenetik vosita sifatida qo‘llanadi. Poliomielit va botulizmdan tuzalish davrida uqalash, davolash gimnastikalari qo‘llanadi. Brutsellyozni davolashda isituvchi muolajlardan foydalilanadi. Umuman olganda, yuqumli kasalliklarda fizioterapeutik muolajalar qo‘llanishi cheklangan.

**Simptomatik davolash.** Bu usullar bemorni bevosita qilayotgan u yoki bu alomatlarni yo‘qotish maqsadida qo‘llanadi. Bosh va qo‘l-oyoq qaqshab og‘rishini qoldirish uchun aspirin yoki tarkibida shu preparati bo‘lgan dorilar, asfen, askofen, shuningdek, analgin, pentalgin, amidopirin, butadion, spazmalgon kabi tabletkalar qo‘llanadi. Aspirin tutgan preparatlarni faqat ovqatdan so‘ng ichish tavsiya qilinadi. Och qoringa ichilganda bu preparatlar me’da shilliq qavatiga yemiruvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘ngil aynab, quisish to‘xtamasa, serukaldan ukol qilish yaxshi foyda beradi.

Qorindagi og‘riqni qoldirish maqsadida papaverin, no-shpa, bekarbon, spazmalgon, baralgin kabi dorilar tabletka holida yoki inyeksiyasi buyuriladi. Tana harorati uzoq vaqt yuqori bo‘lib ketganida analgin dimedrol, novokain eritmali aralashmasi inyeksiya qilinib kuniga 1—2 marta yuboriladi. Bolalarda bunday holda sefikon shamchasini to‘g‘ri ichakka kiritish yoki panadol suspenziyasidan ichirish samara beradi.

---

## **II. TROPIK TIBBIYOT**

### **Tropik patologiyaning xususiyatlari**

Tropik tibbiyot issiq o'lkalarda tarqalgan kasalliklar va ularga xos xususiyatlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan barcha bilimlarni o'z ichiga oladi.

Tropik kasalliklar yer kurrasining ekvatorial, subekvatorial, tropik va subtropik iqlimiylar sharoitli, juda keng hududida tarqalgan.

Tropik hudud — Afrika qit'asining deyarli barcha qismi, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va Okeaniyaning katta qismi, shuningdek Avstraliyaning shumoliy qismini egallaydi.

Shuningdek, tropik o'lkalar bilan chegaradosh bo'lgan — tibbiy-geografik jihatidan ham tropik, ham mo'tadil iqlimli sharoitga xos xususiyatli («oraliq kamar») hududlar ham mavjud.

Tropik o'lkalar bilan chegaradosh hududlarga — O'rtayer dengizi o'lkalari, Oldingi va O'rta Osiyo, Uzoq Sharqning katta qismi, Avstraliya, AQSH ning janubi, Janubiy Amerikaning ba'zi hududlarini kiritish mumkin. Tropik va subtropik o'lkalarda yer yuzi aholisining 3/4 qismi istiqomat qiladi. Aholining ko'pchilik qismi taraqqiy etayotgan davlatlar hududida yashaydi.

Tropik kasalliklar — yuqumli, parazitar va yuqumsiz kasalliklar guruhlariga ajratiladi.

Tropik kasalliklar iqlimiylar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlar ta'sirida shakillanadi. Aytilgan sharoitlar, kasallikning klinik—epidemiologik xususiyatlari va mahalliy kasalliklarni geografik tarqalishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham tropik yuqumli va parazitar kasalliklar o'zining xususiyatlari va ko'rinishiga ega bo'ladi.

Yuqumli-parazitar tropik kasalliklar tropik va subtropik o'lkalar aholisi orasida keng tarqalgan.

Ular xalq salomatligiga juda katta putur yetkazish bilan birga, aholining ish qobiliyatini keskin pasaytirib, ulkan iqtisodiy zarar ham keltiradi.

JSST ning bergen ma'lumotiga ko'ra (1997-yil) — yer yuzining 90 ta davlatida bezgak bilan har yili 300—500 mln. odam kasallanadi va 1,5—2,7 mln. odam (ularning 80% i Afrikada) o'lmoqda. Yevropada har yili 7000—10000 chetdan kirib kelgan bezgak qayd etilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra ommaviy kasallanish va o'lim, ayniqsa bolalar orasida ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilmoqda. Har yili qizamiqdan — 2,5 mln, bezgakdan — 1 mln., diareya kasalliklaridan — 5 mln. bolalar o'lmoqda. Tropik iqlimli hududlarda, mo'tadil iqlimli o'lkalarda kuzatiladigan kasalliklarning barchasi va ulardan tashqari, shu o'lkalarga xos, bir qancha yuqumli va parazitar kasalliklar uchraydi. Faqat tropik o'lkalarning o'zidagina tarqalgan kasalliklar turi unchalik ko'p bo'lmasada (sariq isitma, denge isitmasi, pappatachi, tropik virusli gemorragik isitmalar, uyqu kasalligi, amerika tripanosomozi, shistosomozlar, ankilostomidozlar, filyaridozlar, drukunkulez, leyshmaniozlar, frambeziya va b.), ular xalq salomatligiga katta zarar yetkazadi.

Tropik o'lkalarda uchraydigan ayrim yuqumli kasalliklarning klinik kechimi mo'tadil iqlimli o'lkalardagi shu kasalliklar kechimidan ancha farq qiladi.

Issiq o'lkalarda tropik yuqumli va parazitar kasalliklarning tarqalishi, qator tabiiy va ijtimoiy omillar majmui bilan bog'liq.

Tropik va subtropik hududlarda tabiiy (yer yuzasining issiqlik balansi, havo, suv va tuproqning harorati) omillar, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy (uy-joy, yashash, mehnat sharoitlari, sog'liqni saqlash tizimining takomilligi va boshqa.) omillarning ahamiyati kattadir.

## **Iqlimiш sharoit**

Tropik o'lkalarning iqlimiш sharoti juda xilma-xil bo'lib, u hududning okeanga yaqinligi, ichki suv xavzalarining mavjudligi, dengiz sathidan balandligi va o'ziga xos o'simlik dunyosi bilan bog'liqdir.

O'lka patologiyasining xususiyatlari barcha hududlarda ham shu o'lkaning iqlimiш sharoti bilan bog'liq. Tropik hududlarning iqlimi

uchun xos umumiylar xususiyati — yillik jami issiqlikning yuqoriligidir. Tropik hududlarning iqlimi sharoiti xilma-xilligi bilan ikki ti pgabo‘linadi: 1, Quruq issiqli (arid) va2, Nam issiqli (gumid) hududlar. Tropik o‘lkalarning iqlimi issiq. Yillik jami issiqlikning yuqoriligi, sayyoraning quyi kengliklari uchun xos bo‘lgan, quyosh radiatsiyasining juda kuchliligi bilan bog‘liq. Iqlimning ikkinchi xos xususiyati — yog‘ingarchilikning ko‘p bo‘lishidir. Yog‘in ko‘p bo‘ladigan tropik o‘rmon (djungliya) larda namlik juda yuqoridir. Agar mo‘tadil iqlimli hududlarda yillik yog‘in miqdori o‘rtacha 1000 mm bo‘lsa, ekvatorial o‘rmonlarda 3—5 va hatto 10 ming ml ga boradi. Issiq o‘lkalarda yog‘in davrida havoning nisbiy namligi doimiy yuqori bo‘lib, 80—90%, ba’zan hatto 100% ga yetadi.

Tropik hududlarda yilning fasillarini havoning issiqliq-sovuqligi yoki oylar bilan belgilash qiyin. Tropik o‘lkalarga ko‘proq ikki xil: yomg‘irli va qurg‘oqchil mavsumlar xosdir.

## **Yuqori haroratning roli**

Issiqlikning o‘zi va ayniqsa u yuqori namlik bilan birgalikda ta’sir etganda organizmning fiziologik jarayonlarida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Issiqlik tana haroratini idora etuvchi sistema hamda suv-elektrolit almashinushi mexanizmiga ta’sir ko‘rsatadi. Issiqlik kuchli chanqov qo‘zg‘atib, odamni ko‘p suyuqlik iste’mol etishga, shu jumladan mavjud suv manbalari va ochiq suv havzalaridan suv ichishga majbur etadi.

Qaynatilmagan suv ichilganda ichak infeksiyalari va invaziyalari bilan zararlanish xavfi ortadi. Ayrim hollarda iqlimi muhit, tropik o‘lkalarga xos bo‘lgan ba’zi (issiq urishi, quyoshdan kuyish singari) kasalliklarning asosiy sababchisi bo‘ladi. Ayniqsa, issiqlikning salbiy ta’siri tufayli organizmda yuzaga keladigan reaktiv o‘zgarishlarning ahamiyati muhimdir. Namligi yuqori bo‘lgan tropik sharoitda ko‘p miqdorda ajralayotgan terning dimlanishi va to‘qimalarning bo‘kishi (matseratsiyasi), bo‘kkan terida shartli-patogen mikroblarning tez ko‘payishi, keng tarqalgan zamburug‘lar va treponematozlarning ayrimlari (frambeziya, penta) bilan zararlanishi tufayli terida dermatitlar ko‘p rivojlanadi.

## Namligi yuqori issiq o'lkalar

Namligi yuqori issiq (gumid) hududlarga — ekvatorial va subekvatorial doimo namligi yuqori bo'lgan Afrika (Kongo daryosi sohili) va Janubiy Amerika (Amazonka daryosi sohili) o'rmonlari, Indoneziya, Hindiston yarim oroli, Avstralaliyaning shimoliy qismi kiradi.

Bu hududlar uchun havoning harorati va namligini turg'un saqlanishi xos bo'lib, eng past (24—25°C) haroratli oylar bilan yuqori haroratli kunlarni farqi uncha katta bo'lmaydi va haroratning sutkalik tebranishi 10°C dan dan oshmaydi. Yog'inning yillik miqdori 2000—4000 mm, havo namligi esa 75—90% bo'ladi. Bunday iqlimiyl muhit ko'pchilik mikroblar, parazitar hayvonlar hamda kasallik manbayi va yuqtiruvchisi bo'lgan bo'g'imoyoqli hasharotlarning yashashi va ko'payishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Tuproqning yuqori namligi va issiqligi unda geogelmintoz (askarida, qilbosh gijja) larni tez rivojlanishiga va zamburug'larni tez ko'payishiga yaxshi omil bo'ladi.

Ochiq havzalardagi suvlarning issiqligi ko'pchilik hasharot (chivin, mayda chivin va b.) larni tezlik bilan urchishiga hamda ayrim (shistosomalar, drakunkulez va b.) invaziyalarning oraliq xo'jayini bo'l mish yumshoq tanli (mollyuska) lar va qisqichba-qasimonlarni tez ko'payishiga yaxshi muhit yaratadi.

Issiq iqlimning turg'unligi, bir qancha virusli va parazitar kasalliklarni hamda ularni yuqtiruvchi hasharotlarni, masalan: Afrikada — uyqu kasalligini yuqtiruvchi — sese pashshasi, Amerika qit'asida — Shagas kasalligini yuqtiruvchi — triatom qandalalari, odam shistosomozining qo'zg'atuvchisi uchun oraliq xo'jayin bo'l mish malyuskalarni va yana ko'p boshqa hasharotlarni saqlanishiga qulay sharoitdir.

Yog'ingarchilikni ko'pligi tufayli saqlanib turadigan yuqori namlik, nisbatan yuqori haroratli (25—30°C) sharoitda havoning og'ir dimligini yaratadi va nafas olishni og'irlashtirib, inson ruxiyatiga salbiy ta'sir etadi va ish qobiliyatini pasaytiradi.

Yerlik aholida, bunday iqlimiyl sharoitga moslanishni bir qancha belgilari yuzaga kelgan, masalan: bo'yning pastligi, terining qoraligi,

burunning kengligi, shuningdek, tanada issiqlik ishlab chiqarishni kamaytiruvchi, issiqlik yo'qotishni esa ko'paytiruvchi moslama belgilar — ter bezlarining ko'pligi, ko'p ter chiqarish, asosiy modda almashinuvi xolesterin miqdori va moy ajratishning pasayishi kuzatiladi. Shu bilan birga, mahalliy alohida bir qancha kasallik alomatlari ham kuzatiladi.

Havo namligining yuqoriligi va ko'p terlash turli xil yuqumli va yuqimsiz teri kasalliklarining keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Mahalliy aholi orasida, yetakchi o'rIN tutgan, parazitar kasalliklar, surunkali kechimi va juda tez tarqalishi bilan farqlanadi. Bu albatta, tabiiy sharoit bilan bevosita bog'liqdir.

### **Quruq-issiq (arid) iqlimli o'lkalar**

Bunday iqlimliy o'lkalar tropik va subtropik sahroli hududlarda joylashgan — Jazoir, Tunis, Marokko, Misr A.R., Sudan, Arab yarimoroli, Avstraliya, AQSH, Markaziy va Janubiy Osiyo va boshqalardir.

Bu o'lkalar asosan sahroli (Sahara) hududlarda joylashgan bo'lib, iqlimi yaroiti gumid hududlardagidan keskin farq qiladi — havo harorati yuqori, namligi esa juda kam, quyosh radiatsiyasi kuchli bo'lib, vaqt vaqt bilan chang-to'zonli bo'ronlar kuzatilib turadi. Yoz oylarida sahrolarda havoning o'rtacha harorati 25—30°C dan yuqori bo'lib, kunduz kunlari soya joyda 40—50°C ga yetadi. Ayniqsa yilning qish hamda bahor oylarida havo va tuproq haroratining sutkalik tebranishi keskin bo'ladi, masalan: Saharada harorat 30° va 70°C orasida, qish oylarida esa kunduzgi 15—20°C dan kechasi 4—6°C gacha o'zgarib turadi. Sahrolarda havo juda quruq bo'ladi.

Havoning o'rtacha oylik namligi 20—30% orasida, yozning issiq oylarida esa 3% dan 8% gacha bo'ladi. Sahro iqlimining yana bir asosiy xususiyati — quyosh radiatsiyasining kuchliligi bo'lib, mahalliy aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sahro havosida bulutning deyarli bo'lmasligi quyosh nurini to'siqsiz yerga tushishi va yer yuzasining kuchli qizishi, yerdan qo'shimcha issiqlik nurlanishiga olib keladi va odam organizmiga

salbiy ta'sir etadi. Yer yuzasini kuchli qizish va uni havoga o'tishi tufayli chang-to'zonli bo'ronlar va kuchli issiq-quruq shamollar kuzatilib turadi. Bunday paytlarda odam o'zini juda yomon xos qiladi, teri va shilliq pardalar qurshab, bosh og'riydi, asabiy jumbushlar kuzatiladi.

Sahro iqlimining organizmga salbiy ta'siri mahalliy aholida va chetdan kelgan odamlarda turlicha namoyon bo'ladi. Mahalliy aholida evalutsion tarzda bir qancha biologik moslashuvlar majmui yaralgan. Ular organizmda jadal issiqlik yo'qotish, tananing ortiqcha qizib ketishdan va quyosh radiatsiyasidan asrashga moslashgan. Ularning tana og'irliliklari kam bo'lgani holda, bo'yлari uzun, ozg'in bo'ladilar, umumiy modda almashinuvi (10–15% ga) va gaz almashinuvi pasaygan, yurak urish tezligi kamaygan, xolesterin miqdori past, moy ajralishi va ter ajralishi kamaygan bo'ladi. Bularning barchasi tanada issiqlik ishlanishini kamaytirib, issiqlik yo'qotishini kuchaytiradi. Teri pigmentatsiyasining kuchliligi sahro aholisini quyosh radiatsiyasini kuydiruvchi va konserogen ta'siridan saqlaydi.

Quyoshli kunlarning ko'p bo'lishi sababli boshqa, mo'tadil iqlimli o'lkalarga nisbatan tropik o'lkalarda terini quyoshdan kuyishi va teri saratoni kasalliklari ko'p uchraydi. Osiyo va Janubiy Amerikaning ayrim o'lkalari mahalliy aholisining kiyinish tarzi (yopiq kiyim, keng soyabonli bosh kiyimi) ham quyosh radiatsiyasidan saqlashga moslashgan. Tropik o'lkalarda chetdan kelgan odamlarga ultrabinafsha nurlanishning kuchliligi juda ahamiyatlidir.

Teri saratoni Afrika va Avstraliyaning yerli aholisi orasida, oqtanlilarga nisbatan 27 marta kam uchraydi. Quyosh radiatsiyasining foydali ta'siri ham bor. Ultrabinafsha nurlanish kuchli bo'lgan hudud aholisi orasidagi povitaminoz «D» kam kuzatiladi.

Aholi chiqindi bilan ifloslangan atrof-muhitni infeksiyadan tozalash (sanatsiyalash) da quyosh radiatsiyasining ahamiyati beqiyosdir.

Yilning quruq va issiq davrida tuproqqa yoki sabzavot hamda mevalarga tushgan ichak infeksiyalari, shuningdek havo yo'li bilan yuquvchi infeksiyalar va ayniqsa viruslarni ham ko'payishi va saqlanishi uchun sharoit keskin kamayadi.

Biroq sahroning quruq va issq havosi, sutka davomida haroratning keskin o'zgarib turishi, quruq hamda ko'p changli havo nafas yo'llarini qitiqlashi tez-tez shamollash kasalliklariga sabab bo'ladi, chunki mahalliy aholining kiyimi ham uy-joy sharoiti ham havo haroratini qisqa muddatli, biroq ba'zan keskin, tungi yoki mavsumiy sovib ketishlariga moslashmagan. Havo haroratining sutkalik farqlanishi 50°C ga yetishi mumkinligini inobatga olmoq kerak.

Ayrim qurg'oqchil o'lkalarda havoning ortiqcha quruqligi va changliligi yuqori nafas yo'li a'zolarining barerlik faoliyatini pasaytiradi, ularni (bronxitlar, rinitlar) va ko'z shilliq pardasini zararlaydi (konyunktivitlar).

Bu xastaliklar umumiy kasalliklar va o'lim majmuida salmoqli o'rinn tutadi hamda o'pka sili kasalligini ko'payishiga omil yaratadi.

Ko'z kasalliklaridan yuqumli konyunktivitlar va traxoma ko'p uchraydi.

Bunday iqlimi sharoit shilliq pardalar va teriga ta'sir etib, ularni qurshatadi hamda oqibatda ular onson jarohatlanadi va terida stafilokokkli (sahro yarasi, fagedenik yara singari) yaralar, teri disteriyasi, hamda leykoz va boshqa kasalliklarni keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Chetdan kelgan odamlarga yuqori haroratdan tashqari, ayniqsa qumli (hamsina, sirokko, shergi va b.) bo'ronlar og'ir ta'sir etadi, oqibatda bemorning ishtahasi yo'qoladi, teri qitiqlanib yallig'lanadi, yurak-tomir faoliyati buziladi (Morokko bo'yicha — shergi sindromi), shuningdek, depressiv, nevrologik va psixik o'zgarishlar yuzaga keladi.

Sahroli hududlardagi ekstremal iqlimi sharoit chetdan kelgan odamlar organizmiga salbiy ta'sir etib, ularning salomatligini buzadi va keyinchalik organizmnинг qarshi kuchini kamaytirib mavjud bo'lgan surunkali kasalliklarning qo'zg'alishiga olib kelishi mumkin.

## **Suvning roli**

Tropik issiq o'lkalarda yog'inning ko'p va davomli bo'lishi oqibatida ko'p ochiq suv havzalari paydo bo'ladi va barcha suv

manbalari (daryolar, irmoqlar, dengiz plyajlari, quduqlar), ko'cha va hojatxonalar chiqindilari bilan ifloslanadi. Suvning doimiy iliqligi va namlikning yuqoriligi esa bu suvlarda ichak infeksiyalarini (amyobiaz, ichburug‘, vabo, tif—paratif kasalligi, salmonellyoz, leptospiroz va b.), shuningdek, suv havzalarining doimiy yashovchilari bo'lgan — mollyuskalar (shistosoma va b., trematodlar), qisqichbaqa — sikloplar (dranukul) va boshqalarni saqlanishi hamda ko'payishiga juda qulay sharoit yaratadi. Bunday kasalliklarni yuqishi qaynatilmagan suv ichilganda, cho'milganda yoki behosdan suv yutilganda sodir bo'ladi.

Suv, nafaqat kasallik qo'zg'atuvchilari va ularning oraliq xo'jayinlarini, balki ularni yuqtiruvchi hasharotlarni ham ko'payishi uchun yaxshi omil bo'ladi. Suv havzalarida juda ko'p hasharotlar, jumladan — bezgak, filyaridozlar, sariqli isitma, denge isitmasi kasalliklarini yuqtiruvchi-chivinlar; onxotserkozni yuqtiruvchi — mayda pashshalar; di petalonematozni yuqtiruvchi — mokritsalar va boshqalar ham tez ko'payadi.

Qurg'oqchilik davrlarida suv havzalarining soni va hajmi kamayadi, aholi ko'pincha yaroqsiz suvni ichishga majbur bo'ladi. Suv havzalarida suv kamaygan sari undagi zararli jonzotlar (masalan: serkariyalar, shistosomalar) ning konsentratsiyasi ortib boradi, demak yuqish xavfi ham ortadi. Daryo suvlarining kamayishi oqibatida suvi yaxshi isiydigan ko'lmaqlar paydo bo'lib, bezgak chivinlarining tez ko'payishiga yaxshi omil bo'ladi.

Binobarin, tropik o'lkalarda suv, ko'plab transmissiv kasalliklar, ichak infeksiyalarini va invaziyalarining keng tarqalishiga imkon yaratuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

## **Tuproqning roli**

Tuproqda bir necha xil yuqumli va parazitar kasalliklarning qo'zg'atuvchilari istiqomat qilishlari mumkin.

Odamlar va ko'pchilik hayvonlarni ajralmalari bilan ifloslangan tuproqda ayrim o'tkir yuqumli kasalliklar (qoqshol, kuydirgi, botulizm) ni qo'zg'atuvchi mikroblarning sporalari va hatto ayrim o'tkir ichak kasalliklari (iersiniozlar va b.) ning qo'zg'atuvchilari

saqlanishi mumkin. Ayrim parazitlar, masalan: geogelmintlar o'zining rivojlanishida ma'lum bir bosqichni albatta tuproqda o'tkazadi. Ayniqsa, inson va hayvonlar chiqindilaridan go'ng sifatida foydalanuvchi xo'jaliklarda ishlovchi aholi orasida sanalgan kasalliklarni keng tarqalishida tuproqning roli kattadir. Bunday tuproqlarda bolalarni o'ynashi, ayniqsa yalang qo'l va oyoq bilan tuproqqa ishlov berish, doimiy suv quyiladigan maydonlarda ishlash, shuningdek xom sabzavot va ko'ktatlarni iste'mol qilish bu kasalliklarni yuqishiga keng yo'l ochib beradi.

Mo'tadil iqlimli o'lkalarga nisbatan tropik o'lkalarda, iqlimiylar sharoiti qulay bo'lganligi tufayli, o'nlab o'simlik va hayvonat turlari yashnab yashaydi. Bu holat ko'plab mikroblar, parazitar hayvonlar va kasalliklarni yuqtiruvchi, bo'g'im oyoqli hasharotlarning yashashiga ham taalluqlidir.

Tuproqning yuqori namligi va issiqligi, unda geogelmint (askarida, qilibosh va b.) larni jadal rivojlanishi hamda zamburug'larni tez ko'payishiga imkon yaratadi. Bunday tuproqda trepanosomoz kasalliklarini yuqtiruvchi hasharotlar (sese pashshasi va treatom qandalasi) hamda leyshmaniozni yuqtiruvchi iskabtopar (maskit) lar ham tez ko'payadi.

### **Tropik o'lkalardagi infeksiya va invaziyalarni tarqalishida tuproq va suvning taqqosiy roli (Lisenko A.Ya., 1983)**

Tuproq — omillar: ifloslangan qo'l, yangi sabzavot va mevalar — kasalliklar: amyobiaz, ankilostomoz, askaridoz, (qorin tifi), (dizenteriya), (nekotoroz), poliomielit, (strongiloidoz), (qoqshol), tok Sokoroz, trixotsefalez.

Yalang oyoq yurish, yalang'och holda yerda yotish — kasalliklar: (ankilostomoz), nekotoroz, stolbnyak, strongiloidoz.

Yuqtiruvchi—hasharotlar yoki kasallik qo'zg'atuvchilarining ko'payishi — kasalliklar: leyshmaniozlar, papatachi isitmasi, uyqu kasalligi, Loaoz, tungioz (tunga renitrans burgasi qo'zg'atadigan invaziya).

Ochiq havzalar suvi. Ichish — kasalliklar: amyobiaz, qorin tifi, dizenteriya, drakunkulez, leptospirozlar, vabo, (shistosomozlar).

Cho'milish — kasalliklar: (leptospirozlar), shistosomozlar.

Suv o'simliklari, baliq, qisqichbaqa va mollyuskalarini xom yoki chala xom holatda iste'mol qilish — kasalliklar: fassiolezlar, fassiolopsidoz, angiostrongilez, difillobotrioz, kapillyarioz, klonorxoz, opistorxoz, viverralar, paragonimoz.

Yuqtiruvchi-hasharotlarning ko'payishi — kasalliklar: denge isitmasi, sariq isitma, bezgak, filyaridozlar (loaozdan tashqari).

*Izoh.* Qavs ichida yuqish yo'li ikkinchi darajali bo'lgan kasalliklar keltirilgan.

### **Ijtimoiy—iqtisodiy omillarni tropik o'lkalardagi aholisi sog'ligiga ta'siri**

Tropik o'lkalarda ko'proq agrar davlatlar joylashgan bo'lib, ularning ko'pchilikida aholining sanitariya madaniyati, tabbiy xizmat va shuningdek, aholining ovqatlanishi (sifat jihatidan va miqdoran) past darajada ekanligi ma'lum.

JSST ma'lumotiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarining 90% aholisining ichimlik suv bilan taominoti — shaharlarda — 76%, qishloqlarda esa 22% ni; chiqindilarni yo'qotish esa taqriban 75% va 14% ni tashkil etadi.

Sanitariya madaniyatining pastligi, bu o'lkalarda ko'pchilik yuqumli va parazitar kasalliklarning keng tarqalishi hamda binobarin o'limning ham ko'p bo'lishiga olib keladi. Masalan: rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi orasida umumiyligi o'lim, rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan 4 marta ortiqdir.

Tropik va subtropik o'lkalarning qishloq joylarida yuqumli kasallik bilan yotqizilgan bemorlarning 50% ning kasallanishi, sifatsiz suv iste'moli bilan bog'liq bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan bolalar o'limi 5—10%, 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda 10—40 marta, onalar o'limi esa 50—80 marta ortiqdir .

Bolalar o'limining ko'pligi tug'ilishning juda yuqori bo'lishiga olib keladi. Bu holat ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lib, ayrim o'lkalarda yillik tug'ilish 4—5% va undan ortiqdir.

Tug‘ilish va o‘limning mutanosib emasligi rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining juda tez ko‘payib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida aholining yillik o‘sishi 0,5% ni tashkil qilgani holda ko‘pchilik Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida bu ko‘rsatkich 2—3% ni tashkil etadi.

Bu holat, rivojlanayotgan mamlakatlarda bir qancha muammo-larni, shu jumladan tug‘ilishning cheklash muammosini keltirib chiqaradi.

### **Tropik o‘lkalarda aholining ovqatlanish muammosi**

Ko‘pchilik tropik o‘lkalar aholisining ovqatlanishi sifat jihatidan past, jumladan, oqsil yetishmovchiligi, gi povitaminozlar, ko‘plab parazitar kasalliklar (poliparazitizm) tufayli rivojlanadigan — disproteinemiya juda ko‘pchilikda kuzatiladi. Bu holat organizmning qarshi kuchini kamaytirib, aholining ko‘pchilik kasalliklarga moyil-ligini orttiradi va bu kasalliklarni og‘ir hamda asoratli kechishiga sabab bo‘ladi.

Oqsil ochligi, organizmga yetarli miqdorda hayvonot oqsili tushmasligi oqibatida, ayniqsa vegetariancha ovqatlanish tarzi odat bo‘lgan aholi orasida kuzatiladi.

Gi povitaminozning ko‘pligi, kundalik ovqatlanishning bir xilligi, sabzavot va mevalarni kam iste’mol etilishi bilan bog‘liq.

Ko‘proq guruch bilan ovqatlanuvchi, tropik o‘lka aholisi orasida, B guruhi vitaminlari yetishmovchiligi va beri-beri kasalligini rivojlanishi, stomatitlar, jo‘xori bilan ovqatlanuvchilar orasida esa — pellagra, xeylit kasalliklari ko‘p uchraydi.

Ayrim hududlarda A vitaminining yetishmovchiligi ko‘rlikning asosiy sabablaridan bo‘ladi.

Ovqatlanish organizmning faqat energiya sarflanishini qoplab qolmasdan, uni barcha kerakli oziq moddalar bilan to‘la taminlashi kerak.

Buning uchun amalda uchta shartga — ovqatlanishining fiziologik me’yorlari, oziq-ovqatlarni iste’mol qilish me’yorlari va ovqatlanish rejimiga rioya qilish kerak bo‘ladi. Ovqatlanishining fiziologik me’yorlarini taminlashda uning ikki tomoni — miqdoriy (kaloriya-

viy) va sfatiy (oqsil, yog‘, uglevodlar, vitaminlar, mineral tuzlar) hisobga olinishi shart.

Kunlik ratsionda ovqatlanishning fiziologik me’yorlari 2560 kkal dan kam bo‘limgani holda, oqsil — 48—62 g., yog‘ ham shuncha, uglevodlar — 240—300 g, qilib belgilangan. Yog‘ organizmda suvni ushlab qolish xususiyatiga ega.

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat taminoti me’yorlari kishi boshiga (kalloriya hisobida) talab etiladigan minimal me’yorlarga mos kelmaydi. Yer yuzining 60% aholisi kuniga 2200 kkal dan kam iste’mol qiladi.

Masalan, O‘rta Sharq, Tinch Okeanning janubiy qismi va Hindistonda aholi ratsionining o‘rtacha kaloriyasi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 660—800 kkal ga kam bo‘lib, o‘rtacha 2150 kkal ni tashkil etadi.

Ko‘pchilik Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida kishi boshiga sutkalik ratsion kaloriyasi 2000—2200 va 2500 kkal ni tashkil etadi. Ba’zi bir mamlakatlarda bundan ham kam.

Iste’mol qilinadigan ovqatning faqat miqdori (kalloriyasi) emas, balki sifati ham juda katta ahamiyatga ega.

Kunlik ratsionda o q s i l n i n g yetishmasligi salomatlikka juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining kunlik ratsionida kallorikaning 80% (Lotin Amerikasida — 50—60%) uglevodlar bilan qoplanadi.

Osiyo, O‘rtayer dengizining sharqiy qismi va Afrikaning ko‘pchilik aholisi asosan donli hamda ildizmevali ozuqlar bilan ovqatlanadilar, oqsil va ko‘pchilik vitaminlar (C va B guruhi) ga boy bo‘lgan hayvonot va o‘simliklar mahsulotlarini juda kam iste’mol qiladilar. Sut, go‘sht, tuxum, baliq, dukkaklilar va ho‘l mevalar kunlik ratsionda juda kam yoki mutlaqo kiritilmaydi. Masalan, Shri-Lanka aholisi angliyaliklarga nisbatan go‘shtni 22 marta, yog‘ni — 5 marta, sutni — 12, choyni — 4 marta kam iste’mol qiladilar.

Aholining ovqatlanish tarziga juda salbiy ta’sir etuvchi omillardan yana biri, ayrim elatlar orasida odat bo‘lib qolgan — taqiq (tabu)dir.

Aksariyat hollarda eng kerakli bo‘lgan: go‘sht, baliq, sut, tuxum singari mahsulotlar taqiq ostiga tushadi. Yana shunisi achinarliki, bu taqiqlar ko‘proq homilador yoki emizuvchi ayollar, bolalar va o‘smlirlarga, ya’ni oqsilli ozuqalarga eng muhtoj bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadi.

Masalan, Malayziya va Indoneziyada homilador yoki emizuvchi ayollar hamda kichik bolalarga sabzavot va mevalar yeyish taqiqlangan. Osiyoning ko‘pchilik aholi qatlamlari orasida, diniy aqidalarga ko‘ra faqat sayqallangan guruch iste’mol qilinadi, ayrim diniy kastalar hindularga — go‘sht, sut va boshqa bir qancha oziq-ovqatlarni yeyishni taqiqlaydilar. Bunday misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin.

Yetarli ovqatlanmaslik oqibatida yuzaga keladigan kvashiorkor, alimentar marazm yoki boshqa patologik sindromlarni JSST ekspertlarining taklifiga binoan (1961) «oqsil-kaloriya yetishmasligi kasalligi» deb atash qabul qilingan.

Bolalarni ko‘krakdan ayirish paytida rivojlanadigan oqsil—kaloriya ochligi eng keng tarqalgan holatdir. K v a sh i o r k o r ko‘pincha ko‘krakdan ayirish bilan darhol kraxmalga boy va bola ovqat hazm sistemasiga og‘irlik qiladigan dazal hamda ko‘p ovqat berish oqibatida yuzaga keladi. Bunda bolalar organizm uchun zarur bo‘lgan oziqlarni, jumladan oqsilni o‘zlashtira olmaydi. Bolaning o‘sish va fiziologik rivojlanishidan orqada qolishi, shish, mushaklar distrofiyasi va psixomotor o‘zgarishlar kvashiorkorning doimiy belgilari hisoblanadi. Bu belgilardan tashqari, soch va terining oqarishi (depigmentatsiya), kamqonlik, jigar kattalashuvi, gipo va avitaminozlar hamda turli infeksiyalar kuzatiladi.

A l i m e n t a r y a z m (kaxeksiya, bolalar atrofiyasi) ham muttasil ovqat yetishmasligi tufayli rivojlanadigan patologik holat bo‘lib, bolaning o‘sishdan qolishi, teri osti yog‘ qatlami va mushaklarni ozib ketishi bilan namoyon bo‘ladi. Bularda ham turli infeksiyalar, vitaminlar yetishmovchiligi teri va sochlarda o‘zgarishlar kuzatiladi.

Oqsil—kaloriya yetishmaslik holati har doyim ham klinik oshkor ko‘rinishida bo‘lmasdan ko‘pchilik hollarda yashirin yoki subklinik shakilda bo‘ladi. Shuning uchun ham, aslida, bolalarning

ko‘pchiligidagi oqsil yetishmovchiligi mavjud. FAO qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra iqtisodiy nochor davlatlarda har 10 boladan 3 tasida kvashiorkor, ko‘krakdan ajratilgan bolalarning 20% da o‘tkir oqsil yetishmovchiligi, 40% da butun umri davomida jismoniy ojizlar kuzatiladi, qolganlari esa ochlikdan o‘ladi.

Bolalardan tashqari aholining eng ko‘p aziyatlanadigan qismi, bu homilador yoki emizuvchi ayollardir. Ularning ratsionida oziqning sifat va miqdoran yetishmasligi ko‘pincha anemiya rivojlanishiga olib keladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ayrim hududlarida aholining 80—90% da, ayniqsa homilador ayollar va bolalarda anemiya aniqlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligidagi tug‘ilayotgan bolalarning 20% da, tana og‘irligi 2500 g dan oshmaydi. Ularning ko‘pchiligi tez orada o‘ladi, qolganlari esa nimjon bo‘lib o‘sadi.

Hindiston va boshqa Sharqi—Janubiy Osiyo o‘lkalari aholisida ko‘p uchraydigan megaloblastik anemiya, vitamin B<sub>12</sub> va foliev kislotasining yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladi. Homilador ayollarning 20—50%da megaloblastik o‘zgarishlar kuzatiladi. Bunday shaxslarning ko‘pchiligi (30—60%) da oqsil—kaloriya yetishmovchiligi ham aniqlanadi.

A vitamining yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladigan — kseroftalmiya, keratomalyatsiya, B vitamini yetishmaslididan — beri-beri kasalligi, pellagra, D vitamini taqchilligidan — raxit va osteomalyatsiya, C vitamini yetishmaslididan — singa (skorbut) singari gi povitaminoz holatlari dunyodajudakeng tarqalgan.

Tropik va subtropik hududlardagi rivojlanayotgan mamlakatlardagi bolalarning 1—30% (Shimoliy Afrikada 51%) da raxit alomatlari aniqlanadi. Buning boisi, D vitaminga boy bo‘lgan oziqlar (yog‘, tuxum, jigar, baliq moyi) ning juda kam iste’mol qilinishidadir.

Pellagra kasalligi juda ko‘p rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi uchun xos.

Janubiy va Sharqiy Osiyo, Afrika, Markaziy hamda Janubiy Amerikaning ayrim hududlarida kseroftalmiya keng tarqalgan va og‘ir kechadi.

Ko‘pchilik, kichik (6 oydan oshgan) bolalarda, ona suti organizmga zarur oziqni yetarli taminlayolmay qolgan taqdirda diareya rivojlanadi. Bu xastalik, ko‘krakdan ajratilib, tarkibida kerakli oziqlar yetarli bo‘lmagan, umumiyligi ovqatga o‘tkazilgan bolalarda ham bo‘ladi. Diareya, Afrikada 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning deyarli barchasida, Osiyo bolalarining ko‘pchiligidagi kuzatiladi. Eronda bolalar o‘limining yarmi 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga to‘g‘ri keladi va ularning ko‘pchiligi oshqozon-ichak yuqumli kasalliklaridan o‘ladi. Lotin Amerikasida 1 yoshdan 4 yoshgacha oshqozon-ichak kasalliklaridan o‘lgan bolalarning 40% da oqsil ochligi va umumiyligi alimentar xorg‘inlik alomatlari aniqlangan.

Oziq yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladigan kasalliklar, yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi va og‘ir kechishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

### **Tropik o‘lkalarda sog‘liqni saqlash xizmati va vrachlar ishining xususiyati**

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, tibbiyot xodimlarining, ayniqsa mahalliy malakali vrachlarning yetishmasligi, qishloq va shaharlarda tibbiyot xizmatni keskin farqlanishi, profilaktik tibbiyot emas balki davolash tibbiyotining ustvorligi xosdir. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda tibbiyot uchun ajratilayotgan mablag‘, rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan 10 va undan ortiq marta kam.

O‘z yurtlarda tayyorlangan mutaxassislarning malakasi rivojlanayotgan mamlakatlarda tayyorlangan vrachlarnikidan past. Uning ustiga ustak, keyingi yillarda malakali mutaxassislar, vrachlar rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan mamlakatlarga o‘tib ketish hollari ko‘paymoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda vrachlar asosan umumiyligi amaliyot shifokori sifatida ish yuritadi va ko‘proq bolalar bilan ishlaydi, chunki tropik o‘lkalarda ko‘pchilik yuqumli kasalliklar bolalar kasalligiga aylanib bormoqda. Vrachlarga murojaat qiluvchilar ko‘p bo‘lganligi sababli ularni to‘liq tekshirishga imkon ham, qishloq joylarda laborator uskinalar ham yetishmaydi.

Shuning uchun ham tashxis qo'yish asosan fizikal ma'lumotlarga asoslanadi.

Shuni ham aytish kerakki, bir xildagi laborator ko'rsatkichlar tropik o'lkalarda va mo'tadil iqlimli o'lkalarda turlicha baholanadi, chunki me'yor tushinchasi ularda turlichadir.

Masalan, tropikaning mahalliy aholisida gi pergammaglobulinemiya, biroz eozinofiliya, neytrofillar va gemoglobinlarni ozroq kamayganligini patologik deb hisoblanmaydi.

Parazitologik tekshiruvlar natijalarini noto'g'ri talqin qilish ham xavflidir. Katallarda ko'pchilik parazitlarning zararli ta'siri organizmning himoya kuchlari tomonidan zararsizlantiriladi. Bunday parazitlarni topilishi, vrach asosiy kasallikni aniqlolmay noto'g'ri qaror qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, bezgak bo'yicha mezo-, giper- va goloendemik hududlarda, katta yoshdagи bolalarda va kattalarda topilgan bezgak parazitini baholashda ehtiyyot bo'lmoq kerak, chunki tri ponasomoz yoki visseral leyshmaniozdek xavfli kasalliklarda ham bezgak singari isitma kuzatiladi va ular bezgak paraziti tashuvchiligi bilan birga kechishi mumkin.

Jahonda sog'liqni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar, asosan ko'pchilik aholining salomatligiga putir yetkazayotgan va katta iqtisodiy zarar keltirayotgan kasalliklardan himoyalashning samarali va foydali usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bunday kasalliklar qotoriga JSST bezgak, shistosomozlar, filyaridozlar, tri ponosomozlar, leyshmaniozlar vamaxov kasalliklarini kiritgan.

Davolash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni, alohida bir bemorni davolashga emas balki butun aholini sog'lomlashtirishga mo'ljallangan dorilar va usullarni ishlab chiqilishiga qaratish juda dolizarb va samarali hisoblanadi.

## **Tropik patologiyaning umumiy xususiyatlari tropika mahalliy aholisining o'ziga xos xususiyatlari**

Issiq o'lkalar patologiyasining o'ziga xos xususiyatlari — quyidagilardir:

1. Kasalliklarning turli-tumanligi;
2. Infeksiya va invaziyalarning yuqish darajasining yuqoriligi;
3. Mo‘tadil iqlimli o‘lkalarda tarqalgan kasalliklarning tropik o‘lkalarda kechimining o‘ziga xosligi.

1. Kasalliklarning turli-tumanligi yuqorida aytilgan tabiiy va ijtimoiy omillarga bog‘liq. Tropik o‘lkalarda mo‘tadil iqlimli yurtlarda uchraydigan kasalliklarning barchasi va ulardan tashqari faqat shu o‘lkalarning o‘zida tarqalgan (xususiy tropik) kasalliklar kuzatiladi. Xususiy tropik xastaliklar qatoriga kiruvchi yuqumli va invazion kasalliklar turi unchalik ko‘p bo‘lmasada, ular keltiradigan katta zarari bilan juda ahamiyatlidir. Ular qatoriga — sariq isitma, denge, flebotom isitmasi, Lossa, Ebolaisitmalari, triponosomozlar, shistosomozlar, ankilostomozlar, filyaridozlar, drankunkulez, leyshmaniozlar, frambeziya va ba’zi-bir tropik mikozlar kiradi. Ularning xalq salomatligiga keltirayotgan zarari beqiyosdir.

Ayrim yuqumli kasalliklar (masalan: mohov) endilikda xususiy tropik kasalliklar qatoriga kirib qolgan, chunki rivojlangan mamlakatlarda bu kasallik yo‘qotilgan.

O‘lim sabablarini tahlil qilib ko‘rilganda, sanoati rivojlangan mamlakatlarda keyingi yillarda o‘limning asosiy sabablari yurak va tomir xastaliklari, shuningdek yomon o‘smlar bo‘lgan bo‘lsa, tropik o‘lkalarda esa, birinchi o‘rinda, yuqumli kasalliklar, ayniqsa bezgak, qizamiq, ichak infeksiyalari, tuberkulez va boshqalar turadi.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilanishi, urbanizatsiya, industrializatsiya va boshqalar kasalliklar va o‘lim sabablari tizimiga ham o‘zgartirishlar kiritadi.

**2. Kasalliklarning tarqalish darajasini yuqoriligi.** Tropik o‘lkalarda mavjud bo‘lgan tabiiy omillar, yuqumli va parazitar kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilarini keng va tez tarqalishiga juda qulay sharoit yaratadi hamda u o‘lkalardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ham kasalliklarni tarqalishiga monelik qilmaydi. Ko‘pchilik kasalliklar issiq o‘lkalarda mo‘tadil iqlimli o‘lkalardagiga nisbatan keng tarqalgan va o‘choqlarda bemorlar soni ham juda ko‘p bo‘ladi.

Masalan; bezgak hech bir zaminda, tropik o‘lkalardagi singari ko‘p hududlarga tarqalmagan va ko‘pchilik aholini zararlamagan.

Faqat shu o'lkalardagina goloendemik o'choqlar mavjud. Bu o'choqlarda nafaqat barcha aholi kasallangan, balki ular o'z umri davomida (go'daklik davridan boshlab) o'nlab va hatto yuzlab marotaba qayta-qayta kasallananadilar.

Ko'pchilik kasalliklarda qayta-qayta yuqishi tufayli kasallik qo'zg'atuvchisi va uning xo'jayini bo'l mish odam organizmi o'rtasida moslashuv paydo bo'ladi, oqibatda kasallikning o'tkir kechimi faqat bolalarda bo'lib, kattalar esa (bezgak, ko'pchilik gjija kasalliklarida) tashuvchi bo'lib qoladilar.

Ayrim infeksiyalarning ko'p marta yuqishi va klinik aniq oshkor bo'lmasdan kechishi oqibatida aholining spontan immunizatsiyasi yuzaga kelishi mumkinligi, poliomielit kasalligi misolida o'rganilgan.

Ko'p vaqtgacha, Afrikada difteriya kasalligini uchramaslik sabablari jumboq bo'lib kelgan. Ma'lum bo'lishicha, bolalar difterianing teri (yengil kechadigan) shakli bilan og'rib o'tar ekanlar, oqibatda immunitet paydo bo'lib, boshqa og'ir kechadigan, ba'zan o'limga sabab bo'ladigan (tamoq, kekirdak va boshqa) difteriya turlaridan saqlar ekan.

**3. Kasallik kechimining o'ziga xosligi.** Tropik o'lkalarda kasalliklarning o'ziga xos kechimiga, ko'pchilikda mavjud bo'lgan turli surunkali yuqumli kasalliklar, organizmga kasallik qo'zg'atuvchisining ko'p miqdorda tushishi, birlamchi yuqishini barvaqt (bolalikda) bo'lishi, ba'zan tashqi muhitning bevosita ta'siri sabab bo'ladi.

Yuqumli xastalikning ko'pligi, bir vaqtning o'zida bir necha xil kasallik qo'zg'atuvchisining yuqish imkoniyatini yaratadi. Amalda tropik o'lka aholisining har biri bir necha xil parazit bilan zararlangan. Turli infeksiyalar va invaziyalarni, shuningdek yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning o'zaro ta'siri juda turlicha, ba'zan kutilmagan ko'rinishlarda bo'ladi. Bu tropik tibbiyotning eng muhim, biroq yaxshi o'rganilmagan qirralaridan biridir.

Yuqumli va parazitar kasalliklarning klinik kechimini og'ir yoki yengil bo'lishi, ko'proq aholi immuniteti darajasi hamda bemor organizmida kasallik kechimini og'irlashtiruvchi holatlarning bor yoki yo'qligiga bog'liq bo'lsada, ayrim hollarda, tropik o'lkalardagi kasalliklar kechimiga xos barcha xususiyatlarning

sababini aniqlash imkonи bo‘lmaydi. Masalan; amyobiaz, sil, meningikokk infeksiyasi tropik o‘lkalarda, mo‘tadil iqlimli tropik o‘lkalarda qizamiq (G‘arbiy Afrikada «bolalarga qирг‘ин кeltiruvchi» kasallik), suvchechak, ko‘k yo‘tal va boshqalar juda og‘ir kechadi va ko‘p o‘lim beradi. Biroq sariqli isitma va boshqa ayrim kasalliklar tropik o‘lkalarning mahalliy aholisida ko‘pincha subklinik ko‘rinishida kechadi.

Tropik o‘lkalarda bu kasalliklar ko‘pincha bezgak bilan birgalikda kechadi, bu holat kasallik oqibatiga (ayniqsa yosh bolalarda) juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bezgak kasalligining kechimi bilan eritrotsitlarning xususiyati o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. C globulinli geterozigot shaxslarda tropik bezgak, nomral gemoglobinli shaxslardagiga nisbatan yengil kechadi va uning serebral shakillaridan bo‘ladigan o‘lim ham kam bo‘ladi. Aniqlanishicha, glukoza — 6—fosfatdegidrogenaza (G—6—FDG) taqchilligi va bezgak orasida, gemoglobinoz C hamda bezgak va tri ponosomoz orasida, shuningdek gemoglobinoz C va nekatoroz orasida ham bog‘liqlik bor.

Afrikaning ko‘pchilik tumanlari aholisining 30% ni gemoglobin C yoki gemoglobin C bo‘yicha geterozigot va 2,5% i gemoglobin C va C bo‘yicha gomozigot yoki ikki marta geterozigot ekanliklari ma’lum.

Ko‘pchilik tropik yuqumli kasalliklar, ayrim yuqumli bo‘lмаган patologik holatlarni yuzaga keltiradi. Tropik o‘lka aholisini bolalikdan boshlab doimiy ravishda ko‘pchilik kasalliklar qо‘зг‘атувчilarining ta’sirida bo‘lishligi qон zardobidagi oqsil tarkibining o‘zgarishiga olib keladi. Bunga misol qilib bezgak bo‘yicha ayniqsa golo- va gi perendemik hududlar aholisidakuzatiladigan albumin-globulin koeffitsientining o‘zgarishini aytish mumkin.

Tropik o‘lkalarda buyrak jarohatlanishining ko‘pligi, to‘rt kunlik bezgakning keng tarqalganligi bilan bog‘liq.

Gijjalarning (ayniqsa oxirgi xo‘jayini odam bo‘lgan gijjalarning) qayta-qayta yuqishi qonda eozinofillar miqdorini keskin ortishiga sabab bo‘ladi.

Jigar sirrozi va birlamchi jigar raki singari og‘ir kasalliklarni tropik o‘lka, ayniqsa Afrika aholisi orasida ko‘p uchrashi ham infektion ham alimentar omillar bilan bog‘liqidir.

Siydik qopining raki, ko‘pincha siydik-tanosil a’zolari shistosomozi oqibati sifatida yuzaga keladi va bu kasallikning ko‘p-ozligi shistosomoz endemiyasi darajasiga mutanosib bo‘ladi. Xuddi shunday bog‘liqlik teri raki va frambeziyada ham kuzatiladi.

Afrika va Yangi Gvineyada Berkit limfomasining tarqalishi ham, bezgakning golo- vagi perendemik tarqalish hududlarigato‘lamos keladi. Asosan bolalar kasallanadi. Nigeriyada 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida bo‘ladigan yomon sifatli o‘sma kasalliklarining 52% ni Berkit limfomasini tashkil etadi. Bu o‘sma ko‘proq yuz skelet suyaklarida kuzatiladi. Berkit limfomasini qo‘zg‘atuvchi omillardan bo‘lmish Epshteyn—Bar virusi barcha qatorlarda uchrashiga qaramasdan, bu o‘smaasosan bezgakning gi perendemik hududlarida tarqalgan. Bu holat Berkit limfomasining rivojlanishi uchun faqat virusning ta’siri kifoya qilmas ekan, balki yana bezgak bilan qayta-qayta kasallanishdyoq kuchli omilning ham ta’siri bo‘lmog‘i kerak degan xulosaga kelingan.

### **Yangi ko‘chib kelgan shaxslarda bo‘ladigan patologiyaning xususiyatlari**

Rivojlangan o‘lkalardan ko‘chib kelgan shaxslarda bo‘ladigan patologiya mahalliy aholinikidan yaqqol farq qiladi.

Issiq o‘lkalarga ko‘chib kelgan shaxslarning kasalliklariga, ular yashayotgan hudud, uy-joy, ovqatlanish, mehnat va hordiq singari ijtimoiy sharoitlar, shuningdek yuqori sanitariya madaniyati hamda o‘z sog‘liqlariga e’tiborlari, davolash va profilaktik choralgarda amal qilishlari va boshqalar ta’sir etadi.

Ular ko‘proq bezgak, shistosomozlar, teri leyshmaniozi, uyqu kasalligi va boshqalar tarqalishida tabiiy omillar yetakchi rol o‘ynaydigan xastaliklar bilan og‘riydlilar.

Mo‘tadil iqlimli o‘lkalardan kelgan shaxslar issiq o‘lkalarning tabiiy sharoitlariga genetik jihatdan kam moslashganlar.

Ma’lumki, issiq o‘lka aholisiga nisbatan Ovrupoliklar organizmida issiqlikni idora qilish mexanizmi kam taraqqiy etgan. Shuning uchun ham ular o‘z sog‘liqlari va ish qobiliyatini saqlashlari uchun ma’lum bir vaqt moslashmoqliklari (akklimatizatsiya) zarur bo‘ladi.

Shuningdek, ularda, ko‘pchilik nasliy—moslashuv xarakteriga ega bo‘lgan (ma’lum guruh qon egalarining ko‘pligi, gemoglobin va fermentlar yetishmasligi singari) xususiyatlarning yo‘qligini hisobga olish kerak. Bu xususiyatlar tropikadagi yerlik aholining tropik infeksiya va invaziyalarga nisbatan chidamliligini taminlaydi.

## **Tropik infeksiyalar va parazitar kasalliklarning jug‘rofiyasi**

Yer yuzida yuqumli kasalliklarni tarqalishi juda notekisdir. Ko‘pchilik yuqumli kasalliklar va invaziyalar yer yuzining barcha iqlimiylar va dengiz bo‘yidan balandligi sharoitlarida uchraydi yoki tarqalishi mumkin. Bunday xastaliklar (gripp, qizamiq, epidemik toshmali tif, qutirish, trixinellez va b.) kosmopolit kasalliklar deb ataladi.

Tarqalishi cheklangan, faqat ma’lum bir shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina tarqalishi mumkin bo‘lgan infeksion va invaziyalar endemik kasalliklar deb yuritiladi. Odam ishtirokida yuqadigan infeksiya va invaziyalar — antroponozlar deb, hayvonlar orqali yuquvchilari esa endemik zoonozlar deb ataladi. Iqlimiylar sharoit, tuproq va kasallik hasharotlar (yoki oraliq xo‘jayinlar) ning tarqalish hududi, endemik antroponozlarni cheklovchi omil bo‘lishi mumkin. Bunga sabab, endemik antroponozlarning qo‘zg‘atuvchilari yuqimchillik (invazionlik) xususiyatiga ega bo‘lishlari uchun, tashqi muhitda (ma’lum bir sharoitda), ma’lum durajada o‘zgarishlardan o‘tishi kerak. Masalan: ikkita omil — bezgak chivini (anofeles) ni tarqalish hududi va chivin tanasida bezgak parazitining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ( $16^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lmagan) haroratning bo‘lishi, bezgak tarqalishini cheklovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Agar bu omillar bo‘lmasa, bezgak plazmodiyalari rivojlana olmaydi. Misol uchun — baland tog‘li hududlarda va ba’zi bir (Yangi Kaledoniya, Yangi Zellandiya va b.) orollarda bezgak chivini va bezgak kasalligi uchramaydi.

Endemik zoonozlarning (masalan, sariqli isitmaning djungliyali shaklini) tarqalishi esa yanada murakkab.

Shuning bilan birga ba’zi zoonozlar (visseral leyshmanioz, Yaponiya shistosomozi va b.), aholi yashaydigan joylarda, sinantrop o’choqlarda yaxshi saqlanib, uy hayvonlari va odamni ham zararlaydi.

Yer kurrasining ma’lum bir kasallik (misol uchun — uyqu kasalligi faqat Afrikada va Shagas kasalligi faqat Amerikada) tarqalgan qismi, kasallik areali yoki nozoareal deb ataladi.

Kasallikning hududiy tarqalishi — dinamik holatdir. Kasallik areallari doimiy ravishda o’zgarib turadi. Bunga asosan insonlarning xo’jalik ishlari sabab bo’ladi.

Ko‘pchilik tropik kasalliklarning zamonaviy jug‘rofiyasi yaxshi o‘rganilmagan.

Tabiiy qo‘riqlarning o‘zlashtirilishi, hasharotlar ko‘payadigan joylarni qisqartirish, zoonoz infeksiya va invaziyalar manbayi bo‘lgan kana va yivvoyi hayvonlarning kamayishiga olib keladi. Shuning bilan birga, dambalar va sug‘orish shaxobatchalarining qurilishi, sholi poyalarning ko‘payishi ko‘pinchabezgak, triponosomozlar, shistosomozlar, paragonimoz, drakunkulez singari kasalliklarning keng tarqalishiga sabab bo’ladi.

Shaharlarning tartibsiz ortishi, ularda sinantrop chivinlarning ko‘payishi, vuxererioz va denge isitmasi singari kasalliklarning keng tarqalishiga olib keladi.

---

### III. PROTOZOY VA PARAZITAR KASALLIKLAR BEZGAK (MALYARIYA, MALARIA)

*Bezgak* — qayta-qayta isitma xurujlari, kamqonlik, jigar va taloqning jarohatlanishi bilan kechuvchi o'tkir parazitar kasallikdir.

(Sinonimlari: lat. — Febris intermittens, angl. — Intermittent fever, nem. — Wechselleber, Sumrrieber, frans. — Raludisme Fieve ralustre, ital. — Febre malariche, isp. — Raludismo).

Ma'lumki, 1920—50-yillar davomida olib borilgan ulkan ishlarning samarasi o'laroq 60-yillarga kelib, bezgak kasalligining endemik o'choqlari, ko'pchilik davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham tugatilgan edi.

Biroq, keyingi yillarda bezgakni Hindiston, Pokiston, Turkiya, Eron, Iroq, Rossiya va ayniqsa Tojikiston va Afg'oniston kabi O'zbekiston bilan keng va kundan-kunga ortib borayotgan aloqada bo'lgan davlatlar hududida keng tarqalayotganligi respublikamizda ham katta epidemiologik xavf tug'dirmoqda.

Binobarin, bugungi kunda O'zbekistonda ham bezgakning keng tarqalishi, qaytatdan endemik o'choqlar hosil bo'lishi va eng xavflisi, tropik bezgakni ham kirib kelishining real xavfi paydo bo'lib qoldi.

**Etiologiyasi.** Bezgakning qo'zg'atuvchisi bir hujayrali mikroorganizm bo'lib, u Srorozoati piga, Coccideasinfiga, Haemosrorida turkumiga, Plasmodidae oilasiga, Plosmodium avlodiga mansub. Plazmodiumlar sitoplazma, DNK tutuvchi yadro va sitoplazmatik membranadan tashkil topadi. Plazmodiya rivojlanishining ba'zi bosqichlarida spetsifik pigment ham bo'ladi. Romanovskiy—Gimza usuli bilan bo'yalganda sitoplazmasi ko'k—zangori, yadrosi esa qizil rangga bo'yaladi. Bezgak plazmodiyalarining 100 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, ulardan faqat to'rttasi odamlarda parazitlik qiladi.

Odamlarda parazitlik qiluvchi plazmodiyalar quyidagilardir:

1. Plasmodium vivax — uch kunlik bezgak (malaria tertiana) qo'zg'atuvchisi;

2. Plasmodium malaria — to‘rt kunlik bezgak (malaria quartana) qo‘zg‘atuvchisi;

3. Plasmodium falcifarum — tropik bezgak (malaria frorice) qo‘zg‘atuvchisi;

4. Plasmodium ovale — uch kunlik tipidagi bezgak (ovale malaria) qo‘zg‘atuvchisi.

Bezgak plazmodiyalari turlari ichida turli shtammlari va Jug‘rofiy shtammlari mavjud. Masalan; P.vivax da uchta shtamm ajratilgan: P.vivax: Chesson, janubiy — P.vivax va shimoliy — P.V.hibernans, ular bir—birligidan ba’zi bir morfologik va antigenlik xususiyatlari hamda inkubatsion davrining turliligi bilan farqlanadi.

P.Fulcifarum da — hind, italyan va nigeriya shtammlari farqlanadi. Kasallikning eng og ‘ir kechimi italyan shtammi bilan zararlanganda kuzatiladi. Ularning dorilarga sezuvchanligi ham turlichadir.

Bezgak plazmodiyalarining hayot tarzi ikki xil (jinsiy va jinsiz) ko‘payish jarayonidan iborat. Plazmodiyalarning bir mavsumdan ikkinchi mavsumgacha saqlanishi faqat odam organizmida sodir bo‘ladi. Parazitning jinsiy ko‘payishi — *s p o r o g o n i* ya urg‘ochi Anorheles chivini (oxirgi xo‘jayin) organizmida kechadi.

Chivinning oshqozoniga tushgan, zararlangan odam qoni eritrotsitidan yetilgan gametotsitlar ajralib chiqadi. Erkak hujayra 8 ta harakatchan xivchinlarga — mikrogametalarga bo‘linib urg‘ochi (makrogametalalar) ga kiradi. Bularning ikkisini qo‘shilishidan *z i g o t a l a r* — urug‘langan, yumaloq, shaklidagi hujayralar paydo bo‘ladi. 18—24 soat davomida zigota cho‘zilib harakatchan *o o k i n e t a* paydo bo‘ladi va harakatlanib chivin oshqozonning endoteliya hujayralari orasiga, uning bazal membranasi ostiga o‘tib oladi. Bu yerda ookinetalar qobiqqa o‘ralib *o o s i s t a* hosil qiladi. Ootsista ichida parazit, yadroning ko‘plab bo‘linishi yo‘li bilan ko‘payib, juda ko‘p (10000 gacha, P.falcifarum da 50000 gacha) hujayra — *s p o r a z o i t l a r* hosil bo‘ladi. Bitta chivin tanasida, u turli parazit tashuvchilarni chaqqanligi tufayli, yuzlab ootsistalar bo‘lib, ularning ichida juda ko‘p miqdorda genetik turli sporozoitlar bo‘lishi mumkin.

Chivinlarning zararlanganlik darajasini, ularning oshqozoni-ning tashqi qoplami ostidagi ootsistalarni sanash (ootsist indeksi) bilan aniqlanadi. Bu sporogeniya jarayoni tugagach ootsistlar yorilib sporozoitlar gemolimfa orqali chivinning butun a'zosiga tarqaladi va eng ko'p uning so'lak bezlarida to'planadi. So'lak bezlarida yana bir necha kun davomida o'sib ulg'aygach sporozoitlar yuqish qobiliyatiga ega bo'ladi. Chivinning tanasida sporozoitlar 1,5—2 oy saqlanadi.

Kasallikni yuqishi uchun bezgak chivinini bir marta chaqishi yetarli bo'lmasligi mumkin. Qayta-qayta chaqishi oqibatida bitta bezgan chivini bir necha odamni kasallantirishi mumkin.

Sporogoniya muddatining davomiyligi, tashqi harorat va parazitning turiga qarab turlichcha bo'ladi. Sporogoniya jarayonini kechishi uchun zarur bo'lgan eng past harorat: *P.vivax* uchun Q16°C, *P.falcifarum* va *P.malaria* uchun esa 18°C dir. Q30°C dan yuqori haroratda parazitning chivin organizmida ko'payishi qiyinlashadi, Q37°C dan ortganda esa u halok bo'ladi.

Chivin chaqishi bilan odam organizmiga tushgan parazitlar jinssiz bo'linish — *sh i z o g o n i* ya yo'li bilan ko'payadi. Bu jarayon ikki bosqichda kechadi: jigar hujayralarida — *e k z o e r i t r o s i t a r* yoki to'qima shizogoniysi va eritrotsitlarda — *e r i t - r o s i t a r* shizogoniya.

Bezgak chivini (*urg'ochi Anorheles*) chaqqanda odam organizmiga tushgan sporozoitlar 15—45 daqiqa ichida jigarga tushib, gepatotsitlarga kirib oladi (to'qima trofozoitlari) va to'qima shizoitlariga aylanadi. Gepatotsitlarda parazitning o'sishi va parazitning bir necha bor bo'linishi tufayli minglab mayda, bitta yadroli to'qima *m e r - o z o i t l a r i* paydo bo'ladi. *P.vivax* ni bitta sporozoitidan — 10000 gacha, *P.falcifarum* sporozoitidan esa 40000—50000 merozoit hosil bo'ladi. Jigarda kechadigan to'qima shizogoniysi *P.falcifarumda* — 6 sutka, *P.vivax* va *P.ovale* da — 8, *P.malariae* da — 15 sutka davom etadi. Shu muddat ichida yetilgan merozoitlar jiga (gepatotsitlar yoriladi) qonga eritrotsitlarga o'tadi va eritrotsitar shizogoniya boshlanadi. Eritrotsitar shizogoniya boshlang'ich 4—5 sutka davomida klinik belgilarsiz kechadi va qondagi parazit miqdori,

ma'lum bir bo'sag'a miqdoriga yetgandan keyingina kasallikning birinchi xurujlari boshlanadi.

Sporozoitlardan paydo bo'lgan to'qima parazitlarining barchasi yoki ularning bir qismi jigar hujayralarida uzoq vaqt (yarim yildan uch yilgacha) karaxt holatda saqlanishi va keyinchalik rivojlanib eritrotsitlarga o'tishi mumkin. Parazitning bunday turlarini «uyqudag'i turlar» yoki *g i p n o z o i t l a r* deb ataladi. Bu holat sporozoitlarni fenoti pik geterogenlik xususiyatlariga bog'liq bo'lib u sporozoitlarning tez (taxisporozoit) yoki sekin (bradisporozoit) rivojlanishi tufaylidir. *P.vivax* ni Janubiy shtammlarida taxisporozoitlar ko'p bo'lib kasallikning inkubatsiya davri qisqa, shimoliy shtammida esa aksincha bradisporozoitlar ko'p bo'lib, inkubatsion davri davomli (6—14 oy) bo'ladi. *P. vivax* ning chesson shtammida geterogenlik eng yuqori bo'lib, sporozoitlarning merozoitlarga o'tishi turli muddat (bir necha kundan bir necha oygacha) davom etadi va bo'ladigan har bir yangi merozoitlarning generatsiyasi yangi isitma xurujlari tizimini yuzaga keltiradi.

Bradisporozoitlarda bo'lgan to'qima shizogoniysi uch kunlik bezgakni kechikkan — birlamchi (uzoq davom etgan inkubatsion davrli *P. vivax* bezgagi) yoki qaytalangan (*P.vivax* va *P.ovale* bezgaklarining kechikkan resedivlari) turlarini yuzaga keltiradi. Kechikkan, ya'ni haqiqiy resedivlar ikkilamchi latent (ya'ni parazitni periferik qonda mutlaqo yo'qolgan) davridan keyin yuzaga keladi. Bu qonuniyat *P.vivax* ni turli iqlimi sharoitlarga moslashish (adaptatsiya) qobiliyatining yuqoriligini ifodalaydi. Oraliq xo'jayin (yordam) organizmida uzoq latensiya xususiyatiga *P.ovale* ham ega. *P.falcifarum* va *P.malariae* daparazitning gi pnozoit turlari, binobarin kasallikning haqiqiy (kechikkan) residivlari bo'lmaydi.

Eritrotsitar shizogoniya — merozoitlar eritrotsitlarga kirganidan 2—3 soat o'tgach kattalashib yosh trofozoitga aylanadi. Trofozoit yadrosi atrofida vakuola paydo bo'lishi tufayli, halqa yoki uzuk shaklida ko'rindi. Oradan 14—16 soat o'tgach vakuola yo'qolib, parazit harakatlanuvchi amyoba shaklini oladi va jinsiy yetuk trofozoitga aylanadi. Uning sitoplazmasida pigment (utilgan gemoglobinlar hosilasi) paydo bo'ladi. So'ng u yana kattalashib, oldiniga yadrosi bo'linadi, keyin bu yadrolar atrofi sitoplazma bilan

o‘ralib, eritrotsitar merozoitlar (morula bosqichidagi shizontlar) hosil bo‘ladi. Moruladagi merozoitlar soni, plazmodiyalarning turiga qarab, 4—8 tadan 24—36 tagacha bo‘ladi. Morulalar yetilgandan so‘ng morulatsiya (eritrotsitni yorilib merozoitlarni qonga tushishi) sodir bo‘ladi. Qonga tushgan merozoitlarning bir qismi fagotsitozga uchrab, yana bir qismi boshqa eritrotsitlarga kirib yangi eritrotsitar shizogoniyani boshlab beradi. Parazitik eritrotsitar ichida rivojlanish muddati, P.malariae uchun 72 soat, qolgan plazmodiyalar uchun 48 soatni tashkil etadi. Ayrim merozoitlar jinsiy hujayralarga (gametotsitlarga) aylanadi.

R.vivax, R.ovale va R.malariae larning eritrotsitar shizogoniyasi periferik qonda sodir bo‘lib, nisbatan tezroq gamontlar paydo bo‘ladi. To‘rt kunlik bezgak yaxshi davolanmaganda parazitning eritrotsitar turlari qonda hatto umr bo‘yi saqlanib (parazit tashuvchi bo‘lib) qolishi mumkin. P.Falcifarumni eritrotsitar shizogoniyasi ichki a’zolarning kapillarlarida sodir bo‘ladi, shuning uchun ham kasallikning asoratlanmagan kechimida, periferik qonda parazitning yosh («halqa») turlari va gamontlarnigina topish mumkin halos. Gamontlar shizogoniya boshlanganidan 10—15 kun keyin paydo bo‘lib, shizogoniya tugagach 1,5—2 oy davomida aniqlanib turadi. Periferik qonda shizontlar rivojining oraliq bosqichlari faqat tropik bezgakning yomon sifatli kechimlarida aniqlanadi. Shizontlarning barcha ulg‘aygan bosqichlari esa a’zolardagi qon tomirlarda bo‘ladi. P.falcifarum ni yetilgan shizontlari bilan invaziyalangan eritrotsitlar ba’zan miya va platsentaning mayda venulalari endoteliyalariga yopishib olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Buning oqibatida — bosh miyaning jarohatlanishi (serebral bezgak), homiladorlikning asoratlari kechishi, kasallikni hatto jarohatlanmagan platsenta orgali ham o‘tib, homilaga yuqishi kabi noxush hollar kuzatilishi mumkin.

**Epidemiologiyasi.** Bezugak dunyoda eng keng tarqalgan transmissiv kasalliklardandir.

Kasallik manbayi — periferik qonida jinsiy yetilgan bezgak plazmodiyalari (gametotsitlar) bo‘lgan — bemor yoki parazit tashuvchi odam bo‘lishi mumkin.

Uch kunlik, to‘rt kunlik va P.ovale — bezgaklarida gametotsitlar qonda kasallikning birinchi xurujlari davridanoq paydo bo‘ladi va

keyingi xurujlarda ortib borib nojinsiy hujayralar bilan bir vaqtida yo'qoladi. Tropik bezgakda esa kech — kasallikning 8—10 kunlarida aniqlanadi va nojinsiy hujayralar yo'qolgandan keyin ham 1,5—2 oy davomida topilib turadi.

Kasallik manbayi sifatida bemor yoki parazit tashuvchi bolalar ko'proq xavfli hisoblanadi.

Bezgakning tarqalishida kasallikning (turiga qarab) umumiyligi ham katta ahamiyatga ega. Tropik bezgak 14—20 oy, uch kunlik—vivax bezgagi — 2—2,5 (ba'zan 4—6) yil, ovale bezgagi — 4 (6—8) yil, to'rt kunlik bezgak esa o'n yillab (50 yil va undan ortiq) davom etadi va shu davr ichida bemorlar kasallik manbayi bo'lib xizmat qiladilar.

Kasallikning yuqish yo'li asosan transmessiv. Bezgakni Anorheles chivinlarining faqat urg'ochilarini yuqtiradi. Anorheles chivinlarini boshqa tur chivinlardan farqlashda qo'ngan yuzasiga nisbatan tanasining qorni qismi 45° qiyalikda ko'tarilib turishini, lichinkalari esa suv yuzasida tekis yotishini hisobga olish kerak. Urg'ochilarini, odatda, ko'lmaq suvlarga yoki sekin oquvchi suvlarga tuxum qo'yadi. Chivinni qon so'rishidan to tuxum qo'yguncha bo'lgan davr, ya'ni bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan ovqatlanish va ko'payish jarayoni, gonotrop siklni tashkil etadi. Bu siklning davomiyligi — harorat 30°C bo'lganda — 2 sutka, 15°C bo'lganda — 7 sutkani tashkil qiladi.

Demak, o'rta iqlimiylar sharoitda chivinlar 3—5, janubiy hududlarda esa 8—10 generatsiya berishi mumkin.

Tropik iqlimli o'lkalarda bezgakning yuqishi butun yil davomida, subtropik va mo'tadil iqlimiylar sharoitda — yoz—kuz oyalarida sodir bo'ladi.

Kasallik tarqalishida yana bir muhim omil — bu har xil Anorhelis chivinlarini turli bazgak parazitlari bilan zararlanishiga tug'ma moslanish xususiyatidir. Epidemiologik kuzatuvalar shuni ko'rsatdiki, O'rta Osiyoda tarqalgan chivinlar bezgak parazitining faqat uch xili (ovale dan tashqari) bilan zararlanadi.

Bezgak parazitining odamga yuqishining boshqa yo'llari ham mavjud. Endemik o'choqlarda bezgakni onadan homilaga yuqishi kuzatilishi mumkin. Bunda parazit platsenta orqali yoki tug'riq vaqtida

ona va bola qoni aralashgan taqdirda sodir bo‘lishi mumkin. Sog‘lom platsentadan parazitning o‘tishi juda gumon. Biroq platsenta jarohatlangan taqdirda shizontlar homila qoniga oson o‘tadi (antinatal infeksiya). Tug‘riq vaqtida yuqish, platsenta vaqtidan oldin quchganda yoki tug‘ruq yo‘li jarohatlanganda, ona va bola qoni aralashuvi tufayli sodir bo‘ladi.

Bezgak paraziti, shuningdek, parazit tashuvchi donorlardan yoki rekonvalescentlardan olingan qon preparatlarini quyish yoki qon yuqi shpris va ninalar orqali ham yuqishi mumkin. Masalan: bitta shpris bilan ko‘pchilik foydalanuvchi giyohvandlarning butun bir guruhidha (200 ga yaqin odamda) bezgak tarqalganligi kuzatilgan. Chivindan tashqari yo‘llar bilan yuqqan bezgak, *sh i z o n t l i b e z g a k* deb ataladi. Bunday yuqish ko‘proq to‘rt kunlik bezgakka xos. Chunki bu turdagи bezgakda plazmodiyalar submikroskopik holatda juda ko‘p yillar davomida parazit tashuvchilar qonida saqlanishi mumkin. Konservatsiya qilingan qonda *P.vivax* va *P.ovale* bir hafta, *P.falcifarum* va *P.malariae* lar esa 10 kun va undan ortiq saqlanishi mumkin.

Bezgak bilan bacha yoshdagи insonlar kasallanishi mumkin, biroq ayrim aholi guruhlari, masalan G‘arbiy Afrika aholisi (ular boshqa qit‘ada yashasalar ham) *P.vivax* ga nisbatan chidamli bo‘lib, bu turli bezgak bilan kasallanmaydilar, yoki anamal — S—gemoglobinli shaxslar *P.falcifarum* bilan kam kasallanadilar. Bunday eritrotsitlar parazit ko‘payishi uchun yaroqsiz bo‘lsa kerak — deb taxmin etiladi. Shuningdek, eritrotsitida tug‘ma enzimopatiyasi (glukoza — 6—fosfatdegidrogen — G6—FDG yetishmovchiligi) bo‘lgan shaxslarda ham tropik bezgak kam kuzatiladi. Gipler- va goloendemik o‘choqlarda 2 oylikkacha bo‘lgan bolalarda tug‘ma immunitet bo‘ladi (**Zarvaraqdagi 1-rasmga qarang**).

Aholining bezgak bilan zararlanganlik darajasi turli ko‘rsat-kichilar bilan belgilanadi:

*P a r a z i t a r indeks* — tekshirilganlar orasida parazitemiyasi bo‘lgan shaxslar soni;

*T a l o q indeksi* — tekshirilganlar orasida talog‘i kattalashgan shaxslar soni;

*E n d e m i k indeks* — qonida parazit aniqlangan va talog‘i kattalashganlarning tekshirilgan odamlar soniga nisbati;

*R o s s indeksi* — tekshirilgan hudud aholisi talog‘ining kattalashish darajasi.

JSST tasnifi bo‘yicha (1964) mayjud endemik bezgak o‘choqlari yuqoridagi indekslar bilan baholanib, 4 tipga bo‘linadi:

a) gipoendemik bezgak — 2—9 yoshdagi bolalarda taloq indeksi 10% ga yetadi;

b) mezoendemik bezgak — 2—9 yoshdagi bolalarda taloq indeksi 11% dan 50% gacha;

d) giperendemikbezgak— shu yoshdagi bolalarda taloq indeksi har doim 50% dan yuqori, shuningdek kattalarda ham yuqori;

s) goloendemik bezgak — taloq indeksi 2—9 yoshli bolalarda har doim 75% dan ortiq, kattalarda — past (Afrika tipi) yoki yuqori (Yangi Gvineyati pi). Parazitar indeks — ko‘krak yoshidagi bolalarda doimiy 75% dan ortiq.

Gipo- va mezoendemik o‘choqlarda bezgakning yuqish xavfi kam, biroq giper- va goloendemik o‘choqlarda bunday xavf juda yuqoridir.

Bezgak plazmodiyalari orasida eng keng tarqalgan *P.vivax* dir, chunki u pastroq va yuqori haroratli iqlimi sharoitlarda ham yashashga moslashgan. *P.falcifarum* esa 45—50° sh.k. dan to 20° j.k. gacha bo‘lgan hududlarda tarqalgan, chunki u bir endemik mavsumda, chivin organizmidan kamida ikki marotaba o‘tishga imkon beradigan iqlimi sharoitda yashay oladi. Bunday sharoit tropik va ekvatorial hududlarda mavjud. Biroq tarqalish kengligi cheklangan bo‘lganligi bilan, kasallantirish darajasi juda yuqori. Shunga ko‘ra umuman bezgak kasalligini 50%, o‘limni 98% shu tropik bezgakka to‘g‘ri keladi. To‘rt kunlik bezgakni tarqalish hududi ham tropik bezgaknikiga yaqin. Ovale bezgagining tarqalish kengligi sharqiy va G‘arbiy tropik Afrika bilan cheklangan.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Hozirgi umumiy adaptatsion sindrom tushunchasiga ko‘ra, bezgak huruji, pirogen fomillar majmuining (merozoitlarni va xususiy oqsilning parchalanishidan hosil bo‘lgan begona oqsil, bezgak pigmenti va balki

bezgak toksini) patogen ta'siriga bo'lgan, makroorganizmning nospetsifik javob reaksiyasidir.

Ma'lumki, bezgak plazmodiyalarini odam organizmiga tushgan-dan keyingi boshlang'ich rivoji va ko'payishi jigarning parenximatoz hujayralarida kechadi. Bunday ko'payish — preeritrotsitar (ekzoeritrotsitar) yoki to'qima shizogoniysi deb yurilidi.

Infektion jarayon, tabiiy sporozoitlar yuqishi bilan boshlangan taqdirda — parazitni qonga tushishi va uni qonda aylanishi, ekzoeritrotsitar shizogoniya va eritrotsitar shizogoniyaning boshlang'ich sikli — odatda, sezilarli patologik reaksiyalarsiz kechadi, binobarin kasallikning birlamchi latent yoki inkubatsion davriga mos kelib, bunda hech qanday klinik belgilari bilan namoyon bo'lmaydi. Bu davr ximioprofilaktika olgan shaxslarda ancha cho'zilishi mumkin.

Shizontli bezgakda (ya'ni, yuqish qon quyliganda yoki parenteral yo'llar bilan sodir bo'lganda) esa inkubatsion davr, parazitning turidan qat'i nazar, juda qisqa bo'ladi.

Buning boisi, shizoitli bezgakda to'qima shizogoniysi bosqichining bo'lmasligidadir.

Bezgak huruji — ichida parazit ko'paygan eritrotsitlarni yorilishi (morulyatsiya) tufayli qonga tushgan merozoitlar, bezgak pigmentlari, plazmodiyalarning metabolik hosilalari, erkin gemoglobin, eritrotsit parchalari va boshqalar ta'sirida haroratni boshqaruvchi markazni qattiq qitiqlanishi oqibatida isitma reaksiyasining yuzaga kelishidir. Shu jarayon, eritrotsitar shizogoniya qat'iy tartibda kechganligi tufayli, tropik va uch kunlik bezgaklarda har 48 soatda, to'rt kunlik bezgakda esa har 72 soatda takrorlanadi. Biroq bezgak yuqqanida odam organizmiga parazitning geterogen (turli xil) populatsiyasi tushganligi tufayli, shizogoniya boshlang'ich davrida tartibsiz kechishi va isitma ham noto'g'ri tipda bo'lishi mumkin. Organizmda immunologik reaksiya ortib borgani sari parazitning faqat bitta yetakchi generatsiyasi eritrotsitlarda yashab qoladi va isitma ritmi shu turga xos holda bo'ladi.

Lekin bu parazitlar orasida antagonistik munosabatlar mavjud. Isitma xurujlar ining tartibsiz bo'lishi, immunologik sistema faoliyatini

buzilganda yoki qo'shimcha (ikkilamchi) infeksiya qo'shilganda ham kuzatilishi mumkin.

Isitma va kasallikning boshqa birlamchi belgilari, qonda parchalangan eritrotsitlar soni ma'lum bir darajaga — *p i r o g e n b o' s a g' a g a* (pirogen reaksiya yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan parazitemiya darajasi) yetgan taqdirdagina yuzaga keladi. Pirogen bo'sag'a har bir shaxsning o'ziga xos bo'ladi. Pirogen reaksiya parazitemiya kam (1 mkl qonda 10—20 plazmodiya) bo'lganda ham rivojlanishi yoki aksincha ancha yuqori bo'lganda ham rivojlanmasligi (ya'ni, sovuq parazit tashuvchi bo'lishi) mumkin. Oxirgi holat, asosan, qisman immuniteti bo'lgan shaxslarda kuzatiladi.

Bezgakda albatta, qon-tomir devorlari, ayniqsa kapillarlar jarohatlanadi va oqibatda qon dimlanishi, eritrotsitar tromblarning paydo bo'lishi, o'tkazuvchanlikni buzilishi, binobarin, parenximatoz hujayralarda (jigar, miya va b.) kislород yetishmovchiligi, seroz yallig'lanish va nekrobiotik o'zgarishlar kuzatiladi.

Parazitemiya yuqori bo'lganda, navbatdagi eritrotsitar shizogoniya qon plazmasiga ko'plab, organizm uchun yot bo'lgan plazmodiyalar, ularning metabolitlari, bezgak pigmenti va parchalangan eritrotsitlarni denaturatsiyalangan oqsili singari hosilalarni tushishi bilan yakunlanadi. Bu holat organizmda anofilaktik reaksiyani qo'zg'atadi, ya'ni adrenalin, gistamin, xolesterin, kaliy va glikogenning qonda ortishi; kinin, kininazalar, serotonin va boshqa aminlar aktivligini ortishi kuzatiladi. Qonda katekolaminning ortishi gemodinamikaning buzilishi (AQB ni ortishi, taxikardiya, periferik qon tomirlarini torayishi) ga olib keladi. Biogen aminlar aktivligining ortishi, kapillarlar o'tkazuvchanligini oshishi oqibatida, suyuqlikni qon tomiridan tashqi to'qimaga chiqishini, jumladan tropik bezgakning xavfli kechimida va vivax bezgagining yashin tezligida kechadigan turida — miya shishishiga olib keladi.

Tropik bezgakda eritrotsitar shizogoniya asosan bosh miya, jigar, buyrak, ichak, taloq, suyak ko'migi, pankreas, platsenta kapillarlarida kechganligi tufayli mahalliy gemodinamika ko'p darajada buzilib, tromboz, nekroz va granulemalar yuzaga keladi. Boshqa plazmodiyalarda eritrotsitlar shizogoniya asosan periferik

qonda kechganligi sababli, bunday o‘zgarishlar kamroq kuzatiladi.

Allergik reaksiyaning oqibati o‘laroq qon tomir ichida tarqoq qon ivish (DVS) sindromi va trombotsitopeniyaning rivojlanishi mikrosirkulatsiya buzilishini yanada chuqurlashtirib gemorragik sindrom, ensefalopatiya va nefropatiya (azotemiya va oleguriya bilan) rivojlanishiga olib keladi. Tropik bezgakda tez ko‘paygan parazit, parchalangan eritrotsitlar va endopirogenlarning umumiy qon oqimiga *tushishi i n f e k s i o n t o k s i k sh o k* rivojlanishiga va u bezgak komasiga olib keladi.

Bezgakda — bronxit, bronxial astma, plevrit, allergik artrit, enterit va kolit, urtikar toshma va boshqalarning bo‘lishi ham allergik reaksiya bilan bog‘liq.

Bezgakning hamma turlarida ham albatta anemiya rivojlanishi yetakchi belgilardan hisoblanadi. Kamqonlikning ortiq yoki kam bo‘lishi invaziya darajasiga va kasallikning davomiyligiga bog‘liq. Tropik bezgakda anemiya barvaqt rivojlanadi va kuchli bo‘ladi, chunki bunda eritrotsitlarning parchalanishi tez va ko‘p bo‘ladi. Shunisi e“tiborliki, bezgakda gemoglobinning kamayishi periferik qonda plazmodiyalar yo‘qolgandan keyin ham davom etadi. Buning sabablaridan biri, retikulogistotsitar sistema elementlarining (ayniqsa taloqda) aktivligini ortishi oqibatida, jarohatlangan eritrotsitlar bilan bir qatorda sog‘lom eritrotsitlarni ham ko‘plab fagotsitozga uchrashidir. Bundan tashqari, taloq retikuloendotelial elementlarining gielperplaziysi, gemopoezni susaytirib, anemiyava trombotsitopeniyani kuchaytiradi.

Parazitemiya uncha kuchli bo‘limgan taqdirda ham ba’zan bezgakda anemiyaning og‘ir bo‘lishining boisi — autoimmun jarayondir. Bemor qonida eritrotsitlarga qarshi IgM ga mansub antitelolar hamda zararlanmagan eritrotsitlar yuzasida kompliment aniqlanadi.

Komplement ishtirokida hosil bo‘lgan immun kompleks ta’sirida sog‘lom (plazmodiyalar bilan zararlanmagan) eritrotsitlarning gemolizi yuzaga keladi. Qonda parazit yo‘qolgandan keyin ham anemiyaning davom etishining yana bir sababi — suyak ko‘migi faoliyatining susayishi tufayli eritropoezning kamayishidir.

**Immunitet.** Bezgak kasalligi bilan ilgari og‘rimagan shaxslarda, bezgakka moyillik mutloqdir. Shuning bilan birga aholining ba’zi bir qatlamlari bezgakning ayrim turlariga nisbatan, qisman yoki to‘liq chidamlidir.

Bezgakning endemik o‘choqlarida, immuniteti bo‘lgan onalar- dan tug‘ilgan chaqaloqlarda, onalardan olgan tug‘ma immunitetlari bo‘lib, ular 3 oygacha bezgak bilan kasallanmaydilar.

Hozirda antigenli qitiqlanish oqibatida homilaning o‘zida ham maxsus spetsifik antitelolar ishlanadi degan xulosaga kelingan.

Gemoglobin S li (Hv S), ya’ni o‘roqsimon hujayra anomaliyasi (nasliy kasalligi) bo‘lgan shaxslar P.falcifarumga nisbatan juda chidamlidir. Aniqlanishicha, normal gemoglobinli bemorlarga nisbatan, immuniteti bo‘lmagan Hv S egalari R.falcifarum bilan zararlanganlarida, tropik bezgak, kam parazitemiya bilan yengil kechadi va orttirilgan immunitet bo‘lgan taqdirda esa mutloq chidamlilik bo‘ladi. Bunday anamaliyalı bolalarda o‘lim, o‘rtacha o‘limga nisbatan 20 marta kam uchraydi.

Ma’lumki, bezgak kasalligi, bezgakka qarshi spetsifik antitelolar, ya’ni gumoral immunitet ishlanishi bilan yakunlanadi.

Odatda, 2–3 bezgak hurujidan keyin qonda IgM va IgG immunoglobulinlar tritrining ortishi va immunologik reaksiyalarning jadallahuvi kuzatiladi. Oqibatda organizmda parazit kamayib, isitma xurujlari to‘xtaydi.

Endemik o‘choqlarda yashovchi shaxslarda, doimiy reinfeksiya bo‘lganligi tufayli immunitet kuchli bo‘ladi va buning oqibati o‘laroq, bezgak yengil kechadi yoki kasallanish bo‘lmaydi. Biroq, bezgakda immunogenezga xos xususiyatlardan biri shuki spetsifik immunologik reaksiya faqat doimiy antigenli qitiqlanish, ya’ni doimiy parazitemiya (Sargent bo‘yicha — *p r e m u n i s i y a*) bo‘lgan taqdirdagina rivojlanadi. Bezgak parazitlari, ayniqsa P.falcifaruming immunologik xususiyatining sustligi tufayli, yetarli darajada immunitet ishlanishi uchun 7 yilga yaqin doimiy reinfeksiya bo‘lib turishi kerak. Kasallik so‘nib, parazitemiya kamayib borgani sari immunologik reaksiya ham susayib boradi, oqibatda eritrotsitlarda saqlanib qolgan parazit populatsiyalari ko‘payib b a r v a q t (7 kun 3 oy ichida) *r e s i d i v l a r* yuzaga keladi. Residiv

davrida qonda immunoglobulinlar (ayniqsa IgG), ikkilamchi javob tipida tez ortib boradi. Parazitemianing ortishi, tana harorati ko'tarilmasdan ham bo'lishi mumkin, bu holat — *p a r a z i t a r r e s i d i v i* deb ataladi. Eritrotsitar shizogoniya residivi ancha kuchli immunitet yaralishiga olib keladi va parazitlarni eritrotsitlarda qayta ko'payishiga yo'l qo'ymaydi.

Boshqa yuqumli kasalliklarda bo'lgani singari bezgakda ham immunitet parazitning turiga va shtammiga qa'tiy xosdir. Qarshi immuniteti bo'lgan parazit shtammining qayta yuqishi, to'qima shizogoniyasi bilan cheklanib, keyingi rivojlanish bosqichlari bo'lmaydi, ya'ni kasallik rivojlanmaydi. Biroq, boshqa shtammlarning yuqishi o'z yo'li bilan kechaveradi. Bu jarayonlar hamma bezgak turlarida birdek emas. Aniqlanishicha *P.vivax* va *P.malariae* larga qarshi immunitet tezroq, *P.falcifarum* ga esa sekin ishlanadi. Tropik bezgakda, bir necha barvaqt residivlar bo'lib o'tgandan keyin qonda parazitni yo'qolishi — parazitologik va klinik sog'ayish demakdir. To'rt kunlik bezgakda esa parazit qonda uzoq vaqt (davolanmaganda hatto umrbod) saqlanib qoladi, va kasallik vaqt-vaqt bilan qaytalanuvchi (persistik) infeksiya sifatida o'n yillab davom etadi.

*P.vivax* va *P.ovale* bezgaklarida barvaqt residivlar davri o'tganidan keyin uzoq (6—14 oy) davom etadigan *i k k i l a m c h i l a t e n t* davr kuzatiladi. So'ngra *k e c h i k k a n r e s i d i v l a r* davri boshlanadi, ya'ni haqiqiy residivlar namoyon bo'ladi. Bu holat «bradisporozoitlar» ning to'qimada, ya'ni paraeritrotsitar, ko'payishining oqibatidir. Residivlarning ko'p takrorlanishi ko'proq *P.vivax*ning Chesson shtammiga xos.

Shizont bezgagida, qo'zg'atuvchining turidan qat'iy nazar, kechikkan residivlar kuzatilmaydi.

Bezgakning muhim xususiyatlaridan biri — organizmning reaktivligini susaytirishidir. Buning oqibatida kasallikka bakterial infeksiyalar qo'shilishi (superinfeksiya), mavjud surunkali kasalliklarni (masalan: tuberkulyozni) zo'riqishi, amyobiaz singari boshqa parazitar kasalliklarni og'ir kechishi kuzatiladi.

Patomorfologik o'zgarishlar, bezgakda suyak milki, taloq va jigardagi limforetikular elementlarining gi perplaziyasi bilan

ifodalanadi. Kasallik uzoq davom etganda Kupfer hujayralarining gi perplaziysi, jigardafibroz rivojlanishi bilan yakunlanadi. Ichki a'zolar to'qimalarida pigment to'planishi kuzatiladi.

Tropik bezgakda voskulit, perivoskular gemorragik va granulematoz o'zgarishlar kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar ko'proq bosh miyaning gilial sistemasida (Dyurka granulemasi) bo'ladi. Miya kapillarlari invaziyalangan eritrotsitlar va parazitlar bilan to'lib (tiqilib) qolgan bo'ladi. Tropik bezgakda, buyrakning jarohatlanishi (o'tkir nefrit) ham ko'proq kuzatiladi. O'tkinchi miokardiodistrofiya alomatlari kasallikning og'ir kechimida va ko'proq oldindan yurak xastaligi bo'lgan shaxslarda namoyon bo'ladi.

**Klinikasi.** Kasallik qo'zg'atuvchisining turlariga qarab 4 xil bezgak farqlanadi: uch kunlik bezgak (Malaria tertiana), tropik bezgak (Malaria tronica), to'rt kunlik bezgak (Malaria quartana) va ovale—bezgak (Ovale malaria).

Atamalarda tartib o'rnatish maqsadida, JSST (1964) bezgakning qo'zg'atuvchilarini nomi bilan (vivax—bezgagi, ovale—bezgagi singari) atashni tavsiya etadi.

Bezgakning klinik kechimida quyidagi davrlar farqlanadi: inkubatsion (birlamchi latent), o'tkir xurujlar (paroksizmlar) davri, barvaqt residivlar, xurujlar oralig'i (ikkilamchi latent) va kechikkan residivlar davri.

Bezgakning klinik kechimi bosqichli bo'lib, *o't k i r i s i t m a x u r u j l a r i* davri, isitmasiz davr bilan va ba'zi bir davolanmagan yoki chala davolangan bemorlarda isitma xurujlarini (7—14 kundan 2—3 oy orasida), qaytalanishi bilan almashinadi. Bu b a r v a q t namoyon bo'luvchi r e s i d i v l a r bezgakning barcha turlarida kuzatiladi. Uch kunlik va ovale—bezgakda bir yoki bir necha barvaqt residivlar bo'lib o'tganidan keyin qonda parazit yo'qolib, klinik sog'ayish bo'ladi, ya'ni *i k k i l a m c h i l a t e n t d a v r* boshlanadi. Oradan 6—11 oy o'tgach qayta xurujlar, ya'ni *k e c h i k - k a n r e s i d i v d a r* boshlanishi mumkin. Qayta xurujlarni o'zida ham ba'zan, bir yoki bir necha barvaqt residivlar kuzatilishi mumkin (Loban K.M., Polozok E.S., 1983).

Kasallikning *i n k u b a t s i o n d a v r i* — tropik bezgakda — 8—16 kunni, uch kunlik bezgakda P.vivax ni qisqa inkubatsiyali

(janub) shtammida — 10—20 kun, uzoq inkubatsiyali (shimoliy) shtammida esa — 8—14 oy, ovale—bezgagida — 11—16 kunni, to'rt kunlik bezgakda — 21—42 kunni tashkil etadi.

P.vivax va ayniqsa P.ovale sporozoitlari kam miqdorda yuqqan taqdirda, ko'pchilik bemorlarda birlamchi isitma xurujlarining boshlanishi 6—9 oy va undan ortiqqa kechikib ketadi (James, 1936). Shuningdek, ayrim ximioprofilaktika olib yurgan shaxslarda, inkubatsion davrning cho'zilishi (James va Boyd, 1941) yoki kasallikni noaniq, subklinik, kamdan-kam hollarda hatto inapparant shaklda kechishi ham kuzatilishi mumkin (Tareev S.M., 1946).

Uch kunlik va ovale-bezgaklari ko'pincha prodromal belgilar: noxushlik, quvvatsizlik, loxaslik, biroz titrash, boshda, bel va mushaklarda, bo'g'imlarda og'riq, og'iz qurshashi, ba'zan jigar va taloq sohasida og'riq bilan boshlanadi. Bu davr — bir necha soatdan 2—3 kungacha davom etib, tana harorati subfebril bo'lishi mumkin. Ko'pchilik bemorlarda shu prodromal davrning o'zidayoq, kasallik belgilari kunning ma'lum bor soatlarida zo'rayishi kuzatiladi (Kitchen, 1949). Isitma huruji yaqinlashgan sari prodromal belgilar zo'rayib, tana harorati ortib boradi. Ba'zan prodromal davrda ishtahaning pasayishi, diareya yoki yengil gri psimon belgilar kuzatiladi.

Keyingi kunlarda tana harorati 38—39°C ga ko'tarilib, remittik tarzda har kuni (Febris quotidiinn) bo'lib turadi, titrab-qaqshash esa unchalik kuchli bo'lmaydi. Bu boshlang'ich *i n i s i a l* isitma deb atalmish davr, uch kunlik bezgakka kamroq ovale-bezgagiga xosdir.

Prodromal belgilari bo'lganlarda, 2—5 kundan keyin, prodromal davri bo'lmagan bemorlarda esa kasallikning birinchi kunlaridan boshlab — bezgakka xos i s i t m a x u r u j l a r i (paroksizm) boshlanadi.

B e z g a k x u r u j i — titrab-qaqshash, isitma va terlash bosqichlarining almashinushi bilan namoyon bo'ladi. Huruj, odatda, kunning birinchi davridasovqotish ko'pincha juda kuchli titrab-qaqshash bilan boshlanadi. Bemor o'rniga yotib qavat-qavat yopinib olsa ham hech isimayotgandek bo'ladi,sovqotib tishitishiga tegmay, titrab-qaqshab yotadi. Bu paytda bemorning terisi

ko‘kimdir oqargan, sovuq, g‘adir-budur bo‘lib, «g‘oz terisini» eslatadi. Bemorni bosh og‘rig‘i, bel va bo‘g‘imlarni qaqshab og‘rishi, ko‘ngil aynashi, ba’zan qusish bezovta qiladi. Titrab-qaqshash davri bir necha (10—15) daqiqadan 2—3 soatgacha davom etadi va tana haroratini tez ko‘tarilishi bilan yakunlanadi. Paroksizmning ikkinchi bosqichi — *i s i t m a* davri boshlanadi. Bu davrning boshlanishida bemor o‘zida biroz yengillik xis etadi, chunki sovqotish to‘xtab tana isiy boshlaydi. Biroq intoksikatsiya alomatlari ortib boradi, tana harorati 38—40°C gacha ko‘tariladi, bosh og‘rig‘i va mushaklarda og‘riq zo‘rayadi, bemorda bezovtalik paydo bo‘ladi, chanqash, ba’zan xushsizlik, alaqlash kabi alomatlar, shuningdek — qudish, trishish, xiqichoq tutishi, jigar va taloq sohasida og‘riq singari belgilar kuzatiladi. Bemorning yuzi qizargan, terisi quriq hamda qizargan, tomir urishi va nafasi tezlashgan bo‘lib, qon bosimi pasayib boradi. Isitma davri 1 soatdan 12—14 soatgacha davom etadi. So‘ngra bemorda kuchli terlash paydo bo‘lib, tana harorati tez — kritik tarzda subnormal darajagacha tushadi. Terlash davrining boshlanishi bilan bemorning ahvoli ancha yaxshilanadi, ular umumiyl quvvatsizlik his etadilar, holatlari yengillashib, tinchlanib uqlab qoladilar. Bir necha soat uxlaganlaridan keyin uyg‘onganlarida, umumiyl quvvatsizlikdan boshqa hech qanday xastalik alomatlarini his etmaydilar.

Bezgak paroksizmi umuman 6—14 soat, tropik bezgakda esa 24 soat va undan ortiq davom etadi. Birlamchi xurujda isitma davri *P.falcifarum* ning Italiya shtammida 74 soat, Hindiston shtammida esa 37 soat davom etganligi ham kuzatilgan (Jrassi, 1900). Bezgak xuruji tugagach *a p i r e k s i y a d a v r i* boshlanadi. U, har qaysi parazitni eritrotsitar shizogoniysi qancha davom etishiga qarab — 48 yoki 72 soat davom etadi.

Ma’lumki, bezgak xurujini boshlanishidagi titrab-qaqshash — eritrotsitar shizogoniya siklining tugallanishi, morullarning parchalanishi, zararlangan eritrotsitlarni ko‘plab gemolizi va qonga yosh parazitlar — merozitlarni tushishi davriga to‘g‘ri keladi. Agar qonda parazitning bitta yetakchi turi bo‘lsa, isitma, odatda, to‘g‘ri intermittik xarakterda bo‘lib, paroksizm uch kunlik va ovale bezgagida, ba’zan tropik bezgakda ham — har 48 soatda, to‘rt

kunlik bezgakda esa 72 soatda takrorlanadi. Bezugak isitmasining farqli xususiyati shuki — paroksizmlar ma'lum bir oraliq vaqtidan keyin, sutkaning ma'lum soatlarda takrorlanadi.

Bir necha xurujlardan keyin bemorlar navbatdag'i xurujni ma'lum kun va soatlarda kutadigan bo'lib qoladilar.

Bezugakning barcha turlarida ham navbatdag'i huruj odatdagidan ko'ra biroz ertaroq (Febris anteronens) yoki kechroq (Febris rostronens) bo'lishi mumkin. Agar bemor qonida, yetakchi generatsiyadan tashqari, parazitning boshqa qo'shimcha yirik generatsiyasi paydo bo'lsa va ularning rivojlanish bosqichlarini tugallanish vaqtি turlicha bo'lsa, u holda xuruj qo'shilib, apireksiya davri siyqalanadi va isitmaning tipik ko'rinishi buziladi. Bu holat ko'proq *P.falcifarum* ga xosdir. Tropik bezgakda, aksariyat remittik, kontinual yoki noto'g'ri tipdag'i isitma kuzatiladi. *Subcontinua* tipidagi isitmatropikbezugakning og'ir kechimigaxosdir.

Kasallik jarayonida mikro- va makroorganizmlarning o'zaro ta'sirini murakkabligi, organizm reaksiyasining, jumladan isitma xurujlarining turli-tuman bo'lishi bilan ifodalanadi. Masalan; ma'lum bir daraja immunitetga ega bo'lgan, bezgakning endemik o'chog'ida yashovchi aholida, aksariyat isitma huruji bo'lmaydi, tropik bezgakda ko'pincha isitma to'g'ri intermittik tipda bo'ladi. Shuning bilan birga, birlamchi uch kunlik bezgakning og'ir kechimida isitma ko'pincha har kuni (tiffsimon) yoki remittik tarzda bo'lib, qonda parazit miqdori keskin ortib ketadi. Shuningdek, to'rt kunlik bezgakda «Qo'shaloq» huruj, ya'ni qatorasiga ikki kun isitma bo'lib, bir kun apireksiya (yoki yana boshqacha) bo'lishi mumkin.

Uch kunlik va to'rt kunlik bezgaklarga isitma xurujining ertalabki va kunduzgi soatlarda boshlanishi xosdir. Tropik bezgakda esa xuruj har xil vaqtda boshlanadi va hatto bir kunda 2 marta bo'lishi ham mumkin. Bu holat, kasallikning shu turida isitmaning uzoqroq davom etishi va tartibsiz bo'lishi bilan bog'liqdir.

Ovale-bezgagi uchun isitma xurujining kechki paytda bo'lishi juda xosdir.

Biroq bezgak xurujlari har doim ham aniq tartibli bo'lavermaydi. Masalan; bezgak xurujiga isitma albatta kuzatiladigan sindrom

bo‘lgani holda, titrab-qaqshash va terlash alomatlari kuzatilmasligi mumkin (Boyd va b., 1937).

Kasallikning yengil kechimida bemorlar tana harorati kamroq ko‘tarilgani holda birozginasovqotish his etadilar. Tropik bezgakda titrab-qaqshash va terlash kam yoki mutlaqo bo‘lmaydi. Bu holat isitmaning xarakteriga bog‘liq, chunonchi remittik yoki kontinual isitmada harorat tebranishi keskin bo‘lmaydi, binobarinsovqotish va terlash ham bo‘lmaydi.

Birlamchi bezgakda, 2—3 isitmali xurujlar bo‘lib o‘tganidan keyin boshqa, bezgak uchun xos (patogmonik) sindromlar — jigar va taloqning kattalashuvi hamda gemolitik anemiya alomatlari yaqqol ko‘rina boshlaydi. Bezugak hepatosplenomegaliyasini boshqalardan farqlovchi asosiy belgilari — bunda jigar va taloqning qattiqligi hamda og‘riqligidir. Ba’zan taloqning kattalashuvi va og‘riq bezgakning boshlang‘ich xurujlari paytidayoq aniqlana boshlaydi. Jigarning kattalashuvi ham kasallikning boshlang‘ich kunlaridan, taloqdan bir oz keyin yoki bir vaqtida boshlanadi. Kasallikning og‘ir kechimida jiggardagi og‘riq kuchliroq bo‘ladi. Taloqning kattalashuvi, odatda, sekin-asta yoki tez bo‘lishi mumkin, kattalanish darajasi esa jigarnikidan ortiq bo‘ladi. Bu holat muhim diagnostik ahamiyatga ega bo‘lib, uni vrachlarimiz o‘z amaliyotlarda e’tiborga olmoqlari zarur. Yana shu narsa ham e’tiborlik, — bezgakdan o‘lganlar yorib ko‘rilganda taloq o‘z hajmiga nisbatan kattalarda — 2—5 marta, bolalarda esa — 4—7 marta kattalashgan bo‘lishiga qaramay, ular hayot davrida taloqning kattalashuvi (paypaslab tekshirilganda) faqat 62% bemorlarda aniqlangan. Jigarning kattalashuvi unchalik ko‘p bo‘lмаган.

Bezugak anemiyasi va gi perbilirubinemiya, boshlang‘ich davrda gemolitik xarakterga ega bo‘ladi, chunonchi bu holat, invaziyalangan eritrotsitlarning ko‘plab parchalanishi tufayli yuzaga keladi. Binobarin qonda bilirubinning erkin fraksiyasi ortadi. Bemorning terisi va shilliq pardalari sarg‘ish oqorgan bo‘lib, yuz ko‘rinishi o‘ziga xos tus oladi (*Facies malarisa*). Bezugak anemiyasi — qonda eritrotsitlar miqdorini keskin (og‘ir kechimida  $2 \times 10^6 / \text{mkl gacha}$ ) kamayishi, retikulotsitlarni ko‘payishi va erkin bilirubinni ortishi bilan namoyon bo‘ladi (**Zarvaraqdagi 2-rasmga qarang**).

Bemorning labida va burun qanotlarida uchuqli toshma — *herres labialis* va *nasalis* paydo bo‘ladi. Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, bezgakda uchuqning toshishini, organizmda persistik holatda saqlanib yurgan gerpetik virusni aktivlashuvi oqibati deb qaralmog‘i joizdir. Kasallik muddati ortgan sari bemorda quvvatsizlik va anemiya alomatlari ortib boradi.

Kasallikning turidan qa‘ti nazar, birlamchi, davolanmagan bezgakda paroksizmlar soni turlicha — 10—14 tagacha, to‘rt kunlik bezgakda esa ko‘proq bo‘lishi mumkin. Tana harorati kasallikning ikkinchi haftasida eng yuqori bo‘lib, keyingi paroksizmlarda isitma va parazitemiya kamayib boradi va asta-sekin xurujlar to‘xtaydi. Tana harorati me’yorlashadi yoki me’yordan pastga tushadi va bu holat keyinchalik (5—6 kundan keyin) bemorlarning deyarli yarmida, ayniqsa ayollarda, kasallikdan keyingi vegetativ subfibrilitet holati bilan almashinadi. Bu bosqich kasallikni keyingi — qisqa muddatli *x u r u j l a r o r a l i g‘i d a v r i* bo‘lib, 1—2 haftadan 3 oygacha davom etadi. Bu davrda bemorning ahvoli nisbatan tez yaxshilanadi, a’zolar faoliyatini tiklanadi.

Keyinchalik immunologik reaksiya ortib borgani sari paroksizm va apireksiya davrlari aniq bir tartibga keladi. Bu davrlarning aniq tartib bilan almashinuvni, ayniqsa kasallikning keyingi bosqichda, ya’ni barvaqt residivlar davrida yaqqol ko‘rinadi.

*R e s i d i v d a v r i* boshlanishida ko‘pincha bezgak xuruji boshlanishidan bir necha soat oldin darakchi belgilari: biroz qaltirash, kamroq bosh og‘rig‘i va mialgiya kuzatiladi. Residivda paraksizmlar nisbatan yengilroq kechadi.

Barvaqt kuzatiladigan residivlarning takroriyligi bezgak turiga qarab turlicha bo‘ladi. Eng ko‘p takrorlanish uch kunlik bezgakning tinch okean varianti — *P.vivax* ning shesson shtammida ko‘riladi.

Tropik bezgakda barvaqt residiv xurujlarini tugallanishi klinik sog‘ayish demakdir. Uch kunlik va ovale bezgaklarida esa uzoq (6—11 oy) davom etgan latent davrdan keyin yangi isitma xurujlari — *k e c h i k k a n r e s i d i v l a r* boshlanadi. Kechikkan residivlarning klinik kechimi birlamchi xurujlarga o‘xshasada nisbatan yengilroq bo‘ladi. Kechikkan xurujlar dan keyin ham birlamchi

xurujlardagi singari, barvaqt (bir yoki bir necha) residivlar bo‘lishi mumkin.

Yaqin vaqtlargacha to‘rt kunlik bezgaklarda ham uch kunlik bezgakdagi singari latent davr va kechikkan residivlar bo‘ladi deb qaralar edi. Biroq, keyingi ma’lumotlarga ko‘ra (*Collins et al.*, 1973 va b.), to‘rt kunlik bezgakda latent davr bo‘lmaydi, balki ko‘p yillar davomida parazitemiyasi juda kam bo‘lgan, oddiy mikroskopik usullar bilan aniqlanmaydigan, chidamli eritrotsitar shizogoniya saqlanib qoladi. Bunda keyingi xurujlarni kechikkan residivlar deb emas *p e r s i s t i k q a y t a l a n i s h l a r* deb qaraladi.

O‘tkazilgan o‘tkir xurujlar va residivlardan keyin, ba’zilarda kasallikning oshkor belgilari bo‘lmasdan ham *p a r a z i t t a s h u v c h i l i k*, ya’ni bezgakning klinik belgilari bo‘lmagani holida periferik qonda parazitning mavjudligi yuzaga keladi. Agar yaqindagina o‘tkir xurujlar ni o‘tkazgan bemorning qonida parazit aniqlansa va bu davrda isitma ko‘tarilmasa, buni *p a r a z i t a r r e s i d i v* deb qaraladi. Parazitar resedivlarni, qonda parazitlarni qayta-qayta axtarish yo‘li bilan aniqlash mumkin. Parazit tashuvchilik tropik o‘lkalardagi yuqori endemik hududlarning immunitetli aholisi orasida keng tarqalgan. Qonida parazit aniqlangan 128 (Afrikalik) talabaning faqat 81 tasida ilgari kasallik oshkor tarzda bo‘lgan.

Parazit tashuvchilik ko‘pincha yaqinda o‘tkir xurujlarni o‘tkazgan shaxslarda, bir yil davomida aniqlanadi. Parazit tashuvchilik uzoqroq davom etishi ham mumkin. Masalan: endemik o‘choqlardan chiqib kelgan shaxslarda *P. falcifarum* 18—20 oy davomida, *P. malariae* esa 14—24 oy davomida aniqlanib turgan. Keyingi yillardagi ko‘pchilik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, 90—98,2% bemorlarda tropik bezgakning umumiy davomiyligi 1 yildan oshmaydi. Uch kunlik bezgak — 1,5—2 yil, ba’zan 3 yilgacha davom etsa, ovale—bezgagi esa — 2—3 yil, kamdan-kam 3,5—4 yil davom etadi. Eng uzoq davomiyligini to‘rt kunlik bezgakka xos bo‘lib, o‘rtacha 4—5 yil, parazit tashuvchilik esa 10—15 va hatto 50 yil davom etadi.

Ko‘pchilik parazitni qayta-qayta yuqtirib, ko‘p yillar davomida xastalanib yurgan shaxslarda, kasallik belgilari tugagandan keyin

ham ayrim, qaytarib bo‘lmaydigan, qoldiq belgilar: gi pergenerator anemiya, splenogepatomegaliya, tromboslebitik splenomegaliya kuzatilib turadi. Bu *holat p a r a m a l y a r i k* yoki *m e t a m a l - y a r i k* jarayon bo‘lib, bezgakning oqibatlaridan biridir. Biroq, oxirgi yillardagi kuzatuvar shuni ko‘rsatdiki, bu jarayonlarning asosiy sababchisi virusli hepatit, septik endokardit, dori kasalligi singari xastaliklardir.

Endemik o‘choqlarda, aksariyat aralash bezgak — bir vaqtida ikki (ba’zan uch) xil plazmodiyalar, masalan; tropik va uch kunlik, tropik va ovale—bezgagi, tropik bezgakni, uch hamda to‘rt kunlik bezgaklar bilan kechimi kuzatiladi. Bezgak xuruji paytida bunday bemorlarning qonida 2—3 xil parazit aniqlanadi. Bunday hollarda *P.falcifarum* ning ustun kelishi va bemorlarda tropik bezgak kechimi tugamaguncha (ba’zan hatto bir necha oy davomida), boshqa tur bezgaklar namoyon bo‘lmay turganligi kuzatilgan (Boyd va Kitchen, 1937).

Bezgak kasalligi boshqa kasalliklar bilan qo‘silib kelganida, plazmodiyalarning rivojlanishiga toshmali tif, qorin tifi va qaytalama tiflar salbiy ta’sir etishi aniqlangan. Shuning uchun ham bezgak xuruji tif kasalliklarining rekonvalessentlik davrida yuzaga keladi. Tuberkulyoz va bezgak kasalliklari biri-birini og‘irlashtiradi.

Bezgak boshqa yo‘ldosh kasalliklarga qarshi ishlanadigan immunitetning susaytirganligi tufayli ularning kechimi uzayishi va og‘irlashishi mumkin.

Bezgakning har bir ayrim klinik turining o‘ziga xos xususiyatlari mayjud.

*Uch kunlik bezgak* uzoq davom etuvchi, kunora yoki har kuni takrorlanuvchi intermittik isitma huruji va splenogepatomegaliya bilan namoyon bo‘luchchi, barvaqt va kechikkan residivlarga moyil kasallik turidir. Kasallik residivlari bir necha oy (3—14) va hatto (3—4) yildan keyin bo‘lishi mumkin. Bezgakning bu turini oqibati ko‘pincha yaxshi, biroq bolalarda va immuniteti bo‘lmagan shaxslarda oqimi og‘ir bo‘lishi mumkin. O‘lim juda kam bo‘lib, asosan og‘irlashturuvchi yo‘ldosh jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Hozirda bizda asosan uch kunlik bezgakning chetdan kirib kelgan turlari kuzatilmoxda.

*Ovale—bezgagida* isitma xurujlari xuddi uch kunlik bezgakdag'i xarakterga ega bo'ladi. Kasallikning bu turi uch kunlik bezgakdan, isitma xurujlarining kechki paytda boshlanishi, anemiya va splenogepatomegaliyaning kam darajada bo'lishi, odatda, yengil kechimi va yaxshi oqibati hamda ko'pincha bir necha xurujdan keyin to'satdan tuzalishi bilan farq qiladi.

Ovale-bezgagi asosan tropik Afrikada — Gvineya qo'ltig'inining Shimoliy qirg'og'i o'lkalarida keng tarqalgan.

Oxirgi yillarda *P.ovale* ni Sharqiy Janubiy Osiyo o'lkalarida ham tarqalganligi haqida ma'lumotlar kelmoqda.

To'rt kunlik bezgak ko'pincha to'rtinchchi kunda takrorlanuvchi intermittik isitma, yengilroq anemiya, splenomegaliya, sekin ortib boruvchi, kam darajali parazitemiya bilan ifodalanadi va uzoq, ba'zan ko'p yillab davom etadi. Uning boshqa bezgaklardan farqli xususiyatlari: birlamchi xurujlar tugagach eritrotsitar shizogoniyanı uzoq vaqt (o'n yillab) klinik belgilarsiz submikroskopik darajada saqlanishi mumkinligi va *P.malariae* ni buyraklarning jarohatlashi (bolalarda nefrotik sindrom) bo'lishi mumkinlidir.

To'rt kunlik bezgak boshqalarga nisbatan kam tarqalgan. U asosan o'choqli infeksiya sifatida tropik Afrika, shuningdek Osiyo va Lotin Amerikasi o'lkalarida uchraydi.

Tropik bezgak—kasallikning eng og'ir turi bo'lib, unga o'tkir, ko'pincha tartibsiz isitma, anemiya, gepatosplenomegaliya, kuchli, ba'zan yuqori parazitemiya, klinik kechimining xilma-xilligi, og'ir kechim va yomon oqibatlarga moyillik xosdir.

Tropik bezgakda prodromal belgilari ko'proq immuniteti bo'limgan shaxslarda kuzatiladi. Birlamchi kasallik kuchli toksik va allergik alomatlar bilan: kuchli bosh og'rishi, ko'ngil aynash, quşish, qorinda og'riq, ichning suyuq kelishi, kuchli mialgiya va artralgiyalar bilan namoyon bo'ladi. Xuruj boshlanishida titrab-qaqshash qisqa muddatli va kuchsiz bo'ladi, bo'lmasligi ham mumkin. Isitma vaqtida toksikoz juda kuchli bo'lib, bemor hatto xushini yo'qotishi, asabiy jumbushlar, trishishlar, meningizm alomatlari, kollaps va urtikar toshmalar kuzatilishi mumkin. Bemorning yuzi qizargan, ko'zlaricha qizargan, quruq yo'tal, tili karashlangan bo'ladi. Birlamchi kasallik subkontinual yoki remittik harorat

reaksiyasi bilan kechishi, isitma davomli va tartibsiz bo‘lishi mumkin. Chunki, *P.falcifarum* retikulotsitlar bilan bir vaqtda yetuk eritrotsitlarni ham jarohatlaganligi tufayli ularning parchalanishi turli vaqtda bo‘ladi.

Tropik bezgakda jigar va taloqning kattalashuvi ham kamroq bo‘lib sekinroq rivojlanadi. Xuruj tugallanishdagi terlash ham unchalik kuchli bo‘lmaydi. Buning boisi, isitma ko‘pincha turg‘un bo‘lib harorat tebranishining kamligidir.

Bezgak xurujining asinxron bo‘lishi asosan kasallikning boshlang‘ich davrida bo‘lib, keyinchalik, ayniqsa residiv davrida tartibga tushadi, ya’ni uzoq yoki qisqa davom etgan remittik yoki kontinual isitmadan keyin uch kunlik yoki kundalik isitma tartibi yuzaga keladi. Biroq, aksariyat hollarda paroksizmni cho‘zilishi, xurujlar boshlanish vaqtini surilishi, qo‘srimcha harorat cho‘qqilar bo‘lib, isitmaga tartibsizlik kiritishi mumkin.

Tropik bezgakning yaxshi oqibatli tabiiy kechimida birlamchi xurujlar, boshqa bezgaklardagiga qaraganda qisqaroq bo‘lib, davomiyligi 2 haftadan oshmaydi. Birlamchi xurujlar, 7—10 kundan keyin boshlanadigan, bir necha barvaqt residivlar bilan almashinadi. Kasallikning umumiyligi klinik aktiv davri 2 oydan oshmaydi. Bunda, bemor organizmida yetarli miqdorda immunitet hosil bo‘lguniga qadar kasallik kechimi to‘lqinli bo‘lib, isitma parazitemiya va boshqa belgilari bir ortib, bir kamayib turadi. Terminal bosqichda parazitemiya, klinik belgilarsiz 1 yil va undan ortiq davom etishi, ya’ni tashuvchilik holati bo‘lishi mumkin.

**Bezgakning asoratlari.** Og‘ir asoratlari kechim asosan tropik bezgakka xosdir. Bezgak komasi, algid bezgak, gematuriyali isitma singari og‘ir asoratlar asosan tropik bezgakda kuzatilib, ko‘p o‘limga sabab bo‘ladi. Umuman bezgakdan bo‘ladigan o‘limning 98% tropik bezgakning asoratlari kechimi tufayli bo‘ladi.

Bezgakning s e r e b r a l shakli ko‘pincha kasallik boshlanganidan 24—48 soat o‘tgach, aksariyat ozg‘in odamlarda yuzaga keladi va oqibatda bezgak komasi rivojlanadi.

*Bezgak komasi* tropik bezgakda eng ko‘p uchraydigan serebral asoratlardandir. Bezgak komasi asosan birlamchi kasallangan,

davolanmagan bemorlarda va asosan ko‘p zararlangan endemik o‘choqlarda uchraydi.

Komada bo‘ladigan murakkab patogenetik noadekvat reaksiyalarga— gi perergik reaksiyalarga shay, allergik holatda bo‘lgan shaxslar ko‘proq moyil bo‘ladi. Bu holat bezgakda bo‘ladigan asoratlarning ko‘pchiligidagi yetakchi rol o‘ynaydi.

Bezgak komasi asosan birlamchi bezgakning asorati bo‘lib, odatda, 2—3 xurujdan keyin boshlanadi. Aksariyat koma darakchi belgilar — kuchli bosh og‘rig‘i, retroorbital og‘riq, bosh aylanishi, keskin quvvatsizlik, irodaning susayishi yoki aksincha, bezovtalik, besaramjonlik bilan boshlanadi. Komaning kechimida uch bosqichni farqlash mumkin: s o m n o l e n s i ya bosqichida, bemorda apatiya yoki asabiy jumbush holati, o‘jarlik, dezorientatsiya, xotiraning chalkashligi, barcha reaksiyalarning tormozlanishi, pay reflekslarini oldin kuchayishi, so‘ngra esa susayishi kuzatiladi.

K o m a d a n o l d i n g i (prekoma) davrda — bemorda doimiy taxikardiya, nafasi yuzaki vatezlashgan, gi potoniya, tanaharorati 40—41 C, shuningdek ataksiya, amneziya, tirishish, ba’zan tutqanoqsimon tirishish, karaxlikning ortib borishi, chuqr uyqu holatlari kuzatiladi. Ba’zan bemor qisqa muddatga xushiga keladi, savollarga bir xil qisqa javob berib yana tezda sopor holatiga tushadi. Pay reflekslari zo‘raygan, patologik reflekslar paydo bo‘ladi.

Haqiqiy komada — bemor xushsiz, tashqi ta’sirlarni sezmaydi. Ko‘zi yumiq yoki yarim ochiq, qarashi begona, mushaklari taranglashgan, jag‘i qotib qolgan (trizm), ensa mushaklari taranglashgan, Kerniga, Brudzinskiy simptomlari musbat, ba’zan Babinskiy, Gordon patologik belgilari aniqlanadi. Pay va qorin reflekslari yo‘qolgan, vegetativ faoliyat keskin buzilgan. Ko‘z qorachig‘i kengaygan, uning refleksi so‘nib boradi va keyingi bosqichda yo‘qoladi.

Bezgak komasida periferik qonda har doim ko‘p miqdorda *P.falcifarum* halqachalari, kasallik uzoqroq davom etsa — gamontlar ham topiladi. Ba’zi olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra 5% bemorlarda koma davrida parazit topilmaydi. Shuning uchun tropik bezgakda parazitemiya darajasi hatto sutka davomida ham keskin o‘zgarishini hisobga olib, qonni (qalin tomcha va surtmani) qayta-qayta tekshirish lozim.

Bezgak komasi har doim ham aniq xos belgilar bilan namoyon bo‘lavermaydi. Ensefalopatiya, u yoki bu o‘choqli jarohatlanish, belgilari, tutqanoqsimon sindrom va boshqa markaziy asab sistemasining jarohatlanishi belgilari yetakchi bo‘lishi mumkin. Miyada mayda, ko‘proq nuqtasimon, kamdan-kam holatda yirik qon quyilish alomatlari kuzatilishi mumkin.

*Bezgak algidi* bezgakning kam, asosan endemik o‘choqlarida uchraydigan biroq eng og‘ir asorati bo‘lib, ko‘pincha o‘lim bilan yakunlanadi. Patogenetik jihatidan algid — toksik—infektion shok deb qaraladi va uning asosida, qonda parazitning erigan sitotoksini aylanashi oqibatida xuddi boshqa etiologiyali shoklarda bo‘lgani singari gi pertermiya va gemodinamikaning buzilishi, aylanuvchi plazma miqdorining kamayishi, bemor organizmining suvsizlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan, xos metabolistik o‘zgarishlar yotadi.

Bezgak algidining patogenezida buyrak usti bezining o‘tkir yetishmovchiligi ma’lum bir rol o‘ynaydi. Deyarli har doim bemor qonida juda ko‘p miqdorda — 1 mkl da 150000 dan 500000 gacha *P.falcifarum* topiladi. Algid, tropik bezgakning asorati sifatida yoki bezgak komasining yakuni sifatida namoyon bo‘ladi va, odatda, har doim o‘lim bilan tugaydi.

Bemorning umumiyligi ahvoli juda og‘ir. Bemor hushida bo‘lsada ruhiyati juda ezilgan (prostratsiya), loqayd ba’zan koma holatida yotadi. Bemorning chehrasi istirobli, ko‘zлari chuqur botgan, atrofi ko‘kargan, qarashlari farqsiz — *facies Hirrosratica*. Terisi sovuq, sovuq yopishqoq ter bilan qoplangan, lablari, qo‘l va oyoq barmoqlari uchi ko‘kargan. Teri tarangligi pasaygan. Tana harorati 35 C va undan kam. Nafas olishi tezlashgan, yuzaki. Tomir urishi ojiz, tezlashgan yoki ipsimon. Sistolik va diastolik bosimlar pasaygan (80 mm sim.ustinidan past), ko‘pincha diastolik bosim aniqlanmaydi. Yurak tonlari bo‘g‘iq. Jigar va taloq kattalashgan. Ko‘ngil aynashi, doimiy o‘xchiq, aksariyat hollarda ichning suvdek suyuq (xuddi vabodagi singari) kelishi mumkin. Vaqtida tegishli davo tadbirlari o‘tkazilmasa, bemor o‘tkir qon tomir yetishmovchiligidan o‘ladi.

Hozirda klassik bezgak algidi kam uchraydi, biroq organizmning tez suvsizlanishi va gi povolemiya oqibatida yuzaga keladigan yurak-tomir kollapsi nisbatan ko‘p kuzatiladi.

*Gemoglobinuriyali isitma* (GUI) bezgakning asoratlari qatorida berilgan bo'lsada, uni to'liq manoda bezgak infeksiyasi tufayli yuzaga kelgan asorat deb qaramaslik kerak. U tropik bezgakni xali yaxshi o'rganilmagan asorati bo'lib, unda qon tomir ichida o'tkir (immun—allergik genezli) gemoliz sodir bo'ladi va gemoglobinuriya, isitma va gemolitik sariqlik bilan namoyon bo'ladi. Bu asorat qadimda, bezgakni davolashda xinin keng ishlatilgan davrlarda ko'p uchragan. GUI ning patogenezi haqida ko'p turli tushunchalar bo'lgan, biroq oxirgi yillarda tug'ma enzimopatiya — G—6—FDG fermenti taqchilligi (oqibatida eritrotsitlar rezistentligining pasayishi) asosiy patogenetik omil deb qaralmoqda.

*P.falcifarum* ning eritrotsitar turlari tomonidan uzoq vaqt bo'ladigan antigenli qitiqlanish va xininni tartibsiz ichish, tartibida gapten sifatida xinin bo'lgan autoantigenlar va ularga qarshi autoantitelolar hosil bo'lishiga olib keladi. Oqibatda sensibilizatsiya holati rivojlanib xuddi o'sha shtammi bilan reinfeksiya bo'lishi yoki xinin qabul qilinishi «hal qiluvchi» omil bo'ladi va tomir ichida o'tkir gemoliz boshlanadi. Qonda gemoglobin miqdori 0,114 g/l ortsa, u buyraklar orqali ajratila boshlaydi. Eritrotsitlarning parchalanishi agar bevosita buyrak tomirlarida sodir bo'lsa, u holda gi pergемoglobinemiya bo'lmasdan ham gemoglobinuriya bo'lishi mumkin.

GUI, odatda, to'satdan, ko'pincha bezgakka qarshi preparat (xinin, primaxin, sulfanilamidlar va b.) qabul qilingandan keyin 4—6 soat o'tgach boshlanadi. Bemor titrab-qaqshab tezlikda tana harorati 39—40°C va undan ortiq darajagacha ko'tariladi, belda, jigar va taloq sohasida og'riq paydo bo'ladi, kuchli terlaydi. U adinamiya holatida bo'lib, boshi, mushaklari va bo'g'imlari qattiq og'riydi, qayta-qayta to'q rangli safro qusadi. Tez orada siydik to'q jigarrang (pivo, qizil vino yoki qora kofe) rangli bo'lib qoladi. Uni tekshirilganda ikki qatlam: pastkisi — to'q jigarrang, to'q—loyqa detritli va yuqorisi — tiniq, qizil vino rangida bo'ladi. Siydikda yuqori konsentratsiyada oqsil (10—20 g/l) va o't pigmentlari aniqlanadi. Bemorda tezlik bilan anemiya rivojlanadi, sariqlik ortib boradi, jigar va taloq kattalashib og'riqli bo'ladi, gemorragik sindrom rivojnanishi mumkin. Gemoglobinuriyani eng xavfli ifodasi — o'tkir buyrak

yetishmovchiligidir. Bunda shok yoki shoksiz fonda oliguriya rivojlanadi — oz-oz qora moysimon siydiq ajralib turib keyin butunlay to'xtaydi. Qonda qoldiq azot kreatinin va mochevina ko'rsatkichlari tez ortadi, uremiya va koma rivojlanib, 3—4 kundan keyin bemor o'ladi. O'lmay qolgan bemorlarda diurez tiklanadi, poliuriya bo'lishi mumkin, albuminuriya keskin kamayadi. Sariqlik gemolitik xarakterga ega bo'lib jigar zararlanganda esa sariqlik yana ortib, qonda bog'langan bilirubin ham paydo bo'ladi, jigar va taloq og'riqli bo'lib qoladi. Qonda *P.falcifarum* bemorlarning yarmida aniqlanadi, biroq gemolizni ortishi bilan yo'qoladi va keyin rekonvalessentli davrida yana paydo bo'lishi mumkin.

GUI ning og'ir kechimida ko'pincha o'tkir buyrak yetishmovchiligi, qon tomir kollapsi, shok hollari rivojlanib 20—30% da o'lim bilan yakunlanadi. Oqibatda, yaxshi kechganda 3—5 kundan keyin gemoliz to'xtab, bemor asta-sekin tuzaladi. Ko'pincha isitma xuruji bir marta bo'ladi, biroq gemoglobinuriyalı isitma takrorlanishi ham mumkin. Qayta xurujlar xuddi shu shart-sharoitlarda bir necha yillardan keyin ham takrorlanishi mumkin.

*Uch k u n l i k b e z g a k n i x a v f l i k e c h i m i* organizmning reaktivligini keskin pasayishi sababli og'ir qo'shimcha infeksiyalar qo'shilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu asorat ko'proq bahor oylarida 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatiladi. Bunda, odatda, 2—3 xurujdan keyin bemorning ahvoli keskin yomonlashadi, qattiq bosh og'rig'i, tana haroratini 41°C va undan ortiqqa ko'tarilib ketishi, xushni yo'qotishi, tirishish, psixomotor qo'zg'alishlar, nafasning buzilishi kabi alomatlar yuzaga keladi va bola tezlikda halok bo'ladi. Bunday asorat organizmda latent holatida bo'lgan neyrovirus infeksiyasining aktivlashuvi oqibatida yuzaga keladi deb qaralmoqda.

Uch kunlik bezgakda kam bo'lsada kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlardan yana biri, odatda, kimyoviy davolanish fonida rivojlanadigan gemoglobinuriyadir.

Bezgakni yuqorida keltirilgan, asoratsiz, asoratli tipik kechimlaridan tashqari notipiik turlari ham mayjud.

*N i q o b l a n g a n b e z g a k* (*Malariae larvata*) kasallikning bu turida asosan visseral patologiya — granulyomatozli hepatit va

splenit rivojlanib uning oqibatida portal gi pertenziya, turg'un anemiya, shuningdek, nevrologik o'zgarishlar va toshmalar (eshakemi ) kuzatiladi.

*Sh i z o i t l i b e z g a k*, odatda, to'g'ridan-to'g'ri yoki konservatsiyalangan donor qoni quyilgani oqibatida yuzaga keladi. Konservatsiyalangan qonda plazmodiyalar 14 kungacha saqlanadi.

Shizoitli bezgak, odatda, qisqa inkubatsion davrdan keyin boshlanadi, nisbatan yengil kechadi, xurujlar sinxron bo'lib, kechikkan residivlar bo'lmaydi. Biroq davolash kechiktirilganda, ayniqsa yosh bolalarda o'lim bilan yakunlanishi ham mumkin.

*H o m i l a d o r a y o l l a r d a b e z g a k*, ayniqsa tropik tezgak og'ir kechadi. Ularda ko'proq visseral patologiya — sariqlik, toksik gepatit, istisqo, shish va kuchli anemiya kuzatiladi. Tropik bezgakning serebral shakli homilador ayollarda homilasi bo'lмаган ayollarga nisbatan 2 marta ko'p uchraydi. Bezgakdan bo'ladigan o'lim homilador ayollarda homilasiz ayollarga nisbatan 2—3 baravar ortiq bo'ladi. Bezgak infeksiyasi homilaning rivojiga ham yomon ta'sir etadi, oqibatda homilaning o'lik tug'ilishi yoki vaqtidan oldin tug'ilishi hollari kuzatiladi. Bezgakli ayollandan tug'ilgan chaqaloqlarning o'limi 33% ga yetadi. Bezgakli ayollandan tug'ilayotgan bolaga kasallik homila davrida (platsenta orqali) yoki tug'ruq davrida yuqishi va tug'ma bezgak rivojlanishi mumkin.

*B o l a l a r d a b e z g a k n i n g k e c h i m i d a* ham ayrim xos xususiyatlari mavjud. Ko'krak yoshida bo'lган bolalarda bezgak xuruji atipik kechadi. Xuruj oldidan bo'ladigan titrab-qaqshash kam bo'ladi, terisi oldin oqarib, keyin ko'karadi, xuruj so'ngida terlash ham kuchsiz bo'ladi. Xurujlar oralig'idagi davr ham aniq emas, ba'zan tana harorati yuqori bo'lib qoladi. Jigar, taloq kattalashib, anemiya rivojlanadi. Og'ir kechimida ko'pincha meningoensefalit alomatlari — quşish, tirishish, toksikoz, infektion—toksik shok va ichak faoliyatining buzilishi kuzatiladi.

**Bezgakdan keyingi qoldiq holatlar (metamalyariya).** Bunday kasalliklar bezgakni to'liq davolanmaganda yoki moyillik beruvchi endogen va ekzogen omillar bo'lganda yuzaga keladi. Bu kasalliklar bezgakning oqibati bo'lib, bezgakning qo'zg'atuvchi parazitlarning takroriy ishtirokisiz rivojlanadi. Masalan, bezgakdan keyingi

gi poregenerator anemiya, suyak milking funksional yoki organik yetishmovchiligi va gepatolienal sistemada patologik o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Kuchli splenomegaliya, gemolitik sariqlikka, B<sub>1</sub> – avitaminози va oqsil yetishmovchiligi bezgakdan keyingi jigar sirroziga olib keladi.

Bezgakka o'z vaqtida tashxis qo'yib to'g'ri davolansa undan bo'ladigan o'lim 0,2–0,3% dan oshmaydi.

**Tashxisoti.** Kasallikning klinik kechimining o'ziga xosligi, epidemiologik ma'lumotlarning aniqligi va laborator tekshiruvlarni osonligi diagnostikani ancha osonlashtirsada, vrachlarimizning xotirasidan bezgakni ancha uzoqligi ko'p diagnostik xatolarga olib keladi. Masalan; K.M.Lobanning (1983) kuzatishi bo'yicha, poliklinika sharoitida chetdan kirib kelgan bezgak kasalligining 46,8%, tropik bezgakda esa hatto 70% da diagnostik xatoga yo'l qo'yilgan.

Bezgakka tashxis qo'yishda avvalo isitmaning xurujli bo'lishi, uni titrab-qaqshash va kuchli terlash hamda hepatosplenomegaliya va anemiya bilan kuzatilishini, shuningdek, epidemiologik anamnezni — oxirgi 2 yil ichida enedemik zonada bo'lganligi yoki oxirgi 3 oy ichida gemotransfuziya olganligi singari ma'lumotlarni e'tiborga olishimiz lozim. Qonda gemoglobin ko'rsatkichining pasayganligi, eritrotsitlar miqdorining kamayganligi, retikulotsitoz, anizotsitoz, poykilotsitoz aniqlanishi va EChT ortishi ham tashxis qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Qo'yilgan tashxis albatta qonda parazitni aniqlash bilan tasdiqlanishi kerak.

Amaliyotda parazitozoskopiya usulidan, ya'ni — barmoqdan yoki venadan olingen qondan tayyorlangan «qalin tomchi» (Ross usuli) va yupqa surtmani Romanovskiy—Gimza usulida bo'yalgach mikroskop ostida ko'rishdan keng foydalilanadi. Buyum oynasining bir chetida qalin tomchi va ikkinchi yarmida surtma tayyorlash ko'rishni osonlashtiradi. Yaxshilab quritib, qotirib bo'yagan preparat immersion sistema ostida mikroskopda ko'rildi.

Qalin tomchida parazit surtmaga qaraganda 40 marta ko'p aniqlanadi. Parazitning turi va shaklini aniqlash uchun esa surtma qulay. Parazitologik tekshiruvda aniqlangan plazmodiyalarni ham miqdoriga, ham sifatiga e'tibor bermoq kerak. Masalan; qalin tomchida bir ko'rish doirasida 10 va undan ortiq parazitning topilishi

yoki 1 l qonda  $100 \times 10^9$  plazmodiyalarning bo‘lishi yoki 5% dan ortiq eritrotsitlarning jarohatlanganligini aniqlash yoki *P.falcifarum* ni oraliq bosqichlarini topilishi, har doim, tropik bezgakni og‘ir kechimi va bezgak komasi yoki boshqa xavfli asorat rivojlanishidan darak beradi.

Prazitologik tekshiruvlar yordamida kasallik muddatini ham aniqlash mumkin: qonda faqat uziksimon bosqichdagi trofozoitlarni bo‘lishi kasallikning boshlang‘ich davrlari (12—14 kundan kam), ham uzuksimon, ham gametotsitlarning aniqlanishi esa keyingi bosqichi (2 haftadan keyin), va nihoyat, faqat gametotsitlarning topilishi oxirgi bosqichlari (yoki davolanish oqibati) ketayotganidan dalolat beradi.

Parazitemiya darajasini aniqlash kasallikning og‘ir yengilligini aniqlash imkonini beradi. Parazitemiyani 4 ta darajasi farqlanadi:

1. ++++ — ko‘rish doirasida 10 tadan ortiq parazit, ya’ni 1 mkl qonda 5000 tadan ortiq parazit,
2. +++ — ko‘rish doirasida 1 tadan 10 tagacha parazit, ya’ni 1 mkl qonda 500—5000 parazit,
3. ++ — 100 ta ko‘rish doirasida 10—100 parazit, ya’ni 1 mkl qonda 50—500 parazit,
4. + — 100 ta ko‘rish doirasida 1—10 parazit, ya’ni 1 mkl qonda 3—50 parazit.

1 mkl qonda 100 000 plazmodiyadan ortiq bo‘lgan parazitemiya kasalligining oqibati yomonligidan dalolat beradi.

Bir marta olingen qonda parazitning topilmasligi kasallikni inkor etmaydi. Qonning isitmali paytida ham isitma yo‘q paytida ham takroran (bir kunda 4—6 martagacha) olinadi.

Qon zardobida qilinadigan laborator tekshiruvlar (serologik usullar), asosan, donorlar tanlashda latent bezgakni inkor etish uchun va endemik o‘choqlarda aholining bezgak bilan zararlanganlik darajasini aniqlash va o‘tkazilgan bezgakka qarshi chora-tadbirlarning samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladi.

Bezgakning diagnostikasida qo‘lanilladigan serologik usullardan eng sezgir va eng spesifiklari — sust gemagglyutinatiya reaksiysi (RPGA), bilvosita immunofluorescent reaksiya (NRIF), immuno-

logik diagnostika reaksiyasi (RID) va enzim bilan nishonlangan antitelolar reaksiyasi (REMA) dir.

Serologik reaksiyalar, immunitet, ko'proq visseral belgilar bilan davomli kechuvchi bezgak turlarini, shunga o'xhash kechuvchi surunkali gepatitlar, nevritlar va gemolitik anemiyalardan ham farqlashda qo'l keladi.

Bezgakning boshlang'ich davridagi klinik alomatlari, ko'pchilik isitmali kasalliklar (qorin tifi, o'tkir respirator kasalliklar, KU—isitmasi, leptospiroz va b.) belgilariga o'xshab, tashxisni qiyinlash-tiradi.

Qorin tifida kasallik asta-sekin rivojlanadi, isitma kundan—kungaortib boradi vau doimiy ti pdabo'lib, kunlik harorat tebranishi 1°C dan ortmaydi. Bemor isitmada bo'lishiga qaramasdan rangi oqargan, behol, tormozlangan holatda bo'ladi va asosan bosh og'rig'i, uyqusizlik va ishtaxasizlikka shikoyat qoladi. Ko'pchilikda nisbiy bradikardiya aniqlanadi. Tilning ko'rinishi (qalin kulrang yoki qo'ng'ir-kulrang karash bilan qoplangan, qirg'oqlari toza qizargan, tish izlari bor) juda xos bo'ladi. Qorinning o'ng pastki qismida Padalka simptomi ko'pincha musbat bo'ladi va shu soha paypaslab ko'rulganda quldirash aniqlanadi. Ko'pincha qonda (kasallikning 3-kunidan keyin) leykopeniya, nisbiy limfotsitoz va aneozinofiliya kuzatiladi.

O'tkir respirator kasalliklarda, odatda, isitma kasallikning 1—2 kunlarida yuqori bo'lib, 3—5 kunlarida normallashadi. Grippdan boshqarespirator kasalliklarda ko'pincha intoksikatsiya alomatlari ko'rinnmaydi. Bemorni asosan bosh og'rig'i (ko'proq peshona va qovoq usti qismida), ko'z olmasini qimirlatganda og'riq, yorug'likka qarayolmaslik va tumov alomatlari: burun bitishi, quruq og'riqli yo'tal, tomoq qirilishi, tovushning o'zgarishi kabi alomatlar bezovta qiladi. Ko'rulganda ko'z va tomoq shilliq qavati qizargan, jigar va taloq kattalashmagan bo'ladi.

KU—isitmasida bemorning yuzi va ko'zlar qizargan ko'z olmasi (ayniqsa harakatlantirganda) va ko'z atrofi, qovoq sohasi og'riqli. Kasallikning 3—4 kunlarida jigar kattalashadi. Keyinchalik o'choqli pnevmoniya alomatlari (chuqur nafas olganda ko'krakda og'riq,

biroz balg‘amli yo‘tal, o‘choqli quruq yoki nam xirillashlar va perkutor o‘zgarishlar) yuzaga keladi.

Leptospirozga — mushaklarda, ayniqsa boldir mushagida og‘riq, qizamiqsimon toshmalar, gemorragik alomatlar (ko‘zga va teriga qon quyilishi, burundan va ichakdan qon ketishi), buyrak sohasi urib ko‘rilganda og‘riq, siydkida — oqsil, silindrlar, eritrotsitlarning paydo bo‘lishi, leykotsitlarni ortishi, qonda esa qoldiq azotning konsentratsiyasini ortishi xosdir. Ayrim bemorlarda serozli meningit rivojlanishi mumkin. Leptospirozning tashxisi serologik reaksiyalar yordamida tasdiqlanadi.

Klinik amaliyotda bezgak yana boshqa ko‘pchilik o‘xshash kasalliklardan, jumladan: qora oqsoq, visseral leyshmanioz, borreliozi, arbovirus kasalliklari, sepsislar, ba’zi bir ichak kasalliklari va hepatitlardan farqlash kerak.

**Davolash.** Bezugak bilan og‘rigan bemorlar albatta kasalxonaga yotqizilishi, bezgakka qarshi dorilar hamda patogenetik va simptomatik dorilar bilan to‘liq davolanishi kerak.

Bezugakka qarshi ishlataladigan etiotrop kimyoiy dorilar o‘z ta’sir doirasi jihatdan ikki guruhga bo‘linadi.

**Shizotrop preparatlar.** Parazitning jinsiz turlariga (shizontlarga) ta’sir etadi. Bu dorilar o‘z navbatida yana ikki guruhga bo‘linadi: gamatoshizotrop — asosan parazitni eritrotsitar bosqichlariga (trofozoitlar va shizoitlarga) ta’sir etuvchi va gistoshizotrop — asosan parazitni to‘qima bosqichidagi turlariga ta’sir etuvchi dorilar.

Bezugak xurujlarini va uning asosiy klinik rivojini to‘xtatishga, asosan gematoshizotrop (shizotrop deb ham yuritiladi) dorilar berish yo‘li bilan erishish mumkin. Bu guruhdagi dorilar eng samaralisi 4—aminoxinolin hosilalari: xloroxin (xingamin, delagil, rezoxin), amodiaxin, plakvenil va b., shuningdek xinin, akrixin, bigumal, xlorodin va nisbatan yangi preparatlardan — 4—xinolinmetanrol hosilasi (mefloxin) va 9—fenantrenmetanol hosilasi (WR—33063).

Gistoshizotrop dorilardan — 8—aminoxinolin hosilalari — prima-xin va xinotsid, shuningdek ham gematoshizotrop ham gistoshizotrop ta’siriga ega bo‘lgan xloridin va bigumal yaxshi samara beradi.

**Gamotrop preparatlar.** Plazmodiyalarning jinsiy turlariga ta'sir etadi. Bu preparatlar ham ta'siri jihatidan ikki xil bo'ladi: gamontotsidlar (primaxin, xinotsid) — bemor yoki parazit tashuvchi shaxslar qonidagi parazitni parchalovchi va gamostatiklar yoki sporontotsidlar (bigumal, xloridin) — gamontlarga chivin organizmida ta'sir etib sporogoniyanı to'xtatuvchi preparatlar.

Etiotrop dorilar bemorga birlamchi tashxis qo'yilishi bilan darhol buyurilishi kerak. Bemordan qalin tomchi va surtmaga qon olinishi bilan tahlil natijasini kutmasdan gematoshizotrop preparat — odatda, xloroxin beriladi. Bezgakni, ayniqsa tropik bezgakni davolashda kechikish uni og'ir asoratli kechimiga va hatto o'limga olib keladi.

Xloroxin (delagil) barcha turdag'i bezgak plazmodiyalarining eritrotsitar bosqichlariga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Xloroxin tabletkada 0,25 g tuzi (0,15 g asosi), ampulada — 5% 5 ml dan chiqariladi. Immuniteti bo'limgan bemorlar uchun davolash kursi 3 kun, kattalarga bir kursga — 2—2,5 g preparatning tuzi(1,2—1,5 g asosi) beriladi. Davolashning birinchi kunidan sutkalik dozasi ikki marta: boshlanishda 4 tabletka, keyin 6—8 soat o'tkazib 2 tabletka, ovqatdan keyin ko'p suv bilan ichiladi. Tropik va to'rt kunlik bezgaklarda davolash kursi 5 kungacha uzaytiriladi.

Xloroxin juda kuchli ta'sir etuvchi dori bo'lib, uning organizm suyuqliklaridagi konsentratsiyasi, oxirgi doza qabul qilingandan keyin bir hafta o'tgach 50% ga kamayadi. *U P.vivax*, *P malariae* va *Povale* ning gamontlariga ham ta'sir etadi, biroq *P.falcifarum* ning gamontlariga mutlaqo ta'sir etmaydi. Davolash kursi to'g'ri o'tkazilganda bemorlarning yarmida 24 soatdan keyin, qolganlarda 48 va ayrimlarda 72 soatdan keyin tana harorati normallashadi: parazitlar esa qondan 48—72 soatdan keyin yo'qoladi.

4-aminoxinolinlar nafaqat etiotrop, balki yallig'lanishga qarshi va desensibilizatsiyalovchi ta'sir ham ko'rsatadilarki, ularning bu xususiyati boshqa guruh dorilariga nisbatan samaradorligini oshiradi. Biroq xloroxinni tomirga yuborilganda og'ir asorat — qon bosimining keskin pasayishi, kollaps va hatto o'lim bo'lishi mumkin. Bunday asoratlar dorini mushak orasiga yuborilganda ham, kam bo'lsada, kuzatilishi mumkin. Agar xloraxinni glukokortikoidlar

fonida glukoza eritmasiga qo'shib mushak orasiga yoki tomirga tomchilab yuborilsa bunday asoratlar bo'lmaydi (Loban K.M. va b., 1983).

4-aminoxinolin preparatlaridan yana plakvenil va amodiaxinlar ham keng ishlatiladi. Ularni qo'llash tizimi 2-jadvaldan keltirilgan.

### *2-jadval*

#### **Immuniteti bo'limgan bemorlarda o'tkir xurujlarni to'xtatish tizimi**

Bezkag turi	Davolash turi	Preparatning sutkalik dozasi (asosi,gr.)		
		Xloroxin	plakvenil	Amodiaxin
Tropik	1-kun	0,9 (6 tabl.)	0,9	1,2
	2—5-kun	0,3 (2 tabl)	0,3	0,4
Uch va to'rt kunlik	1-kun	0,9(6 tabl.)	0,9	0,8
	2—3-kun	0,3 (2 tabl.)	0,3	0,4

Bezgakka qarshi ma'lum darajada immuniteti bo'lgan endemik hudud aholisiga bu preparatlar kamaytirilgan (13 miqdorda) va ko'pincha 1 kun davomida berish kifoya qiladi.

Tropik bezgakni to'liq davolash uchun bu preparatlar bilan bir vaqtida pirimetamin (0,05 g bir sutkada bir marta) yoki primaxinni (sutkalik dozasi 0,015 g) — o'tkir xurujlar to'xtagandan keyin 5 kun ichish yaxshi natija beradi. Endemik hududlarda primaxinning sutkada 0,045 g dozada bir marta ichish kifoya qiladi. Uch kunlik bezgakni to'liq davolash uchun gistoshizotrop preparatlar (primaxin yoki xinotsid) ham berish kerak bo'ladi.

Primaxin o'tkir xurujlar tugagach (ayrim hollarda asosiy davo bilan bir vaqtida), 0,015 g bo'lgan sutkalik dozani bir yoki ikki bo'lib, 14 kun davomida beriladi. Antiparazitar davolash kursi umuman 17 kun davom etadi. Primaxin 14 kundan kam berish residivlar bo'lishiga olib keladi (Loban K.M., Polozek E.S., 1983). Bu preparat G—6—FDG taqchilligi bo'lgan bemorlarga ehtiyyotlik bilan berilmog'i kerak. Ularga xinotsid berilgani ma'qul.

Xinotsid — davolashning 4-kunidan, ya'ni o'tkir xurujlar to'xtagach 10 kun davomida sutkalik dozasi 0,03 g dan yoki 14 kun sutkalik dozasi 0,02 g dan beriladi.

Bezgakning xavfli turlarini davolashda xinin yoki xloroxin eritmalarini tomirga sekin tomchilab yuborish kerak bo‘ladi. Boshlanishida gidroxlorid xininning 5% eritmasidan 5 ml venaga, keyin mushak orasiga digidroxlorid xininning 25% li eritmasidan 2—3 ml, 6—8 soatdan keyin yana shu eritmadan 4—5 ml yuboriladi. Davo yaxshi samarali bo‘lsa 24 soatdan keyin bemorning ahvoli yaxshilanadi, bu holda dorini og‘iz orqali berishga o‘tish kerak.

Xloroxin sulfitning 5% li eritmasi 10 ml dan sutkada 2 marta mushak orasiga yuboriladi. Agar o‘tkir buyrak yetishmovchiligi yuzaga kelsa xinin va xloroxinni dozasi darhol 10—15 mg/kg gacha kamaytirilishi kerak. *P.falcifarum* ni xloroxinga chidamli shtammlari aniqlangan joylarda xloroxin sulfat eritmasini aytilgan dozada yoki difosfat xloroxinning 5% eritmasidan 30 ml mushak orasiga yuborish yaxshi samara beradi. Bunday hollarda asoratlanchagan tropik bezgakni davolashda 7 kun davomida 0,05 g dan bir kunda 3 marta gidroxlorid xinin yoki fansidar (500 mg sulfadoksin va 25 mg pirimetaminning aralashma tabletkasi) bir ichishida 3 tabletka bir marta, yoki sutkada 1,5 g sulfalen va 75 mg pirimetamin aralashmasidan uch kun davomida va boshqa JSST guruhi taklif etgan qo‘shma dorilar qo‘llanishi mumkin.

Qo‘zg‘atuvchisi xloroxinga chidamli bo‘lgan tropik bezgakni davolashda, shuningdek uch kunlik bezgakni davolashda ham keyingi yillarda (Amerikada yaratilgan) *mefloxin* yaxshi samara beradi. Kasallikning bu turlarida mexloxin xloroxinga nisbatan 6 marta kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Uni tropik bezgakning xloroxinga chidamli turlarida 1,5 g bir marta, uch kunlik emlama bezgakda esa 0,4 g preparatni bir marta berish bilan juda yaxshi natijaga erishilgan. Shuningdek, yangi sintetik preparatlardan dabexin, metakalfin va boshqalar ham ishlatilmoqda.

Agar yuqorida aytilgan dorilarga nisbatan allergik reaksiya bo‘lsa yoki ular samara bermasa u holda tetratsiklin (0,5 g dan sutkada 4 marta 1— kun) yoki doktsiklin (sutkada 0,2 g dan 1 marta 7 kun) berish mumkin. Ftorli xinolon preparatlari, jumladan si profloksotsin (200 mg dan sutkada 2 mahal, 7 kun berish) ham istiqbolli sanaladi.

Etiotrop davo choralaridan tashqari albatta zarur patogenetik davo, jumladan dezintoksikatsiyalovchi (gemodez, neokompensan va b.), mikrotsirkulatsiyani yaxshilovchi dorilar (reopoliglukin, dekostranlar va b.), glukokortikoidlar, antigistaminlar, vitaminlar, gemostatik va siyidik haydovchi dorilar qo'llanadi. Qon tomir ichida bo'ladigan koagulyatsiyaning oldini olish uchun boshlang'ich davrlarda geperin ishlatiladi. Buyrak yetishmovchiligi rivojlanganda — gemodializ, qonning ultrafiltratsiyasi yoki gemosorbsiya qilinadi. Anemiya kuchli bo'lsa, donor qoni quyish tavsija etiladi. Zaruratga qarab yurak tomir dorilari, tirishishga qarshi dorilar ishlatiladi.

**Oqibati.** To'g'ri va o'z vaqtida davolangan taqdirda, kasallik tez va to'liq davolanish bilan yakunlanadi. O'lim asosan tropik bezgakning xavfli kechimida, ko'proq bolalarda (5%) kuzatiladi. Umuman bezgakdan bo'ladigan o'lim o'rtacha 4% ni tashkil etadi.

Bezgakdan tuzalgalarni kasalxonadan chiqarish — xos davolash kursi to'liq tugallangach, bemor to'liq klinik sog'aygach, qon surtmasida parazit aniqlanishi to'xtagach, umumiyligida qon va siyidik ko'rsatkichlari normallashgach amalga oshiriladi. Kasallikning og'ir shaklini o'tkazgan shaxslar 1 oy davomida ishdan ozod etiladi.

**Profilaktikasi.** Bezugakning oldini olishda ko'rildigan barcha chora va tadbirdilar majmui epidemiologik jarayonning asosiy bosqichlariga qaratiladi. Aktiv ravishda va o'z vaqtida kasallar va parazit tashuvchilarni aniqlash hamda to'liq davolash, Anopheles chivinlari hamda suv xavzalarida ularning lichinkalarini yo'qotish, shuningdek aholining bezgakkanisbatan chidamlilagini (ximiiprofilaktika yo'li bilan) oshirish shular qatoriga kiradi.

Aniqlangan parazit tashuvchi shaxslar albatta gamontotsid dorilar (xloridin, proguanil, xinotsid, primaxin va b.) bilan davolanishi kerak. Bemorlar esa albatta kasalxonaga yotqizib (chivin chaqishidan asrab) davolanadi va kasalxonadan, parazitdan forig' bo'lganidan keyin 1—2 hafta o'tgach chiqariladi. Dispanser kuza-tuv, tropik bezgakda — 1—1,5 yil, uch kunlik bezgakda — 2—2,5 yil olib boriladi. Bu davr ichida, kuzatiluvchi shaxsda har qanday isitma bo'lsa ham qondan surtma va "qalin tomchi" tayyorlanib bezgak plazmodiyalariga tekshiriladi.

Endemik hududlarda aholining ximioprofilaktikasi chivinlarning birlamchi generatsiyasi boshlanishidan 1—2 hafta oldin boshlanib butun endemik davrda va bu davr tugagach yana bir oy davomida olib boriladi.

Shaxsiy profilaktika maqsadida ko‘proq gematoshizotrop preparatlar (xloroxin, fansidar, meflaxin va b.) endemik hududlarga chiqishdan 3—5 kun oldindan boshlab, butun bezgakli hududda bo‘lgan davri (2—3 yil) va unday hududlardan qaytganidan keyin ham 4—8 hafta davomida berib boriladi. Bu preparatlar bezgakning endemik turlariga qarab haftada yoki kunda 1—2 marta qabul qilinadi.

Uch kunlik va to‘rt kunlik bezgaklar o‘chog‘ida, odatda, delagil 0,5 g dan haftada 1 marta, amodiaxin 0,4 (asosi) haftada 1 marta beriladi. Xloroxinga chidamli tropik bezgak tarqalgan hududlarda haftada 1 marta, fansidar tabletkasi, mefloxin 0,5 g haftada 1 marta, yoki shveysariya preparati bo‘lishi fansimer (mefloxin va fansidarning birikmasi) haftada 1 tabletka beriladi.

Vivax — bezgakgi o‘chog‘idan kelgan shaxslarga residivlar mavsumi oldidan ximioprofilaktika — primaxin bilan (sutkada 15 mg asosi 14 kun) o‘tkaziladi.

Transfuzion bezgakning oldini olish uchun donorlarni to‘g‘ri tanlash, bu maqsadda ularni ham parazitologik va ham serologik tekshiruvlardan o‘tkazish zarur.

Ushbu choralar bilan bir qatorda chivinlar chaqishidan saqlanish choralarini ko‘rish — to‘rparda va pashshaxonalardan foydalanish, teriga va kiyimlarga repellentlar (DETA, dimetilftalat va b.) surtish, himoyalovchi kiyimlardan foydalanish kerak.

Hozirda shizontlarga va sporozoitlarga qarshi vaksinalar yaratilgan va qo‘llanmoqda.

Endemik o‘choqlarda bezgakka qarshi JSST ning ko‘p yillik dasturi bo‘yicha keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda.

### **Leyshmaniozlar (leyshmanioz. leishmanioses)**

Leyshmaniozlar — odam va hayvonlarda uchraydigan, asosan ichki a‘zolarning (visseral leyshmanioz) yoki teri va shilliq pardanning (teri leyshmaniozi) zararlanishi bilan namoyon bo‘ladigan kasalliklar guruhidir.

Leyshmaniozlar transmissiv yo‘l bilan yuquvchi parazitar kasalliklar bo‘lib, ko‘proq tropik va subtropik o‘lkalarda, shuningdek Markazi Osiyo va Kavkazorti Respublikalarida tarqalgandir.

JST ning (1968) bergen ma’lumoti bo‘yicha leyshmanioz dunyoning 76 mamlakatida qayd etilgan.

Hozirgi vaqtida Eski Dunyo va Yangi Dunyo leyshmaniozlari farq etiladi.

## **I. Eski Dunyo leyshmaniozlari**

### *A. Teri terlari:*

1. Antroponoz yoki kech yaralanuvchi;
2. Zoonoz yoki o‘tkir nekrozlanuvchi;  
O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Eron va Iroqda tarqalgan;
3. Efiopiya teri leyshmaniozi;
4. G‘arbiy Afrika teri leyshmaniozi.

### *B. Visseral terlari:*

1. Hindiston kada-azari (antroponoz);
2. O‘rta yer-dengizi — O‘rta Osiyo visseral leyshmaniozi;
3. Xitoy visseral leyshmaniozi;
4. Sharqiy Afrika visseral leyshmaniozi.

## **II. Yangi Dunyo leyshmaniozlari**

1. Chiklerlar (mahalliy ishchilar) yarasi;
2. O‘ta-teri leyshmaniozi;
3. Terining tarqoq (diffuz) leyshmaniozi;
4. Espundiya-teri shilliq parda leyshmaniozi.
5. Yangi Dunyoning visseral leyshmaniozi.

**Qisqacha tarixiy ma’lumotlar.** Leyshmaniozga oid ma’lumotlar qadimgi olimlar, jumladan Gippokrat yozmalarida ham uchrasada, leyshmanioz haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumot P.F.Borovskiyning (Toshkent, 1997) kasallik qo‘zg‘atuvchi parazitni aniqlashi bilan bog‘liq bo‘ldi. U ilm olamida birinchi bo‘lib teri leyshmaniozini qo‘zg‘atuvchi paraziti haqida aniq ma’lumot berdi.

1900-yilda Angliyalik harbiy vrach Leyshman shu kasallikdan o‘lgan murdaning talog‘idan, 1903-yilda Hindistonda Danovan bemor talog‘idan kasallik qo‘zg‘atuvchi parazitni aniqladilar va bir vaqtida (1903) e’lon qildilar. Shuning uchun ham bu kasallikni qo‘zg‘atuvchi parazit Leishmoni donavani deb ataladi. Keyinchalik

Leyshmani — Donavani morfologik jihatdan Borovskiy aniqlagan parazit bilan aynan bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi. Aka-uka Serjent va boshqalar (1921) ko'p tajribalar asosida, kasallikni tarqatuvchi (yuqtiruvchi) — iskabtopar chivinlar ekanligini isbot etganlar. 1908-yilda Nikoll visseral leyshmaniozning tabiatdagi asosiy manbalar ekanligini taxmin qildi.

1913-yilda V.L.Yakimov Markaziy Osiyo va Kavkazorti o'lkkalarida visseral leyshmaniozning tabiiy o'choqlari mavjud ekanligini, shuningdek (1915-yilda) O'rta Osiyoda teri deyshmaniozi qo'zg'atuvchisining ikki turi: *L.tronica* major va *L.tronica* minor bor ekanligini hamda visseral leyshmaniozni Turkiston o'lkasida odamlar va itlar orasida keng tarqalganligini aniqladi. Keyinchalik Toshkentda N.I.Xodukin va M.S.Sofievlar, Samarqandda L.M.Isaev va boshqalar leyshmaniozning epidemiologik xususiyatlarini (parazitning tabiatdagi manbayi sifatida — itlarni, yuqtiruvchilar sifatida - iskabtoparlarni rolini) o'rganishda katta ishlar olib bordilar.

N.I.Latishev 1937—1940-yillarda birinchi bor Turkmanistonda zoonoz teri leyshmaniozining, 1947-yilda Tojikistonning janubida visseral leyshmaniozning tabiiy o'choqlari mavjud ekanligini aniqlagan.

1951—1953-yillar N.A.Mirzoyan visseral leyshmaniozni solyusurpmi bilan davolashning samarali usulini taklif etdi.

1950-1970-yillar davomida Sobiq Ittifoqda va jumladan bizning respublikamizda olib borilgan, leyshmaniozga qarshi ulkan tadbirlar tufayli o'lkkamizda leyshmaniozning ayrim (antropoz teri leyshmaniozi va visseral leyshmaniozning shaxar) turlari deyarli tugatildi.

### **Visseral leyshmanioz (*Leishmaniosis visceralis*)**

Visseral leyshmanioz — to'lqinsimon isitma, taloq va jigarning kattalashuvi, anemiya, leykopeniya, trombotsitopeniya hamda kaxeksiya bilan namoyon bo'lувчи surunkali transmissiv parazitar kasallikdir. Uning ikki turi farqlanadi: 1) antropoz; 2) zoonoz visseral leyshmaniozlar.

Visseral leyshmanioz Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika qit'alarining tropik, subtropik va qisman o'rta iqlimli mintaqalarida, jumladan Sobiq Ittifoqning Markaziy Osiyo va Kavkaz orti respublikalarida tarqalgan.

Bizning respublikamizda visseral leyshmaniozning O'rta Osiyo (bolalar kala-azar) turlari kamdan-kam bo'lsada uchrab turadi.

1942-yilda kala-azar kasalligi o'ziga xos antroponoz invaziya ekanligi ma'lum bo'ldi.

## **O'rta yer-dengizi — O'rta Osiyo visseral leyshmaniozi**

**Epidemiologiyasi.** Visseral leyshmaniozning qo'zg'atuvchisi hujayralar ichida yashovchi parazit — leyshmaniya — Danovani (Leishmania-Donovani incantum bo'lib, u sodda hayvonlar (rrotozoa) ti piga, Leishmaniaavlodiga, xivchinlilar (Flagellata) sinfiga mansubdir. U yumaloq, tuxumsimon yoki noksimon shaklda bo'lib, ikkita (trofik va qo'zg'aluvchan) yadrosi mavjud. Leyshmanianing uzunligi 2—5, eni 1—3 mkm bo'ladi. Uzunasiga bo'linish yo'li bilan jinsiz ko'payadi. Romanovskiy usuli bilan bo'yalganda yadrolari binafsha rangga bo'yaladi. Parazitni ko'paytirish uchun ozuqa muhit sifatiga NNN (suyak ko'migi yoki taloqdan olingan punktatga fibrinsizlangan qon ko'shib tayyorlangan) moddasidan foydalанилди. Ular 22—30 daraja issiqlikda yaxshi ko'payadi. Leyshmaniyalar odam organizmida, hujayra ichida xivchinsiz (amastigotlar), iskabtopar ichida esa xivchinli (promasti-gotlar) bosqichida parazitlik qiladi. «Alastigotlar» adabiyotda «mikromastigot» lar deb yuritiladi (Jadin, 1974).

Leyshmaniyalar odam organizmida asosan retikulo-endotelial hujayralar va monotsitlar protoplazmasida erkin ko'payadi. Bitta hujayra protoplazmasida 10—20 tagacha va undan ortiq parazit bo'lishi mumkin; hujayra yorilganda leyshmaniyalar boshqa hujayralarga o'tib ko'payadi va ularning halokatiga sabab bo'ladi.

Barcha turdag'i leyshmaniozlarning qo'zg'atuvchilar morfologik jihatdan juda o'xshab bo'lsada, patogenetik xususiyatlari bilan bir-

biridan farq qiladi. Ular ikki xil xo‘jayin a’zolarida umurtqalilarning hujayra parazitlar qatoriga kiradilar.

**Epidemiologiyasi.** O‘rta yer dengizi — O‘rta Osiyo visseral leyshmaniozi — o‘choqli tarqalishga moyil zoonoz kasallikdir. Leyshmaniyalarning manbayi, kala-azarda — bemor odam, O‘rta Osiyo visseral leyshmaniozida infeksiyaning tabiiy rezervuar kasallangan hayvonlar (daydi itlar, tuliklar, bo‘rsuqlar, bo‘rilar, jayralar va kemiruvchilar) hisoblanadi. Kasallikni tarqatuvchi iskabtopar chivinlar — flebotonus (*Rhlebotonus*) lar bo‘lib, ularning yer yuzida 600 dan ortiq turi, O‘rta Osiyoda esa 22 turi aniqlangan. Ular havo harorati Q6° dan Q18° darajagacha bo‘lgan joylarda yashaydi va yer to‘lalar, devor kovaklari, saroy va omborxonalar, axlatxonalar, hojatxonalar hamda kemiruvchi hayvonlarning uyalari, tovuqxonalar va parrandalarning inlarida tuxum qo‘yadilar.

Odatda, iskabtoparlarning urg‘ochilari qon so‘radi. Iskabtopar kasallangan hayvon yoki odamni chaqqanida (asosan tunda chaqadi), uning oshqozoniga qon bilan tushgan parazit ko‘payishning leptomonad (xivchinli) bosqichini o‘tkazadi. So‘ng ko‘payishda davom etib, 7—8 kunda chivinning og‘iz bo‘shlig‘iga tushadi. Shu kundan boshlab iskabtopar odamlar va hayvonlarni chaqqanida ularga parazitni yuqtiradi. Qon quyish (gemotransfuziya) orqali ham kasallikning yuqish hollari kuzatilgan. Leyshmanioz tabiiy o‘choqli kasallikdir. U tarqatuvchi iskabtoparlar yashadigan joylardagina uchraydi. O‘rta Osiyo va Kavkaz orti respublikalarida leyshmaniozning endemik o‘choqlari mavjud. Leyshmaniozning bu turi bilan asosan 1 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar hamda o‘sha o‘choqlarga yangi kelgan odamlar kasallanadi. Kasallik ko‘proq sporadic holda, biroq shaharlarda ba’zan endemik ko‘tarilishlar holida kuzatiladi. Yuqish asosan bahor va yozda bo‘lib, kasallanish kuzda yoki kelgusi yil bahorida bo‘ladi.

Leyshmaniozda tabiiy va orttirilgan immunitet bo‘ladi. Leyshmanioz bilan bir marta kasallanib o‘tgan shaxslarda qayta kasallanish kuzatilmaydi. Bu holat kasallikdan keyingi immunitetning turg‘un ekanligi va umrbod saqlanishidan dalolat beradi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Leyshmaniozning barcha turlarida ham birinchi marta zararlangan organizmda makrofaglar sistemasi jarohatlanadi. Visseral leyshmaniozda ham parazitning odam organizmiga tushishi teri orqali sodir bo‘ladi. Terida parazitning bir qismi o‘lib, bir qismi xivchinsiz shaklga o‘tib ko‘payadi va ayrim hollarda terida birlamchi affekt (turguncha) hosil qiladi. Terida saqlanib qolgan leyshmaniyalarning bir qismi limfa yoki qon oqimi orqali ichki a’zolarga tarqaladi, ya’ni generalizatsiyalashadi. Birlamchi tuguncha ko‘rilgan kunidan to generalizatsiya alomatlari ko‘ringucha — 4—7 haftadan 5—7 oygacha vaqt o‘tadi. Ayrim hollarda birlamchi affekt generalizatsiyaga o’tmasdan, boshqa kasallik alomatlari rivojlanmasdan tugashi ham mumkin.

Infekcion jarayon generalizatsiyalashgan taqdirda, qonga tushgan leyshmaniylar retikulo-endo telial sistema a’zolari (jigar, taloq, suyak iligi, ba’zan regionar limfa tugunlari) hujayralariga joylashib olib ko‘payadi. Bu a’zolarda generalizatsiyalashgan limfotsitogenezining rivojlanishi jigar taloq va limfa tugunlarining anchagina kattalashishiga va faoliyatining buzilishiga olib keladi hamda og‘ir gi pergammaglobulinemiya va limfotsitar leykopeniyaning ortib borishi bilan ifodalanadi.

Parchalangan leyshmaniyalar va ularning metabolistik ajralmalarini organizmga zaharli ta’sir etib, umumiy intoksikatsiyani yuzaga keltiradi.

Keyinchalik organizmda parazitga qarshi antitelolar (avvalida IgM, kamroq IgG) paydo bo‘ladi va u umrbod saqlanadi.

Visseral leyshmaniozda bo‘ladigan patogistologik o‘zgarishlar — retikuloendotelial to‘qimalarda gi perplaziya va barcha a’zo (jigar, taloq, suyak iligi, limfa tugunlari, o‘pka, buyrak, ichak va b.) larda endotelioz alomatlardan iborat bo‘ladi. Qon ishlab chiqaruvchi to‘qimalarning kuchli jarohatlanishi suyak iligining leykotsit va eritrotsitlar ishlab chiqarish faoliyatining buzilishiga, oqibatda, visseral leyshmaniozga xos gipoxrom anemiya va leykopeniya rivojlanishiga olib keladi.

**Klinikasi.** O‘rtta Osiyo visseral leyshmaniozi bilan asosan bolalar (ko‘proq 1—5 yoshdagi) va faqat 5% kattalar kasallananadilar. Kasallikning rivojlanishi va kechimida quyidagi: inkubatsion,

prodromal, boshlang‘ich, avj olgan va kaxeksiya davrlarni farqlash mumkin.

**Kasallikning inkubatsion davri**, asosan 3 oydan 1 yilgacha (o‘rtacha 6–8 oy), biroq ayrim kuzatishlar bo‘yicha (N.A.Mirzoyan, 1953) ba’zan hollarda 3 oydan kam (20 kun) va 1 yildan ortiq bo‘lishi ham mumkin.

Продромал давр белгилари аста-секин ортиб боради. Иштаганинг пасайishi, холизм, серзардалик, ингилик, катталарда — исх қобилиятининг пасайishi каби аломатлар билан намоён бо'лади. Ба'зан катарал ва дисептик белгилар ham кузатилиши mumkin. Оонда бироз левкотитоз, лимфотитоз ва монотитоз бо'лади.

Bir, bir yarim yili bemorlarda, ba'zan kattaroq bolalarda va kattalarda ham chivin chaqqan joyda papula (birlamchi affekt) paydo bo'ladi. Ayrimlarda papula usti kepaklangan bo'ladi. Uni to'g'ri baholash juda ahamiyatlidir. Chunki bu belgi, kasallik alomatlari paydo bo'lishidan ancha oldin ko'rinishadi.

Boshlang‘ich davri — quvvatsizlik, loqaydlik, ishtahasizlik, rangparlik singari belgilarning asta-sekin ortib borishi bilan birga subfebril (noaniq) harorat, taloq va jigarning kattalashuvi kuzatiladi. Qonda biroz leykopeniya bo‘ladi.

Kichik yoshdagi bolalarda kasallik belgilari shiddat bilan boshlanadi. Isitma, odatda, sekin ( $37,5-38^{\circ}\text{C}$ ), ba'zan to'satdan ( $38,5-39,5^{\circ}\text{C}$ ) ortadi. Intoksikatsiya alomatlari ham ortib borib, 2 hafta ichida bemor bolaning ahvoli keskin og'irlashadi. Bolaning rangi oqargan, jigar va talog'i biroz kattalashgan bo'ladi. Qonida - leykoreniya, neytropeniya, gipo- yoki aneozinofiliya, nisbiy limfotsitoz va monotsitoz, EChT esa  $25-30$  mm/s gacha ortgan, eritrotsitlar va gemoglobin miqdori biroz kamaygan bo'ladi.

Kasallikning avj olgan davrida shu xastalikka xos belgilarning barchasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Isitma barqaror bo‘lib, tana harorati ko‘proq remittik, ba’zan subfebril yoki aksincha, gi piretik ( $39-40^{\circ}\text{C}$ ) tarzda ko‘tariladi. Ko‘proq tifssimon va gektik tipdaayrimlardanormal holatda(apirektik) bo‘ladi.Ba’zi hollarda tana harorati ko‘tarilishi bir kunda ikki marta (Rodgers isitmasi) bo‘lishi mumkin.

Bemor bolalarda holsizlik, injiqlik, kattaroq bolalar va kattalarda keskin quvvatsizlik, loqaydlik singari alomatlar kuzatiladi. Bemorning rangi oqargan, ozg'inlashgan bo'ladi.

Jigarning va ayniqsa taloqning kattalashuvi visseral leyshmaniozning xos belgilaridandir. Taloq 3—6 oy davomida tez kattalashib boradi. Kattalashish ko'proq o'ngga va pastga qarab bo'lib, pastgi qirrasi ayrim hollarda chanoq suyagigacha tushadi. Ba'zan juda qattiq va katta, biroq og'riqsiz bo'ladi. Ayrim hollarda biroz og'riq seziladi. Bu a'zolarning og'riqli bo'lishi yallig'lanish a'zoning parda qismiga ham o'tganligi (periosplenit yoki perigepatit) dan darak beradi. Ayrim hollarda taloqda infarkt bo'lishi mumkin. Jigarning kattalashishi (80%) bemorlarda nisbatan sekinroq va kamroq bo'ladi. Ayrim hollarda taloqdan ham ko'proq kattalashgan bo'lishi mumkin. Bemorning qorni kattalashgan taloq va jigarning hisobiga juda katta bo'ladi. Bemor kundan-kunga ozib, ahvoli og'irlashib boradi. Ko'pincha gemorragik alomatlar (teriga, shilliq pardalarga qon quyilishlari, burun va ichakdan qon ketishi) kuzatiladi. Taloqning salmoqli kattalashuvi va jigar fibrozi tufayli portal gipertenziyarivojlanishiga, shish vaistisqo paydo bo'lishiga olib keladi. Ularning yuzaga kelishga gi poalbuminemiya sababchi bo'ladi.

Visseral leyshmaniozda, shuningdek, periferik, bronx atrofi, charvida bo'ladi va boshqa guruh limfatik bezlarning jarohatlanishi, ya'ni polilimfadenit, mezodenit, bronxoadenit rivojlanishi va oqibatda hurujli yo'tal va boshqa alomatlar yuzaga kelishi mumkin. Ko'pincha bakterial asoratlanishi tufayli zotiljam rivojlanishi kuzatiladi.

Taloq va jigarning kattalashganligi va diafragmaning yuqoriga ko'tarilganligi tufayli yurak o'ngga siljiydi va tonlari xiralashib qoladi. Tana haroratining normal holatida ham taxikardiya kuzatiladi, arterial bosim pasayadi. Anemiya va intoksikatsiya alomatlari ortgan sari yurak yetishmovchiligi alomatlari ortib boradi.

Ko'pchilik bemorlarda oshqozon-ichak tizimi faoliyati ham buziladi, ich ketishi kuzatiladi. Tanosil a'zolari faoliyatining buzilishi, ayollarda (oligo) aminoreya, erkaklarda esa jinsiy sustlik bilan namoyon bo'ladi.

Binobarin, kasallikning klinik manzarasi asosan: sistemali parazitar retikuloendotelioz alomatlari iborat bo'ladi. Kasallikning bu turini asosiy farqlovchi belgilaridan biri, unda hech qachon teri leyshmaniozi kuzatilmaydi. Undan tashqari, visseral leyshmaniozning bu turida teri qoraymaydi, aksincha teri oqorgan, «chin-nisimon», ba'zan shag'amsimon yoki yer rangli bo'ladi. Kasallikning og'ir va kechiktirilgan kechimlarida anemianing zo'rayishi bilan terining oqarishi ortib boradi.

Kasallikning avj organ davrida qonda bo'ladigan o'zgarishlar juda xarakterlidir. Oldingi bosqichda aytilganidek - neytroopeniya, gipo- yoki aneozinofiliya hamda nisbiy mono- va limfotsitoz kuzatilsada, biroq limfotsitlar va monotsitlarning absolut miqdori kamaygan bo'ladi. Leykotsitlar soni  $2-2,5 \times 10^9/l$  va undan kam, neytrofillar miqdori esa ba'zan 10% gacha kamayib, ularda toksik donadorlik paydo bo'ladi, agronulotsitoz bo'lishi mumkin, EChT — 50—90 mm/s gacha yetadi. Eritrotsitlar, gemoglobin, leykotsitlar va trombotsitlar miqdorini kamayishi ancha keskin bo'ladi. Eritrotsitlar miqdori  $1-2 \times 10^{12}/l$  va undan ham kam, gemoglobin — 40—40 g/l va undan kam bo'lishi, rangli ko'rsatkich 0,2—0,6 gacha tushishi mumkin, retikulotsitlar ortib, ba'zan normoblastlar paydo bo'ladi. Poykolotsitoz, anizotsitoz, anizoxromiya kuzatiladi. Eritrotsitlarning rezistentligi kamayadi va qonning ivish xususiyati susayadi. Globulinlar miqdori ortib (5,2% gacha), albuminlar kamayadi (1-3-3,4%) oqibatda albumin-globulin koeffitsienti 0,5—0,75 gacha pasayadi.

Biroq, ayrim bemorlarda remissiya uzoq bo'lgan taqdirda qonda bunchalik xos o'zgarishlar bo'lmashigi mumkin.

15—20% bemorlar siydigida biroz albuminuriya (infektions-toksik buyrak) holati ko'rildi.

Davolash choralari to'g'ri o'tkazilmagan taqdirda bemorning ahvoli kundan-kunga yomonlashib, juda ozib ketadi (kaxeksiya).

Kasallikning kaxeksiya yoki terminal davrida bemor juda ozib ketadi, terisi quruq, yupqalashgan, bolalarda xuddi sham singari sarg'ish ko'rinishda, kattalarda esa kulrang bo'lib; kepaklanib turadi, ba'zan mayda qon quylishlari ko'rildi. Muskullar tonusi keskin pasaygan, jigar va ayniqsa, taloqning juda kattaligi tufayli

qorni oldinga qarab shishigan bo'ladi. Bemorning yuzi kepchigan, oyoqlari shishgan, sochlari siyrak va mo'rt bo'ladi. Ular kam harakat va loqayd bo'lib qoladilar. Ko'pincha yiringli-nekrotik o'zgarishlar kuzatiladi.

Periferik qon manzarasi ko'rilmaga, albatta, asoratlari ikkilamchi infeksiyalar (zotiljam, yiring-nekrotik jarayonlar) ni hisobga olmoq zarur. Bunday asoratlar qo'shilganda qondagi leyshmaniozga xos leykopeniya o'rniga biroz leykotsitoz va neytrofilez bo'lishi mumkin. Bu davrda gi poxrom anemiya, leykopeniya va trombotsitopeniya darajasi juda keskin bo'ladi.

Suyak ko'migida retikulyar reaksiyaning kuchli hamda generalizatsiyalashgan holda bo'lganligi tufayli granulotsitopeniya va agranulotsitoz holda globulinlar silkishi va Bramaxari, Naypir va boshqa reaksiyalarning musbat bo'lishi kuzatiladi. Ayrim bemorlarda, bodamcha bezlari, og'iz shilliq pardasi va milkarda nekroz (noma) rivojlanadi.

Visseral leyshmaniozning kechimi *o'tk i r, ya r i m o'tk i r* va *s u r u n k a l i* bo'lishi mumkin. Kasallikni klinik namoyon bo'lishi va kechimi ma'lum bir darajada bemorning yoshi bilan ham bog'liq bo'ladi. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarda kasallikning boshlanishi va kechimi o't k i r (shiddatli) bo'ladi. Kam kuzatiladi. O'z vaqtida davolanmasa o'lim bilan yakunlanadi. Bemor bola odatda 4—6 haftadan keyin keskin ozib ketadi va boshqa kasalliklar qo'shilishi oqibatida o'ladi.

Kasallikning *ya r i m o'tk i r* kechimi 30% bemorlarda asosan ikki yoshdan katta bo'lgan bolalarda kuzatiladi. Kechimi og'ir bo'lib, shu xastalikka xos barcha belgilari (isitma, terining chinnisimon ko'rinishi, shish, taloqning juda kattaligi, keskin ozish va b.) yaqqol namoyon bo'ladi. Kasallik 5—6 oy, ba'zan 8—12 oy davom etadi. Asoratlanish ko'p kuzatiladi. Agar o'z vaqtida davolanmasa, o'lim bilan tugaydi.

Visseral leyshmaniozni surunkali kechimi, asosan, kattaroq (4—8) yoshdagagi bolalarda va kattalarda kuzatiladi. Nisbatan ko'p uchraydi, yengil kechadi va o'z vaqtida davolansa tuzalib ketadi. Kasallik 1—2 yil davom etadi.

**Asoratlari.** Visseral leyshmaniozning kechimi, ayniqsa bolalarda zotiljam, enterokolit, nefrit singari kasalliklar bilan yoki furunkulyoz, absesslar, yarali stomatit, nekrotik gingivit va hatto noma singari yiringli-nekrotik xastaliklar bilan asoratlanishi mumkin.

**Tashxisoti.** Visseral leyshmaniozning tashxisida avvalo anamnestik ma'lumotlarni (bir yil davomida bemorni bo'lgan joylari, iskabtopar chaqqanligi) hamda shu kasallikka xos klinik belgilarni (birlamchi affekt, isitma, taloq va jigarning kattalashganligi, anemiya, leykopeniya) aniqlanishi katta ahamiyatga ega. Birlamchi affektni, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda barvaqt (hatto generalizatsiyadan ancha oldin) paydo bo'lishi tashxis uchun juda muhimdir.

Visseral leyshmaniozni aniqlashda eng aniq samarali usul turli a'zolarda parazitni aniqlashdir. Leyshmaniyalarni aniqlash uchun qadimda ishlatib kelingan usullar (taloqning yoki limfa tugunlarini punksiyasi) yoki xavfliligi, yoki kam samarali bo'lganligi uchun qo'llaniladi. Hozirgi paytda suyak ko'migidan punktat olish (Kassirskiy N.A., 1930) usulidan keng foydalaniladi. Bu usulda leyshmaniyalar, bolalarda 97—98% da, kattalarda 95—96% da aniqlanadi. Ko'pchilik holatda, olingan punktatda juda ko'p leyshmaniyalar topiladi, biroq ayrim bemorlarda remissiya paytida va ayniqsa kattalarda leyshmaniyalar juda kam bo'lishi yoki butunlay topilmasligi mumkin. Bunday paytlarda qayta-qayta tekshirish o'tkaziladi.

Ayrim hollarda (5—10%) leyshmaniyalarni birlamchi affekt qirindisida yoki qonda aniqlashimiz mumkin.

Parazitologik tekshiruv uchun olingan materialdan surtmalar tayyorlab, Romanovskiy usuli bilan bo'yaladi va mikroskop (hozirgi davrda hatto elektron mikroskop) ostida ko'rildi. I.A.Kassirskiy taklif etgan — to'sh suyagini punksiya qilish usuli xavfli bo'lganligi va bundan ko'p qon olib bo'lmasligi tufayli 1950-yillardan boshlab yonbosh suyagiga punksiya qilish usulidan foydalanib kelinmoqda. Bu usul mutlaqo bexatar bo'lib, ko'proq punktat olish imkonini beradi va uni bir necha bor takrorlash mumkin.

Visseral leyshmaniozni diagnostikasida ishlatilgan teri-allergik sinama hamda (immunoferment usuli, enzim-nishonlangan antitelolar, komplementning biriktirish reaksiysi, immunopresi-

pitatsiya — immunodiffuziya va b.) reaksiyalardan faqat yordamchi sifatida foydalanilsada, ayrim hollarda ulardan olingen ma'lumotlar barvaqt qo'yish uchun qimmatli bo'lishi mumkin.

Leyshmaniyalarni undirish uchun suyakdan olingen punktat ozuqa sifatida NNN muhitidan foydalaniladi.

Serologik usullardan — kompliment biriktirish reaksiyasi, immunoferment analiz (IFA) va boshqalar qo'llanadi. Biologik usullaridan ham foydalanish mumkin.

**Taqqosiy tashxisoti** Visseral leyshmaniozning boshlang'ich davrida o'tkir septik brusellyoz, gripp, zotiljam, tif-paratif kasalliklari va ayniqsa bezgak kasalligi bilan taqqoslash zarur bo'ladi. Kasallikning keyingi bosqichlarida esa avvalo bezgakdan va so'ngra barcha taloq va jigarning kattalashishi, anemiya hamda leykopeniya bilan keluvchi kasalliklardan farqlash kerak.

Bezgak bilan visseral leyshmanioz o'rtasida o'xshashlik juda ko'p bo'lishi bilan birga, farqli tomonlari ham kam emas. Leyshmaniozda isitma xuruji bezgakdagi singari tartibi (har 48 yoki 72 soatda takrorlanuvchi) bo'lmaydi, kasallik bezgakka qaraganda uzoqroq cho'ziladi, leykotsitlar soni juda kamayib, gammaglobulin esa ortib ketadi. Leyshmaniozda isitmani kun davomida takroriy ko'tarilishi, ya'ni Rodjers tipidabo'lishi ham taqqosiy diagnostikada katta yordam beradi. Bemor qonda bezgak plazmodiyalari topilmagan taqdirda va bezgakka qarshi qo'llangan davo samarasiz bo'lgan hollarda leyshmanioz haqida o'yamoq kerak.

Leyshmaniozni boshqa o'xshash kasalliklardan o'z vaqtida farqlamoq uchun epidemiologik va klinik anamnezini, shuningdek klinik xususiyatlarini puxta o'rganmoq, klinik farqlamoq va zarur bo'lgan laborator tekshiruvlari o'tkazmoq kerak.

Visseral leyshmanioz agar o'z vaqtida aniqlab spetsifik davolanmasa 99—100% da o'lim bilan yakunlanishi, agar o'z vaqtida to'g'ri davolansa deyarli hamma bemorlar sog'ayib ketishligini aslo unutmasligimiz kerak.

**Davolash.** Hozirgi davrda leyshmaniozni davolashda qo'llanilayotgan dorilar orasida 5-valentin surma preparatlari eng samarali hisoblanadi. Ulardan *s o l- yu s u r m i n* (sin. — solyustibozan — FRG, pentonstam — Angliya, glyukontin — Fransiya) qo'llanganda 96—100% bemorlar tuzalib ketadilar. Solyusurmin

1969-yildan boshlab 20% li eritma sifatida ampulada 10 ml dan chiqarilmoqda. Bu eritmaning 1 ml da 0,041—0,047 g surma bor.

Leyshmaniozni solyusurmin bilan davolash tizimini O'zbekistonlik olim N.A.Mirzoyan (1953 y.) taklif etgan.

Preparat tizimda ko'rsatilgan dozada har kuni bir marta, katta yoshdag'i bemorlarga esa u dozani ikkiga bo'lib, yarmini ertalab, qolgan yarmisini kechqurun venaga yuboriladi. Agar 7-5 marta yuborilgandan so'ng bemorning ahvoli tuzalishga boshlanmasa, preparat dozasini bolalarga har bir kilogramm og'irligiga 0,15 g dan, kattalarga — 0,12 g dan oshirish kerak bo'ladi.

S u r m a preparatlari bemorda zotiljam, nefrit va sariqlik bo'lgan taqdirda juda ehtiyyotlik bilan qo'llanmog'i kerak. Davolash chog'ida dizenteriya, toksik dispepsiya, pnevmoniya, difteriya, skarlatina singari kasalliklar qo'shilgan taqdirda surma preparatlarini yuborish to'xtatilib, qo'shilgan kasallik alomatlari tugatilgandan keyingina qayta boshlanadi.

### **Solyusurminning turli yoshdag'i bemorlarda qo'llaniladigan dozasi (N.A.Mirzoyan bo'yicha)**

Bemorning yoshi va ahvoli	Preparatni 1-yuborish (g/kg)	Preparatni 2-yuborish (g/kg)	3- va undan keyingi yuborish (g/kg)	O'rtacha davolash muddati, kun
7 yoshgacha bo'lgan bolalar hali distrofik alomatlari rivojlanmagan	0,05	0,1	0,15	10-12
7 yoshgacha bo'lgan bolalar, distrofik alomatlari paydo bo'lgan yoki boshqa kasalliklar qo'shilgan	0,04	0,06	0,12	14-15
7—14 yoshdag'i bolalar	0,04	0,07	0,12	12,14
14 yoshdan katta bemorlar	0,04	0,07	0,1	14—16

Leyshmaniozni davolashda surmaning boshqa preparatlari ham ishlatalidi.

**N e o s t i b a z a n** (sin. Bayer 693 V) — 25% li eritmasi venaga yoki mushak orasiga yuboriladi. Birlamchi dozasi 0,1 g sutkalik maksimal dozasi 0,4 g. kichik yoshdagি bolalarga 0,05-0,1 g, 4—5 yoshdagи boallarga — 0,1—0,2 g., 6—8 yoshdagи bolalarga — 0,1—0,25 g., 9—12 yoshdagи bolalarga — 0,1—0,3 g beriladi. Davolash kursi 15—20 kun. Bu preparat qo‘llaganda sog‘ayish 80—90% bo‘ladi.

**P e n t a m i d i n i z o t i o n a t** (sin. — Lomidine) — 10% eritmasi mushak orasiga, har bir marta bemorning 1 kilogramm og‘irligiga 0,004 g hisobidan yuboriladi. Davo kursi 10—15 kun.

Ko‘pchilik kuzatishlar natijasiga ko‘ra leyshmaniozni davolashda qo‘llaniladigan dorilar orasida solyusurmin eng samarali bo‘lib, uni har kuni va ortib boruvchi dozalarda berish mumkin (Mirzoyan N.A.). shuningdek u bilan davolash kursi ham boshqa preparatlar-nikidan qisqa — 12 kun (masalan, surpminda — 62 kun, stibozanda — 48 kun) ekanligini hisobga olmoq kerak.

Leyshmaniozni davolashda spetsifik dorilardan tashqari patogenetik davo (antibiotiklar, vitaminlar, qon quyish, anemiyaga qarshi dorilar) hamda quvvatli ovqat parhezining ham ahamiyati kattadir.

**Oqibati.** Leyshmaniozning oqibati unga qo‘shilib asoratlan-gan kasalliklar (zotiljam, dispepsiya, bezgak va b.) va ularni davolash uchun qo‘llangan davo usullarimizning samaradorligiga bog‘liq. Leyshmaniozni asoratlanmagan kechimida, hozirgi davrda o‘tkazilayotgan davo tizimi 100% bemorlarda yaxshi samara bermoqda.

**Profilaktikasi.** Bemorlarni vaqtida aniqlash va davolash, leyshmanioz bilan kasallangan itlarni va boshqa hayvonlarni (kasallik manbayini) yo‘qotish hamda leyshmanioz uchraydigan o‘choqlarda iskabtopar chivinlarni qirish asosiy profilaktik tadbirlar hisoblanadi.

## **Teri-leyshmaniozi (leishmaniosis cutanea) (sin. Borovskiy kasalligi, yomon yara)**

Teri leyshmaniozi — terining iskabtopar chaqishi mumkin bo‘lgan ochiq qismida bir yoki bir necha yara hosil bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladigan trasmissiv parazitar kasallikdir.

Teri leyshmaniozi qamida issiq o‘lkalarda vaqtı-vaqtı bilan epidemiya shaklida tarqalib turgan. Hozirgi davrda, bizning o‘lkamizda teri leyshmaniozining antroponoz (shahar) turi tugatilgan. Zoonoz — tabiiy o‘choqli (qishloq) turlari esa kamdan-kam bo‘lsada uchrab turadi.

Zoonoz teri leyshmaniozi (Sinonimlari: pendin yarasi, o‘tkir nekrozlanuvchi teri leyshmaniozi, qishloq-sahro teri leyshmaniozi) — aniq tabiiy o‘choqli infeksiya bo‘lib, Afrika, Osiyo (Hindiston, Pokiston, Eron, Saudiya, Arabiston, Yaqin Sharq, Turkmaniston va b.) o‘lkalarda, O‘zbekistonning Buxoro, Navoyi, Qashqadaryo, Surxandaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, shuningdek Toshkent va Samarqand viloyatlari hamda Farg‘ona vodiysida uchraydi. Teri leyshmaniozi ham oxirgi yillarda juda kam uchraydi.

**Etiologiyasi.** Kasallikning qo‘zg‘atuvchisi *Leishmania tropica* minor bo‘lib, o‘zining antigenlik va biologik xususiyatlari bilan antroponoz (shahar) teri leyshmaniozining qo‘zg‘atuvchisi — *L.minor* dan farq qiladi. *L.tropica* tashqi qiyofasi bo‘yicha visseral leyshmaniozni qo‘zg‘atadigan *L.Donovanidan* farq qilmaydi. Ular bir-birlaridan faqat biologik va serologik xususiyatlari bilangina farqlanadi. Birinchi — ularning harakatsiz, ya’ni xivchinsiz davri umurtqalilar (odam va sut emizuvchi hayvonlar) organizmida; ikkinchi — harakatli, ya’ni xivchinli davri umurtqasizlar (chivinlar) organizmida o‘tadi.

**Epidemiologiyasi.** Teri leyshmaniozi zoonoz xilining asosiy manbayi turli xil qum sichqonlari hisoblanadi. Sahro va yarim sahroli hududlarda yashovchi boshqa xil yovvoyi kemiruvchilar va kamdan-kam hollarda toshbaqalar ham infeksiya manbayi bo‘la oladi.

Kasallikni yuqtiruvchi iskabtopar chivinlar — *Rhlebotomus raratasii*, *Rh.camcasicus*, *Rh.sergenti* hisoblanadi. Ular sahroda qum sichqonlarining inida (bitta inda 500 ga yaqin) istiqomat qiladi.

Kasallik transmissiv yo'l bilan, yoki qum sichqonlaridan iskabtopar orqali odamga yuqadi. Kasallikni yuqishi sahroli hududlarda aprel oyining ikkinchi yarmidan boshlab to setabr oyining oxirigacha davom etishi mumkin. Iskabtoparlar asosan tunda, ko'proq kechqurun yarim tungacha chiqadi.

Sichqon qoni bilan iskabtopar oshqozoniga tushgan xivchinsiz leyshmaniyalar (amastigotlar) bir sutka davomida xivchinli (lentomonal, promastigot) shaklga o'tadi va to'rtinchi sutkada iskabtopar tomog'ida to'planadi. Shunday qilib, iskabtopar qon so'rganidan 6—8 kun keyin odam va hayvonlar uchun xavfli bo'lib qoladi. Iskabtopar odamni chaqqanda parazit teriga kiradi va shu tariqa kasallik yuqadi. Issiq sahroda odamlar ustlarini yopmasdan va hatto yalang'och yotganlari tufayli chivin chaqishi va yara hosil bo'lishi terining barcha qismida ham bo'lishi mumkin.

Kasallik mavsumiy xarakterga ega bo'lib, epidemik mavsum asosan moy, iyun oylarida boshlanadi, eng ko'p kasallanish esa avgust-sentabr oylariga to'g'ri keladi. Ko'proq qishloq aholisi kasallanadi.

Endemik o'choqlarda mahalliy bolalarga nisbatan boshqa joydan kelgan bolalar va kattalar ko'proq kasallanadi. Bu hol mahalliy aholida oldindan orttirilgan immunitet borligidan dalolat beradi.

**Patogenezi va patanatomiyasi.** Iskabtopar chaqqanida teriga kirgan leyshmaniyalar tezda makrofaglarga (gistotsidlar, plazmatik hujayralarga) kirib olib ko'paya bo'shlaydi. Leyshmaniyalar tushgan joyda o'choqli produktiv yallig'lanish rivojlanib makrofaglarning to'planishi tufayli spetsifik granulemalar (leyshmaniomalar) hosil bo'ladi. Granulemalar makrofaglar, endotelial, plazmatik va limfold hujayralardan hamda fibroblastlardan tashkil topgan. Makrofaglar ichida ko'plab amastigetlar bo'ladi. Oradan 1—2 hafta vaqt o'tgach granulemalarda destruktiv o'zgarishlar rivojlanadi va yaralar paydo bo'ladi. Ayrim hollarda leyshmaniyalar limfa oqimi bo'ylab (hatto 5—70 sm masofaga) siljishi va spetsifik tugunlar, limfangait va limfadenitlar rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Teridagi gistologik o'zgarishlar spetsifik granulema sohasida yirik infiltratdan iborat bo'lib, u terining yuza qatlamida tarqoq holda, chuqur qatlamida esa ko'proq tomir atrofida joylashadi.

Teri leyshmaniozining zoonoz shaklida infiltrat markazida nekroz rivojlanishi va uning oqibatida yara hosil bo‘lish jarayoni juda barvaqt yuzaga keladi. Yaralar, odatda, bitib, chandiqlanib tuzaladi. Ayrim hollarda granulemalar yaralanmasdan so‘rilib ketishi mumkin.

Leyshmaniozda immunitet ancha mustahkam bo‘ladi, qaytadan kasallanish hollari juda kam uchraydi.

**Klinikasi.** Teri leyshmaniozining zoonoz (qishloq) xilida inkubatsion davr qisqa — o‘rtacha 2—4 hafta, ayrim hollarda 6—8 haftagacha cho‘zilishi mumkin. Teri leyshmaniozini N.F.Rodyakin (1962) taklif etgan klinik tasnifdan foydalaniladi: 1. Birlamchi leyshmanioma: a) surtma davri, b) yaralanish, d) chandiqlanish davri. «Keyin rivojlanadigan leyshmanioma. 3. Diffuz infiltratli leyshmanioma. 4. Silsimon teri leyshmaniozi. Keyingi ikki klinik turi leyshmaniozning antroponoz (shahar) xiliga xosdir.

Kasallik, odatda, o‘tkir boshlanadi. Dastlab chivin chaqqan joyda chi pqonsimon bo‘rtma, papula—birlamchi leyshmanioma hosil bo‘lib, kattalashib boradi. U tanada yallig‘lanadi, rangi qizg‘ish ko‘kimir, qattiq infiltratlangan bo‘lib, bezillab og‘rib turadi, ba’zan deyarli og‘rimaydi. Orada 1—2 hafta (kattalarda 1—2 oy) o‘tgach leyshmaniomaning markazida nekroz boshlanadi, yuzaki quruq qora po‘s bilan qoplanib turadi. Hosil bo‘lgan yaralarning kattaligi 10—15 mm gacha, qirrasi notekis, yoyilgan, nekrozlangan, chuqur bo‘lib, nekrotik-yiringli va qonli ajralma bilan to‘lib turadi va og‘riqli bo‘ladi.

Ba’zan leyshmanioma atrofida mayda tuguncha (limfangit) lar — keyingi leyshmaniomalar paydo bo‘ladi. Ayrim hollarda bu tugunchalar ham o‘z navbatida yaraga aylanadi va ular bir-biri bilan qo‘shilishi natijasida yaralarning kattaligi bir necha santimetrga yetishi mumkin. Kasallikning limfa tomirlari bo‘ylab tarqalishi oqibatida limfadenitlar ham yuzaga keladi.

Yaralarning bitishi — yara tubida granulatsiya hosil bo‘lishi bilan boshlanadi. Yara tubi donador tusga kiradi (baliq tuxumlari simptomasi) va orada 2—3 oy, ba’zan 6—8 oy o‘tgach asta-sekin tuzalib, o‘rnida umr bo‘yi yo‘qolmaydigan chandiqlar qoladi. Yara bitishi uzoq cho‘zilganda, ayniqsa yosh bolalarda, ko‘pincha

ikkilamchi yiringli infeksiya bilan asoratlanadi, abscess, flegmona, saramas yuzaga keladi va unga tashxis qo'yish ancha murakkablanadi.

Teri leyshmaniozining qishloq (ayniqsa, sahrolarda uchraydigan) xilida leyshmaniomalar soni 1—2 ta, odatda, 5—10, ba'zan 50—100 ta va undan ortiq (Slavin A.N. 222 ta leyshmaniomasi bor bemorni kuzatgan) bo'lishi mumkin. Yaralar ko'pincha tananing ochiq joylarida: yuzi, qo'l-oyoqlari, ba'zan butun tanasida joylashadi. Bitta chivin odamning ma'lum bir joyini 10-15 marta chaqishi mumkin, bunday hollarda leyshmaniomalar to'p-to'p bo'lib joylashadi.

Aksariyat yosh bolalar va o'smirlar orasida silsimon teri leyshmaniozi (metaleyshmanioz) kuzatiladi. U butun leyshmaniozlarning 6—7% ni tashkil qiladi. Silsimon leyshmaniozda oldin hosil bo'lgan chandiqlar atrofida yoki chandiq ustida mayda ko'kimir rangli leyshmaniozlar halqasi paydo bo'ladi.

Silsimon teri leyshmaniozida ham xuddi sil ogurugidagidak diaskopiyada «olma jelesi» fenomeni musbat bo'ladi.

Ba'zan qariyalar jarohatlangan terining talaygina sathi infiltratlanib, qalin tortib qoladi, ya'ni diffuz — infiltratli leyshmanioz rivojlanadi. Ko'pchilik hollarda infiltrat asta-sekin iz qoldirmay so'rilib ketadi.

**Tashxisoti.** Teri leyshmaniozini aniqlashda ham xuddi visseral leyshmaniozdagi kabi, avvalo epidemiologik va klinik ma'lumotlarga hamda kasallikning qo'zg'atuvchisi — leyshmaniyalarni topishga asoslanamiz.

Leyshmaniyalarni mikroskop ostida aniqlash uchun leyshmaniomalardan qirindi (yoki so'rma, kesma) olib, undan bir necha surtma tayyorlanadi va uni Romanovskiy usulida bo'yatib, ayniqsa ostida ko'rildi.

Leyshmaniyalar ko'pincha hujayralar, ayniqsa monotsitlar ichida g'uj bo'lib (1—2 tadan 20—30 tagacha) joylashadi. Tekshirilayotgan preparatlarda parazit har doim ham topilavermaydi, shuning uchun uni qayta-qayta va sinchiklab izlash kerak.

Teri leyshmaniozining tuberkuloid tipida Montenegro reaksiysi musbat natija beradi.

Teri leyshmaniozining zoonoz xilini antroponoz xilidan farqlash kerak. Buni osonlashtirish uchun P.V.Kojevnikov va boshqalar (1947) quyidagi jadvalni tavsiya etishgan.

### Teri leyshmaniozining ikki xilining asosiy belgilari

<b>Belgilari</b>	<b>Shahar (antroponoz) xili</b>	<b>Qishloq, cho‘l (zoonoz) xili</b>
Sinonimlari	Kech yaralanadigan leyshmanioz, yillik yara	Erta yaralanadigan leyshmanioz, Pendin yarasi
Inkubatsion davri	2—6 oy, ba’zan 1—2 yil	1—4 hafta
Jarayonning rivojlanishi	Ozroq papula—do‘mboqchalar	O’tkir yaralangan, ko‘pincha furunkulsimon infiltratlar
Yaraning paydo bo‘lishi vaqtি	Sekin	Tez
Limfangitlar	3—6 oy yoki undan keyin	1—3 hafta
Do‘mboqchalar soni	Kam	Ko‘p
Joylashishi	Juda kam	Anchagina
Epitelizatsiyaning hosil bo‘lishi vaqtি	Oyoqlarga nisbatan, yuzda ko‘p	Yuzga nisbatan oyoqlarda ko‘p
Faslga bog‘liqligi	Bir yil va undan ko‘p	2—6 oy
Epidemik tarqalishi	Kasallik yil davomida paydo bo‘lishi mumkin	Kasallik asosan yoz-kuzda (iyul-oktabr oylarida) uchraydi
Qo‘zg‘atuvchisining manbayi	Odam	Kemiruvchilar
Tarqalgan joylari	Asosan shaharda	Cho‘l, qishloq, qishloqqa yaqin shaharlarda
Leyshmaniozlarda Borovskiy tanacha-sining soni	Ko‘p	Kam
Oq sichqonlar uchun virulentligi	Kam	Katta
Immunitet paydo bo‘lishi	Shahar xili bilan kasallangan bemor qishloq xili bilan yana kasallanishi mumkin	Qishloq xili bilan kasallangan bemor shahar xili bilan yana kasallanishi mumkin
Qo‘zg‘atuvchisi	L.troricaminlr	L.troricamajor

Teri leyshmaniozdagi jarohatni ko‘pchilik dermatozlardan (furunkulez, teri raki, pastki lab o’smasi va b.) shuningdek moxov, zaxim, teri va limfatik bezlar tuberkulezi, retikulosarkomatoz va boshqalardan farqlash kerak bo‘ladi.

**Davolash.** Bemorni kasallikning davriga, bemorning ahvoli, kasallikning klinik belgilari va xiliga qarab davolanadi. Kasallik o‘tkir boshlanganda va yara bosqichida yallig‘lanishiga qarshi mahalliy dezinfeksiyalovchi eritma va malhamlar hamda mushak orasiga monomitsin (kattalarga 250000 BR kuniga 3 mahal, davolash kursiga 10000000 BR) yuboriladi. Monomitsin bolalarga tana og‘irligining har 1 kg ga 4000—5000 BR hisobidan kuniga 3 mahal beriladi. Aminoxinolon — 0,2 g dan 3 mahal, bir kursga 11—12 g beriladi.

Yaralar ko‘p va ular yiringli infeksiyalar bilan asoratlangan bo‘lsa, tomirga 5% solyusurmin eritmasi (bir kunda 3—10 ml, jami 20—25 marotaba) yuborish bilan birga antibiotik, sulfanilamidlar va autogemoterapiya buyuriladi. Kasallik boshlanish davrida leyshmaniomalar atrofiga monomitsin (100000 BR 0,5% li novokaindagi eritmasi) va urotropin (40% li) eritmalarini yoki 0,5% akraxining 1 (menokran) 1% li novokain bilan aralashmasi yuboriladi. Ana shu dorilar bilan ho‘llangan doka lattani yara ustiga qo‘yish yoki monomitsinli, 15% li salitsin va boshqa malhamlarni surtish ham yaxshi natija beradi. Metronidazol tabletkasi 250 mg dan 10 kun beriladi. Hozirgi davrda teri leyshmaniozini davolashda, ayniqsa bo‘rtmali bosqichida, lazer nurlaridan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu usul bilan davolanganda yara chandiqsiz bitadi. Kasallikning og‘ir kechimida 5-valentli surma preparatlardan foydalaniлади. Barcha davolash tadbirlari bemorning kuch-quvvatini ko‘paytiradigan davo choralarini bilan birga olib borish kerak.

**Profilaktikasi.** Profilaktik choralar asosan kasallik keng tarqalgan endemik o‘choqlarda iskabtopar chivnlarni hamda kasallik manbayi bo‘lgan kemiruvchi hayvonlarni yo‘qotishga qaratiladi. Kasallik o‘chog‘ida dezinfeksiya ishlari amalga oshiriladi. Endemik o‘choqlarda ishlovchi odamlarni chivin chaqishidan asrash choralarini ko‘riladi.

Teri leyshmaniozi qishloq (zoonoz) xili qo‘zg‘atuvchisining toza undirmasi (ya’ni *L.mojor* ning tirik ultrasini bilan (0,1—0,2 ml) emlash ham yaxshi natija beradi. Bu vaksinani endemik zonaga kirishidan 3 oy oldin qo‘llash kerak. Emlashdan hosil bo‘lgan immunitet umrbod saqlanadi.

## Toksoplazmoz (toxorlasmosis)

Toksoplazmoz — parazitar kasallik bo‘lib, asab sistemasining jarohatlanishi, jigar, taloq va limfatik tugunlarning kattalashuvi, ko‘pincha skelet mushaklari, miokard va ko‘zlarining jarohatlanishi bilan namoyon bo‘ladi.

**Tarixiy ma’lumotlar.** Kasallikni qo‘zg‘atuvchisi — toksoplazmalarni birinchi bor 1908-yilda italiyalik olim Srrendore (quyonlarda) va uning bilan bir vaqtida fransuz olimi Nicolle va Manceaux (*Ctenodactylus gandii* deb nomlanuvchi Afrika kemiruvchilarida) aniqladilar. Srrendore toksi plazmalarni quyonlar, suv cho‘chqasi hamda itlarga yuqtirish ustida tajribalar olib bordi va parazit haqida birlamchi ma’lumotlarni berdi. Keyinchalik quyonlar va boshqa kemiruvchi hayvonlarning ichki a’zolaridan topilgan bu bir hujayrali, harakatsiz parazitlarning tuzilishi va hayot tarzini o‘rganishlari asosida mustaqil Toksi plazmoz (yoy, arka) jinsiga ajratdilar va ularni — Toksoplazmoz gandii deb atadilar.

Toksoplazma grekcha «tokson» — zahar va «plazma» — protoplazma ma’nosini anglatadi.

Toshkentda toksoplazmoz haqida batafsil ma’lumotlarni 1912-yilda V.L.Yakimov va N.Kol-Yakimovalar chop etishgan. Ular toksoplazmlarni itlarda aniqlashgan. 1930-yilda D.N.Zasuxin va N.A.Gayskiylar toksoplazmalarni G‘arbiy Qozog‘iston yumronqoziqlarida, G.Ya.Zmeyev esa 1935-yilda Turkmaniston kalamushlarida aniqladilar.

1914-yilda odamlarda toksoplazmozni birinchi bo‘lib A.Kastelani Seylon orolida shu xastalikdan o‘lgan soldatda kuzatdi va kasallik qo‘zg‘atuvchisini Toxorlasma ryrogenes deb atadi.

1916-yilda Rossiyada A.I.Fedorovich bemor bola qonida bezgak plazmodiyalarini qidira turib toksoplazmalarni aniqladi, xuddi shunday parazitlarni u itlarda ham topdi.

Chexiyalik olim Janku (1923) gidrotsefaliya, chap taraflama mikroftalm va sariq dog'ning ikki yoqlama kolobomasi singari holatlar bilan halok bo'lgan 11 oylik bolani kuzatish asosida tug'ma toksoplazmoz kasalligi haqida batasfil ma'lumot bergan.

Keyinchalik (1937—1955-y.) amerikalik virusolog Sabin o'z xodimlari bilan birga odamlarda va hayvonlarda toksoplazmoz kasalligini har taraflama chuqur o'rgandi. Ular toksoplazmalarni ko'pchilik hayvonlar va parrandalarga xavflilagini aniqlash bilan birga parazitni zararlangan hujayralarda ko'payish tarzini ham o'rgan-dilar.

**Etiologiyasi.** Kasallikning qo'zg'atuvchisi — Toxorlasma gandii, Toxorlasma avlodiga, Cocidia guruhi, Sroroza sinfiga, Rrotozoa ti piga mansubdir. Toxorlasma so'zi "yoy" yoki "arka" mansini bildirsada, tanasining shakli uning rivojlanish bosqichiga va rivojlanish o'rniga bog'liq bo'ladi. Trofozoit (endozoosit) bosqichida tanasi ning tuzilishi yarimoy shaklida yoki apelsin kesmasini eslatadi. Oldi tomoni ingichkaror, orqa tomoni esa yo'g'onlashgan bo'ladi. Tanasi ikki qavatli qoplama (pellikula) bilan qoplangan, uzunligi 4—7 mkm, eni — 2—4 mkm hajmda bo'ladi. Hujayra plazmasi bir tusli (gomogen) bo'lib, orasida mayda granulular mavjud. Yadrosining diametri 1,5—2 mkm. Ramanovskiy—Gimza usuli bilan bo'yalganda yadroси qizil rangga, hujayra plazmasi esa kulrang—zangori rangga bo'yaladi. Toksoplazmalar sirg'anish tarzida harakatlanadi.

Toksoplazmolar hujayra ichida istiqomat qiluvchi parazitlar bo'lib, ikki xil (jinsiy hamda oddiy bo'linish) yo'l bilan ko'payadi.

Jinsiy ko'payishi — gametogoniya, asosan mushuk va mushuksimon yovvoyi hayvonlarning ichak epitelial hujayralarida sodir bo'ladi. Og'iz orqali tashgan parazitlar ovqat—hazm yo'lida epitelial hujayralarga joylashib oladi va ko'plab b o' l i n i sh (shizogoniya) yo'li bilan ko'payib m e r o z o i t l a r hosil qiladi. Keyinchalik bu merozoitlarning bir qismi erkak (m i k r o g a m e t a), boshqa qismi urg'ochi (m a k r o g a m e t a) hujayralarga aylanadi. Gametotsitlar parazit yuqqanidan 3—15 kun keyin butun ingichka ichak bo'ylab, ko'proq quyi qismida aniqlanadi.

Bu ikki xil gametalarning qo'shilishidan puxta qobiqqa o'ralgan, 20—100 mkm kattalikdagi o o s i s t l a r vujudga keladi. Naja-

orgali tashqi muhitga tushgan ootsistlar uzoq vaqt saqlanishlari mumkin. Bir necha kundan keyin (harorat, namlik va kislorod yetarli bo‘lgan taqdirda) har bir ootsistdan to‘rttadan sporozoiti bo‘lgan ikkita *s p o r o s i s t a* hosil bo‘ladi va ular endi invazion (yuqish) xususiyatiga ega bo‘ladi.

Jinsiz ko‘payishi, — o‘z ichiga endodiageniya, endopoligeniya va shizogoniyalarni olib, oraliq xo‘jayinlarning barcha a’zolarida va shu jumladan mushukning ichagida sodir bo‘ladi. Bunday ko‘payish vegetativ ko‘payish bo‘lib ikki xil: endozoit va sistozoit turida kechadi. Endozoit toksoplazm invaziyasining boshlang‘ich davriga va shuningdek, generalizatsiyalashgan jarayonga xos. Kasallikning latent surunkali kechimi davrida esa sistozoit kuzatiladi.

Endozoitlar (taxizoitlar) endotelial hujayralar, jigar parenximatoz hujayralari, gistiotsitlar, limfotsitlar, pnevmotsitlar, miokard tolalari, neyronlar va boshqa parazit ko‘payishi mumkin bo‘lgan hujayralarning sitoplazmasida topiladi. Toksoplazmlar faqat tirik hujayra ichida ko‘payadi va juda qisqa (to boshqa hujayraga kirib olguncha bo‘lgan) vaqt davomida hujayradan tashqarida bo‘lishi mumkin. Yana shu narsa aniqlanganki (Kaufman H va boshqalar., 1962), toksoplazmning virulentli shtammlari virulentligi kamroq bo‘lgan shtammlariga nisbatan 2—3 marta tezroq ko‘payar ekan.

Odam organizmiga tushgan parazitlar retikuloendotelial sistema hujayralariga joylashib olib, ko‘ndalang bo‘linish yoki ichki kurtaklanish (endodiogeniya) yo‘li bilan ko‘payadi. Ichi parazitlar bilan to‘lgan hujayralar *p s e v d o s i s t l a r* deb ataladi. Psevdotsitlar yorilishidan ajralib chiqqanni toksoplazmlar boshqa sog‘lom hujayralarga kirib yana ko‘payadi va yana psevdotsitlar hosil qiladi.

Surunkali toksoplazmozda bemor a’zolarida xuddi hayvonlar a’zolarida bo‘lgan singari haqiqiy sistlar ham hosil bo‘lishi mumkin. Ular keyinchalik yoki qotib—ohaklanib qoladi yoki yorilib ichidan chiqqan toksoplazmlar boshqa sog‘lom hujayralarga o‘tishi oqibatida kasallikning qaytalanishiga (residivga) sababchi bo‘ladi.

Parchalangan hujayralardan ajralib chiqqan parazitlarning juda tezlik bilan boshqa sog‘lom hujayralarga kirib olishi, ularning faol xarakatidan darak beradi. Hujayra ichiga bunchalik tez (yaponiyalik

olim Hirai K va boshqalarning kuzatishlari bo'yicha — bir necha sekund davomida) kirib olishga, parazit nafaqat o'zining faol harakati, balki o'zidan ajratadigan maxsus faktor (REF) yordamida erishadi(Lycke va b., 1966).

Tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki — toksoplazm barcha tipdag'i hujayralarda ko'paya oladi, shuning uchun ham barcha turdag'i sut emizuvchilar va parrandalar oraliq xo'jayin bo'lib xizmat qiladi. Biroq sitopatogen ta'sir muddati turlichabo'lib, u hujayrati pigava yoshiga (Akinshina G.T., 1964), shuningdek, parazitning ko'payish ritmiga (Kaufman H va b., 1968) bog'liq. Toksoplazmnинг ko'payish ritmi uning virulentlik xususiyatiga mutanosib ekanligi aniqlangan.

Toksoplazmlar asosan RES hujayralarida, xususan makrofag-larda ko'payadi. Ko'payish asosan hujayra plazmasida sodir bo'ladi, biroq toksoplazmda hujayra yadrosga kirish va ko'payishga moyillik (tropizm) ham aniqlangan.

Sistalar devorining mohiyati va uning paydo bo'lish mexanizmi juda murakkab bo'lib, hali yetarli o'rganiilmagan. Sistalar ham ko'pincha hujayra ichida joylashadi, biroq hujayradan tashqarida bo'lishi ham mumkin.

Ko'pchilik hollarda sistalar atrofida hujayra infiltratsiyasi kuzatilmaydi, faqat ayrim yondosh gistotsitlarda o'choqli gi pertrofiya ko'riliishi mumkin.

Toksoplazmning virulentlik va antigenlik xususiyati uning turli shtammlarida turlichadir.

Aniqlanishicha, antigen tarkibida proteindan tashqari 12—15% miqdorida polisaxarid fraksiyasi mavjud, demak toksoplazma antigeni oqsil—uglevod majmuidan tashkil topgandir.

Trofozoit bosqichida toksoplazmlar termik hamda ba'zi kimyoviy moddalar ta'siriga chidamsizdir. Ular qizdirilganda (55°C) tez, 50% li spirt, 2% li xloramin, 1% li fenol eritmalar ta'sirida 5—10 daqiqa davomida nobud bo'ladi, quritish va quyosh nuri ta'siriga ham chidamsizdir.

**Epidemiologiyasi.** Toksoplazmoz zaminimizning barcha qit'alarida uchraydigan, zooantropoz kasallikdir. Kasallikning sinantrop va tabiiy o'choqlari mavjud. Tabiiy o'choqlarda tekshirilgan

hayvonlar va qushlarning barcha turlarida toksoplazmoz aniqlangan. Ular (ayniqsa quyonlar) orasida ommaviy abortlar bilan kechuvchi yirik va og‘ir epizootiyalar kuzatilib turadi. Epidemiologik nuqtayi nazaridan toksoplazmozni qishloq xo‘jaligi va uy hayvonlarini zoonozi deb qaralmog‘i kerak. Odam, odatda, sinantrop o‘choqlarda, ya’ni aholi yashaydigan joylardagi o‘choqlarda epidemiologik halqaga qo‘shiladi.

Sinantrop o‘choqlarda — mollar, qo‘y, echki, cho‘chqa, ot, tuya, eshak, it, mushuk, tovuq, o‘rdak, g‘oz, kurka, sayroqi qushlar, shuningdek, uy kemiruvchilari kasallik manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa mushuklar, a’zosida toksoplazmzlarning jinsiy ko‘payishi sodir bo‘lganligi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirda odamning, oraliq xo‘jayin bo‘lmish hayvonlar (qishloq xo‘jalik hayvonlari, it, kemiruvchilar) bilan muloqatda bo‘lishi, amalda kasallik yuqishiga olib kelmasligi aniqlangan. A’zosida toksoplazmlar bo‘lgan odam ham boshqa oraliq, xo‘jayinlar singari atrofdagilarga deyarli epidemiologik xavf tug‘dirmaydi. Shuningdek, toksoplazmni donorlik qoni orqali yuqishi yoki havo—tomchi yo‘li bilan, transmissiv va jinsiy yo‘llar bilan yuqishi, maxsus tekshiruvlar asosida inkor etilgan.

D.N.Zasuxinning (1980) takidlashicha, yuqish toksoplazmning barcha rivojlanish bosqichida — ya’ni endozoitlar, sistalar va ootsistalar orqali sodir bo‘ladi. Ootsistalarning alimentar yo‘l bilan yuqishi nafaqat xom go‘sht, balki ootsistlar bilan ifloslangan barcha ovqat turlari, shuningdek ifloslangan qo‘l, yaxshi yuvilmagan sabzavot, ho‘l mevalar (qulupnay) va boshqalar orqali ham (xuddi geogelmintozlar singari) sodir bo‘lishi mumkin.

Kasallikning yuqishi asosan og‘iz orqali — alimentar yo‘l bilan, xom yoki chala pishirlilgan go‘sht yoki qiyma iste’mol qilinganda (tatib ko‘rliganda) sodir bo‘ladi. Bu borada sut va sut mahsulotlarining roli ham deyarli yo‘qdir.

Toksoplazmlar yuqishining ikkinchi yo‘li — mushuklar ajratgan oosistlarni turli yo‘llar bilan (ifloslangan qum, tuproq yoki bevosita mushukning o‘zini tegishi tufayli ootsistlarni qo‘lga, idish—tovoqlarga o‘tishi sababli) og‘izga tushishidir. Xom go‘sht bilan ishlovchi — qassoplar, oshpazlar, uybekalari, shuningdek

ayrim soha tibbiyot xodimlariga parazit jarohatlangan teri yoki shilliq qavatlar orqali yuqishi ham taxmin etiladi. Bunday (geooral va kontaminatsion) yuqish mexanizmi kam kuzatilsada, mushukning epidemiologik ahamityatini kamaytirmaslik kerak.

Aniqlanishicha, mushuk yo‘q hududlarda (masalan, ba’zi bir orollarda) toksoplazmoz nafaqat odamlarda, balki qishloq xo‘jalik hayvonlarda ham yo‘q ekan. Shuning bilan birga, mushuk bor joylarda aholining turli qatlamlari, shu jumladan go‘sht yemaydigانلار (vegitarianlar) ham toksoplazmoz bilan zararlanganligi ko‘rilgan. Bu holat, mushuk toksoplazmozni epidemiologiyasida markaziy o‘rin tutadi degan xulosa qilishiga asos bo‘ladi. Demak, toksoplazmozning epidemiologik halqasini quyidagicha ifodalash mumkin (**Zarvaraqdagi 3-rasmga qarang**).

Laboratoriya xodimlariga kasallikni yuqishi, ularning jarohatlangan terilariga kuchli virulentli toksoplazmlar tushgan taqdirdagina sodir bo‘ladi. Ayrim hollarda ona qornidagi homilaga kasallik platsenta orqali yuqishi mumkin. Bu holat onaga toksoplazmoz homiladorlik paytida yuqqan taqdirdagina va onada parazitemiya bo‘lib platsentada cheklangan jarohatlanish bo‘lgan hollardagina sodir bo‘ladi. Binobarin, tug‘ma toksoplazmoz bo‘yicha xavfli guruhgа (gruppa riska) faqat shu homiladorlikkacha hech toksoplazm invaziyasi bo‘lmagan, ya’ni immuniteti yo‘q homilador ayollargina kiritilmog‘i kerak (Lisenko A.Ya., 1984). Homiladorlikdan oldin (hatto homiladorlikka yaqin kunlarda) toksoplazmozni yuqtirgan ayollar kasallikni homilaga yuqtira olmiyadilar, chunki homiladorlik davriga kelib taxizoidlarning rivoji to‘xtagan, sistalar esa to‘qimalarga joylashib olgan bo‘ladi.

Ko‘philik olimlarning takidlashi bo‘yicha ona o‘z hayotida toksoplazmozni homilaga faqat bir marta yuqtirishi mumkin xolos. Ya’ni, hayotida bir marta toksoplazmozli bola tuqqan ayol keyingi homiladorlikdan qo‘rmasligi mumkin (Lisenko A.Ya., 1984).

Kasallik yer kurrasining barcha qit’alarida va barcha iqlimi sharoitlarda tarqalgandir. Dunyoning ko‘philik o‘lkalarida o‘tkazilgan tekshiruvlarda aholining 6 dan 90% da toksoplazmga qarshi antitelolar borligi qayd etilgan: aholining toksoplazmoz bilan zararlanganlik darajasi G‘arbiy Yevropa va Shumoliy Amerika

davlatlarida 25—50% bo‘lsa, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika o‘lkalarida 90% ni tashkil etadi. Umuman Yer yuzi aholisining uchdan bir qismi toksoplazmoz bilan zararlangan deb hisoblanadi (Yornham R., 1971). Aholining zararlanish darajasi issiq o‘lkalarda sovuq o‘lkalarga nisbatan, qishloqlarda shahardagiga nisbatan yuqori bo‘lishi hamda hudud dengiz sathidan qancha yuqori bo‘lsa, shuncha zararlanish kam bo‘lishligi aniqlangan. Masalan, Islandiyada — 4—11% bo‘lsa, Ganduras, Gaiti singari issiq tropik o‘lkalarda — 64—68% bo‘lgan. Iqlimliy sharoitning ta’siri hatto bir o‘lka hududida ham seziladi. Aholi orasida infeksiyaning uchrashi yoshga qarab ham ortib boradi.

Kasallikning tarqalishiga yil fasllari ta’sir ko‘rsatmaydi.

Odamlar orasida kasallikka moyillik yuqori emas, ko‘proq yoshlar kasallanadi. Kasallik 60 yoshdan katta shaxslarda kam uchraydi.

**Patogenezi.** Og‘iz orqali tushgan to‘qima sistalari va ootsistalardan ajralgan bradizoitlar va sporozoitlar ko‘proq ingichka ichakning quyi qismida tezlikda epitelial hujayralari, so‘ngra esa limfa oqimi orqali regionar (mezenteral) limfa tugunlariga o‘tadi. Bu yerda toksoplazmlar ko‘payib yallig‘lanish chaqiradi va ajralib chiqqan taxizoitlar boshqa hujayralarga o‘tib, ularni ham zararlashi oqibatida ko‘plab mayda nekrozli o‘choqlar paydo bo‘ladi. Buni invaziyaning boshlang‘ich bosqichi, yoki birlamchi affekt deb qaraladi. So‘ngra tuzilishi jihatidan sil yoki qoraoqsoq granulemalarini eslatuvchi infeksion granulema hosil qiladi. A.Ya.Lissenkoning (1984) takidlashicha, boshlang‘ich bosqichdagi o‘zgarishlar klinik namoyon bo‘lmaydi, ya’ni kasallikning inkubatsion davriga to‘g‘ri keladi.

Keyinchalik toksoplazmlar qonga tushib qon orqali butun tanaga tarqaladi va retikuloendotelial sistemasi a’zolariga (jigar, taloq, limfatik tugunlar), boshqa parenximatoz a’zolar va shuningdek nerv sistemasi, yurak mushaklari hamda skelet muskullariga joylashib oladi. Bu invaziyaning generalizatsiyalashgan bosqichidir. Parazit a’zolarda ko‘payib borib, organizmda ularga qarshi immunitet ortgan sari uzoq yillar yoki umrbod saqlanuvchi sistalar hosil qiladi. Nerv sistemasi hamda mushaklarda nekroz o‘choqlari paydo bo‘lib, ular

keyinchalik qotib—ohaklanib qoladi. Ohaklanish toksoplazmozga juda xos belgilardandir.

Parazit yuqishi bilan uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonga tushishi (homilaga platsenta orqali yuqqanda yoki laboratoriya sharoitida yuqqanda) juda xavflidir, chunki hali immunologik jarayon rivojlanmaganligi sababli sepsis yuzaga kelishi va o‘lim bilan yakunlanishi mumkin. Chunonchi, patologik jarayonning og‘ir-yengilligi ko‘p jihatdan organizmning immunologik holati bilan belgilanadi.

Odamlar toksoplazmozga nisbatan chidamli bo‘lganliklari tufayli ularda og‘ir septik holatlar juda kam kuzatiladi. Generalizatsiya bosqichining boshlanishidan oq qonda antitelolar aniqlanadiki bu holat immunitet rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Organizmda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ko‘pchilikda klinik namoyon bo‘lmay, patologik jarayon turg‘un kompensatsiyalashadi va kasallik birlamchi — latent turda kechadi. Zararlanganlarning faqat 1% da xastalik sust, qaytalanib turuvchi surunkali turda va faqat 0,2—0,5% bemorlarda o‘tkir, dekompensatsiyalashgan va og‘ir turda namoyon bo‘lishi mumkin.

Shuning bilan birga, kasallikni latent kechimi yoki toksoplazmoz tashuvchilik davrida immunodepressantlarni qo‘llash kasallikning zo‘riqishi va generalizatsiyasiga olib kelishi va hatto o‘limga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik hollarda, immunitetni ortib borishi bilan, generalizatsiya bosqichi bir necha haftadan keyin p a r a z i t n i n g p e r s i s t e n s i y a s i bosqichiga o‘tadi. Hujayradan tashqaridagi parazitlar o‘ladi, faqat orqa miya suyuqligida uzoqroq aniqlanib turadi. Taxizoitlarning ko‘payishi to‘xtab (asosan mushaklar va MNS da), hujayra sistalarini paydo bo‘ladi. Juda kamdan-kam holarda sistalar yorilib faqat ayrim bradizoitlar boshqa hujayralarga kirib yangi sistalar hosil qilishi mumkin. Bu bosqichda gumoral antitelolar kam, teri allergik sinamasi esa turg‘in musbat bo‘ladi.

Toksoplazmorda tabiiy immunitet oldiniga taxizoitlar, keyinchalik (so‘nggi bosqichda) — bradizoitlar tomonidan antigenli qitiqlanib turadi. Hujayra sistasi ichidagi bradizoitlar doimiy ravishda o‘zidan immunogen metabolitlar ajratib turadi. Buning oqibatida

immunitet ma'lum bir darajada doimiy ushlanib turadi. Biroq bu immunitet persistensiya bosqichidagi parazitni yo'qotish uchun yetarli bo'lmasada, organizmni residivlardan va reinvaziyadan himoyalashga yetarlidir. Binobarin, toksoplazmozda immunitet nosterildir. Toksoplazmozda B- va T-lifotsitlar aktivligining susayishi tufayli uzoq vaqt immunosupressiya holati yuzaga keladi. O'ldirilgan yoki avirulent toksoplazmlar bilan immunizatsiya qilish virulentli parazit shtammlarining yuqishidan himoya qilaolmasada patologik o'zgarishlar og'irligini kamaytiradi.

Toksoplazmoz patogenezida organizmda bo'ladigan allergik o'zgarishlarning ahamiyati juda kattadir. Bunda kuzatiladigan allergik yuqori sezgirlik(гиперчувствительность) sekinlashgan tipda bo'ladi.

Homiladorlikning birinchi oylarida, qorinda homila zararlangan taqdirda, ko'pincha bola nobud bo'ladi va bola tashlash yoki o'lik tug'ish hollari kuzatiladi. Shuningdek, homila rivojining buzilishi (embriopatiya) va bola turli yetishmovchiliklar bilan tug'ilishi ham mumkin. Homiladorlikning so'nggi davrlarida zararlangan bola generalizatsiyalashgan toksoplazmoz alomatlari bilan tug'iladi.

**Patologik anatomiysi.** Orttirilgan toksoplazmozda, asosan limfatiktugunlarda— retikular gi perplaziya, granulemalar, ba'zan nekroz o'choqlari kuzatiladi. Orttirilgan toksoplazmozning og'ir generalizatsiyalashgan turida, kamqonlik alomatlari, seroz qobiqlarda qon quyilishlar, miyada qon dimlanishi, o'pka shishishi yoki zotiljam o'choqlari, jigar va taloqda nekroz o'choqlari ko'rildi. Jarohatlangan to'qimalarda parazitlar (trofozoitlar) topiladi.

Tug'ma toksoplazmozda, bosh miya yarimsharlari to'la rivojlanmay qolishi mumkin. Ependimaning jarohatlanishi, miya qorinchalarida chandiqlar hosil bo'lishi tufayli gidrotsefaliya rivojlanadi. Homila kechroq jarohatlanganda — miya qobig'i qismida nekroz o'choqlari, qobiq ostida ohaklanish, miya to'qimasi va qobiqlarda hosilali yallig'lanish alomatlari kuzatiladi. Aksariyat, meningoensefalistga xos o'zgarishlar, ko'zda esa endoftalm mit belgilari ko'rildi.

Tug'ma toksoplazmozning generalizatsiyalashgan turlarida miyaning jarohatlanishi, jigar va taloqning kattalashuvi, sariqlik, miokardit, zotiljam, ichakning yarali jarohatlanishi singari

o‘zgarishlar aniqlanadi. Ayrim hollarda kasallikning generalizatsiyalashgan va visseral turlarida miyada o‘zgarish kuzatilmasligi mumkin. Bu o‘zgarishlarning barchasi toksoplazmoz uchun spesifik emasdир.

**Klinikasi.** Toksoplazmozning klinik namoyon bo‘lishi juda ham xilma-xildir. Kasallikning asta-sekin rivojlanishi va ko‘proq boshlanishda birlamchi-latent yoki birlamchi surunkali turda rivojlanishi tufayli ko‘pincha inkubatsion davrini aniqlash qiyin bo‘ladi. Biroq kasallik odamga laboratoriya sharoitida yuqqanda inkubatsion davr 2 hafta (3–10 kun) bo‘lgan. Kasallikning yuqish mexanizmiga qarab orttirilgan va tug‘ma toksoplazmoz turlari, klinik kechishiga qarab o‘tkir, surunkali va latent kechimi farqlanadi.

### **Klinik tasnifi**

<b>I. Orttirilgan toksoplazmoz</b>	<b>II. Tug‘ma toksoplazmoz</b>
1.O‘tkir — ensefalitik, cerebral	1.O‘tkir (birlamchi generalizatsiya)
— tifsimon	
— toshmali	2.Surunkali
2.Surunkali	
3.Latent	3.Latent
— birlamchi	
— ikkilamchi	4.Rezidual

#### **I. Orttirilgan toksoplazmoz**

1. **O‘tkir toksoplazmoz** — odatda, kasallikning generalizatsiyalashgan, og‘ir turi bo‘lib, o‘tkir boshlanadi hamda isitma, umumiy kuchli intoksikatsiya, jigar va taloqning kattalashuvi bilan namoyon bo‘ladi. Faqat ayrim bemorlarda kasallik umumiy quvvatsizlik, mushaklarda og‘riq, qisqa muddatli ich ketishi singari prodromal belgilar bilan boshlanishi mumkin. Ko‘pchilik bemorlarda turli (aksariyat qizamiqsimon) toshmalar hamda markaziy nerv sistemasini (ensefalist, ensefalomielite singari) og‘ir jarohatlanishi kuzatiladi. Ensefalist alomatlari har doim generalizatsiyalangan toksoplazmozning boshqa klinik belgilari (isitma, miokardit, jigar va ba‘zan taloqning kattalashuvi va b.) fonida namoyon bo‘ladi.

Kasallikning kechimi har doim og‘ir bo‘lib, ba’zan o‘lim bilan yakunlanadi. O‘tkir toksoplazmoz ensefalitsiz o‘tishi ham mumkin. Bunda kasallik tifsimon yoki toshmali turda kechadi.

Hayotda orttirilgan toksoplazmozning og‘ir kechimi juda kam (asosan laboratoriya sharoitida favqulotda yuqtirganlarda, boshqa kasalliklardan toliqqanlarda yoki immunodepressantlar bilan davolanganlarda) kuzatiladi.

Asosiy klinik belgilarning namoyon bo‘lishiga qarab o‘tkir orttirilgan toksoplazmozning quyidagi turlari farqlanadi (Lisenko A.Ya., 1984): 1) limfadenopatik, 2) visseral, 3) serebral, 4) ko‘z.

*L i m f a d e n o p a t i k t u r i* ko‘p uchraydi (60—90%). Ko‘pchilik bemorlarda uzoq davom etgan subfebril harorat fonida kattalashgan (barcha, ko‘proq—chuqur bo‘yin) limfatik bezlar aniqlanadi. Kattalashgan bezlar qattiq, og‘iriqsiz bo‘ladi. Bemorlarning bir qismi lohaslik, quvvatsizlik, mushaklarda, boshda va tomoqda og‘riqqa shikoyat qiladilar. Limfadenit oylab davom etishi mumkin, biroq ko‘pchilikda yengil kechib, to‘satdan tuzaladi.

*V i s s e r a l t u r i* miokardit, pnevmoniya, enterokolit, sariqsiz gepatit singari alomatlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin.

Toksoplazmozda endokardit ko‘p kuzatiladi. Bemorda quvvatsizlik, vaqtı-vaqtı bilan ekstrosistoliya, AB pasayishi, EKG da — miokardda diffuz o‘zgarishlar bilan namoyon bo‘ladi.

Nafas sistemasidagi jarohatlanish surunkali bronxit, interstsial pnevmoniya hamda ko‘krak ichki limfa bezlarining kattalashuvi ko‘rinishida bo‘ladi. Ayrim bemorlarda enterokolit va xolesistit alomatlari kuzatiladi.

Toksoplazmozda kuzatilishi mumkin bo‘lgan sariqsiz gepatitni aniqlash qiyin, chunonchi jigar testlari ko‘pincha o‘zgarmaydi, faqat bilvosita bilirubin biroz ortishi mumkin xolos.

*S e r e b r a l t u r i* ko‘proq, ayniqsa bolalarda, ensefalit yoki ensefalomieliit ko‘rinishida namoyon bo‘lib, klinik jihatdan boshqa etiologiyali ensefalitlardan farqlanmaydi. Bu holat, har bir sporadik ensefalitli bemorda toksoplazmozga serologik tekshiruvlar o‘tkazish kerakligini taqozo etadi.

Ayrim toksoplazmozli bemorlarda serebral aroxnoidit va rodikulonevrit alomatlari ham kuzatilishi mumkin.

Orttirilgan toksoplazmozda ko‘zning jarohatlanishi (xorioretinit) kam kuzatiladi.

Patologik jarayonning so‘nishida kasallik i k k i l a m ch i s u - r u n k a l i turga o‘tib, ba’zi bir q o l d i q (r e z i d u a l) belgilar (simptomatik tutqanoq, aqlning pastligi va b.) namoyon bo‘ladi. Bir qisim rekonvalessentlar klinik belgilarsiz parazit tashuvchi bo‘lib qoladi.

2. ***Surunkali toksoplazmoz*** — ko‘pchilik a’zolarning (nerv sistemasi, ko‘z, miokard, muskullar va b.) jarohatlanishi, subfebril harorat hamda surunkali intoksikatsiya belgilari bilan davomli va sust kechuvchi kasallikdir. Xastalik asta-sekin, umumiyl quvvatsizlik, ishtahaning pasayishi, uyquning buzilishi, tajanglik, yurak sohasida og‘riq, mushaklar va bo‘g‘imlarda og‘riq, ba’zan ko‘rishning buzilishi kabi alomatlar bilan namoyon bo‘lib boradi.

Kuzatilganda bemorlarning deyarli barchasida tana haroratining subfebril darajada ko‘tarilganligi ko‘riladi. Isitma oylab davom etishi yoki vaqtı-vaqtı bilan to‘lqinsimon, apireksiya davri bilan almashib, ko‘tarilib turishi mumkin. Tarqoq — ham periferik (bo‘yin, qo‘ltiq osti, chov), ham ichki (mezenteral) limfa tugunlarining kattala-shuvi (ya’ni generalizatsiyalashgan limfadenopatiya) juda ko‘pchilik bemorlarda kuzatiladi. Ba’zan mezadenit kuchli namoyon bo‘lib, xato diagnozlarga (sil mezodeniti, appenditsit, adneksit va b.) olib keladi. Limfatik tugunlar oldiniga yumshoq, ushlaganda og‘riqli, keyinchalik esa kichrayib, qattiqlashib, kam og‘riqli yoki og‘riqsiz bo‘lib qoladi. Bemorlarning yarmidan ko‘pida jigar, aksariyatida taloq ham kattalashgan, jigar bir oz og‘riqli bo‘lsada, faoliyatining o‘zgarishi deyarli kuzatilmaydi.

Spetsifik miozit ham toksoplazmozda ko‘p uchraydigan belgidir. Mushaklar og‘riqli bo‘lib, ichida og‘riqli qattiq tugunlar aniqlanadi, rentgenda esa ayrim bemorlarda, mushak orasida ohaklanish ko‘riladi. Ba’zan bo‘g‘imlarda og‘riq bo‘lsada, yallig‘lanish alomatlari bo‘lmaydi.

Yurak-tomir sistemasining zararlanishi ham ko‘pchilik bemorlarda kuzatilib, qon bosimining pasayishi, ba’zan tomir

urishining tezlashuvi, ekstrasistoliya, yurak tonlarining xiralashuvi hamda yurak chegarasini chapga kengayishi kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi. EKG da esa deyarli barcha bemorlarda miokardda o‘choqli yoki tarqoq o‘zgarishlar aniqlanadi. Endokard va perikardda o‘zgarish bo‘lmaydi.

Surunkali toksoplazmorda nafas a’zolarining zararlanishi kuzatilmaydi. Ovqat hazm qilish a’zolarining zararlanishi — oshqozon sohasida biroz og‘riq, ko‘ngil aynashi, ishtahaning pasayishi, qorin kepchishi, qabziyat kabi alomatlar bilan namoyon bo‘ladi. Oshqozon shirasi tekshirib ko‘rilganda, uning ozayganligi, tarkibida kislota kamayganligi kuzatiladi. Rentgenda ko‘rilganda yo‘g‘on ichakning harakat faoliyati buzilganligi ko‘riladi. Aksariyat bemorlar ozib ketadi.

Ko‘pchilik bemorlarda asab sistemasida o‘zgarishlar kuzatiladi va ko‘p turli bo‘ladi. Ko‘proq kuzatiladigan alomatlar markaziy nerv sistemasi bilan bog‘liq bo‘ladi, periferik nerv esa kam zararlanadi. Ko‘pchilik bemorlarda nevrotik belgilar (ruhiyatning tez o‘zgarishi, ish qobiliyatining pasayishi, tajanglik, o‘zida har xil xastaliklarni qidirish, ayniqsa o‘sma kasalligi haqida o‘ylash va undan qo‘rqish va b.) kuchsiz namoyon bo‘ladi. Ayrim bemorlarda esa kuchli isteriya tipidagi nevroz, diensemfal o‘zgarishlar, sust kechuvchi ensefalist va simpatik tutqanoq singari og‘ir holatlar kuzatilishi mumkin. Qon-tomir vegetativ o‘zgarishlari barcha bemorlarda uchraydi. Ko‘pchilik bemorlar ko‘zida — xoriotretinit, uveit singari o‘zgarishlar bo‘lib, ular borgan sari uzoqni ko‘rolmaydigan bo‘lib boradilar. Endokrin bezlarini faoliyatining buzilishi oqibatida — hayz siklining buzilishi, shahvoniy ojizlik, buyrak usti bezining ikkilamchi yetishmovchiligi, ba’zan qalqonsimon bez faoliyatining susayishi singari alomatlar kuzatiladi. Periferik qonda — leykopeniya, neytopeniya, nisbiy limfotsitoz, eozinofillarning ortishiga moyillik namoyon bo‘ladi. EChT esa o‘zgarmaydi.

Surunkali toksoplazmorda biron-bir a’zoni ajralgan holda jarohatlanishi kamdan-kam kuzatiladi. Shuning uchun ham kasallik turlarini jarohatlanadigan a’zolar bo‘yicha belgilanishi asosli emas.

**3. Latent toksoplazmoz.** Ayniqsa birlamchi latent kechimida kasallikning biron—bir klinik belgisi (hatto qunt bilan ko‘rilganda ham), namoyon bo‘lmaydi. Ikkilamchi latent kechimida esa kasallikning qoldiq belgilari (xorioretinitning eski o‘chog‘i, limfa tugunlarining sklerotik o‘zgarishi) aniqlanishi mumkin. Bu turda ko‘pincha kasallikning zo‘riqishi kuzatiladi. Latent kechimining tashxisi serologik reaksiyalarining musbat natijasiga yoki toksoplazmin bilan o‘tkaziladigan teri-allergik sinama natijalariga asoslanadi. Kasallikning barcha turlarida ham tashxis qo‘yishda anamnezing to‘g‘ri yig‘ilishi ma’lum rol o‘ynaydi. Bunda uy hayvonlari (ayniqsa mushuk) yoki boshqa hayvonlar bilan muloqatda bo‘lganligi, xom (yoki chala pishirilgan) go‘sht, qiyma iste’mol qilganligi aniqlanadi. Shuningdek, kasal yashash joyi, tug‘ma toksoplazmozni aniqlashda esa onaning homila davrigacha va homila davridagi sog‘lig‘i haqida hamda oldingi homilalar haqida ma’lumot yig‘iladi.

**II. Tug‘ma toksoplazmoz.** Tug‘ma toksoplazmoz nisbatan kam uchraydi. Bunga sabab tug‘ma toksoplazmozning homilaga faqat platsenta orqali yuqishidir. Tug‘ma toksoplazmozda yuqish qon orqali bo‘lganligi tufayli kasallik har doim generalizatsiyalashgan jarayon tarzida kechadi. Kasallik ko‘pchilik hollarda klinik belgilarsiz yoki biroz kechikkan belgililar bilan va nihoyat ayrim (o‘rtacha 25%) bemorlarda klinik namoyon, o‘tkir xastalik tarzida kechadi. Homiladorlikning birinchi uch oyida toksoplazmoz yuqqan onalarning 25% da infeksiyani embrionga o‘tishi va homilaning zararlanishi kuzatiladi. Bu holat — barvaqt abort, bolaning o‘lik tug‘ilishi yoki bolaning og‘ir asoratlar (anensefaliya, gidrotsefaliya, mikrotsefaliya, anoftalmiya, oyoq-qo‘llarning, jinsiy a’zolar va shu kabilarning yo‘qligi yoki chala rivojlanganligi) bilan tug‘ilishiga olib keladi.

Homiladorlikning oxirgi uch oyida toksoplazmozni yuqtirgan onalardan tug‘ilgan chaqaloqlarning 65% da kasallik subklinik kechimida ularning 85% da xormoretinit yoki nevrologik asoratlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Tug‘ma toksoplazmozning *o‘tkizuri*, odatda, og‘ir, generalizatsiyalashgan holda kechib — kuchli intoksikatsiya, isitma, sariqlik, jigar va taloqning kattalashuvi, terida toshma (dog‘li

bo‘rtmalar) singari belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik bemorlarda bu o‘zgarishlar bilan birga og‘ir ensefalit va ko‘zlarning jarohatlanishi kuzatiladi.

Kasallikning s u r u n k a l i t u r i esa oldiniga subfebril isitma, intoksicatsiya, miozit va limfoadenopatiya bilan namoyon bo‘ladi. Keyinchalik kasallik alomatlari asta-sekin so‘nib borib, faqat kechirilgan ensefalitning qoldiq belgilari (gidrotsefaliya, oligofreniya, simptomatik epilepsiya), shuningdek ko‘zning turli darajadagi jarohat (hatto mikro- va anoftalm) belgilari saqlanib qoladi.

Bu toifadagi bemorlarning ko‘pchiligidagi tug‘ma toksoplazmoz uchun xos bo‘lgan t o ‘ r t s i m p t o m : tirishish, gidrotsefaliya, o‘choqli kaltsifikatlar va xoriorretinit aniqlanadi.

Bunday bolalarning ko‘pchiligi birinchi yoshida nobud bo‘ladi, o‘lmay qolganlarida rezidual bosqich davom etadi.

Tug‘ma toksoplazmozning r e z i d u a l kechimi — kasallik belgilari faolligining asta-sekin so‘nishi va ensefalitning qoldiq belgilarini (gidrosefaliya, oligofreniya, epilepsiya va b.) saqlanishi bilan ifodalanadi. Kasallik vaqtida aniqlanib, to‘g‘ri davolansa nafaqat ularning hayoti saqlab qolinishi, balki aytilgan og‘ir asoratlarni ham oldini olish mumkin bo‘ladi.

**Tashxisoti.** Kasallikning barcha turlarida ham tashxis qo‘yishda anamnezni to‘g‘ri yig‘ilishi ma’lum rol o‘ynaydi. Bunda uy hayvonlari (ayniqsa mushuk) yoki boshqa hayvonlar bilan muloqatda bo‘lganligi, xom (yoki chala pishirilgan) go‘sht yoki qiyma iste‘mol qilganligi aniqlanadi. Shuningdek, kasbi, yashash joyi, tug‘ma toksoplazmozni aniqlashda esa onaning homila davrigacha va homila davridagi sog‘lig‘i haqida hamda oldingi homilalar haqida ma’lumot yig‘iladi.

Ko‘pchilik hollarda toksoplazmozni aniqlash ancha murakkab bo‘lib, vrachdan qunt va bilim talab etadi. Tashxis qo‘yish — kasallikning klinik belgilariiga (limfatik tugunlar, ayniqsa bo‘yin limfatik tugunlari va MNS ning holatiga), EKG ko‘rsatkichlariga, ko‘z tubini ko‘rish, bosh va mushaklarni rentgenologik tekshirishlar natijalariga asoslanadi. Biroq orttirilgan toksoplazmozning tashxisi faqat klinik belgilarga asoslanishi mumkin emas, u albatta laborator tekshiruvlar bilan tasdiqlanmog‘i kerak.

Qo‘llaniladigan serologik va allergik reaksiyalar 30% sog‘lom odamlarda ham musbat natija berishi mumkinligini hisobga olib, ulardan ehtiyyotlik bilan foydalanish kerak. Serologik reaksiyalar va ayniqsa toksoplazmin bilan o‘tkaziladigan teri-allergik sinamaning manfiy natija berishi, toksoplazmoz kasalligining to‘liq inkor etishimizga asos bo‘la oladi. Bu reaksiyalarning musbat natijasi esa tekshiriluvchi shaxs organizmida toksoplazm borligini ko‘rsatsada, faqat shu kasallikka xos belgilar (davomli subfebril harorat, surunkali intoksikatsiya belgilari, limfodenopatiya, miozitlar, yurak mushaklarida o‘zgarish, jigarning kattalashuvi, miya va mushaklarda ohaklanish, xoriorretinit o‘choqlari va b.) mavjud bo‘lgan taqdirda-gina diagnostik ahamiyat kasb etadi.

Kasallik tashxisi asosan parazitologik tekshiruvga asoslanmog‘i kerak. Qo‘zg‘atuvchi parazitlarni mikroskop ostida (bo‘yagan qon surtmasi, orqa miya suyuqligi, bodom bezi va boshqa limfatik tugunlardan olingan kesma yoki punktatlardan tayyorlangan surtma, shuningdek, murda a‘zolaridan olingan kesmalarda) ko‘rish mumkin. Homiladorlik patologiyasida toksoplazmni aniqlash uchun yo‘ldoshdan, homila oldi suvi va pardasidan material olinadi. Kasallik tashxisida parazitologik tekshiruvlar (sichqonlarda, mushuklarda va tovuq embrionida o‘tkaziladigan biologik sinamalar), eng asosiy hisoblanadi, ularning manfiy natijasi toksoplazmozni to‘liq inkor etmaydi. Bunday hollarda serologik reaksiyalar va allergik sinama-lardan foydalanamiz.

Serologik reaksiyalardan sezgirlari Sebin—Feldman bo‘yog‘i bilan o‘tkaziladigan reaksiya hamda bilvosita gemagglutinatsiya reaksiyasi (RPGA) va flyuoressensiyalanuvchi antitelolarni aniqlash reaksiyasi (RFA) hisoblanadi, shuningdek toksoplazm antigeni bilan o‘tkaziladigan komplement bog‘lash reaksiyasi (RSK), enzim nishonlangan antitelolar reaksiyasi (REMA), hamda IgM ni aniqlash uchun flyuoressensiyalanuvchi antitelolarni aniqlashning bilvosita usullari qo‘llanadi.

Sebin—Feldman bo‘yog‘i bilan o‘tkaziladigan reaksiya nisbatan sezgir va spetsifikdir. Bu reaksiya metilen sinkasining ishqoriy eritmasi qo‘shilgan normal qon zardobida parazitning sitoplazmasi zangori rangga bo‘yalishini kuzatishga asoslangan. Agar qon zardobida

toksoplazmoga qarshi antitelolar mavjud bo'lsa, bunday bo'yalish sodir bo'lmaydi. Ko'rsatkichlarni quyidagicha baholash tavsiya etiladi: 1:16 — 1:128 past, 1:256 — 1:8192 — o'rta va 1:16000 dan ortiq bo'lsa — yuqori. Odatda, diagnostik titr 1:64 hisoblanadi, agar klinik belgilar (masalan, xoriorretinit) mavjud bo'lsa, undan past titrda (1:2 — 1:4) ham hisobga olinadi. Reaksiya ko'rsatkichi, o'tkir toksoplazmorda 1:1000, surunkaligida esa ba'zan 1:2000 ga yetadi. Antitelolar RSK reaksiyasidagiga nisbatan ancha barvaqtroq (7—14 kunda) aniqlanadi va 2 yildan bir necha yilgacha saqlanadi.

RSK ham qimmatli tashxisiy ahamiyatga ega. Unda antitelolar, kasallik yuqqanidan 2—3 hafta keyin paydo bo'lib, 6 oygacha, ba'zan bir necha yil davomida aniqlanib turadi. Reaksiya 1:4, surunkali infeksiyada esa — 1:8 musbat hisoblanadi. Ko'krak yoshidagi bolalarda bu reaksiyalarning ikkisi ham manfiy natija berishi mumkin.

Keyingi yillarda IgM ni aniqlash (immunoferment analizi — IFA) asosiy diagnostik usul hisoblanib, keng qo'llanmoqda. U tez va aniq tashxis qo'yish imkonini beradi. Uning ko'rsatkichlari: surunkali infeksiyada 1:20 gacha bo'lgan titrda manfiy hisoblanadi, o'tkir infeksiyada esa 1:80 va undan yuqori bo'ladi.

Allergik usullardan — toksoplazmin bilan o'tkaziladigan teri—allergik sinamasi, titratsion sinama, limfotsitlar blasttransformatiyasi va neytrofilli leykotsitlarni parchalash reaksiyasidan foydalilanildi.

Allergik va titratsion sinamalar natijalari 96—97% da mos keladi. Bu sinama 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda va 60 yoshdan katta shaxslarda tavsiya etilmaydi, chunonchi ko'pchilik hollarda ularning terisi toksoplazminga nisbatan reaktivdir. Sinama, kasallik yuqqanidan taxminan 4 hafta keyin musbat natija beradi va juda uzoq vaqt, hatto butun umr davomida saqlanib qolishi mumkinligini, sinama natijasini baholashda albatta hisobga olmoq zarur. Sinama natijasi 24 va 48 soatdan keyin quyidagicha belgilanadi: ++++ — aniq musbat (diametri 20 mm dan ortiq), +++ — musbat (13—20 mm gacha), ++ kuchsiz musbat (10—12 mm), — — salbiy (2—9 mm).

**Davolash.** Davolash orttirilgan va tug'ma toksoplazmogning o'tkir va boshlang'ich turlarida (ba'zan surunkali turning zo'riqqan

davrida ham) eng ko‘p samara beradi. Ayniqsa homiladorlik davrida toksoplazmoz bilan kasallangan ayollar, tug‘ma toksoplazmozning o‘tkir (va yarim o‘tkir) turda o‘tkazayotgan bolalar hamda ko‘z jarohatlanishi bo‘lgan bemorlar, albatta va tez davolanmoqlari kerak. O‘tkir toksoplazmozni davolashda bevosita trofozoitlarga faol ta’sir etuvchi etiotrop dorilar, jumladan — xloridin (daraprim) yaxshi samara beradi. Uni 0,025 g dan birinchi 3 kun 3 martadan, keyingi kunlarda 1 marta (bolalarga — 1 kg tana og‘irligiga 0,5—1 mg hisobidan) 5—7 kun davomida, sulfadimezin bilan birga (sutkada 2—4 g dan 7—10 kun) beriladi. 7—10 kun oralatib 3 ta kurs o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu preparatlar sinergik ta’sir etadi, noxush ta’siri yo‘q. Faqat ayrim hollarda aytilgan preparatlar foliev kislotasi sintezini tormozlagani tufayli trombotsitopeniya yoki leykopeniya yuzaga kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun folin kislotasi (10—20 mg dan) berib borilsa, unda organizmda foliev kislotasi hosil bo‘ladi. Etiotrop ta’sirga ega bo‘lgan — aminoxinol, xingamin, spiramitsin, tetratsiklin, qatoridagi antibiotiklar, sulfanilamidlar (sulfadimezin, sulfadimetoksin va b.) va biseptol ham qo‘llaniladi.

Umuman hamma sulfanilamidlar ham toksoplazmozga qarshi ta’sir etib, taxizoitlarning ko‘payishini bo‘g‘adi, biroq ular organizmdan tez chiqib ketganligi tufayli parazitni to‘liq yo‘qotishga muvofiq bo‘linmaydi. Shuning uchun ham ularni qayta kurslar bilan haftalab va hatto oylab berishga tug‘ri keladi.

Yuqorida aytilgan dorilarning birontasi kasallikning surunkali turini davolashda to‘liq samara bermaydi, chunonchi toksoplazmolar sista shaklida bo‘ladi. Bunday hollarda davolash murakkab bo‘lib, vitaminlar umumiyligi quvvatlantiruvchi dorilar va nospetsifik desensibilizatsiyalovchi dorilar (suprastin, diprozin, dimedrol, kamroq dozada kortikosteroидлар) bilan bir vaqtda 5—7 kunlik ximioterapiya (delagil, tetratsiklin) kursini o‘tkazish yaxshi samara beradi. Shuning bilan birga albatta (toksoplazmin bilan) spesifik immunoterapiya kursi o‘tkazilishi kerak. Toksoplazmin yuborilishidan oldin titratsion sinama yordamida (yuborilgan joyda terining qizarishi va bo‘rtma diametri 10 mm dan oshmasligi kerak), har bir bemor uchun dozasi aniqlanmog‘i kerak. Tanlangan dozada suyultirilgan toksoplazmin teri orasiga quyidagi tartibda yuboriladi:

1-kuni — 0,1 ml dan uchta nuqtaga, 2-kuni — to‘rtta nuqtaga, keyingi kunlarda — bittadan orttirib borib, 8-kuni — 10 ta nuqtaga yuboriladi. Shu kurs davomida har kuni ultrabinafsha nuri bilan umumiylar nurlantirish (1/4 dan 1 biодозагача) o‘tkaziladi. Toksoplazmanni bu tartibda yuborilishi, spetsifik sensibilizatsiyani kamaytirib immunologik mudofa reaksiyasini kuchaytiradi. Natijada oshkor ko‘rinishda bo‘lgan infeksiyani latent (yashirin) holatga o‘tishini taminlaydi.

Toksoplazmozning klinik belgilari namoyon bo‘lmagan, ammo komplement biriktiruvchi reaksiyasi (RSK) va teri sinamasi musbat natija bergen homilador ayollarda davolash kursi o‘tkazilmaydi. Klinik belgilari yaqqol namoyon bo‘lgan va surunkali toksoplazmoz bilan xastalangan homilador ayollarda immunoterapiyaning profilaktik kursi o‘tkaziladi. Homilador ayollar uchun toksoplazmozni yangi yuqishi juda xavflidir. Bunday bemorlarga 1—2 kurs ximioterapiya o‘tkaziladi.

Surunkali toksoplazmozni davolashda, yuqorida aytigan asosiy davo choralari bilan bir qatorda, organizmning umumiylar immunologik quvvatini kamaytirishi mumkin bo‘lgan yo‘ldosh kasalliklar (gijja va boshqa parazitar kasalliklar, surunkali xolesistoxolangit va b.) ham davolanmog‘i kerak.

Bo‘g‘imlarda og‘riq va miozit alomatlari bo‘lgan taqdirda fizioterapevtik davo usullari qo‘llaniladi. Umumiy davo kursi o‘rtacha 3 hafta bo‘ladi.

***Homilador va tuqqan ayollarga*** — Rovamitsin (speromitsin) bir kunda 3 g dan 6 hafta davomida beriladi. Bu antibiotik platsentada to‘planadi, biroq homilaga o‘tmaydi. Davolangan onalardan tug‘ilgan bolalar orasida invaziyalanish 2 marta kam kuzatiladi, kasallik esa ko‘pincha yengil kechadi.

***Chaqaloqlarda*** — Rovamitsin bin kunda 0,15 g dan 6 hafta davomida beriladi. Biroq kimyoviy dorilarni homiladorlikning birinchi 3 oyi davomida berib bo‘lmaydi, chunonchi ularning ko‘pchiligi (ayniqsa xloridin, sulfadimezin va tetratsiklin) homilani jarohatlaydi.

**Oqibati.** Tug‘ma toksoplazmozning oqibati har doim og‘ir, chunki unda bo‘ladigan asoratlar va qoldiq holatlar turg‘un bo‘ladi.

Immunitet taqchilligi (SPID va boshqa kasalligi) bo‘lgan shaxslarda o‘tkir toksoplazmoz og‘ir kechadi va o‘lim bilan yakunlanishi ham mumkin. Surunkali toksoplazmozda, ayrim bemorlarda qaytalanishlar kuzatilib tursada, umuman oqibati yaxshi bo‘ladi.

**Profilaktikasi.** Uy hayvonlarining toksoplazmoz bilan kasallanishiga qarshi tadbirlar, ayniqsa yovvoyi mushuklarni yo‘qotish, mushuklar bilan muloqatdan saqlanish, ootsistlarni ifloslangan qo‘l va idish-tovoqlar orqali yuqmasligi uchun shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga amal qilish, pishirilmagan qiyma va chala pishirilgan go‘sht iste’mol qilishni taqiqlash kabি tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu qoidalarga ayniqsa homilador ayollar qa‘tiy amal qilmoqlari zarur.

### **Amyobiaz (amoebiasis)**

Amyobiaz — ko‘proq yo‘g‘on ichakni yarali jarohatlovchi, ba‘zan boshqa a’zolarda abssesslarni yuzaga keltiruvchi, davomda yoki surunkali kechimga moyil parazitar kasallikdir.

**Tarixiy ma’lumotlar.** 1875-yilda F.A.Lesh Peterburgda bemor najasida kasallikni qo‘zg‘atuvchi amyobani birinchi bo‘lib aniqlagan. Keyinchalik (1883-y.) R.Kox Misrda ichburug‘ kasalligidan o‘lgan murdalarning ichagidan hamda jigar abssessi devoridan olingan kesmalarda amyobalarni topgan. 1891-yilda Couneilman va Laffeurlar amyobiazni alohida kasallik sifatida ajratdilar va uni amyobali dizenteriya deb atadilar.

1903-yilda F.Maudin bu amyobani har tomonlama o‘rgandi va uni *Entamaba histolytica* deb atadi.

1912-yilda amyobiazni davolash amaliyotida bevosita amyobalarga qiron keldiradigan dori — emitin ishlatila boshladi. Keyinchalik sodda hujayralilarni, jumladan amyobalarni sun’iy ozuqa muhitida o‘stirish usullari yaratildi.

**Etiologiyasi.** *Entamaba histolytica* endamebalar (*Endamebidae*) avlodiga, sarkodalar (*Sorcodina*) sinfiga, oddiy jonivorlar (Rprotozoa) tipiga mansubdir. Uning hayotiy jarayoni ikki bosqichda — vegetativ va sista bosqichida kechib, ular xo‘jayini organizmidagi yashash sharoitiga qarab, biri ikkinchisiga o‘tib turadi.

Amyoba vegetativ bosqichida to‘rt shaklda — to‘qima, katta vegetativ, oraliq va sistaoldi shakllarda bo‘ladi.

T o‘ q i m a shaklining kattaligi 20—25 mkm bo‘lib, u ancha tez harakatlanadi. Mikroskop ostida uni gamogen endoplazmasi va aylanma ektoplazmasi yaxshi ko‘rinadi, biroq yadrosini farqlash qiyin. Parazitning to‘qima shakli amyobiazning faqat o‘tkir kechimida, jarohatlangan to‘qimalarda va kamdan-kam hollarda, bemor najasida aniqlanadi.

K a t t a v e g e t a t i v shakli (*forma magna*) — ancha yirik (30—40 dan to 70—80 mkm gacha) bo‘lib, u psevdopodiysi yordamida harakatlanadi. Mikroskop ostida ko‘rilganda parazitning ektoplazmasi ko‘rinadi. Bunday amyobalar eritrofaglar yoki gematofaglar deb ataladi. Buning boisi ular eritrotsitlarni yutishidir. Amyobaning bu shakli o‘tkir ichak amyobiazida bemorning najasi orqali tashqariga chiqariladi.

Amyobaning *o r a l i q* shakli 15—20 mkm kattalikda bo‘lib, u boshqa turdagи amyobalarga nisbatan sekin harakatlanadi. U harakatsiz bo‘lgan chog‘ida ekto- va endoplazmasini farqlash qiyin bo‘lib, sitoplazmasida juda mayda vakuollar, detrit va ba’zan yutilgan bakterialar ko‘rilsada, eritrotsitlar va boshqa hujayra elementlari aslo topilmaydi. U yo‘g‘on ichakda parazitlik qiladi va kasallikdan tuzalayotgan shaxslar (rekonvalessentlar)ning, qaytalanuvchi surunkali amyobiazli bemorlarning va sista tashib yuruvchi shaxslarning najasida topiladi.

Parazitning *s i s t a o l d i* shaklining kattaligi 12—20 mkm dan oshmaydi, juda sekin harakatlanadi. Sistoplazmasi gamogen bo‘lib, unda hech qanday kiritmalar ko‘rinmaydi va ekto- va endoplazmalarni farqlab bo‘lmaydi. Yadrosi boshqa vegetativ shakllardagi singari bo‘ladi. Ular o‘tkir ichak amyobiazini o‘tkazgan rekonvalessentlar va surgi berilgan sista tashuvchi shaxslarning najasida aniqlanadi.

Vegetativ bosqichdagi barcha gistolitik amyobalar ham tashqi muhitda juda chidamsiz bo‘lib, tez nobud bo‘ladi. Najasda 20—30 daqiqadan ortiq saqlanmaydi.

*S i s t a* bosqichidagi amyoba, dumaloq shaklda bo‘lib, kattaligi 9—14 mkm dan oshmaydi. Bo‘ylgan holda ko‘rilganda uning yadrosi

va ikki qatlamli qobig‘i yaqqol ko‘rinadi. U o‘tkir ichak amyobiazini o‘tkazgan rekonvalessentlar najasida, reliksiya bosqichidagi qaytalanuvchi surunkali amyobiazli bemorlarda va sista tashib yuruvchi shaxslarda aniqlanadi.

Sistalar tashqi muhitda chidamli bo‘lib, kasallikning yuqishida asosiy rol o‘ynaydi. Ular qurimagan najasda va suvda bir oygacha, nam tuproqda 8 kungacha saqlanadi. Quruqlikda va qizdirilganda tez nobud bo‘lsada, past ( $-20$ — $21^{\circ}\text{C}$ ) haroratda bir necha oygacha saqlanishi mumkin. Dezinfeksiyalovchi moddalardan faqat krezol (1:250) va emetin (1:5000) eritmasigina ularni novbud qiladi. Boshqa turli dezinfeksiyalovchi moddalar ta’sirida bir necha soat saqlanadi, vodoprovod suviga qo‘shilgan xlor esa unga mutlaqo ta’sir etmaydi.

Ichakka tushgan sistaning qobig‘i yemirilib, undan to‘rt yadroli amyobaning onalik shakli ajraladi va u bo‘linib, 8 ta bir yadroli amyobalar hosil bo‘ladi. Qulay sharoit bo‘lgan taqdirda ular ko‘payib, vegetativ shaklga o‘tadi va ichakning quyi qismlarida istiqomat qiladi.

**Epidemiologiyasi.** Amyobiaz — antropoz kasallik bo‘lib, manbayi bemor yoki sista tashuvchi odamdir. 1 g najaasda 6 mln. gacha amyoba sistalari bo‘lishi mumkin. O‘tkir ichak amyobiazi rekonvalessentlari, kasallikni surunkali o‘tkazayotgan shaxslar va ayniqla sista tashuvchilar atrofidagilarga havfli hisoblanadilar. Kasallikning o‘tkir kechimi davrida yoki surunkali kechimi zo‘riq-qan bosqichidagi bemorlar atrofidagilar uchun deyarli xavf yaratmaydi, chunki ular parazitni tashqi muhitdga chidamsiz — vegetativ bosqichida ajratadi. Sista ajratuvchilar esa sistani juda ko‘p miqdorda (bir sutkada 300 mln. va undan ortiq) va ko‘p yillar davomida ajratib yuradi.

Amyobiaz ham boshqa ichak parazitlari singari — ovqat, suv va kontakt yo‘llari bilan og‘iz orqali yuqadi. Tashqi muhitga ajratilgan sistalar bilan ifloslangan qo‘l va ayniqla sabzavotlar, mevalar, suv, kamroq uy jihozlari, idish-tovoq va boshqa kasallikni yuqtiruvchi omillar bo‘ladi. Amyobiazning tarqalishida pashsha va suvaraklarning roli ham katta, chunonchi ularning ichagida gistolitik amyobalarning sistalari 48—72 soat davomida saqlanadi. Amyobiaz bilan turli jinsdagi va yoshdagisi odamlar kasallansalarda, ko‘proq 20—50

yoshdagи erkaklarda uchraydi. Kasallik sporadik holda yil bo‘yi, ko‘proq issiq oylarda uchraydi. Issiq iqlimli o‘lkalarda, jumladan O‘zekiston hududida va ayniqa tropik hamda subtropik o‘lkalarda amyobiazning tarqalishiga sharoit qulay. Amyobiaz dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi.

Epidemik o‘choqlarda 7 ta sista tashuvchiga 1 ta bemor to‘g‘ri kelsa, boshqa hududlarda bu nisbat 1:21 dan 1:23 gacha bo‘ladi. Tekshirilgan mahalliy aholi orasida sista tashib yuruvchilar Janubiy Amerikada 24—40% ni, ayrim Osiyo davlatlarida — 13—34% ni, Afrikada — 17—58% ni, Yevropada — 15—40% ni tashkil etadi. Amyobiaz Janubiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida qayd etilgan umumiy ichak yuqumli kasalliklarini 20—30% ni tashkil etsa, O‘rta Osiyo va Kavkaz orti o‘lkalarida — 5—10% ni tashkil etadi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Organizmga tushgan sistalar va amyobanining oraliq shakllari ko‘pchilik hollarda uzoq vaqt ichakni jarohatlamasdan yashashi mumkin. Ko‘pincha bunday shaxslar uzoq vaqt kasallik belgilarsiz amyoba tashib yuradilar.

Ingichka ichakning quyi qismida parazitlik qiluvchi amyobalarning har bitta yetuk sistasidan 4-ta metatsist amyoba ajralib chiqadi va ular har 2 soatda ikkiga bo‘linib turadi. Parazitning bu oraliq vegetativ shakllari yo‘g‘on ichakning ko‘richak va ko‘tariluvchi qismiga o‘tgach tezroq ko‘payadi, chunki ichakning aynan shu qismida ularning ko‘payishi uchun eng qulay muhit mavjud. Ichki va tashqi salbiy ta’sirlar, (boshqa ichak kasalliklari, disbakterioz, turli zaharlanishlar, ochiqish, toliqish va shu kabilar) tufayli organizmnning qarshi kuchi kamayganda amyobalar ichak devoriga (shilliq qavat va boshqa qatlamlar hujayralariga) kirib ko‘payadi va parazitning oraliq shakllariga nisbatan ancha yirik va harakatchan to‘qima shakllari rivojlanadi. Oraliq parazitning to‘qimaga o‘tishida asosiy omil, uning ajratadigan proteolitik (hujayralarni yemiruvchi) fermenti bo‘lsada, bu jarayonni osonlashtiruvchi bir qancha qo‘srimcha omillar ham mavjud. Jumladan, ichakda patogen mikrofloraning bo‘lishi, parazitning virulentligini oshiradi. Ba’zi bir gijja kasalliklari (qilibosh, shistosomoz), homiladorlik, tug‘ruq yoki kortikosteroid gormonlar qabul qilish amyobiazga moyillikni orttiradi.

Proteolitik ferment ta'sirida jarohatlangan to'qimaning oziqlanishi buzilib, nafaqat ichakning shilliq qavati, balki mushak qatlami ham to seroz qoplamasigacha nekrozga uchrab chuqur yaralar hosil bo'ladi. Yara paydo bo'lishidan oldin ichakning shilliq qavatida qizarish, shish, mayda eroziyalar va tugunchalar paydo bo'lib, so'ngra shu tugunchalar nekrozga uchraydi. Bunday yaralar yo'g'on ichakning ko'richak va ko'tariluvchi qismidagina emas, balki ko'pchiilikda sigmasimon va to'g'ri ichakda, ayrimlarda ichakning boshqa qismlarida ham rivoj topadi. Yaralar turli kattalikda (bir necha millimetrdan 2—2,5 sm gacha) qirg'oqlari bo'rtgan, o'yilgan, atrofi qizil hoshiyali, tubi esa sariq-yashil rangda bo'ladi. Yaralardan oqib chiqadigan ajralmada (qon aralash shilimshiq) ko'p miqdorda amyobalar bo'lib, ularning ichida fagotsitzga uchragan eritrotsitlar ko'rindi. Ayrim hollarda, to'qimaning jarohatlanishi shiddatli bo'lgan taqdirda sinuslar paydo bo'lib, ular bir-birlari bilan qo'shilib ketishi oqibatida qirg'oqlari notekis yirik yaralar hosil bo'ladi. Amyobiaz bilan jarohatlangan yo'g'on ichak devorining qalinlashgan va dag'allashganligi, og'ir hollarda toksik kolit alomatlari ko'rildi.

Kasallik uzoq davom etgan hollarda, to'qimaga amyobalarni qayta-qayta kirishi va bakterial flora ta'siri oqibatida ba'zan ichak devorida yallig'lanish, shish va kuchli hujayrali (limfotsitlar, eozinofillar, fibroblastlar va plazmatik hujayralar) reaksiya yuzaga keladi, ya'ni amyoboma paydo bo'ladi. Amyobomaning ichida mikroabssesslar va fibroz o'choqlari bo'lishi mumkin. Amyobiazning surunkali kechimi ba'zan ichakda kistalar va poliplar rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ichak devorining chuqur yaralanishi oqibatida qon tomirlar jarohatlanib qon ketishi, ba'zan ichak teshilib, peritonit rivojlanishi mumkin. Chuqur yaralar bitganda ichakda chandiqlar hosil bo'lishi, stenoz va hatto ichakning to'liq tutilish hollari bo'lishi mumkin. Ba'zi bir hollarda amyobalar qon orqali tarqalib boshqa a'zolarda abssesslar hosil qiladi. Parazit ko'pincha darvoza venasi orqali jigarga borib nekroz o'choqlari hosil qiladi. Nekroz o'choqlari kamdan-kam hollarda so'rilib ketadi, ko'pincha esa abssessga aylanadi. Bunday abssesslar o'pkada, bosh miya, buyrak, oshqozon osti bezi, teri va boshqa a'zolarda ham yuzaga kelishi

mumkin. Nekrozga uchrab parchalangan hujayralar hosilalarining qonga so‘rilishi oqibatida intoksikatsiya rivojlanadi. Biroq intoksikatsiya va ovqat hazm qilish sistemasi a‘zolarining faoliyatini buzilishi alomatlari sekin rivojlanadi va kuchsiz namoyon bo‘ladi. Amyobiazda rivojlanadigan gumoral va hujayra imuniteti ham kuchsiz va qisqa muddatli bo‘ladi.

**Klinikasi.** Amyobiaz bo‘yicha mavjud tasniflarning birortasi hali to‘liq tan olingan emas. Jahon sog‘lijni saqlash tashkilotining (JSST, 1970) taklifiga binoan amyobiazning 3 xili farqlanadi: 1) ichak amyobiazi, 2) ichakdan tashqi amyobiaz, 3) teri amyobiaz.

*I ch a k a m yo b i a z i* — kasallikning asosiy va eng ko‘p uchraydigan xili hisoblanadi. Uni a m yo b a d i z e n t e r i y a s i deb ham yuritiladi. Inkubatsion davri 1—2 haftadan 3 oygacha va undan ortiq, o‘rtacha 20—30 kun. Amyobiaz yengil, o‘rta og‘irlikda yoki og‘ir kechishi mumkin. Ichak amyobiazi bemorlarning 2/3 qismida asta-sekin, 1/3 qismida esa — tez rivojlanadi. Kasallik o‘tkir yoki prodromal (holsizlik, bosh og‘rig‘i, ishtahaning pasayishi, qorinda og‘riq singari) belgilari bilan boshlanadi. Boshlanishda qorinda og‘riq kuchsiz bo‘lib, ichi bir kunda 4—5 marta suyuq, ko‘p-ko‘p va shilliq aralash keladi. Keyincha qorin og‘rig‘i kuchayib, ketma-ket kuchaniq bezovta qiladi, ichi bir kunda 10—20 marta keladi, axlatida ko‘p miqdorda shishasimon shilliq va qon aralashmasi paydo bo‘ladi. Najasda shilliq va qon aralashmasi kasallikning 1—3-kunlaridanoq ko‘rinishi mumkin. Keyinroq bemorning axlati asosan qon aralash shilimshiqdan iborat bo‘lib, xuddi malina murabbosiga o‘xshab qoladi. Biroq ilgarilari amyobiaz uchun juda xos bo‘lgan bu («malina murabbosi») belgi hozirda kam kuzatilmoxda. Kasallikning o‘tkir davrida qorindagi og‘riq vaqtiga vaqtiga bilan g‘ijimlab yoki doimiy bo‘lib, ich ketish paytida zo‘rayadi. Amyobiazda ko‘proq yo‘g‘on ichakning ko‘richak va ko‘tariluvchi qismi jarohatlanganligi tufayli og‘riq qorinning o‘ng qismida, kamroq hollarda sigmasimon ichak sohasida, ya’ni chapda kuchliroq bo‘ladi. Kuchli tenezmni bo‘lishi to‘g‘ri ichakni jarohatlanganligidan dalolat beradi. Ayrim hollarda o‘tkir appenditsit simptomlari namoyon bo‘lishi ham mumkin.

Ko‘pchilik bemorlarda tana harorati me’yor yoki subfebril darajada, intoksikatsiya belgilari kuchsiz bo‘lib, umumiy ahvoli uzoq vaqtgacha o‘zgarmay qoladi. Faqat ayrim bemorlarda umumiyy quvvatsizlik, tez toliqish, bosh og‘rig‘i, ishtahasizlik singari alomatlар kuzatiladi. Biroq bolalarda kasallik ko‘pincha isitma va suvsizlanish belgilari bilan kechadi.

Bemor qorni paypaslab ko‘rilganda — qorni kepchigan, o‘ng va chap pastki qismlari og‘riqli, ko‘richak yo‘g‘onlashgan, sigmasimon ichak esa spazmalangan holda bo‘ladi.

Ichak ichini rektoskop (yoki fibrokolonoskop) yordamida ko‘rilganda, kasallikning boshlang‘ich davrida 42% bemorlarda sigmasimon va to‘g‘ri ichak yuzasida yallig‘lanish alomatlari ko‘riladi. Kasallikning 4—5 kunidan boshlab, yallig‘langan shilliq parda burmalari yuzasida diametri 2—5 mm bo‘lgan yaralar ko‘riladi. Yaraning qirralari bo‘rtgan va qizargan bo‘ladi. Kasallikning 6—14-kunlarda yaraning diametri 20 mm ga yetadi. Qirg‘oqlari o‘yiq, atrofi qizargan, tubi esa nekrotik massa bilan qoplangan bo‘ladi (**Zarvaraqdagi 4-rasmga qarang.**)

Yarani bosilsa undan suzmasimon sarg‘ish rangli massa ajralib chiqadi. Kasallikni tez rivojlanadigan shaklida bunday o‘zgarishlar 6—8-kunlardanoq ko‘rinadi.

Jigarning hajmi va faoliyati ko‘pchilik bemorlarda o‘zgarmaydi, faqat ayrim hollarda uning biroz kattalashganligi yoki faoliyatining biroz o‘zgorganligini ko‘rish mumkin. Taloqda patologik o‘zgarish kuzatilmaydi.

Ichak amyobiazi uzoq davom etganda, bemorda kamqonlik hamda limfotsitoz, eozinofiliya, monotsitoz aniqlanadi.

Kasallikning o‘tkir kechimi 2—4 hafta davom etib, asta-sekin so‘na boshlaydi. Biroq to‘liq davolanmagan bemorlarda xastalik surunkali turga o‘tadi. Surunkali amyobiazda, agar parazitga qarshi xos davo o‘tkazilmasa, kasallik 10 yil va undan ortiq davom etishi mumkin. Kasallik ikki xil klinik shakilda — qaytalanuvchi va uzlusiz kechadi. Binobarin surunkali kechim vaqtiga vaqtiga bilan kasallik belgilaringin zo‘riqib yoki qaytalanib turishi, ayrim hollarda uzlusiz davom etishi bilan namoyon bo‘ladi. Amyobiazning surunkali turi uzliksiz kechganda kasallik belgilari bir susayib, bir zo‘rayib turadi,

ammo to‘liq so‘nish (remissiya) davrlari kuzatilmaydi. Kasallikni zo‘riqish yoki qaytalanishi ba’zan tartibsiz ovqatlanish va aralash-quralash har xil ovqatlarni iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayrim hollarda surunkali amyobiazning zo‘riqishi aniq bir sababsiz bo‘lishi ham mumkin.

Surunkali amyobiaz vaqtı-vaqtı bilan qorinning dam bo‘lishi, quldirash, og‘riq, ichni shilimshiq (ba’zan qon) aralash kelishi yoki aksincha qabziyat bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu davrda bemorning tana harorati ortmagan, umumiylahvoli yomonlashma-gan bo‘lsada, qorinning o‘ng tarafida, ileotsekal sohasidagi og‘riq kuchli (ko‘pincha appenditsit xuruji singari) bo‘lishi mumkin. Kasallik zo‘riqqanda bemor kundan-kunga darmonsizlanib, ruhiyati past bo‘ladi, kamqonligi ortib boradi va ozib ketadi. Og‘ir kechimida hatto kaxeksiya rivojlanishi va bemor o‘lishi mumkin.

Ba’zan amyobiazni ya sh i n t e z l i g i d a kechadigan og‘ir turlari ham uchrab teradi. Bu hol ko‘proq ayollarda homiladorlik yoki tug‘ruqdan keyingi davrda kuzatiladi. Bunday bemorlarda qorin og‘rig‘i va toksikoz alomatlari kuchli bo‘ladi. Yo‘g‘on ichakdagiga yaralar tarqoq va chuqur bo‘lib, bemorlarning deyarli yarmida ichak teshilishi va peritonit rivojlanishi kuzatiladi. Agar bunday bemorlar vaqtida va to‘g‘ri davolanmasa bir necha kun ichida o‘lishi mumkin.

Agar bemorda amyobiaz bilan bir vaqtida bakterial dizenteriya (shigellyoz) ham bo‘lsa, u holda kasallik yuqori harorat, intoksikatsiya, kuchli diareya va suvsizlanish alomatlari bilan og‘ir kechadi.

**Asoratlari.** Ichak amyobiazining asoratlari juda xilma-xil bo‘lib, ko‘proq kuzatiladiganlari: perikolit, ichak shilliq pardasining gangrenasi yoki uning ko‘chishi, qon ketishi, ichak teshilishi va oqibatda (cheklangan yoki tarqoq) peritonit rivojlanishi, o‘tkir spetsifik appenditsit, amyobomalar, ichakni chandiqlanib torayib qolishi. Amyeboma — ichak davorida o‘sma simon infiltrat rivojlanishi bo‘lib, u ikkilamchi infeksiya qo‘silgan taqdirda yiringlanishi mumkin. Ichakdan tashqari a’zolarda bo‘ladigan asoratlar, amyobiazni yengil noaniq kechimlarida ham yuzaga kelishi mumkin.

Amyobiazning ichakdan tashqarigi turi ko‘pincha j i g a r a m yo b i a z i sifatida namoyon bo‘ladi. Jigar amyobiazi o‘tkir, yarim o‘tkir yoki surunkali kechimga ega bo‘lib, kasallik asosan ikki xil: amyobali gepatit (gepatitga) va jigar absessi shaklida namoyon bo‘ladi.

O‘t k i r a m yo b a l i gepatit ko‘pincha ichak amyobiazning oshkor kechimi davrida yuzaga keladi. Jigar absessi aniqlangan bemorlarning anamnezida esa ichak amyobiazi faqat 30—49% shaxslarda aniqlanadi xolos (JSST, 1983). Amyobali gepatitga jigarning kattalanishi, og‘riqli bo‘lishi, ba‘zan sariqlik singari xos alomatlar qatori tana haroratining subfebril (goho yuqori) darajada ko‘tarilishi va biroz leykotsitoz bo‘lishi xarakterlidir.

A m yo b a l i j i g a r a b s s e s s i kasallikning o‘tkir davrida ham, yoki undan ancha (bir necha yil) keyin ham rivojlanishi mumkin. Jigarda absesslar kam (1—2) yoki ko‘p (o‘nlab) dona bo‘ladi. Jigarda absess rivojlangan taqdirda og‘riq kuchli bo‘lib, o‘ng yelka va kurakka beriladi hamda jigar paypaslaganda, chuqur nafas olganda, yo‘talganda zo‘rayadi. Bemor vaqtiga bilan titrabaqshab tana harorati 39°C undan yuqori ko‘tariladi va u remittik yoki gektik xarakterga ega bo‘ladi. Isitma kuchli terlash bilan kuzatiladi. Absess ko‘proq jigarning o‘ng bo‘lagining yuqori qismida yoki oldi yuzasida joylashadi. Jigar sohasida qovurg‘alar ko‘tarilibroq turadi, oralig‘i paypaslaganda absess joylashgan joy ayniqsa og‘riqli bo‘ladi. Rentgen orqali ko‘rilganda jigar ustida diafragmaning ko‘tarilganligi, uning harakati cheklanganligini, aksariyat bemorlarda o‘ng o‘pkaning pastki bo‘limida zotiljam, quruq yoki ekssudatli plevrit alomatlarini ko‘rish mumkin. Qonda leykotsitoz, neytrofilez va EChT ortganligi ko‘riladi.

Ayrim hollarda amyobali absess yarim o‘tkir, surunkali kechadi. Bunda intoksikatsiya kuchsiz, isitmasubfebril noaniq tipda bo‘lib, anemiya rivojlanib boradi va bemor ozib ketadi. Absess yorilgan taqdirda diafragma ostida absess, yiringli plevrit yoki peritonit rivojlanadi. Agar jigarning chap bo‘limida joylashgan absess yorilsa, yiringli perikardit rivojlanishi va hatto yurak tomponadasi bo‘lib, bemor o‘lishi mumkin. Ayrim bemorlarda jigar—bronx oralig‘ida teshik (svish) paydo bo‘ladi va o‘pkadan ko‘p

miqdorda jigarrang yiringli balg‘am ajraladi. Faqat ayrim bemorlarda kasallik juda o‘tkir, yashin tezligida kechadi. Bunday hol og‘ir ichak amyobiazining fonida jigarda ko‘plab amyobali abssesslar rivojlangan taqdirda kuzatiladi. O‘z vaqtida spetsifik davo o‘tkazilmagan bemorlarda amyobali jigar abssessida o‘lim 25% va undan ortiq bo‘ladi.

Jigarida abssess bo‘lgan bemorlarda, ba’zan jigari zararlanmagan shaxslarda ham o‘pka jarohatlanganligini ko‘rish mumkin.

O‘pka am yo bi az i spetsifik plevropnevmoniya yoki o‘pka abssessi, rivojlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunda tana harorati ko‘tarilib, ko‘krakda og‘riq, yo‘tal, qon tupurish, shuningdek (abssess bronxlarga ochilgan taqdirda), ko‘p miqdorda shokolad rangli balg‘am ajralishi ko‘riladi.

Amyobali o‘pka abssessi, odatda, surunkali kechadi. Ba’zan yiringli plevrit, empiema, piopnevmotorak va perikordit singari asoratlarga olib keladi. Ayrim hollarda amyobalar ichakdan qon oqimiga tushib boshqa a’zolarga borishi oqibatida miya, taloq va buyraklarda ham abssesslar rivojlanishi mumkin. Ba’zan amyobali abssess ayollarning jinsiy a’zolarida ham bo‘ladi.

*T e r i a m yo b i a z i* ko‘pincha ikkilamchi bo‘lib, ozg‘in, kamquvvat odamlarda kuzatiladi. Bunday bemorlarda ko‘proq oraliq sohasida, tashqi jinsiy a’zolarda, dumba va qorin terisida, ba’zan jigar sohasi terisida (jigar abssessining teshilishi tufayli), tez va keng tarqaluvchi yaralar hamda to‘qimaning nekrozi yuzaga keladi. Yaralar chuqur, kam og‘riqli, ajralmasi qo‘lansa hidli bo‘ladi. Yaradan olingen qirindida amyobalar topiladi.

**Tashxisoti.** Amyobiazni aniqlash uchun avvalo epidemiologik ma’lumotlar, kasallikning rivojlanish tarzi va klinik xususiyatlarini hisobga olmoq zarur. Yo‘g‘on ichak jarohatlanishi alomatlari uzoq davom etgan, biroq umumiyl intoksikatsiya belgilari kuchsiz bo‘lgan bemorlarda amyobiaz to‘g‘risida o‘ylash o‘rinli bo‘ladi. Ichak amyobiazini tashxisotida parazitologik tekshiruvlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buning uchun bemorning endigina ajratgan axlatidan (issiqlik paytida) yoki rektoskop orqali ichakdan olingen ajralma-dan surtma tayyorlab, tezlikda (10—15 daqiqa ichida) mikroskop ostida ko‘riladi. Aks holda amyobalarning to‘qima shakli nobud

bo‘lib, ularni ko‘rib bo‘lmaydi. Tekshiruv uchun olingan najasni avtoklavda zararsizlantirilgan shisha idishga ekish kerak, chunki dezinfeksiyalovchi moddalar bilan zararsizlantirilgan idishda qolgan dezinfeksiyalovchi moddalarning yuqi ham parazitni o‘ldiradi. Parazit, rektoskop orqali bevosita yaradan olingan materialda ko‘proq topiladi. Bunday surmalarni tayyorlash uchun bemorning balg‘ami, shuningdek absesslardan va yara tubidan olingan materiallardan ham foydalanish mumkin. Surtamada amyobanining to‘qima va yirik vegetativ shaklini va ayniqsa eritrofaglarning topilishi kasallikning uzil-kesil tasdiqlaydi va jarayonning faolligini ko‘rsatadi. Surtmada gistolitik entamyobanining oraliq shakli va sistalarining topilishi esa patologik jarayonning so‘ngan (remissiya) davri yoki sog‘lom parazit tashuvchilikdan dalolat beradi. Parazit shakllarini farqlash uchun surtmani Lyugol eritmasi va gematotoksillinli temir bilan Geydengayn usulida bo‘yash yaxshi yordam beradi. Materialni darhol tekshirish imkonи bo‘lmay, uni saqlab turish zarurati tug‘ilgan taqdirda A.A.Turdiyev (1966) taklif etgan, konservatsiyalovchi suyuqlikdan foydalanish mumkin. Axlatda parazitni topish uchun ba’zan bir emas bir necha marta takroriy tekshiruvlar o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. O‘tkir amyobiazda diagnostik provokatsiya maqsadida surgi dorilardan foydalanish qat’iy man etiladi.

Ichakni rektoromonoskop yordamida ko‘rish, agar ichakning distal qismi shilliq qavatida xos o‘zgarishlar bo‘lmasa — fibrokolonoskopiya usulida ko‘rish, ichak amyobiazining tashxisotida katta yordam beradi. Bunda ichak shilliq qavatida qirg‘oqlari o‘yiq, atrofi qizargan xos yaralarni ko‘rilishi tashxisni tasdiqlaydi. Endoskopiya paytida parazitologik tekshiruvlar uchun material ham olish mumkin.

Amyobiazning ichakdan tashqari (jigar, o‘pka, miya abscesslari va boshqalar) turlarida axlatda parazit ko‘pincha topilmaydi. Bunday hollarda, imkonи bo‘lsa absessdan surtma olib parazitologik tekshiruv o‘tkaziladi yoki ko‘proq serologik usullardan foydalaniladi. Bulardan eng sezgiri bilvosita gemagglyutinatsiya reaksiyasidir (RPGA), biroq u faqat bemorlardagina emas, balki ilgari ichak amyobiazini o‘tkazgan shaxslarda ham musbat natija berishi mumkin. Hozirgi vaqtida bilvosita immunofluoresensiya reaksiyasi (RNIF)

hamda enzim bilan nishonlangan antitelolar reaksiyasidan (REMA) ham keng foydalanilmoqda. Bilvosita immunoflyoresensiya reaksiyasi yordamida qon zardobida spetsifik antitelolar aniqlanadi (1:80 titri musbat hisoblanadi). U bemorlarning 90—100% da musbat, parazitning oraliq shakllarini tashib yuruvchi shaxslarda esa manfiy natija beradi. Immunoflyuoressensiya reaksiyasi jigar abscessi bo‘lgan barcha bemorlarda yuqori titrda musbat natija berib, davo o‘tkazilgandan keyin pasayadi.

Jigarning amyobali abssessi, ultratovush (UZI) usuli shuningdek, jigarning radioizotop skanirlash usuli bilan tekshirilganda juda yaxshi ko‘rinadi. Rentgen yordamida ko‘rish (bunda diafragma ning o‘ng bo‘lagi ko‘tarilgan bo‘ladi) va laparoskopiya usullaridan qo‘srimcha tekshiruv sifatida foydalanish mumkin.

Ichak amyobiazini aniqlashda bemor axlatini mikroskop ostida ko‘rish ham katta yordam beradi. Axlatda makrofaglar, plazmatik hujayralar va ayniqsa ko‘plab (70 foizgacha) eozinofillar bilan birga ko‘pincha Sharko—Leyden kristallari ham ko‘rinadi. Axlatning bunday manzarasi parazit topilmagan hollarda ham amyobiaz diagnozini qo‘yish uchun asos bo‘la oladi.

Ichak amyobiozini ayniqsa u isitma va intoksikatsiya bilan kechganda, bakterial dizenteriyadan, balantitsiazdan, trixotsefalyoz kasalliklaridan farqlash kerak.

Bakterial dizenteriyadan farqlashda, uni isitma va intoksikatsiya alomatlari bilan boshlanishi, yo‘g‘on ichakning ko‘proq distal qismining zararlanishi («chap gemokolit») bilan o‘tkir kechishi, remissiya davagini qisqa bo‘lishi yoki bo‘lmasligini hisobga olish kerak. Bu kasalliklarni farqlashda, axlatni mikroskop ostida ko‘rish hamda ichakni rektoskop yordamida ko‘rish ham xal qiluvchi rol yo‘naydi.

Balantidiazda bemorning ichagida bo‘ladigan o‘zgarishlar ham, klinik belgilari ham juda o‘xshashdir. Shuning uchun ularni farqlash koproskopik va boshqa laborator tekshiruvlarga asoslanadi.

Amyobiazni nafaqat yuqorida aytilgan yuqumli va parazitar kasalliklar balki ayrim terapevtik kasalliklardan ham farqlash kerak. Jumladan, bemorda isitma va intoksikatsiya alomatlari bo‘limgan taqdirda nospetsifik yarali kolitdan, 50 dan katta yoshdagи shaxslarda — divertikular kasallikdan, gi povitaminoz alomatlari bo‘lgan

shaxslarda — pillagradan farqlash kerak. Ichakdan qon kelishi ichak o'sma kasalliklarida hamda Shenley — Genox kasalligida ham bo'lishi mumkin.

**Davolash.** Amyobiazni spetsifik davolashda qo'llaniladigan ko'p samarali dorilar mayjud bo'lib, ularni uch guruhga bo'lish mumkin.

*B i r i n c h i g u r u u h* — amyobalarga, ayniqsa uning oraliq shakliga, bevosita ta'sir etib o'ldiradigan dorilar (bevosita amyobatsitlar): yatren va diyodoxin, shuningdek — enteroseptol, intestopan, meksaform, monomitsin va boshqalar. Ular ichak ichidagi amyobalarga ta'sir etadi. Bu dorilar sista tashib yuruvchi shaxslarni va surunkali ichak amyobiazining remissiyasi davridagi bemorlarni davolashda qo'llaniladi.

Yatren (xiniofon) — 0,5 g dan 3 mahal 10 kun davomida beriladi. Zaruriyat bo'lganida 10 kun o'tkazib davolash kursini shu tarzda takrorlash mumkin. Shu bilan bir vaqtida yatrendan (1—2 g ni bir stakan iliq suvga solib) xuqna qilish ham mumkin.

Diyodoxin — 0,25—0,3 g (0,5 g gacha) dan 3 mahal 10 kun davomida beriladi.

*I k k i n c h i g u r u u h* — ichak shilliq pardasi va boshqa (masalan: jigar to'qimalarida joylashgan amyobalarga ta'sir qiladigan dorilar (to'qima emyobatsidlari): ametin, degidroemetin, ambilgar, delagil, xloroxin, rezoxin). Bu dorilar amyobanening to'qima va oraliq shakllariga ta'sir etadi. Shuning uchun ham ular ichak va ichakdan tashqari amyobiazning o'tkir kechishini davolashda qo'llaniladi.

Emetin (солянокислой эметин) — 5—6 kun (10 kungacha) davomida sutkasiga 1 mg/kg miqdorida, mushak orasiga yoki teri ostiga yuboriladi. Zarurat bo'lganida emetin bilan davolash kursini 45 kundan keyin takrorlash mumkin. Davolash kursi davomida bemorda quşish, nevritlar, mialgiya va miokardning zararlanishi kabi noxush holatlар bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham davolash faqat kasalxonada va EKG nazoratida olib boriladi.

Degidroemetin — sutkada 1,5 mg/kg hisobida 10 kun davomida mushak orasiga yoki teri ostiga yuboriladi. Degidroemetin emetinga nisbatan 6 marta kuchli ta'sir qiladi va zaharli ta'siri kamdir.

Ambilgar — sutkada 25 mg/kg hisobida, 7—10 kun davomida og'iz orqali beriladi. U degidroemetindan ham kuchlidir. Uning

ham noxush (bosh og'rig'i, asab va ruhiyatda ba'zi o'zgarishlar singari), ta'siri bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bu dori faqat vrach nazoratida qo'llaniladi.

Xloroxin (delagil) — ko'proq amyobali jigar abssessini davolashda ishlataladi, chunki u ichakdan tez so'rilib jigarda to'planadi. Davolash kursi 3 hafta. Sutkalik dozasi: birinchi haftada 0,75 g, ikkinchi haftada — 0,5 g va uchinchi haftada — 0,25 g ni tashkil etadi.

Yuqorida aytilgan preparatlar (emetin, degidroemetin va ambilgar) asosan ichak devoridagi va jigardagi amyobalarga, xloroxin (delagil, xingamin) va rezoxinlar esa asosan jigar va boshqa a'zolardagi amyobalarga ta'sir etib, ichakdagi amyobalarga ta'sir etmaydi.

*U ch i n ch i g u r u h* — universal ta'sir etuvchi va amyobalarning hamma shakllarini davolashda keng qo'llaniladigan dorilar: metronidazol(trixopol, flagil, klion), tinidazol (fazijin), furamid (siloksonid).

Ichak amyobiazini davolashda metronidazol 0,4 g dan 3 mahal 5 kun davomida ichishga beriladi. Keyingi yillarda ichak amyobiazning yengil va o'rta og'irliddagi kechimini davolashda ko'proq quyidagi davolash sxemasidan foydalanilmoqda. Metronidazol 750 mg dan 3 mahal 5—10 kun Q yatren 650 mg dan 3 mahal 20 kun yoki metronidazol Q tetratsiklin 0,5 g dan 4 mahal 5 kun davomida beriladi. Ichak amyobiazining og'ir kechimini davolashda yuqorida aytilgan preparatlarga degidroemetin — 1,0—1,5 mg/kg dan (bir kunda 60 mg dan oshmasligi kerak) 5 kun davomida har kuni mushak orasiga yuboriladi.

Amyobiazni ichakdan tashqari boshqa a'zolardagi (jigar, o'pka va boshqa) asoratlari kechimini davolashda quyidagi davolash sxemasi qo'llanmoqda: metronidazol 750 mg dan bir kunda 3 mahal 5—10 kun Q yatren 650 mg dan kunda 3 mahal 20 kun yoki yatren o'rniga xloroxin fosfat (xingamin, delagil), birinchi ikki kun davomida sutkada 1 g dan, keyin — sutkada 0,5 g dan 4 hafta davomida beriladi. Bulardan tashqari, degidroemetin — 1 mg/kg dan har kuni 10 sutka davomida mushak orasiga yuboriladi. Ayrim hollarda bu preparatlarga qo'shimcha qilib furazolidon (0,1 g dan

kuniga 4 mahal 10 kun) beriladi. Furazolidon o'zi ayrim holda hech qanday foydali ta'sir ko'rsatmasada, asosiy davo majmuiga qo'shimcha qilib berilganda uning samaradorligini oshiradi.

Metronidazolni 3 oylikgacha homilasi bo'lgan ayollarga, qon va asab kasalliklari bo'lgan shaxslarga berish man etiladi. Keyingi yillarda ko'proq metranidazolni takomillashtirilgan, ya'ni boshqa dorilar bilan qo'shma preparatlari keng qo'llanilmoqda. Jumladan: entamizol (metronidazol+furamid) juda samarali, uni 5—7 kun davomida 2 tabletkadan 3 mahal beriladi.

Furamid metronidazolga nisbatan kam zaharli bo'lganligi uchun undan nafaqat davolash maqsadida (2 tabletkadan 3 mahal 5 kun) balki kasallikning oldini olish maqsadida ham (2 tabletkadan bir mahal, butun amyobiaz yuqishi xavfi bo'lgan davrda) keng qo'llaniladi.

Amyobiazni davolashda aytilgan kimyoviy dorilarga qo'shimcha sifatida, ta'sir doirasi keng bo'lgan antibiotiklar ham (tetratsiklin, monomitsin) qo'llaniladi. Antibiotiklar bevosita amyobalarning o'ziga ta'sir etmasada, ichak mikroflorasini yaxshilab, spetsifik davo samaradorligini oshiradi. Ular, amyobiozni o'tkir klinik davri o'tgach, to'qima amyobotsid dorilar bilan birgalikda beriladi.

Jigar va boshqa a'zolardagi absesslarni jarrohlik yo'li bilan davolash (yorish yoki punksiya), faqat abssess katta bo'lib yorilish xavfi bo'lgan taqdirda yoki 5 va undan ortiq kun davomida o'tkazilgan kimyoviy davodan yaxshi natija bo'lmasa taqdirdagina o'tkazilishi mumkin.

Bunday hollarda jigar abssessining diametri 2 sm dan ortiq bo'lgan taqdirda, ultratovush apparati yordamida kuzatuv ostida teridan punksiya qilib yiring chiqariladi va drenaj qo'yib bo'shliq amyobotsid dorilar (delagil, emetin) bilan yuviladi. Amyobotsid dorilarni transummbilikal yo'l bilan yuborish ham yaxshi samara beradi. Teri amyobizini davolashda yatrendan tayyorlangan malham ishlataladi.

Amyobiazni davolash majmuiga oqsil va vitaminlarga boy ovqatlar, vitaminlar (C, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>), desensibilizatsiyalovchi va boshqa simptomatik dorilar, anemiya bo'lgan taqdirda temir preparatlari, qon o'rnini bosuvchi preparatlari qo'shilishi kerak.

Spetsifik davo kursining so‘ngida esa kolibakterin yoki bifikol odatdagи dozalarda 20—30 kun davomida beriladi. Kasallikning og‘ir kechimida, anemiya kuchli bo‘lgan taqdirda qon va qon preparatlari quyiladi.

Amyoba ajratib yuruvchi shaxslarni davolashda asosan furamid (0,5 g dan 3 mahal 10 kun davomida) yoki boshqa preparatlar (yatren, diyodoxin, klefamid va b.) beriladi.

Ayrim hollarda, davolash to‘liq va to‘g‘ri o‘tkazilmagan shaxslarda kasallikni klinik va parazitologik qaytalanishi (resediv) kuzatiladi. Ba’zan klinik alomatlarning qayta namoyon bo‘lishi va amyobalarning (amyobiazning epidemik o‘choqlarida) topilishi reinfeksiya oqibati bo‘lishi mumkin.

**Oqibati** — o‘z vaqtida to‘g‘ri davolangan, asoratlanmagan ichak amyobiazida yaxshi. Biroq asoratlangan ichak yoki ichakdan tashqari amyobiazlarda og‘ir. Jigar, o‘pka, miya abscesslarida agar spetsifik davo o‘tkazilmasa o‘lim 25% va undan ortiq bo‘lishi mumkin.

**Profilaktikasi.** Amyoba sistalarini tashib va ajratib yuruvchi shaxslarni o‘z vaqtida aniqlash hamda davolash, shuningdek boshqa ichak infeksiyalarining oldini olishda o‘tkaziladigan umumiy sanitariya va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishiga hamda aholining sanitariya madaniyatini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini o‘tkazish asosiy profilaktik tadbirlar hisoblanadi.

Amyobiazli bemorlar albatta kasalxonada davolanishi va kasalxonadan faqat sista ajratishi to‘xtaganligiga mutloq ishonch hosil qilingandagina (qayta-qayta parazitoskopik tekshiruvlardan so‘ng) chiqarilishini taminlash ham katta ahamiyatga egadir.

Parazit tashib yuruvchi shaxslarni ovqatlanish korxonalarida ishslashlari man etiladi. Bemorning najasi 5% li, kiyim-kechagi esa 3% li lizol eritmasi bilan dezinfeksiya qilinadi. Spetsifik ximioprofilaktika o‘tkazilmaydi.

## **Lyambliozi (lambliosis)**

Lyambliozi — ko‘pchilikda latent parazit tashuvchilik ko‘rinishi-da, kamroq hollarda oshkora—ichak faoliyatining tuzilishi alomatlari bilan namoyon bo‘ladigan parazit kasallikdir.

**Tarixiy ma'lumotlar.** Kasallikning qo'zg'atuvchi parazitni birinchi bor 1859 yilda D.F.Lyanbl aniqlagan. 1888-yilda Blanchard bu parazitni *Lamblia intestinalis* deb atashni taklif etgan. XX asrning, ayniqsa, 50—70-yillari orasida juda ko‘p dunyo olimlari lyambliozi o‘rganishda katta izlanishlar olib bordilar. Olingan ma'lumotlar juda xilma-xil va hatto qarama-qarshi bo‘ldi. Bu borada O‘zbekiston olimlari, ayniqsa A.A.Tashpulatov (1961—1964) va N.A.Dexkan-Jxodjayeva (1953—1970) larning qo'shgan hissalari salmoqli bo‘ldi.

Nihoyat, 1966-yilda Moskvada o‘tkazilgan parazitologlarning xalqaro simpoziumida lyambliyaning patogenligi tan olinib, u shartli patogen parazitlar guruhiga kiritildi. Binobarin, lyambliozi klinik belgilarsiz parazit tashuvchilik hamda klinik namoyon shakilda kechishligi e‘tirof etildi.

**Etiologiyasi.** Kasallikning qo'zg'atuvchisi — *Lamblia intestinalis* — sodda hujayrali bo‘lib, Polymastigide turkumiga Hexamitidae avlodiga mansub, A.G.Aleksev (1914) bo'yicha Yeazdia intestinalis deb ataladi. Lyambliyalarning rivojlanishi ikki xil — vegetativ va sista bosqichlarida o‘tadi. Vegetativ shakli noksimon, uzunligi 10—25 mkm, eni — 8—12 mkm kattalikda bo‘ladi. Ikki yuzasida botiqlik so‘rg‘ich diskasi bo‘lib, uning yordamida parazit ichak epitelial hujayralariga yopishib oladi. Lyambliyada og‘iz teshigi bo‘lmaydi. Shuning uchun u endoosmotik yo‘l bilan, faqat erigan ozuqalarni so‘rib ovqatlanadi. Maxsus bo‘ylgan surtmani mikroskop ostida ko‘rilsa yorug‘ so‘rg‘ich diskasi fonida tanani ikki simmetrik qismgabob‘lib turuvchi ikkitatayanch iplar — aksostil ko‘rinadi. Tananing bir xilda tuzilgan ikki qismida bittadan, simmetrik joylashgan (ko‘zlarni eslatuvchi) oval shaklidagi yadrolarni ko‘rish mumkin. Parazitni to‘rt juft simmetrik joylashgan xivchinlari bo‘lib, ular yordamida harakatlanadi (**Zarvaraqdagi 5-rasmga qarang**).

Ingichka ichakda parazitlik qiluvchi lyambliyalarning vegetativ shakli yo‘g‘on ichakka tushib sistalar hosil qiladi va najas orqali tashqi muhitga ajraladi. Sistalar oval shaklida, uzunligi 10—14 mkm, eni 6—10 mkm kattalikda bo‘ladi. Yetilmagan sistalarda ikkitadan, yetilganlarida esa to‘rttadan yadrosi bo‘ladi. Sistalarning qobig‘i yaqqol ko‘rinib turadi va ko‘pchilik holatda protoplazmadan ajralgan holda

bo‘ladi. Sistalarning bunday ko‘rinishi lyambliyalarga juda xos bo‘lib, uni boshqa ichak parazitlarining sistalaridan farqlashga yordam beradi.

**Epidemiologiyasi.** Lyamblioz, ichak parazitar kasalliklari orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. U danyoning barcha qit’alarida qayd etiladi. Ichagida lyamqliya bo’lgan shaxs (bemor yoki parazit tashib yuruvchi) largina odamlar uchun kasallik manbayi bo’la oladi. Kemiruvchi hayvon (sichqon, kalamush) larda parazitlik qiladigan lyamqliyalar odamlar uchun patogen emaslar. Naja bilan ajralgan sistalar tashqi muhitda usoq vaqt saqlanishlari mumkin. Najasda uch hafta, suvda 2 oygacha, oziq-ovqatlarda 6 soatdan 2 sutkagacha saqlanadi, xlor ta’siriga ham chidamli (1 mg/l konsentratsiyadagi xlorda sistalar 72 soatda o’лади).

Parazit og‘iz-najas yo‘li bilan yuqadi. Suv bilan bir necha donadan 10 ta gacha sistaning yutilishi odamda invaziya uchun yetarli bo‘ladi. Lyamblioza ko‘zatiladigan epidemik ko‘tarilishlar ko‘pincha parazit suv orqali tarqalganda yuzaga keladi. Parazit, sistalar bilan ifloslangan oziq-ovqatlar orqali yoki bevosita odamdan-odamga ham yuqishi mumkin. Bunday yuqish ayniqsa bolalar bog‘chalarida ko‘p kuzatiladi. Shuning uchun ham lyamblioza kattalarga nisbatan maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar orasida keng tarqalgan. Gomoseksual-erkaklarda parazit jinsiy yo‘l bilan yuqishi ham mumkin.

Lyambliozining tarqalishi ko‘p jihatdan aholining suv bilan taminoti, ovqatlanish tarzi va sanitariya-gigiyenik ko‘nikmalariga bog‘liq. Bolalar orasida invaziya darajasi yuqori — 15—20 foiz bo‘lsa, kattalar orasida, rivojlangan mamlakatlarda — 3,5%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 10 foizdan ortiqdir. Ayrim bolalar jamoalarida qayta-qayta tekshiruv o‘tkazilganda bolalarning deyarli barchasida parazit borligi aniqlangan. JSST (1983) ilmiy guruhining baholashi bo‘yicha, lyambliozi jamoat sog‘lig‘ini saqlashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan parazitar kasalliklar qatoriga kiritilgan.

**Patogenezi.** Lyambliyalar odam va hayvonlar ingichka ichaginiq yuqori qismida ichak devori shilliq qavatiga o'mashib olib yashovchi parazitdir. Odamga lyambliyaning sistalari og'iz orqali yuqadi. Sistalardan vegetativ shaklga o'tgan parazit ingichka ichakning

yuqori qismida shilliq parda yuzasida juda tez ko'payib, shilliq qavatning 1 sm yuzasiga 1 mln va undan ortiq lyambliya miqdoriga yetadi. Lyambliozi rivojlanishi uchun organizmga 10 tagacha sistaning tushishi kifoya ekanligi aniqlangan. Lyamqliya bilan zararlangan shaxslar 1 sutkada 18 mlrd gacha sista ajratishi mumkin. Lyambliyalar xo'jayini organizmida tayyor parchalangan ozuqalar hisobiga yashovchi parazitlar hisoblanadi. Ichak shilliq qavatini bunchalik ko'p parazitlar bilan qoplanishi, ichak devorida ovqat hazm bo'lish jarayonini izdan chiqishiga va ichak harakatini (peristaltikasini) buzilishiga olib keladi. Buning oqibatida, ichakda turli xil bakteriyalar, shu jumladan achitqi mikroblari ko'payishi mumkin.

Lyambliyalar va ularning chiqindilari, shuningdek ichakka xos bo'limgan mikroblar avvaligi ichak shilliq qavatini qitiqlaydi va kataral yallig'lanishni yuzaga keltiradi, keyinchalik u shilliq pardaning atrofiyasiga aylanadi. Kataral-degenerativ jarayon davrida turli xil funksional o'zgarishlar klinik namoyon bo'lsa, atrofik jarayonlar davrida organik belgilar kuzatiladi.


O'n ikki barmoq ichagida bunday o'zgarishlarni bo'lishi o't ajratish yo'llari va oshqozon osti bezining faoliyatining buzilishiga sababchi bo'lishi mumkin. Lyamblioza kuzatiladigan ko'pchilik klinik alomatlar, ichakdan ozuqalar, asosan yog' va uglevodlarning so'riliishini buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa yog' parchalanishi va so'riliشining buzilishi kasallikning davomiyligi ortgan sari og'irlashib boradi. Ayrim (laktoza, enteropeptidaza va b.) ferment-larning aktivligi pasayadi, B<sub>12</sub> vitaminining so'riliishi susayadi, C vitaminning almashinuvni buziladi. Bu holat, lyambliyalar ajratadigan ajralmalar, ingichka ichak mikrovorsinkalarini bevosita yoki bilvosita jarohatlashidan dalolat beradi. Lyambliyalarning vegetativ shakli o'zidan eruvchan toksin ajratadi degan taxminlar bor, broq bunday toksin hali aniqlanganicha yo'q. Ba'zan to'qima oralig'ida kam miqdorda lyambliyalar aniqlansa ham ularning atrofida yallig'lanish alomatlari ko'rinxmaydi.

Lyamblioza asosiy patologik jarayon oshqozon-ichak sistemasi a'zolari (o'n ikki barmoq ichagi, ingichka ichak, o't yo'llari va oshqozon osti bezi) da kechsada, biroq, barcha bemorlarda asab hamda yurak-tomir sistemalari sohasida turli darajadagi funksional

o‘zgarishlarni kuzatilishi, organizmda mahalliy va umumiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishidan dalolat beradi.

Asab sistemasiidagi o‘zgarishlar asosan, nevrosteniya va vegeto-distoniyaga xos simptomlar bilan namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar, N.A.Dexkan-Xodjaevning (1970) takidlashicha parazitning organizmga zaharli hamda nerv-reflektor ta’sir kursatishi, shuningdek, o‘n ikki barmoqli ichak shilliq qavatida ishlanuvchi gormonlarning kamayishi tufayli buyrak usti bezi po‘stlog‘ining faoliyatini susayishi oqibatida organizmning kompensator-moslanish reaksiyasining susayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Lyambliozda kechadigan patologik jarayonni umuman quyidagi sxematik tarzda tasavur etish mumkin (N.A.Dexkan—Xodjayeva, 1970).



Lyambliyalar o‘t yo‘llarida yashay olmaydi, chunki o‘t moddasi ularni o‘ldiradi. Shu bois lyambliyalar bevosita jigarning jarohat-

lanishiga, xolitsistoxolangit rivojlanishiga va nerv sistemasining zararlanishiga sabab bo'la olmaydi. Biroq bunday o'zgarishlar lyambliyalarning reflektor ta'siri tufayli yuzaga keladigan, o't yo'lining diskineziyasi tufayli ikkilamchi infeksiya qo'shilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Lyambliozi ko'pincha boshqa ichak infeksiyalari bilan yo'ldosh holda kechadi. Lyambliozi shigellyoz bilan birga kechganda, ich buzilishining uzoq davom etishi, immunogenezning buzilishi va dizenteriyaning ko'pincha surunkali kechimga o'tishiga sababchi bo'ladi.

Ko'pchilikda lyambliozi latent (yashirin) holatda kechadi. Xastalikni oshkor holda kechishi organizmga tushgan lyambliyalarning miqdoriga, ayrim shtammlarining virulentligining yuqoriligiga hamda parazit yuqqan organizmning immunologik holatiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, OISV (odamda immunotanqislikka sababchi virus) infeksiyasi bo'lgan shaxslarda lyambliozi og'ir kechadi. Immunitet tanqisligi bo'lgan shaxslarda, lyambliozi qaytalanishlar (residiv) va qayta yuqishlar (reinfeksiya) ko'p kuzatiladi. Lyambliozi bilan kasallanib o'tgan shaxslarda hosil bo'ladigan immunitet unchalik kuchli emas va uzoq saqlanmaydi.

**Klinikasi.** Inkubatsion davri 1–3 hafta. Ko'pchilik hollarda lyambliozi latent (yashirin) shaklda kechadi. Oshkora kechimi esa o'tkir yoki surunkali ko'rinishda namoyon bo'ladi. Oshkora kechimi, odatda, o'tkir boshlanadi, bemorning ichi suvdek suyuq ketaboshlaydi. Najasida shilliq va qon aralashmasi bo'lmasada, yuzasida yog' aralashmasi paydo bo'ladi, noxush hid taratadi. Qorinning yuqori qismida og'riq paydo bo'ladi. Ko'p yel to'planib, qorin kepchiydi, qayta-qayta kekiradi, kekirganda serovodorodli hid taraladi. Bemorning ishtahasi pasayib, ko'ngli aynaydi, ba'zan quсади, ayrim bemorlarda tana harorati biroz ko'tariladi.

Shuning bilan birga bemorlar lohaslik, tez toliqish, uyquning buzilishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishiga shikoyat qiladilar. Ularda jizzakilik, ruhiyatni tez-tez o'zgarib turishi hollari kuzatiladi. Qon tomirlarda vegetativ reaksiyalar bilan bir qatorda, ayrim bemorlarda yurak-tomir sistemasida funksional o'zgarishlar bo'lishi ham mumkin. Lyamblioza qarshi davo kursi o'tkazilishi bilan bu

o‘zgarishlarni tez yo‘qolishi ularning lyambliyalarning parazitlik jarayoni bilan bevosita bog‘liq ekanligidan darak beradi.

Ko‘pchilik tekshiruvlar natijasiga ko‘ra, lyamblioza jigarning kattalashuvi ikkilamchi — reflektor xarakterga ega. Biroq patologik o‘zgarishlar uzoq davom etganda, ayrim bemorlarda jarayon o‘t yo‘llaridan jigarga o‘tib mezenximal gepatit rivojlanadi.

Kasallikning boshlang‘ich davrida o‘t yo‘llarida kuzatiladigan o‘zgarishlar funksional xarakterga ega bo‘lsa, keyinchalik uzoq davom etgan diskineziya tufayli ikkilamchi banal infeksiya qo‘shilishi mumkin. Shuning uchun ham lyamblioza o‘t yo‘li va jigarda kuzatiladigan o‘zgarishlar juda xilma-xil — diskineziyadan tortib to xolessistogepatitgacha bo‘ladi.

Kasallik uzoq davom etganda jigarning kattalashuvi biroz sariqlik hamda antitoksik faoliyatning va modda (uglevod, oqsil) almashuvining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan alomatlar ko‘riladi.

Oshqozon osti bezi fermentlarining (ayniqsa li paza) ajralishini kamayishi tufayli bemorda qorin kepcishishi, quldirish, ayniqsa sut shakarini hazm qilmaslik singari alomatlar yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, lyambliozi kasallikning boshlang‘ich davrida asosan ichakning jarohatlanishi, keyinchalik jarayon chuqurlashganda esa — xolessistogepatit va xolessistit tarzida kechadi.

N.A.Dexkan—Xodjayevaning (1970) ko‘p yillik kuzatuvlari lyambliozning quyidagi klinik shakillari farqlanishini taqozo etadi.

### I. Ichak lyambliozi:

1. Duodenit;
2. Duodenoeyunit;
3. Enterit;
4. Enterokolit;
5. Kolit

### II. Ichak-jigar lyambliozi.

### III. O‘t yo‘llari va jigar lyambliozi:

1. O‘tkir xolessistit;
2. Surunkali xolessistit;
3. Surunkali xolessistogepatit.

Kasallikning o‘tkir kechim davri 5—7 kun davom etadi. Ayrim hollarda lyambliozi oylab cho‘ziladi, oziqlanish buzilib, bemor

ozib ketadi. Ko‘pchilikda xastalik alomatlari 1—4 hafta davomida o‘z-o‘zidan yo‘qolib, bemor butunlay sog‘ayib ketishi mumkin. Lyambliozi surunkali shakilda o‘tganida, vaqtı-vaqtı bilan qaytalanib turadi, bunda bemorning qorni kepchib, yuqori qismida og‘riq, ba’zan ich ketishi kuzatiladi. Qaytalanishlar ko‘proq lyambliozining murakkab kechimlarida kuzatiladi. Lyambliozi surunkali kechimi ko‘proq maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalarda kuzatiladi. Lyambliozi o‘zidan asoratlar qoldirmaydi.

**Tashxisi va taqqosiy tashxisi.** Lyambliolzning tashxisoti albatta parazitning vegetativ shakli yoki sistalarini aniqlash bilan tasdiqlanishi kerak. Lyambliyaning vegetativ shakli o‘n ikki barmoq ichagidan olingen ajralma yoki suyuq najasda, sistalar esa quyuq najasda aniqlanadi. Parazitning aniqlanishi kasallikning o‘tkir kechimida 5—7-kundan boshlanadi. Kasallikning surunkali kechimida parazit faqat vaqtı-vaqtı bilan naja orqali ajralib turadi, shuning uchun ham tashxis qo‘yishda, bir marta tekshiruv bilan kifoyalanmasdan, 4—5 hafta davomida, har haftada bir marta tekshiruv olib borish tavsiya etiladi. Bemorning naja yoki o‘n ikki barmoq ichagidan olingen suyuqlikdan tayyorlangan surtma mikroskop ostida ko‘rilganda — ko‘rish maydoni 200 ta dan, kattalashtirish darajasi 400 martadan kam bo‘lmasligi kerak. Keyingi yillarda, bemor naja surʼi antigenlarini aniqlashga asoslangan — bilvosita immunofluoressensiya reaksiyasi, enzim bilan nishonlangan antitelolar reaksiyasi singari tahlillar mavjud. Biroq ular xali amaliyotda keng qo‘llanayotgani yo‘q.

Agar bemorda, ayniqsa bolalarda, intoksikatsiya alomatlari bo‘limgani holda, ichi odatdagidan ko‘ra tez-tez va suyuq kelsa, biroq naja surʼi patologik aralashmalari (shilliq, qon) bo‘lmasa, ko‘proq liyambliozi haqida o‘ylash kerak.

**Davolash.** Kasallikning o‘tkir kechimi davrida bemorni kasalxonaga yotqizib davolash tavsiya etiladi. Lyambliozi to‘liq davolash murakkab bo‘lib, bemor organizmining umumiy immunologik holati, kasallikning klinik bosqichi, klinik turlari (ichak lyambliozi, ichak-jigar lyambliozi) va boshqa holatlar hisobga olinishi kerak.

Lyambliozi — surunkali enterokolit alomatlari bilan kuza-tilayotgan bemorlarga Pevzner bo'yicha 2-stol parhezini oqsil (tvorog, go'sht, tuxum) bilan boyitilgan holda berish tavsiya etiladi. Kasallik zo'riqqan paytida uglevodlar (qand, shirali ho'l mevalar va sh.k.) berishning keskin kamaytirish zarur. Bemorda o't yo'lining jarohatlanishi alomatlari kuzatilgan taqdirda, shuningdek lyambliozi-ning ichak-jigar shakli kuzatilganda Povzner bo'yicha 5-stol parhezi berilib, hayvon yog'i berish keskin cheklanadi.

Lyambliozi davolashda kimyoviy dorilardan akrixin, aminoxi-nol, furazolidon va enteroseptol singari preparatlar keng qo'llanib kelingan. Ayniqsa toza akrixin bilan furazolidon birqalikda berilganda yaxshi natija olingan (Dexkan—Xodjayeva N.A., 1970). Keyingi yillarda yuqorida aytilgan dorilardan ham samaraliroq preparatlar — metronidazol va tinidazol qo'llanmoqda.

Metronidazol (Metronidozolum) — 0,25 dan 3 mahal 7 kun davomida ichishga beriladi. Homilador ayollarga berish mumkin emas. Tinidazol (Tinidazolum) — 2 g dan faqat bir marta ichishga beriladi. Bu preparatni homilador ayollarga hamda qon kasalligi, asab sistemasi kasalligi bo'lgan bemorlarga berish mumkin emas. Tinidazol ayrim bemorlarda bosh aylanishi, qisqa muddatli leykope-niya va allergik reaksiyalar berishi mumkin.

Lyambliozi kasalligida, ichakdagi patologik jarayonning surunkali kechishi va undagi vitaminlar sintezi va so'rili shining buzilishi oqibatida, bemorda vitaminlar taqchilligi rivojlanishini hisobga olib davolash majmuiga vitamin B guruhi, askorbin va nikotin kislotalarini kiritish lozim. Ayniqsa B guruhi vitaminlari ichakning mator va sekretor faoliyatini yaxshilashi hamda ovqat hazm qilish fermentlari sintezining orttirishini unitmasligimiz kerak.

Ayrim hollarda davolash tugagach 7 haftadan keyin klinik yoki parazitologik qaytalanish (residiv) kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ham davolangan rekonvalessentlar uzoq vaqt kuzatuvda bo'lishlari kerak. Shuningdek, davolashni umumiyl quvvatlantiruv-chi dorilar va boshqa qo'shimcha kasalliklarni davolash bilan birga olib borish zarur.

**Oqibati** — deyarli har doim yaxshi.

**Profilaktikasi.** Lyambliochning xususiy profilaktikasi yo‘q. Shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasiga rioya qilish, suv va oziq-ovqatlarni ifloslanishidan saqlash, suvni faqat qaynatilgan holda iste’mol qilish singari tadbirlar lyamblioq tarqalishining oldini olishda asosiy choralar hisoblanadi. Ovqatlanish va unga tenglashtirilgan korxonalarda ishlovchi shaxslar, shuningdek bog‘cha va maktab bolarli lyamblioza tekshirib turiladilar. Lyamblioq invaziysi bo‘lgan shaxslarni o‘z vaqtida aniqlab davolash ham katta ahamiyatga ega.

## **Kriptosporoidoz (cryptosporidiosis)**

Kriptosporoidoz — asosan, ovqat hazm qilish sistemasi a’zolarining zararlanishi bilan kechadigan, ko‘proq bolalarda hamda immunitet taqchilligi bo‘lgan shaxslarda kuzatiladigan parazitar kasallikdir.

1907-yilda Tyzzer tomonidan kriptosporoidilar birinchi marta aniqlangan.

**Etiologiyasi.** Kasallikning qo‘zg‘atuvchisi kriptosporidiya *Coccidia cinfaga*, *Coccidiida* turkumiga va *Cryptosporidiidae* oilasiga mansub bo‘lib, u o‘z ichiga 7 xil kriptosporidiylarni oladi. Kriptosporidilar faqat bitta xo‘jayin (hayvon yoki odam) organizmida ko‘payadi va rivojlanadi. Odam ulardan faqat bir xili (*S.muris*) ni xo‘jayini hisoblanadi. Biroq turli hayvonlar (qo‘ylar, mollar va b.) ichaklarida ko‘payuvchi boshqa xil kriptosporidilar ham odamni kasallantirishi mumkin.

Odam (yoki hayvon) organizmida kriptosporidilarning ko‘payishi ootsistalar hosil bo‘lishi va ularni najas orqali tashqi muhitga ajralishi bilan yakunlanadi. Ootsistalar tashqi muhitda uzoq saqlanadi. Ootsistalar yumaloq shakilda, diametri 4—7 mkm ni tashkil etadi.


Ootsistalar yutilganda ichakning boshlang‘ich qismida yoriladi va har bir ootsistadan 4 tadan chuvalchangsimon (uzunligi — 4,9—11 mkm va eni 0,8—1,2 mkm), harakatchan sporozoitlar ajralib chiqadi. Ular sitoplazmaga kirmasdan, enterotsitlarning yuzasiga joylashib olib rivojlanadi, yiriklashib trofozoitlarga aylanadi. 1-tipdagi merontlar siklik ravishda (jinssiz yo‘l bilan) ko‘payib,

ko‘p miqdordato‘planadi. 2-ti pdagi merontlar esajinsiy yo‘l bilan (hujayra ichida) ko‘payadi va oqibatda ootsistalar paydo bo‘ladi. Tashqi muhitga najas bilan ajralib chiqqan ootsistalar boshqa xo‘jayinlarga yuqish qobiliyatiga ega bo‘ladi.


Ichakka tushgan parazit rivojlanib, to yangi ootsistalar paydo bo‘lib, tashqi muhitga ajralguniga qadar bo‘lgan jarayon 4—7 kun davom etadi. Paydo bo‘lgan ootsistalarning hammasi ham tashqariga ajralavermaydi. Ularning bir qismi (yupqa qobiqlilari) xo‘jayini organizmiga qayta yuqadi va kasallikning surunkali kechimiga sabab bo‘ladi.

**Epidemiologiyasi.** Odam kriptosporidiyalarining ootsistalari faqat odamlargagina yuqumli bo‘lmay balki it, mushuk, buzoq, qo‘y, echki, kalamush, sichqon va tovuqlarga ham yuqishi kuzatiladi. Kriptosporoidozdakasallikning odamdan odamgayuqishi asosiy o‘rin tutsada, biroq mushuk (*C.felis*), buzoq (*C.bovis*) va b. hayvonlarning kriptosporidiyalarini ham odamda kasallik qo‘zg‘atishi mumkin. Kriptosporidiyalarni odamdan odamgayuqishi ko‘proq oilayoki kasalxonasharoitidakuzatiladi. Kriptosporidoz ayniqlsa bolalar orasida ancha keng tarqalgan kasallikdir. G‘arbiy o‘lkalarda, bolalarda kuzatiladigan gastroenteritlarning 1,4 dan 4,1%, rivojlanayotgan mamlakatlardagi bolalarda esa 4—11 foizi kriptosporidiyalar bilan bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘lgan. Diareyali kasalliklarning ayrim epidemik qo‘zg‘alishilari davrida kriptosporidoz bemorlarning hatto 63% daaniqlangan. «Sayohatchilar»da kuzatiladigan diareyalarning ham sababchisi ko‘pincha kriptosporidiyalar bo‘ladi. Bemorlar ichagidan kriptosporidiyarning ajralib chiqishi, ich ketishi to‘xtagach bir haftadan keyin, ba’zan 2—3 haftadan keyin to‘xtaydi. Sog‘lom tashuvchilik holati kriptosporidozda juda kam kuzatiladi. Immunitet taqchiligi bo‘lgan shaxslar kriptosporidozga juda moyil bo‘ladi.


**Patogenezi.** Kriptosporoidoz oshqozon-ichak infeksiyalari qatoriga kiradi. Chunki kriptosporidiyalar odam organizmiga asosan og‘iz orqali tushib ichak epithelial hujayralari yuzasida (yoki sitoplazmasida) paydo bo‘lgan merozoitlar juda ko‘p enterotsitlarni jarohatlaydi. Ko‘pchilik enterotsitlarda degenerativ o‘zgarishlar va epithelial hujayralar yuzasida kratersimon botiqlar kuzatiladi.




*1-rasm.* Bezgak plazmodiyalarining rivojlanish sikli.




*2-rasm.* Bezgak taloqni kattalashuvi.





*3-rasm.* Toxoplasma gondi va rivojlanish sikli.




*4-rasm.* Amyobali dienteriyada yo'g'on ichak shilliq qavatining ko'rinishi.




5-rasm. Lyamlioza qo'zg'atuvchisi  
- *Lamblia intestinalis* vegetiv va  
sista shakli.




6-rasm. Enterobioz qo'zg'atuvchisi va  
tuxumini ko'rinishi.




7-rasm. Enterobiozning  
rivojlanish sikli.




8-rasm. *Ascaris Lumbricoides*  
lichinkasi va tuxxmlari.




9-rasm. *Ascaris Lumbricoides*  
rivojanish sikli.




10-rasm. *Trichocephalus trichiurus*  
jinsiy yetilgan shakl.




11-rasm. Ankilstomoznng rivojanish sikli.




*12-rasm. Teniarinxoz — Taenia saginata.*




*13-rasm. Teniarinxoz rivojlanish sikli.*




14-rasm. Tenioz — *Taenia solium* boshchasini elektron mikroskop ostida ko‘rinishi.



15-rasm. Geminolepidoz — *Hymenolepis nana* yetuk shakli va tuxumlari.




16-rasm. *Fasciola hepatica* tuxumlari va lichinkasi.



17-rasm. *Fasciola hepatica* rivojlanish sikli.



18-rasm. O'lat bakteriyalari — *lersinia pestis*.




19-rasm. O'lat bakteriyalarini tashuvchi burgalar.




21-rasm. O'latning bubonli shakli.



20-rasm. O'latning teri shaklida yaraning ko'rinishi.




22-rasm. Vabo vibrionlari.



23-rasm. Vaboda najas va qusuq moddalarining ko'rinishi.



*24-rasm. Vaboning algid turida bemorning ko‘rinishi.*



*25-rasm. Kuydirgi kasalligida terida yaralarning ko‘rinishi.*

Kasallikning og‘ir kechimida ichakning keng yuzasida ichak so‘rg‘ichlari (mikrovorsinkalar) jarohatlanadi va oqibatda ozuqa moddalarni ichakdan so‘rilishi buziladi. Suv va elektrolitlarni ichakdan so‘rilishi sekinlashib, aksincha plazmadan ichak bo‘shlig‘iga ajralishi kuchayadi. Buning oqibatida xuddi vabodagi singari suvli ich ketishi yuzaga keladi. Ichakning fermentativ faoliyati ham buziladi. Laktozaning yetishmasligi, qandning parchalanishining buzilishi oqibatida moy kislotalarining ko‘payishi suvni ichak bo‘shlig‘iga yanada ko‘proq ajralishiga, najasning kislotali va qo‘lansa hidli bo‘lishiga olib keladi. Suvli ich ketishida kuzatiladigan patologik jarayon vabo enterotoksini ta’sirida bo‘ladigan jarayonga juda o‘xshasada biroq, kriptosporidilarda hech qanday toksik modda (toksin) ajralishi kuzatilmagan.

Kriptosporoidoz asosan oshqozon-ichak sistemasi a’zolarining zararlanishi bilan kechsada, ayrim immunitet taqchilligi bo‘lgan shaxslarda (ayniqsa OITS li bemorlarda) respirator a’zolarning ham jarohatlanishi kuzatiladi. Immunitet taqchilligi bo‘lgan shaxslarda kriptosporoidoz ancha og‘ir kechadi.

Kasallikni o‘tkazgan shaxslarda kriptosporidilarga nisbatan chidamlilik, ya’ni immunitet paydo bo‘ladi. Qayta kasallanish juda kam kuzatiladi.

**Klinikasi.** Kriptosporidozning yashirin davri 4 kundan 14 kungacha. Kasallik, odatda, o‘tkir boshlanadi. Bemorning tana harorati ba’zan 39°C va undan ortiq darajagacha ko‘tariladi, qorni vaqtı-vaqtı bilan g‘ijimlab og‘riydi va ichi suvdek keta boshlaydi. Qorindagi og‘riq ba’zan kuchli, xurujli bo‘ladi. Najasi suyuq suvdek, qo‘lansa hidli, kamdan-kam hollarda shilliq va qon aralashmali bo‘lishi mumkin. 30—40 foiz bemorlarda ko‘ngil aynashi va quşish kuzatiladi. Kasallikning bu xos belgilari asosan 5 kundan 11 kungacha davom etadi, faqat ayrim bemorlarda 3—4 haftagacha cho‘zilishi mumkin. Ko‘pchilik, immunitet taqchilligi bo‘lmagan shaxslarda kriptosporoidoz tez, hech qanday asorat qoldirmay tuzalish bilan yakunlanadi. Ayrim bemorlarda unga ikkilamchi infeksiya qo‘shilishi oqibatida turli asoratlar kuzatilishi mumkin.

Kasallik asoratsiz kechganida, degidratatsiya (suvsizlanish) darajasi kam bo‘lib, laborator ko‘rsatgichlar (qon va siydikning

umumiyl tahlili)da, shuningdek oshqozon va ichakni rentgenologik tekshiruvlarida ham sezilarli siljishlar kuzatilmaydi. Immunitet taqchilligi bo'lman shaxslarda kriptosporoidozni qaytalanishi yoki qayta yuqishi (reinfeksiya) holatlari kuzatilmaydi.

OITS (SPID) va boshqa immunitet taqchilligi bo'lgan (tug'ma gi pogammaglobulinemiyasi bo'lgan, immunodepressantlar bilan davolangan) shaxslarda kriptosporoidoz og'ir kechadi va uzoq davom etib bemorning o'limini tezlashtiradi.

Bunday shaxslarda kasallik, tana haroratini  $39^{\circ}\text{C}$  va undan ortiq darajagacha ko'tarilishi, ko'ngil aynashi va qayta-qayta quşish, ichning tez-tez, ko'p miqdorda suvdek ketishi bilan namoyon bo'ladi. Najaşa shilliq va qon aralashmasi bo'lishi mumkin. Bemorning sutkalik yo'qotgan suyuqligi miqdori 10—15 l ga (1 l dan 17 l gacha) yetishi mumkin. Kasallik davomli kechadi, bemorlarning 63—67 foizida 4 oydan ortiq davom etadi. Kriptosporoidoz bilan kasallangan OITS li bemorlarning 50 foizi yaqin 6 oy ichida o'ladilar. OITS li bemorlarga kriptosporoidozdan tashqari boshqa infeksiyalar (pnevrotsitoz, kandidoz va b.) ham qo'shiladi albatta, biroq organizimda ich ketish tufayli bo'ladigan suvsizlanish va elektrolitlar taqchilligi o'limni tezlashtiradi.

**Asoratlari.** Immunitet taqchilligi bo'lman shaxslarda kriptosporoidoz asorat qoldirmaydi. Immunitet tanqisligi bor shaxslarda esa degidratatsiya tufayli gipovolemik shok rivojlanishi mumkin. Ayrim bemorlardakriptosporidilar o'pkagao'tishi vao'ziga xos parazitar zotiljam (respirator kriptosporoidoz) rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

**Tashhisoti va taqqosiy tashxisot.** Ich ketish alomati bo'lgan bemorlarda, ayniqsa 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda, agar najaşa suyuq, suvdek qo'lansa hidli bo'lsa kriptosporoidoz haqida o'yash kerak. Immunitet taqchilligi bo'lgan shaxslarning barchasidaich ketish alomati bo'lgan taqdirdakriptosporidilarga tekshirish kerak. Bunday hollardabemorning najaşidan kriptosporidining ootsistalarini topilishi aniq tashxis qo'yishga asos bo'ladi. Ootsistalarining eng ko'p ajralishi kasallikning 4—5-kunlarida bo'ladi, ich ketishi to'xtaganidan 2—3 kun keyin sistalar ajralishi ham to'xtaydi. Ootsistalarini aniqlash uchun bemor

najasidan tayyorlangan surtmani turli xil (Sil—Nilsen bo'yicha karbol—fuksin bilan, Kester bo'yicha safronin bilan Romanovskiy—Gimza bo'yicha azur—ezozin bilan) bo'yash usullaridan foydalaniladi. Agar bu usullar manfiy natija bersa, u holda flotatsiya usuli qo'llanadi. Bilvosita immunoflyuoressensiya usuli o'ta sezgir va spetsifik tahlil bo'lib, hozirgi davrda amaliyotda keng qo'llanmoqda. Tashxisot uchun va ayniqsa kasallikning surunkali kechimini o'tkir kechimidan farqlash uchun serologik (immunoferment va boshqa) usullardan ham foydalanish mumkin.

**Davolash.** Kasallikning o'tkir va og'ir kechimi davrida bemorni kasalxonaga yotqizish va maxsus parhez tayin etish talab qilinadi. Kriptosporidilargabevositata'sir etuvchi etiotrop dorilar hozircha aniqlanmagan. Ko'pchilik ichak infeksiyalari va parazitar kasalliklarni davolashda qo'llanadigan dorilar (antibiotiklar va boshqa ximiopreparatlar) ni qo'lllash kriptosporoidozda samara bermaydi. Immunologik quvvati yetarli bo'lgan shaxslarda kriptosporoidoz ko'pincha o'z-o'zidan tuzalib ketadi. Faqat kasallikning og'ir kechimida va suv hamda elektrolitlarni yo'qotish darajasi yuqori bo'lgan taqdirda regidratatsion davo (ko'proq og'iz orqali) o'tkazish zarur bo'ladi. Agar kriptosporoidoz OITS li bemorda bo'lsa regidratatsion davodan tashqari boshqa yo'ldosh infektion kasalliklarni (pnev motsistoz, kandidoz, mikobakterioz va bosh-qalarni) aniqlash va ularni etiotrop davolash kerak bo'ladi.

**Profilaktikasi.** Kriptosporoidoz ko'pincha kasalxonada yotgan bemorlar orasida va bolalar jamoalarida tarqalib turadi. Buning boisi, bemor najasi orqali kriptosporidilarning ootsistalari juda ko'p miqdorda ajralishi va atrof-muhitni ifloslantirishidir. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun bemor najasini o'z vaqtida dezinfeksiya qilish va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish zarur.

Kasallik turli hayvonlardan (buzoqlar, qo'ylar va boshqalardan) ham yuqishi mumkin ekanligini unitmaslik kerak. Maxsus profilaktik tadbirlar o'tkazilmaydi.

### Gijja kasalliklari (gekmintozlar)

Gijja kasalliklari (GK) — yer yuzida, odamlar va hayvonlar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardandir. Jahon Sog'liqni saqlash

tashkiloti (VOZ) ning aniqlagan ma'lumotiga ko'ra yer yuzida 4498 mln odam turli xil gjijalar bilan zararlangan. Birgina askaridoz bilan yer yuzi aholisining to'rtadan biri (1 mlrd. ga yaqin odam) zararlangan. Ayniqsa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlari hududida bиргина tropik gelmintozlarning o'zi bilan 700 mln. aholi kasallangan. Juda keng tarqalgan surunkali tropik GK laridan ikki guruhi — shistosomozlar va filyariozlar, boshqa bir qancha tropik kasalliklar qatori, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) ning ilmiy izlanishlari hamda tropik kasalliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga mo'ljallangan maxsus dasturiga kiritilgan. Zero, VOZ ning bergen ma'lumotiga ko'ra, yer yuzi aholisiga keltirayotgan zarari bo'yicha gelmintozlar 4-o'rinni (diareya, tuberkulez va ishemik kasalliklardan keyingi) egalab turibdi.

Enterobioz, askaridoz, gimenoli pidoz, shuningdek, teniidozlar va keng tasmalilar mo'tadil iqlimli o'lkalarda ham keng tarqalgandir.

Akademik K.I.Skryabin sobiq ittifoqda sovet gelmintologiya maktabini yaratdi. U o'zining safdoshlari bilan gjijalar biologiyasini, tarqoqligini, ular chaqiradigan kasalliklar patogenezini, klinikasini chuqur o'rgandi hamda davolash va profilaktika choralarini ishlab chiqdi.

Akademik E.N.Pavlovskiy va uning maktabi tabiiy — o'choqli zoonoz gelmintozlar epidemiologiyasini yaratdi va ular bilan kurash choralarini yoritdi.

Odamlar va hayvonlar organizmida parazit bo'lib yashovchi gjija turlari juda ko'p bo'lib, hozirda odamlarda 270 turi aniqlangan. Hamdo'stlik davlatlari hududida qayd etilgan 70 turidan 30 tasi keng tarqalgandir.

O'zbekistonda har yili 6 mln. odam gjija kasalliklariga tekshirilib, ulardan 200 mingdan ortiq kishida turli xil gjijalar aniqlanadi. Gijja kasalligi bilan ko'proq (87,5%) 14 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanadi. Bizda aniqlanadigan gjijalar, asosan gimenolepidoz va enterobiozlar va shuningdek, tenidlar, askaridalar, qilboshlar, qisman exinokokklar (1 yilda 500 tagacha odamda) va boshqa gelmintlardan iboratdir. Aslida esa bu parazitlarning aholi orasida tarqoqligi yanada kengdir. Masalan, maxsus o'tkazilgan tekshiruvlar

natijasi shuni ko'rsatdiki, ayrim jamoalarda bolalarning 30—50% enterobioz bilan, epidemik hududlarida aholining 20—30% askaridoz va trixotsefalez bilan zararlangan.

Akademik K.I.Skryabinning tasnifi bo'yicha gjijalar 3 guruhga bo'linadi:

1. Nematodlar (*Nematodeses*) — yumaloq shaklidagi cho'zin-choq gjijalar.

2. Sestodlar (*Cestodeses*) — tasma shaklidagi uzinchoq gjijalar.

3. Trematodlar (*Trematodeses*) — so'rvuchi gjijalar.

Gijjalarning biologik xususiyatlari va invaziyaning tarqalishiga qarab gelmintozlar — g e o g e l — m i n t o z, b i o g e l mentoz va k o n t a k t l i (kontagiozli) gelmintozga ajratiladi.

Shuningdek, GK lari invaziya manbayiga qarab a n t r o p o n o z gelmintozlar va z o o n o z gelmintozlar guruhiga bo'linadi.

Gijjalarning organizmda parazit sifatida istiqomat qilishi har doim ham klinik belgilar bilan namoyon bo'lavermaydi. Shuning uchun ham u yoki bu parazitning xo'jayin a'zosida aniqlanishi gelmintologiyada «i n v a z i ya» deb yuritiladi.

B i o g e l p m i n t o z l a r — kasallik qo'zg'atuvchi parazitning rivojlanish jarayonini bir qismi odam organizmida o'tib, ikkinchi qismi esa bir yoki bir necha oraliq xo'jayin a'zosida o'tgandan so'ng odamga yuquvchi GK laridir. Binobarin, bunda oraliq xo'jayin va oxirgi, asosiy xo'jayin farqlanadi. Parazitning dastlabki rivojlanish davri oraliq xo'jayin organizmida, gjijalarning o'sib balog'atga yetish davri esa asosiy xo'jayin organizmida o'tadi. Odatda, gelmintlarning asosiy xo'jayini odam bo'ladi, ya'ni gjija o'sib yetilgan davrida odam organizmida parazitlik qiladi. Biroq ayrim gjija turlari (exinokokklar, alveokokklar, sparganoz va b.) uchun odam oraliq xo'jayin bo'lib xizmat qiladi.

Bu guruhga barcha trematodozlar, sestozlar va ayrim nematodozlar: teniarinxoz, tenioz, exinokokkoz, difillobotrioz, drakunkulez, shistosomoz, opistorxoz va boshqalar kiradi.

G e o g e l m i n t o z l a r — kasallik qo'zg'atuvchi parazitning rivojlanish jarayonining bir qismi odam organizmida o'tib, ikkinchi qismi biron-bir notirik jismda, asosan tuproqda o'tganidan so'ng

invaziya sodir bo‘lishidir. Geogelmintozlarga askaridoz, trixotsefalez, ankilostomidoz, strongiloidoz va boshqalar mansubdir.

K o n t a k t l i g e l p m i n t o z l a r — parazitlarni rivojlanishi jarayonida xo‘jayini a’zosidan yetilgan yoki deyarli yetilgan holatda ajralib chiqib boshqa odamga bevosita yuqishi oqibatida rivojlanadigan GK laridir. Bu holat faqat gimenolepidoz va enterobiozda kuzatiladi.

Biologik xo‘jayini bo‘lmish odamsiz, tabiatda hayotiy jarayoni o‘tmaydigan gjijalar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar **a n t r o - p o n o z** gelmintozlar deb ataladi.

Bunda balog‘atga yetgan gjijalar odam organizmida parazit bo‘lib yashaydi va uning tuxumi hamda lichinkalari axlat orqali ajralib turadi.

Askaridoz, enterobioz, gimenolepidoz, trixotsefalez, shistosomozlar, teniidozlar, ankilostomidozlar va boshqalar — antropozlar hisoblanadi.

Qo‘zg‘atuvchisi odam organizmida ham hayvonlar a’zosida ham parazitlik qiluvchi, biroq epidemiologik bosqichida odam ishtiroki shart bo‘lмаган gelmintozlar *z o o n o z l a r* deb yuritiladi. Bunda balog‘atga yetgan gelmintlar faqat turli hayvonlar organizmida yoki odam va hayvon organizmida parazit bo‘lib yashaydi. Bular qatoriga — trixinellez, difillobotrioz, exinokokkoz, drakunkulez, opistorxoz va boshqalar kiradi.

Odam organizmiga gjija tuxumi va lichinkalari qaysi yo‘l bilan kirishiga qarab: p e r o r a l (og‘iz orqali kiradigan) gjijalar va p e r k u t a n (teri orqali kiradigan) gjijalar farqlanadi. Kamdan-kam holatda gjijalarning organizmga tushishi boshqa yo‘llar bilan sodir bo‘ladi.

## **Gijjalarning odam organizmiga ta’sir qilish mexanizmi**

Odam organizmida gjijalar turli a’zolarda — asosan ingichka va yo‘g‘on ichak bo‘shlig‘ida, vena, limfatik tomirlarda, jigarda, o‘t pufagida, oshqozon osti bezida, teri osti yog‘ qavatida, seroz bo‘shliqlar va boshqalarda istiqomat qiladi va ko‘payadi. Ayrim gjijalar

bir necha a'zo va to'qimalarda parazitlik qiladi, bu holat ularning rivojlanishi jarayonidagi migratsiya xususiyati bilan bog'liq.

Odatda, tasmali gjijalar bitta yoki bir necha (o'nlab) parazit holida yashaydi. So'rg'ichli yoki yumaloq gjijalar esa juda ko'p (bir necha minggacha) miqdorda parazitlik qilishi mumkin.

Shuningdek, bir odamda bir vaqtning o'zida bir necha xil (2–8 gacha) gjija turi parazitlik qilishi mumkin.

Har qaysi gjija turi o'ziga xos klinik simptomlar bersada, ularning asosida parazitlarning odam organizmiga ko'rsatadigan xilma-xil (allergik, intoksikatsion, mexanik, parazitlik, immunologik va boshqa) ta'sirlari yotadi.

A 11 e r g i k ta'siri — gjijalarning odam organizmidagi hayot faoliyati davomida paydo bo'ladigan metabolik moddalar hamda ularning parchalanishi oqibatida hosil bo'ladigan hosilalarga nisbatan to'qima va hujayralarda o'ta sezuvchanlik (sensibilizatsiya) holati yuzaga keladi. Oqibatda bunday moddalar ta'sirida turli allergik o'zgarishlar sodir bo'ladi va u bemorning tana haroratining ko'tarilishi, eshakyemi toshishi, teri qichishi, nafas qisuvchi bronxit singari alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Bunday allergik belgilar ko'proq askaridoz, ankilostomidoz va exinokokkoz singari kasalliklarda kuzatiladi.

Gijjaning bu hosilalari organizmga allergen sifatidagina ta'sir etmasdan, balki i n t o k s i k a s i o n (zaharli) ta'sir ham ko'rsatadi.

Gijjalarning organizmga ko'rsatadigan m e x a n i k ta'siri birinchi navbatda ularning a'zolariga birikish moslamalari (so'rg'ichlari, tishlari va b.) bilan yopishgan joyida a'zoni jarohatlanishi, o'mashgan joyining tanasi bilan ezishi hamda lichinkalarning migratsiyasi davrida to'qimalar butunligini buzishi bilan bog'liq. Buning oqibatida jarohatlangan a'zoning faoliyati buzilishi, shu joydan qon ketishi hamda ikkilamchi infeksiyalarga yo'l ochilishi mumkin. Bundan tashqari, gjijalar nerv reseptorlarini (interoreseptorlarni) qitiqlashi oqibatida impulslar markaziy nerv sistemasi orqali reflektor yo'l bilan butun organizmga ta'sir ko'rsatadi. Natijada nafaqat gjija jarohatlagan a'zo balki, keyinchalik organizmnning boshqa a'zo va tizimlarining ham faoliyati buziladi.

Bu buzilish faqat a'zoning harakat faoliyatiga taalluqli bo'lmasdan, balki ko'plab sekretor va fermentativ o'zgarishlar ham kuzatiladi.

Gijjalarning lichinkalari o'zlaridan ajratadigan fermentlari (gialuronidaza, proteolitik fermentlar) ta'sirida atrof hujayralarda bir qancha fermentativ o'zgarishlar va oqibatda yallig'lanish jarayonini yuzaga keltirib chiqaradi.

Gijjalarning odam organizmida ya sh a sh t a r z i ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gijjalar o'z xo'jayini organizmida parazit bo'lib, tayyor ozuqa moddalarini hisobiga yashashi bemor salomatligiga katta putur yetkazadi. Ayrim yumaloq gijjalar tez ko'payib, a'zoda ko'p miqdorda parazitlik qilish, tasmasimon gijjalar esa ichakda tez o'sishi (bir kunda 7—10 sm gacha) hisobiga odam organizmida oziq-ovqat yetishmasligi, kamqonlik va avitaminoz rivojlanishiga, bolalarni nimjon hamda kasalmand bo'lib o'sishiga olib keladi.

Rivojlanib borayotgan bu yetishmovchiliklar va umum a'zoda sodir bo'lgan murakkab patogenetik jarayonlar sababli odam organizmida *i m m u n o l o g i k r e a k s i y a* buziladi. Ayrim gijjalar (trixinellalar, opistorxoz qo'zg'atuvchilarini va boshqalar) bevosita organizmning immunologik reaksiyasini faol ravishda bo'ladi. Oqibatda ular o'zlarining immnosuppressorlik aktivligi bilan boshqa yuqumli kasalliklarning og'ir kechishiga, ichak infeksiyalarida bakteriya tashuvchilik ortishiga, hamda xavfli o'sma kasalliklari ko'payishiga sababchi bo'ladi.

Gijja kasalliklarining klinik kechishida: o'tkir, latent va surunkali bosqichlarni kuzatish mumkin. Kasallikning *o't k i r b o s q i c h i* gijja lichinkalarining odam organizmida qon oqimi va to'qimalar oralig'idagi migratsiyasi bilan bog'liq bo'lib, asosan allergik belgilarning rivojlanishida klinik namoyon bo'ladi. Latent bosqichi esa organizmda yosh, hali yetilmagan parazitlarning istiqomat qilishi bilan bog'liq bo'lib, klinik belgilarsiz kechadi. Surunkali gelmintozlar kechimida *b o s h l a n g ' i c h , k e c h i k k a n v a o q i b a t l a r* davrini farqlash mumkin.

*B o s h l a n g ' i c h* davrida kasallik belgilari juda yaqqol namoyon bo'ladi, chunonchi organizmda parazitlarning ko'payishi eng avjida bo'ladi.

*Kechikkagan davrida kasallikning klinik belgilari asta-sekin kamayishi mumkin.*

*O q i b a t l a r* davrida esa parazitlar mutlaqo o'lib bitgani holda odam organizmida qayta tiklanmaydigan chuqr o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Gijjalarning turlariga qarab, bu bosqichlarning namoyon bo‘lishi, albatta, turlichcha bo‘ladi. Kasallikning umumiy kechimi esa parazitning turi va joyylanishi, invaziyaning jadalligi va ko‘pligi hamda odam organizmining immunobiologik holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Parazitlarning asosan qaysi a'zoda istiqomat qilishiga qarab: 1, Ichak gelmintozlari va 2. Ichakdan tashqaridagi gelmintozlar farqlanishi mumkin.

## **Ichak gelmintozlari**

Ichak gelmintozlari guruhiga nematodlardan: enterobioz, askaridoz, trixotsefalez, ankilostomidoz, trixenellez; sistodozlardan: teniarinxoz, tenioz, gimenolepidoz va difillobotriozlar kiradi.

## I. Ichak nematodozları Enterobioz (Enterobiosis)

Enterobioz (sinonim — oksiuroz) — odamlar orasida eng keng tarqalgan, ichakning zararlanishi va orqa peshov (anus) atrofida qichishish bilan kechadigan surunkali kasallikdir.

Enterobioz, aholi orasida, ayniqsa bolalar uyushgan jamoalarida (ayrim jamoalarda 90% gacha) keng tarqalgan bo‘lib, u yer kurrasining barcha qit’alarida uchraydi.

**Etiologiyasi.** Enterobiozni mayda gjija (ostritsa)lar — *Enterobiosi vermicularis* qo‘zg‘atadi. Ostritsalar — oq rangli mayda dumaloq gjijalardir. Uning bosh qismida kutikular bo‘rtma va og‘iz atrofida uchta labi bor. Urg‘ochisi yirikroq, uzunligi 9—12 mm, dum qismi begizsimon cho‘zilgan bo‘ladi. Erkagi esa ancha mayda 2—5 mm bo‘lib, uning dum qismi buralgan (**Zarvaraqdagi 6-rasmga qarang**).

Tuxumi yupqa, silliq, rangsiz qoplama bilan qoplangan, noto‘g‘ri oval shaklida, uzunligi 0,050–0,060 mm, eni 0,020–0,030 mm bo‘ladi.

Ostritsalar asosan odam ingichka ichagining quyi va yo‘g‘on ichagining yuqori qismlarida istiqomat qiladi. Uning invaziya darajasi juda yuqori. Masalan, K.I. Skryabin va boshqalar o‘lgan bolaning ichagidan 3000 ga yaqin parazit topishgan. Ichakda yetilgan va ichi tuxumlar bilan liq to‘lgan (5000—15000) urg‘ochi parazitlar, ichakdan ko‘pincha o‘zлari aktiv holda, shuningdek, axlat bilan passiv holda ajralib chiqadi. Aktiv holda ajralib chiqqan ostritsalar (passiv chiqqanlari ko‘pincha o‘lib ketadi), anus atrofi teri burmalari, dumba, son terilari hamda jinsiy a’zolarda tuxum qo‘yadi va o‘zлari halok bo‘ladi.

Gijjalarning ichakdan chiqishi va tuxum qo‘yishi asosan tunda sodir bo‘ladi. Oradan 4—6 soat o‘tgach tuxumdan invazion xususiyatga ega bo‘lgan yetuk lichiňkalar hosil bo‘ladi. Lichinka-larning yaxshi rivojlanishi uchun 36 C harorati, 90—100% namlik talab etiladi. Odam ichagida urg‘ochi ostritsalar 3—4 haftadan 3 oygacha yashaydi. Erkak ostritsalar esa urug‘lanish sodir bo‘lgach ichakda halok bo‘ladi.

**Epidemiologiyasi.** Enterobioz bir tomonidan — ichak — og‘iz mexanizmi bilan yuquvchi ichak gelmintozi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan kontaktli antroponoz gelmintozdir (Leykina E.S., 1970).

Enterobiozning birdan-bir manbayi — bemor odam. Yuqish yo‘li — najas—og‘iz. Gijjalarning ichakdan chiqib, tuxum qo‘yishi chog‘ida anus atrofini qattiq qichitadi. Bemor qichinganda qo‘liga, tirnoq orasiga yetuk tuxumlar o‘rnashib qolishi tufayli avvalo o‘ziga qayta yuqishi, shuningdek, atrofdagi boshqa sog‘lom odamlarga yuqtirishi mumkin bo‘ladi. Yuqish, og‘iz bo‘shtlig‘iga gijjalarning yetuk tuxumini oziq-ovqat, ifloslangan qo‘l barmoqlari va shuningdek chang orqali tushishi tufayli sodir bo‘ladi. Chunonchi, gijja tuxumi, nafaqat bemorning ifloslangan terisi, qo‘l barmoqlari va tirnoqlari ostida, balki ichki kiymalari va o‘rin-ko‘rpalarida, shuningdek, uy jihozlari, tuvaklar, o‘yinchoqlar, gilamlar va sh.k. larda ham saqlanadi. Ularning tarqalishida pashshalarning ham roli kattadir.

Enterobiozning tarqalishi, ko‘p jihatdan, aholining sanitariya madaniyati va zichligiga bog‘liqidir. Enterobioz bilan bolalar kattalarga nisbatan ikki marta ko‘p kasallananadilar. Kasallanish ayniqsa 7—10 yoshli bolalarda ko‘p kuzatiladi. Bog‘cha va maktablarga qatnamay-

digan yoki kundalik bog‘cha, maktablarga qatnaydigan bolalarga nisbatan, haftalik (yoki doimiy) bog‘cha va mакtab-internat bolalari orasida keng tarqaladi. Kasallikning keng tarqalishiga gijja tuxumlarining faqat qo‘l orqali og‘izga tushishi emas, balki ularning uy jihozlarida (ayniqsa o‘rin-ko‘rpa, yostiqlar, paloslar, kigiz va gilamlar) keng tarqalishi (o‘yinchoqlarda 90% gacha) va ularda ma‘lum bir vaqt yashashi (3—12 kungacha) sababli havo—chang yo‘li bilan ham yuqishi sabab bo‘ladi.

Odamlarda parazitlik qiluvchi ko‘plab gijja kasalliklari orasida faqat ikki turi — enterobioz va gimenolepidoz — kontakt yo‘li bilan (bevosita bemor odamdan— sog‘lom odamga) yuqishi mumkin.

Ostritsalar, askaridalar va qilboshlar orasida antagonistik munosabat mavjudligi aniqlangan. Shuning uchun ham bu turdagijijjalarning aholi orasida tarqalishi biri-biriga teskari muvozanatda bo‘ladi.

Ostritsalarning umri qisqa bo‘lishiga qaramasdan kasallik davomida bemor o‘ziga qayta-qayta yuqtirishi (reinvaziya) mumkinligi tufayli enterobioz yillab davom etishi mumkin.

**Patogenezi va patanatomiyasi.** Ostritsalarning patogen ta’siri asosan ularning ichak devoriga yopishishi tufayli ko‘rsatadigan mexanik ta’siriga bog‘liq bo‘ladi. Patologik jarayonining og‘ir-yengilligi invaziyaning ko‘p—ozligiga mutanosibdir.

Gijjaning yutilgan lichinkasi ingichka ichakning pastki qismi va yo‘g‘on ichakning — ko‘richak, ko‘tariluvchi hamda ko‘ndalang ichak qismlarida 12—14 kun davomida yetuk parazitga aylanadi va 3—4 hafta yashaydi. Biroq gijja tuxumi bemorning o‘zidan-o‘ziga qayta-qayta yuqib turishiga (autosuperinvaziya) tufayli ichakda oylab hatto yillab istiqomat qilishi va yuzlab ba’zan minglab parazit to‘planishi mumkin.

Ostritsalar jarohatlangan ichak shilliq pardalarida yallig‘lanish, eroziya, nekroz va qon quyilishlar kuzatiladi. Ba’zan ostritsalar shilliq qavatga (ayrim hollarda mushak qatlamiga qadar) kirib oladi va atroflarida eozinofillar, limfotsitlar va makrofaglardan tashkil topgan granulemalar, abscess va nekroz o‘choqlari hosil bo‘ladi. Ostritsalar — fakultativ gematofag ostritsalar chuvalchangsimon o‘simta ichiga kirib olgan taqdirida, appenditsit rivojlanishiga sabab

bo'ladi. Ayrim kuzatuvlarda, appenditsit bo'yicha operatsiya qilingan har uch bemorning birida ostritsalar topilgan. Shuningdek, ostritsalar, ayollar jinsiy a'zosiga o'rmalab kirishi va vulvit, vaginit, endometrit singari yallig'lanishlarga sabab bo'lishi mumkin. Siyidik yo'llarining jarohatlanishi ham kuzatiladi. Qashlanishi tufayli anus, anus atrofi va oraliq terisida ekzemasimon jarohatlanishlar ham bo'lishi mumkin. Terida kuzatiladigan ekzematoz va qichishuvchi dermatozlarga parazitning modda almashinuvi jarayonida ajratadigan moddalarini odam organizmiga allergen sifatida ta'sir etishi ham sabab bo'ladi. Enterobiozda sodir bo'ladigan allergik o'zgarishlar teridagi alomatlardan tashqari qonda eozinofillar miqdorining ortishi bilan namoyon bo'ladi (**Zarvaraqdagi 7-rasmga qarang**).

Ostritsalar ajratadigan toksinlar (zaharli moddalar)ning mohiyati hali to'liq o'rganilmagan bo'lsada, uning bemor organizmiga salbiy ta'siri inkor etilmaydi.

Enterobioz boshqa yo'ldosh kasalliklar kechimini og'irlashtiradi.

**Klinikasi.** Faqat ayrim bemorlarda ostritsalarning invaziysi klinik namoyon bo'lmay qolishi mumkin. Ko'pchilik bemorlarda enterobioz asosan kechqurun yoki tunda anus atrofining qichishi bilan namoyon bo'ladi. Invaziya sust bo'lgan taqdirda qichishi goh-gohoda, ya'ni urg'ochi ostritsalarning yangi avlodи yetilganda kuchayadi. Qichishish 1—3 kun davom etib yo'qoladi, 2—3 haftadan keyin esa yana takrorlanadi.

Invaziya ko'p bo'lgan taqdirda, qichishish doimiy va kuchli bo'lib, faqat tunda emas, kunduz kunlari ham bezovta qiladi. Qichishish faqat anus atrofidagina bo'lmasdan chov soha (promejnostp), son va qorin terisi hamda, jinsiy a'zolarda ham kuzatiladi.

Qichigan joylarni qashish tufayli ikkilamchi infeksiya rivojlanib — piodermiya, sfinkterit va paraproktit alomatlari, qizlarning jinsiy a'zolariga o'rmalab kirishi va qichishi oqibatida — vulvovaginit yuzaga keladi. Bularning barchasi bemorning umumiy ahvoliga salbiy ta'sir etadi. Uyqusi buziladi, ular tajang, serzarda bo'lib qoladilar, ish qobiliyati pasayadi. Bolalar esa injiq, jahildor bo'lib ozib ketadilar, ba'zilarida bosh og'rig'i, bosh aylanishi, xotiraning pasayishi hamda tirishishli tutqanoq, xushdan ketish, tunda siyib qo'yish kabi alomatlар kuzatiladi.

Ayrim bemorlarda ishtahaning pasayishi, ich buzilishi — ichining suyuq, tez-tez va shilliq, ba'zan qon ham aralash kelishi, vaqtı-vaqtı bilan qorni g'ijimlab og'rishi va kuchaniq, meteorizm, og'ir kechganda ko'ngil aynash, qusish kabi belgilar namoyon bo'ladi. Rektoromonoskop orqali ko'rilganda ichak shilliq qavatida mayda (nuqtasimon) qon quylishlar, eroziyalar, qon tomirlar manzarasining kuchayganligini ko'rish mumkin. Sfinkter shilliq qavati shishgan, qizargan va og'riqli bo'ladi.

Gijjalarning chuvalchangsimon ichakka o'rmalab kirishi va oqibatda appenditsit rivojlanishi, jinsiy a'zolarga o'rmalab kirishi va ikkilamchi infeksiyaning rivojlanishi enterobiozda kuzatiladigan asosiy asoratlar hisoblanadi. Ostritsalar ingichka ichakni teshib, qorin bo'shlig'iga tushishi va peritonit rivojlanishi hollari ham kuzatilgan.

Periferik qonda, odatda, o'zgarishlar bo'lmaydi. Ba'zan kasallikning boshlang'ich davrida eozinofiliya kuzatiladi.

Enterobiozni, bolalarda ko'pchilik ichak infeksiyalariga moyillikni orttirishi va ularning kechimiga ta'sir etishi ham aniqlangan.

**Diagnostikasi.** Enterobiozni aniqlash — kasallikka xos klinik belgilarning mavjudligi, ba'zan bemor axlati bilan ostritsalarni ajralib chiqishi va asosan anus atrofi burmalaridan olingan surtmadan gijja tuxumi topilishiga asoslanadi. Qirindi tong chog'ida, ich kelishidan oldin, yog'och shpatel, paxtali tampon yoki yopish-qoq polietilen tasma yoki polixlorvinilli plyonkalar yordamida olinadi va so'ngra mikroskop ostida ko'riladi. Qirindini bir marta olish ko'pincha natija bermasligi mumkin. Shuning uchun uni 3—5 kun oralab uch marta olish maqsadga muvofiqdır.

**Davolash.** Enterobiozni davolashda, hozirda ko'proq pirviniy pamoaat (vankin, pokvil va sh.k.), piperazin tuzlari, kombantrin, mebendazol (vermoks) keng qo'llanmoqda.

**V a n k i n** — zaharli ta'siri kuchsiz bo'lib, bir marta berilganda dayoq 85—100% bemorlarda ijobiy natija ko'rindi. Uni ertalab nonushtadan so'ng 5 mg/kg hisobidan bir marta beriladi. Davolash kursi 2 haftadan keyin takrorlanishi mumkin. Faqat ayrim bemorlardagina — ko'ngil aynashi, ba'zan qusish, bosh og'rig'i, qorinda og'riq kabi noxush holatlar kuzatilishi mumkin.

**P i p e r a z i n t u z l a r i** — piperazin sulfat, piperazin adipinat, piperazin sitrat, piperazin fosfat — bir xil sxemada beriladi. Piperazin bir sutkada, bir yoshgachabolalarga — 0,4 g, 2—3 yoshli bolalarga — 0,6 g, 4—6 yoshda — 1 g, 7—9 yoshda — 1,5 g, 10—14 yoshdagilarga — 2 g va 15 yoshdan kattalarga — 3 g miqdorida (kunlik dozani 2—3 bo‘lib) ovqatlanishdan 30 daqiqa oldin beriladi. Davolash kursi 5 kun bo‘lib, zarurat bo‘lgan taqdirda, 7—10 kun oralatib 2—3 marta takrorlash mumkin. Kurs davomida maxsus parhez talab etilmaydi. Surgi dorilar faqat qabziyat bo‘lgandagina beriladi. Davo kursining samarasini 4 haftadan keyin qayta tekshirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Anus atrofida qichish kuchli bo‘lgan taqdirda, davolash kurslari oralig‘ida, tunga sodali klizma (1 stakan suvgaga 1/2 choy qoshiq soda qo‘shib) qilinadi. Enterobiozda sarimsoq, piyoz suvidan klizma qilish nafaqat samarasiz balki zararli hamdir.

Pipirazinning zaharli ta’siri judakam. Qo‘llanganda, bemorlarda ishtahaning pasayishi, ko‘ngil aynashi, ba’zan quşish, ich ketishi, qorinda biroz og‘riq kabi noxush alomatlar kam kuzatiladi.

**K o m b a n t r i n** (pirantel) — enterobioz, askaridoz va ankilostomidozlarni davolashda yaxshi samara beradi. Uni kattalarga tana og‘irligining har kilogrammiga 10 mg 6 oylikdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarga — 125 mg, 2—6 yoshlilarga — 250 mg, 6—12 yoshda — 500 mg hisobidan bir marta (yoki ikkiga bo‘lib) ovqatlanish vaqtida beriladi. Kombantrin tabletka sifatida (250 mg dan) va suspenziya holatida (1 ml da 50 mg) chiqariladi. Tabletkani, iste’mol qilinganda yaxshilab chaynab yutish tavsija etiladi. Davolash kursi 2 haftadan keyin takrorlanishi mumkin. Bu preparat bilan davolanganda samarali natija 97,5% bemorlarda kuzatiladi. Homilador ayollarga berish man etiladi.

**Noxush ta’siri:** ko‘ngil aynashi, quşish, ich ketishi kamdan-kam kuzatiladi.

**M e b e n d a z o l** (vermoks) — enterobiozdan tashqari boshqa nematodozlarni (trixotsefalez, askaridoz va b.) davolashda ham yaxshi samara beradi. Enterobiozni davolashda vermoks 9 yoshdan katta bolalar va kattalarga 100 mg dan 2 marta, kichik bolalarga tana og‘irligining 1 kg ga 2,5—3 mg hisobidan 1 marta berish kifoya qiladi. Bunday davolash 98% da samara beradi. Qayta

yuqishning oldini olish maqsadida ikki kunlik davolash kursi o‘tkazilgandan so‘ng 4 hafta davomida har haftada bir marta vermoks berib turish tavsiya etiladi. Homilador ayollarga berish mumkin emas.

Yuqorida sanalgan dorilar ta’siri solishtirib ko‘rilganda, ulardan eng samaralisi va zararsizi vermoks ekanligi aniqlangan. Gijjaga qarshi ishlatalidigan dorilarning samaradorlik darajasi 1-jadvalda keltiriladi.

### *1-jadval*

#### **Gijjaga qarshi dorilarning samaradorlik darajasi**

Invaziya	Mebendazole (Vermoks)	Albenda-zole	Ryantel ramoate (kombantrim)	Levomi-soli (de-karis, ketraks)	Tiabendasoli (min-tezol)	Ryrvinium ramoate	Berheni-um hyd-toxynarh- toate (naf-tamon, alkopar)
Enterobioz	+++	+++	+++	+	+++	+++	-
Askari-doz	+++	+++	+++	+++	++	-	+
Ankilostomidoz	+++	+++	++	++	++	-	+
Strangi-loidoz	+	+	-	+	++	+	-
Trixot-sefalez	++	++	-	-	+	-	-
Trixos trangili-doz	++		++	+++	++	-	+

— < 30%; + — 30–60%, ++ — 60–85%; +++ — 85%

Yuqorida aytilgan dorilar bilan o‘tkazilgan davo, faqat gijjaning qayta yuqishini to‘xtatuvchi gigienik choralar bilan bir vaqtida o‘tkazilgan taqdirdagina to‘liq samara berishi mumkin.

**Oqibati.** Asoratlannagan kechimida yaxshi.

**Profilaktikasi.** Enterobiozni davolash samarali bo‘lmog‘i uchun uni albatta shaxsiy profilaktik choralar bilan birga olib borilishi kerak. Bu choralar — bemor o‘zi-o‘ziga ostritsalarni qayta yuqtirmasligi va atrofidagi turli buyumlarga gijja tuxumi tushmasligiga qaratilgan bo‘lmog‘i kerak.

Buning uchun bemor kundalik shaxsiy gigiyena amallaridan (tirnoqlarini kalta qilib olish, qo'l va tirnoqlarini doimo toza tutish va ularni og'izga solmaslik va sh.k.lardan) tashqari ertalab va kechqurun sovunlab mustahab qilish (ostini yuvish), ichki ko'ylak va ishtonini, o'rin, choyshabini har kuni almashtirish zarur. Tunda kiyib yotadigan ishtonining yuqori va pastki qismlari bo'lib boylangan bo'lishi kerak. Yechilgan ishton-ko'ylagi va choyshabi yaxshilab qaynatilib, dazmollanishi lozim. Bemorning tuvaklarini qaynoq suv bilan yuvish tavsiya etiladi. Bemor xonasini lizol va karbol kislota eritmalari bilan tozalab turish lozim. Bolalar jamoalarida kimyoviy profilaktika o'tkazish ham yaxshi natija beradi. Kimyoviy profilaktika vermoks bilan yoki quyidagi — 4 siklda o'tkaziladi: bir marta kombantrin (10 mg/kg dozada) va uch marta, 12–14 kun oralatib, ikki kundan piperazin adi pinat beriladi. Umumiy kurs 6—7 hafta davom etadi.

## Askaridoz (Ascaridosis)

Askaridoz — askaridalar tomonidan qo'zg'atiluvchi, boshlang'ich bosqichida — allergik, so'nggi bosqichida ko'proq ichak sindromi bilan kechuvchi surunkali kasallikdir.

Askaridoz yer yuzida juda keng tarqalgan parazitzlardlessir.

Boshqa o'lkalarga nisbatan O'zbekistonda bu kasallik kam kuzatiladi. Tog'li hududlarda askaridoz o'choqlari ko'proq uchraydi.

**Etiologiyasi.** Kasallikning qo'zg'atuvchisi — askaridalar (*Ascaris lumbricoides*) yirik nematodlar bo'lib, erkagining uzunligi 15–25 sm, urg'ochisining uzunligi esa 24–44 sm ga yetadi. Urg'ochi askaridaning dumi cho'ziq, erkaginiki esa qorin tomoniga qarab halqasimon egilgan bo'ladi. Bosh qismida og'iz teshigi bo'lib, uchta yirik lab bilan o'ralgan. Askaridaning tuxumi 0,05–0,7 x 0,04–0,05 mm kattalikda bo'lib, qattiq notekis qobiq bilan qoplangan.

Yetilgan askaridalar odamning ingichka ichagida (bittadan bir necha yuz donagacha) parazitlik qiladi. Ularning umri bir yil bo'lishiga qaramasdan, qayta yuqishi tufayli ichakda ko'p yillab saqlanadi.

Har bir urg‘ochi askarida bir kunda 200000 ga yaqin (ham urug‘langan ham urug‘lanmagan) tuxum qo‘yadi. Najas bilan ajralgan gijja tuxumining keyingi, invazion bosqichigacha bo‘lgan rivoji tashqi muhitda (asosan tuproqda) kechadi (**Zarvaraqdagi 8-rasmga qarang**).

Invazion bosqichgacha rivojlangan gijja tuxumlari ingichka ichakka tushganida ulardan lichinkalar rivojlanib, ichak devoridan darvoza vena tomiriga o‘tadi va vena oqimi orqali jigarga (invaziyaning 5—6 kunlarida), so‘ng o‘ng yurak bo‘limi va o‘pkaning qon tomir kapillarlariga (invaziyaning 8—10 kunlarida) yetib boradi. Bu migratsiya davrida lichinkalar o‘sib, rivojlanib 2,0—2,37 mm ga yetadi va aktiv harakat qilib, kapillar devorini teshib o‘tib alveolalar va so‘ngra bronxiolalarga, keyinchalik traxeya orqali tomoq va og‘izga tushadi. Og‘izda bir qism lichinkalar o‘lib ketadi, bir qismi esa so‘lak bilan yutilib, 14—15 kunlarda ingichka ichakka qayta tushadi va rivojlanib yetilgan askaridalarga aylanadi. Migratsiya davrining birinchi besh kunida lichinkalar o‘zida bo‘lgan ozuqa bilan keyin esa — xo‘jayinning qoni bilan ozuqlanadi. Lichinkalarning migratsiyasi 2—3 hafta davom etadi. Umuman olganda odamga yuqqanidan boshlab, to askaridalar yetilib tuxum ajrata boshlaguncha — 10—12 hafta vaqt o‘tadi.

**Epidemiologiyasi.** Askaridoz geogelmintoz hisoblanadi. Chunonchi gijja tuxumining invazion lichinka darajasigacha rivojlanishi asosan tuproqda — optimal harorat 24°C (13—30°C darajagacha), namlik (8% dan kam bo‘lmagan) va kislorodga boy bo‘lgan muhit mavjudligida 12—14 kun davom etadi. Askarida tuxumlari bemalol qishlay oladi — 30°C daraja sovuqda ham nobud bo‘lmaydi.

Kasallikning birdan bir manbayi askarida invaziysi bo‘lgan odam hisoblanadi. Ayniqsa maktabgacha va mактаб yoshida bo‘lgan bolalarning epidemiologik ahamiyati katta. Yuqish asosan og‘iz-najas yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Ko‘pincha odam axlatini go‘ng sifatida ishlatib yetkazilgan sabzavot, ko‘katlarni va ayniqsa qulupnayni iste’mol qilish hamda ifloslangan suvni qaynatmasdan ichish oqibatida yuqadi. Ko‘proq bolalar va sabzavot yetishtiruvchi

dehqonlar kasallanadi. Mo‘tadil iqlimli o‘lkalarda yuqish davri 7 oy, apreldan oktabrgacha, tropik o‘lkalarda — yil bo‘yi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Askaridozning patogenezi va klinikasida ikki bosqich: boshlang‘ich — migrantsion va so‘nggi — ichak bosqichlar farqlanadi. Askaridoz patogenezining birinchi bosqichi, asosan intoksikatsiya hamda allergik o‘zgarishlar bilan, ya’ni — lichinkalardagi modda almashinuvli oqibatida va ularning parchalanishidan paydo bo‘lgan hosilalar ta’sirida organizmda sensibilizatsiya sodir bo‘lishi bilan ifodalanadi. Askaridozda allergiya — eozinofiliya infiltratlar, qonda eozinofillarni ko‘payib ketishi (40—50% gacha) hamda boshqa allergik alomatlar va hatto og‘ir anafilaktik shok holatlari bilan namoyon bo‘ladi. Eozinoffilli infiltrat ko‘pchilik a’zolarda bo‘lsada, ayniqsa o‘pkada kuchli bo‘ladi. Bu allergik o‘zgarishlar invaziyaning keyingi surunkali bosqichida susaysada, vaqtiga vaqtiga bilan (o‘lgan askaridaning parchalanishidan ajralgan hosilalarning qonga so‘rilishidan), zo‘rayib, qaytalanib turadi.

Migrantsion bosqichda sodir bo‘ladigan allergik va toksik o‘zgarishlardan tashqari ichak devori, qon tomirlar, jigar, miokard va ayniqsa o‘pkada bo‘ladigan mexanik jarohatlanishlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu a’zolarda turli darajadagi qon quyilishlar bo‘lib, keyinchalik yallig‘lanadi, va hatto mikroabssesslar yuzaga kelishi mumkin. Lichinkalarning o‘tishi davrida yuqori nafas yo‘li (traxeya, kekirdak) shilliq qavatlarida ham yallig‘lanish sodir bo‘ladi.

Askaridozning ikkinchi (ichak) bosqichida allergik o‘zgarishlarga nisbatan mexanik va toksik o‘zgarishlar ko‘proq kuzatiladi. Oqibatda ingichka ichak shilliq qavatida mexanik jarohatlanishlar hamda gi peremiyava mayda qon quyilishlar ko‘riladi. Bulardan tashqari, askaridalarning ta’sirida ichakdagi borliqning kimyoviy tarkibi o‘zgaradi va butun oshqozon-ichakning harakat faoliyati ham buziladi. Kasallikning birinchi 2 haftasidayoq ovqat hazm apparating idora etuvchi gormonlar (gastrin, sekretin, kinin) miqdori o‘zgaradi va oqibatda barcha ovqat hazmida ishtirok etuvchi fermentlar faoliyati susayadi.

Askaridalar toksini, kuchli toksik va allergik ta’sirga ega. U qonga tushganda bemorning yurak-tomir faoliyati buziladi — taxikardiya, qon bosimining kamayishi, miokard quvvatining kamayishi

kabi alomatlar sodir bo‘ladi. Askarida toksini ta’sirida og‘ir anafilaksiya holati va o‘lim ham kuzatilgan.

Askaridoz, operatsiyadan keyingi ba’zi asoratlarga, ichak teshilishi va tutilishiga (askaridalar to‘plami ichak yo‘lini berkitib qo‘yishi tufayli) sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ular o‘t yo‘liga, oshqozon osti bezi yo‘liga, nafas a’zolariga o‘rmalab kirishi mumkin.

Ba’zan askaridalar ichakni jarohatlab, hatto teshib o‘tishi va oqibatda organizm bo‘ylab boshqa a’zolarda ko‘chib yurishi va juda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin (**Zarvaraqdagi 9-rasmga qarang**).

Askaridoz — dizenteriya, qorin tifi singari ko‘pchilik yuqumli kasalliklarni hamda ba’zi-bir ko‘z va boshqa yuqumli bo‘lmagan kasalliklar kechimini og‘ir asoratlashi mumkin.

Bulardan tashqari, askaridoz organizmning mudofaa kuchini keskin kamaytiradi, immunitet taqchilligini yuzaga keltiradi va patologik qarishga sababchi bo‘ladi (Savchuk N.A. va b., 1968).

Qayta-qayta yuqishi tufayli nisbiy immunitet rivojlanadi.

**Klinikasi.** Askaridozning klinik kechimi juda turlicha — klinik belgilarsiz kechimdan tortib, juda og‘ir kechimgacha, hatto o‘limgacha bo‘lishi mumkin. Kasallikning migrantsion bosqichi 5—7 kun davom etib, ba’zan belgilarsiz o‘tadi. Kasallik yuqqanidan 2—3 kun keyin bemorda loxaslik, loqaydlik, quvvatsizlik, tez toliqish, serzardalik, terlash, bosh og‘rig‘i, ba’zan isitma (ko‘proq subfebril, ayrimlarda 38—40°C), bo‘g‘imlarda va mushaklarda og‘riqlar, terisida qichishish, urtikar toshma yoki eshakyemi ko‘riladi. Qo‘l va oyoq barmoqlarida mayda pufakchalar toshadi. Limfatik tugunlar, jigar va taloq kattalashadi. Ayrim bemorlarda lichinkaning jigarga o‘tgan davrida o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq, qorin kepchishi, jigar kattalashishi va biroz jigar faoliyatining buzilishi alomatlari kuzatiladi. Bu bosqichga, asosan o‘pka sindromi (Leffler sindromi) xos: bemor quruq yoki shilimshiq, ba’zan qonli shilimshiq balg‘amli yo‘taladi, hansirab nafas oladi, ko‘kragida og‘riq sezadi, ba’zan bo‘g‘ilib, ko‘karadi (astmatik komponent), qon tupuradi. Ayrim bemorlarda plevrit ham rivojlanishi mumkin, bunda ko‘krakdag‘i og‘riq va hansirash kuchli bo‘ladi. Eshitib

ko‘rilganda, ko‘pchilikda bronxopnevmoniyaga xos belgilar, rentgenda — ko‘proq o‘ng tomonida 3—4 sm kattalikdagi o‘choqli infiltrat ko‘riladi. O‘choqli infiltratlar juda o‘zgaruvchan bo‘lib, ko‘pincha tarqoq bo‘ladi, ayrim hollarda sezilmaydi. Ular unchalik turg‘un emas — bir necha soatdan 6—10 kungacha, faqat ayrim hollarda 1 oy va undan ortiq saqlanishi mumkin. Takroran rentgenda ko‘rilganda, ko‘plab Lefflerning «uchib yuruvchi infiltratlari» aniqlanadi, ularning ko‘rinishi tez-tez o‘zgarib, bir joyda yo‘qolib ikkinchi joyda paydo bo‘lib turadi. Bu o‘zgarishlar qonda eozinofillarning ko‘payishi (40—60% gacha) va ba’zan EChT ning (20—40 mm/s gacha) ortishi bilan kuzatiladi. Leykotsitlar soni ortmaydi yoki biroz leykotsitoz, ayrim hollardagi perleykotsitoz bo‘lishi mumkin.

Kasallikning surunkali (ichak) bosqichi bemorlarning uchdan bir qismida oshkor belgilarsiz o‘tadi. Ko‘pchilikda oshqozon-ichak va nerv sistemalari faoliyatining buzilishi alomatlari bilan namoyon bo‘ladi. Bemorning ishtahasi buziladi, tez-tez ko‘ngli aynaydi, ba’zan qusadi, so‘lak ajralishi ko‘payadi, qorni g‘ijimlab, ko‘pincha tutqanoqsimon va kuchli og‘riydi, uyqusи buzilib, ish qobiliyati pasayadi, bolaning psixomotor rivojlanishi susayib, ongi zaiflanadi, injiq va tajang bo‘lib qoladi, ozib ketadi. Ichining kelishi ba’zan suyuq, ba’zan esa qabziyat bo‘ladi. Kamdan-kam hollarda askaridozli bemorlarda vestibular o‘zgarishlar, tutqanoq xurujlari va hatto meningial alomatlar kuzatiladi. Qonda biroz eozinofiliya, ba’zan gi poxrom anemiya va trombotsitopeniya bo‘ladi.

**Asoratlar.** Askaridozning ichak bosqichidagi asoratlari juda xilma-xil bo‘lib, ba’zan og‘ir kechadi. Parazitlar ichakdagi operatsiya choklarini yirtishi va oqibatda peritonit rivojiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘rmalab kirishi oqibatida o‘tkir appenditsit, obturatsion sariq kasalligi, yiringli xolesistit, xolangiogepatit, jigar abssessi va og‘ir pankreatit rivojlanishi mumkin. Ichak tutilishi, ayrim hollarda (2,6—2,8%), askaridalarning ichakda to‘p bo‘lib qolishi oqibatida bo‘ladi. Bolalarda, uyqusи vaqtida, askaridalarni o‘rmalab oshqozon, qizilo‘ngach, tomoq orqali traxeyaga o‘tib, bo‘g‘ilib qolishi oqibatida o‘lishi hollari ham kuzatiladi. Askaridozni ichak amyobiazi, nospesifik yarali kolit, dizenteriya, qorin tifi, balantidiaz singari kasalliklar bilan birga kechishi ayniqsa xavflidir, chunki bunda

ko‘pincha askaridalar ichakni teshib qorin bo‘shlig‘iga tushadi va peritonit rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ayrim hollarda askaridalar yurakning o‘ng qorinchasida, o‘pka arteriyasida, burunoldi bo‘shliqlarida ham topilgan.

**Oqibati.** Askaridozning asoratlanmagan kechimi yaxshi. Asoratlanganda esa keskin yomonlashadi.

**Diagnostikasa.** Askaridozning migratsion davrida aniqlash ancha mushkul. Epidemiologik anamnezi mos kelgan taqdirda, yuqori eozinofiliya hamda o‘pka jarohatlanishi alomatlari bo‘lgan har bir bemor askaridozga shubha qilinmog‘i kerak. Ayrim bemorlarning balg‘amida askarida lichinkalarini topish mumkin. Bu davrda, diagnostika uchun immunologik usullar (askaridalarning tirik lichinkalarida presipitatsiya reaksiyasi, halqa presi pitatsiya, tateks—agglutinatsiya, bilvosita gemagglutinatsiya va boshqa reaksiyalar) qo‘llanishi mumkin.

Askaridozning ichak bosqichida bemor axlatida gijja tuxumini topilishi eng oson va eng samarali usul hisoblanadi. Ayrim bemorlarda axlat bilan (ba’zan quсиq bilan ham) askaridaning o‘zini chiqishi kuzatiladi. Siydikda uchuvchi yog‘ kislotalarini aniqlash (ular askaridalarning hayot jarayonida ajraladi) usulidan ham keng foydalilaniladi. Ichakni rentgen orqali ko‘rish usuli ham ba’zan qo‘l kelishi mumkin.

**Davolash.** Hozirda askaridozning lichinkali (migratsion) bosqichida ham ta’sir etuvchi samarali dorilar yaratilgan. Masalan, mintezol (tiabendazol) — har kuni 50 mg/kg dan 5—7 kun davomida, kunlik doza 2—3 bo‘lib ichiriladi. Vermoks (mebendazol) — bir kunda 2 mahal 100 mg dan 3—4 kun beriladi. Bu dorilarni berish bilan birga, albatta antigistamin dorilar (suprastin, tavegil, dimedrol va boshqalar) berilishi kerak.

Askaridozning keyingi (ichak) bosqichida, ko‘proq levomizol (dekaris, ketroks), kombantrin, vermoks qo‘llanadi. Ular juda samarali bo‘lishi bilan birga qo‘llanishi oson, noxush ta’siri kam dorilardir.

**L e v o m i z o l** — tabletkada chiqariladi. Kattalarga 150 mg dan bir marta, kechki ovqatdan keyin beriladi. Bu dorining samaradorligi 80—100%. Faqat 1% bemorlarda noxush (ishtahaning

buzilishi, biroz ko'ngil aynashi, quşish, bosh og'rig'i kabi) ta'sir ko'rsatadi. Dekaris bolalarga 2,5—5,0 mg/kg hisobidan beriladi. Homilador ayollarga berish mumkin emas.

**Kombatrin (pirantel)** — suspenziya yoki tabletka shaklida chiqariladi. Bu dori 10 mg/kg hisobidan bir marta, ovqatlanish paytida beriladi. Kombatrin 90% bemorlarda to'liq samara beradi.

**Mebendazol (vermoks)** — 100 mg dan tabletkada chiqariladi. Uni askaridozli bemorlarga ham xuddi enterobiozdagi tizimda beriladi. Samaradorligi 80—90% ni tashkil qiladi. Noxush ta'sir ko'rsatmaydi. Vermoks ko'proq poliinvaziyalı, ya'ni askaridoz bilan birga yana boshqa invaziysi bo'lgan bemorlarni davolashda ishlataladi.

Sobiq Ittifoqda ishlangan yangi medamini preparati ham askaridozni davolashda yaxshi samara bilan keng qo'llanilmoqda. Uni sutkalik dozasi 10 mg/kg bo'lib bir kun, poliinvaziyalarda esa uch kun beriladi.

Askaridozni davolashda yana naftamon, piperazin (va uning tuzlari) singari dorilardan yoki zond yordamida oshqozonga kislorod yuborish usulidan ham foydalanish mumkin. Biroq ularning samaradorligi biroz kamroqdir.

**Profilaktikasi.** Askaridozga qarshi olib boriladigan choralar bir vaqtida, kompleks ravishda olib borilgan taqdirdagina samara berishi mumkin. Ular kasallik manbayini zararlantirish (bemorni davolash) va yuqish yo'llarini qirqishga (tuproqqa, suvga va ulardan sabzavot, ho'l mevalar va qo'lga askarida tuxumlari tushmasligiga) qaratilmog'i kerak.

Askaridoz keng tarqalgan o'choqlardagi barcha aholi orasida bir yilda ikki marta gjijadan forig' etish choralar o'tkaziladi.

Tuproq va suvni najas bilan ifloslanishining oldini olishga qaratilgan sanitariya—himoyalash choralarini o'tkazilishi juda muhimdir. Zararsizlantirilmagan odam axlatidan go'ng sifatida foydalanish qat'yan man etiladi. Umuman aholining sanitariya madaniyatini hamda ichak kasalliklari (ayniqsa ularning yuqish yo'llari) haqidagi ma'lumotini oshirish juda muhim ahamiyatga ega.

## Trizotsefalyoz (qilbosh, trihosephalosis)

Trixotsefalyoz — asosan oshqozon-ichak tizimi a'zolarining faoliyatini buzilishi bilan kechadigan, surunkali gelmintozdir.

Qilbosh odamlar orasida eng keng tarqalgan gjijalar jumlasiga kiradi. Uning targalishi ham ko'pincha askaridozning tarqalishi hududlariga mos keladi. Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekiston tonda, trixotsefalyoz o'choqlari asosan tog'li va tog' oldi tumanlarda topiladi. Kasallik Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida keng tarqalgan.

**Etiologiyasi.** Kasallikni qo'zg'atuvchisi — qilbosh, *Trichocerhalus trichiurus*, nematoz bo'lib, uning bosh qismi tanasiga nisbatan ingichka (qilsimon) bo'lganligi uchun qilbosh deb ataladi. Erkaginining uzunligi 3—4,5 sm, dum qismi spiralsimon burilgan. Urg'ochisining uzunligi — 3,5—5,5 sm bo'ladi, dum qismi konussimon bo'ladi. Odam ichagida qilbosh 4—5 yil yashaydi.

Qilboshning tuxumi 0,047—0,054 x 0,022—0,23 mm kattalikda, cho'zilgan bochka yoki limon shaklida bo'lib ikki chetida po'kaksimon bo'rtmasi bor. U bir necha qavat qoplama bilan qoplan-gan, najasda tillarang — sarg'ish tusda ko'rindi.

Qilbosh asosan ichakning ko'richak qismida, ko'p bo'lganida yo'g'on ichakning boshqa qismlarida, faqat ayrim hollarda ingichka ichakda ham istiqomat qiladi. U o'zining qilsimon bosh qismi bilan ichak shilliq pardasiga chuqur kirib oladi, tanasi esa ichak bo'shlig'ida osilib qoladi. Ko'pchilik kuzatuvchilarining fikricha u odam qoni bilan oziqlanadi.

Ichakda qilboshning soni bittadan tortib o'nlab, yuzlab va hatto minglab bo'lishi mumkin.

Urg'ochi gjijalar ichakda qo'ygan tuxumi (bir sutkada 1000 dan 3500 gacha) tashqi muhitga najas orqali ajraladi. Tashqi muhitda (asosan tuproqda) tuxumdan lichinka rivojlanishi uchun 30°C (15—90°C) atrofida harorat, yetarli namlik va kislorod talab etiladi. Harorat qancha yuqori bo'lsa u shunga tez rivojlanadi. Sharoit yetarli bo'lgan taqdirda lichinkalar 1—17 (salqinroq iqlimli hududlarda 20—24) kun davomida rivojlanadi. Og'iz orqali tushgan lichinkalar o'n ikki barmoq ichakning so'rg'ichlari orasiga joylashib olib,

3—10 kun davomida shu yerda saqlanadi. So‘ngra ichak bo‘shlig‘iga qayta tushib ko‘richakka keladi va shu yerda rivojlanib balog‘atga yetadi.

Qilbosh yuqqan kundan boshlab, to balog‘atga yetguncha bo‘lgan rivojlanish jarayoni 30—45 kun davom etadi. Qilbosh, umuman 5—6 yil ba’zan undan ham ortiq yil yashaydi.

**Epidemiologiyasi.** Kasallik manbayi, najasi bilan gjija tuxumini ajratuvchi odam. Trixotsefalyoz — ichak—og‘iz yo‘li bilan yuquvchi geogelmintoz, antropoz hisoblanadi. Kasallikning yuqish yo‘llari xuddi askaridozga o‘xshash. Qilbosh, ichida invazion xususiyatlari lichinkalari bo‘lgan gjija tuxumlarini og‘iz (ifloslangan qo‘l, sabzavotlar, mevalar, suv va b.) orqali ichakka tushishi oqibatida yuqadi.

Qilboshning tuxumi tashqi muhitda, jumladan quyosh radiatsiyasi ta’siriga, **askarida** tuxumiga nisbatan chidamliroq. Ular past harorat ta’siriga juda chidamsiz, masalan, — 5°C da 10—12 kun davomida barcha tuxumlari o‘ladi. Biroq qor ostida bemalol qishlashi mumkin. Tashqi muhit sharoiti qulay bo‘lgan taqdirda qilbosh tuxumlari tuproqda bir yilgacha va undan ortiq yashashi mumkin.

Trixotsefalyoz yer yuzida keng tarqalgan. Ayniqsa namlik yuqori bo‘lgan tropik, subtropik hamda mo‘tadil iqlimli o‘lkalarda ko‘p uchraydi.

Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda, trixotsefalyoz bilan ko‘proq bog‘cha yoshidagi yoki boshlang‘ich mакtab yoshidagi bolalar kasallanadi. Tropik o‘lkalarda barcha yoshdagi odamlar orasida barobar keng tarqalgan.

O‘zbekistonda kasallikni eng ko‘p yuqish mavsumi iyun—sentabr oylariga to‘g‘ri keladi.

**Patogenez va patologik anatomiysi.** Odam ichagida rivojlanayotgan gjija lichinkalarini qonga tushishi kuzatilmaydi. Ichakning asosan ko‘richak qismida balog‘atga yetgan gjija o‘zining qilsimon ingichka bosh qismi bilan shilliq qavatga chuqrur kirib, joylashib oladi. Tanasi esa ichak bo‘shlig‘ida erkin osilib turadi. Binobarin ichak devorini jarohatlaydi va mayda qon quyilishlarga sabab bo‘ladi. Ichakda gjija miqdori ko‘p bo‘lganda ichak shilliq pardasining ko‘p qismi jarohatlanadi, infiltratsiya, shish va ba’zan gemorragik

alomatlar hamda eroziya, nekroz va yaralar paydo bo‘ladi. Ayrim hollarda kuchli tiflit alomatlari kuzatiladi.

Qilboshning allergik ta’siri tufayli ko‘richak va to‘g‘ri ichak shilliq pardasida eozinofilli yallig‘lanish rivojlanadi va oqibatda surunkali ich ketish kuzatiladi. Bunda bemor najasida ko‘plab eozinofillar va Shenko—Leyden kristallari aniqlanadi.

Ichakdagagi nerv tolalarini doimiy qitiqlanishi oqibatida oshqozonni va birinchi navbatda markaziy nerv sistemasi hamda boshqa a’zolarning faoliyati buziladi.

Jarohatlangan ichak yuzasiga bakterial floraning yoki protozoalarning (masalan: shigellyoz, amyobiaz) ta’siri kasallik kechimini og‘ir asoratlantiradi. Bunday asoratlanishlar ayniqsa tropik o‘lkalarda ko‘p kuzatiladi.

Invaziya ko‘p bo‘lgan taqdirda organizmning ozuqlananishi va undagi modda almashinuvi jarayoni buzilishi mumkin.

Trixotsefalezning qo‘zg‘atuvchisi gematofag hisoblanadi. Jahon Sobliqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning (1988) ma’lumotiga qaraganda — bir dona parazit bir sutkada 0,005 ml qon iste’mol etadi. Undan tashqari, qilbosh ichak shilliq qavatining hujayralari bilan ozuqlananadi va uni jarohatlaydi.

Trixotsefalez patogenezida, parazitdagи modda almashinuvi hosilalari ta’sirida organizmda yuzaga keladigan allergik o‘zgarishlar ham katta ahamiyatga ega (**Zarvaraqdagi 10-rasmga qarang**).

**Klinikasi.** Kasallikning birlamchi klinik belgilari parazit yuqqanidan 1—1,5 oy o‘tgach ko‘rina boshlaydi. Trixotsefalezning klinik kechimi juda ko‘p omillarga: invaziyaning ko‘p-ozligi va davomiyligi, yo‘ldosh kasalliklarning mavjudligi, organizmning reaktivlik darajasi va boshqalarga bog‘liq. Shuning uchun ham kasallik gohida sust namoyon bo‘lsa, gohida juda og‘ir kechadi. Chunonchi, tropik o‘lkalarda, invaziya darajasi juda yuqori bo‘lgan joylarda (masalan; Kubada) trixotsefalezning kechimi yomon oqibatli bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik holatda trixotsefalezning klinik ko‘rinishi oshqozon-ichak yo‘li a’zolarining faoliyatining buzilishi belgilari bilan cheklanadi. Bemorni ko‘proq ko‘ngil aynashi, ishtahaning pasayishi, so‘lak oqishi, ichning suyuq kelishi yoki qabziyat,

meteorizm qorinda, ko‘proq o‘ng pastki qismida, og‘riq bezovta qiladi. Ba’zan qorni gijimlab qattiq og‘riydi. Bunday cheklangan tiflit alomatlari, aksariyat, surunkali appenditsit deb baholanadi. Agar qilbosh ichakning chuvalchangsimon o‘sintasi ichiga kirib qolsa, unda sanchiqli og‘riq, agarda unga infeksiya qo‘silsa haqiqiy appenditsit xuruji kuzatiladi. Biroq iqlimiylar sharoiti mo‘tadil bo‘lgan hududlarda trixotsefalyoz subklinik turda kechadi.

Qilboshning zaharli ta’siri — intoksisatsiya tufayli bemorning uyquisi buziladi, boshi og‘riydi, o‘qtin-o‘qtin boshi aylanadi, ish qobiysi pasayadi, bolalarda ba’zan tutqanoq xurujlari kuzatiladi.

Invaziya darajasi yuqori bo‘lgan taqdirda (endemik o‘choqlarda), kasallik ko‘pincha bakterial yoki protozoali ichak infeksiyalari bilan birgalikda og‘ir va asoratlari kechadi. Bunda ko‘pincha diareya surunkali tus oladi, axlatida shilliq va qon aralashmasi, ichakda og‘riq, tenezm (og‘riqli kuchaniq) kuzatiladi hamda bemor kundan-kunga ozib ketadi. Kasallik bakterial infeksiya bilan birga kechganda, ayniqsa bolalarda, to‘g‘ri ichakni tushishi (chiqib qolishi) ko‘riladi. Invaziya uzoq davom etganida gi poxromli yoki normaxromli kamqonlik rivojlanadi. Anemiya rivojlanishiga faqat parazitning ovqatlanish tarzi emas balki qon yo‘qotilishi, oziqlanishning buzilishi va ichakdan temirning so‘rilishini buzilishi ham sabab bo‘ladi. Kasallikning boshlang‘ich bosqichida rivojlanadigan eozinofiliya, har doim ham kuzatilavermaydi. Invaziya darajasi yuqori bo‘lgan bemorlardagina ozroq eozinofiliya (10—20%) ko‘riladi.

Invaziya ko‘p bo‘lgan bemorlar ichagini rektoskop yordamida ko‘rliganda ba’zan sigmasimon va to‘g‘ri ichak devorida osilib turgan parazitlarni ko‘rish mumkin. Hatto invaziya darajasi kam bo‘lgan bemorlarning yarmidan ko‘vida enterokinaza va ishqoriy fosfataza aktivligini ortishi hamda C, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub> vitaminlari muvozanati buzilganini ko‘rish mumkin.

**Oqibati.** Ko‘pchilik holatlarda kasallikning oqibati yaxshi bo‘ladi. Biroq invaziya darajasi yuqori bo‘lganda va ayniqsa, boshqa bakterial yoki parazitar ichak kasalliklari qo‘silganda, oqibati yomon bo‘lishi mumkin.

**Tashxisoti.** Trixotsefalyoz tashxisi najasda qilbosh tuxumini aniqlashga asoslanadi. Bunda koprogelmintoskopiya usuli yoki

Fyulliborn va Katoning «selofanli qalin surtma» usullari juda kam samara beradi, E.V.Kalantaryan (1937) taklif etgan koprogel-mintoovoskopik usulidan foydalanish ko‘proq musbat natija beradi.

Najasni ko‘rilganda, unda yopishqoq quyuq shilliq va qon aralashmasi ko‘rinadi. Mikroskop ostida ko‘rilganda qilbosh tuxumlaridan tashqari, Sharko—Leyden kristallari, eozinofillar va boshqa ekssudativ va epitelial hujayralar bo‘ladi.

**Davolash.** Trixotskfalyozni davolash, bugungi kunda ham ancha murakkab vazifa hisoblanadi.

Hozirda, gjija haydovchi dorilardan — mebendazol, albendazol hamda yuqori samarali — difezil va bemosat keng qo‘llanadi.

**Difezil va bemosat** — ittifoqda yaratilgan eng original (samaradorligi 40—60%) dorilardan hisoblanadi. **Naftamonning** esa samaradorligi 30—40%. Bu dorilarni berishda hech qanday maxsus tayyorgarlik yoki surgi berish talab etilmaydi. Bu ikki preparat bir xil tartibda va dozada beriladi. Ularni — 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga — 2,5 g, 6—10 yoshlilarga — 3,5—4,0 g, 11—15 yoshda — 4,0—4,5 g, 15 yoshdan katta bolalar va kattalarga — 5 g dan 5 kun davomida beriladi. Ko‘rsatilgan miqdordagi dorini 30—50 g suvda (yoki iliq qandli sharbatda) yaxshilab aralashtirib sutkalik dozasini uchgaga bo‘lib ovqatlanishdan 1—2 soat oldin ichiriladi.

Bu dorilar ichilganda kuzatilishi mumkin bo‘lgan (17%) noxush belgilari (qorinda og‘riq, ko‘ngil aynash, quisish, quvvatsizlik, bosh og‘rig‘i, ba’zan ich ketishi, taxikardiya) tez yo‘qoladi. Jigar faoliyati yaqqol buzilgan shaxslarga naftamon berish qat’iyan mumkin emas.

**Tiabendazol va mebendazollarning** yuqori samaradorligi haqida ma’lumotlar bor. A.A.Karimov va b. (1975) trixotsefalezni davolashda tiabendazol qo‘llab 68,6% da samarali natija olgan. Preparatni 1 kg og‘irlikka 35 mg hisobida bir kunda bir marta 2 kun davomida hech qanday tayyorgarliksiz beriladi. Ayrim bemorlarda kuzatilgan noxush holatlar (ko‘ngil aynash, bosh og‘rig‘i va bosh aylanishi) dori berish to‘xtatilgach 1—2 kun davomida yo‘qolgan. Tiabendazol homilador ayollarga va buyrak faoliyati buzilgan shaxslarga berilmaydi.

**Mebendazol (vermoks)** — kattalarga va 9 yoshdan katta bolalarga 100 mg (1 tabletka) dan kunda 2 mahal, 3—4 kun davomida, shuningdek *a l o b e n d a z o l* — sutkada 400 mg dan haftada 2—3 marta beriladi. Homilador ayollarga vermoks berish mumkin emas.

Davolash samaradorligini aniqlash uchun o'tkaziladigan koproovoskopiya nazorat tekshiruvi davolash to'xtatilgandan 3—4 hafta keyin o'tkaziladi. Agar davolash kursi natija bermagan bo'lsa, takroriy kurs faqat 2—3 oydan so'ng o'tkazilishi mumkin.

**Profilaktikasi.** Profilaktik choralar xuddi askaridozdag'i singari o'tkaziladi.

### Trixinellez (trichinellosis)

Trixinellez — odam va sut emizuvchi hayvonlarda (gelminto-zoonoz) uchraydigan o'tkir kasallik bo'lib, isitma, muskullarda qattiq og'riq, toshma va yuqori eozinofiliya bilan namoyon bo'ladi.

Trixinellez ko'proq o'rta iqlimli va shimoliy mintaqalarda uchrasada, kasallikning keng tarqalishi Afrika, Tailand, Yangi Zenlandiya, ko'proq Amerika va Kanadada shuningdek G'arbiy Yevropa davlatlari hududlarida ham qayd etilgan. Kasallikni epidemiik tarqalishi Belorussiya, Ukraina va hatto Gruziya va Qozog'istonda ham o'tgan. O'zbekistonda to'ng'iz go'shti iste'mol qilgan ovchilarda (Najmiddinov T.X. va b., 1965) hamda Toshkentda surunkali trixinellez hodisasi (Alimjanova R.Yu., 1985) kuzatilgan.

**Etiologiyasi.** Trixinellezning qo'zg'atuvchisi — yumaloq gijja *Trichimella spiralis* juda mayda bo'lib, urg'ochisining uzunligi 4 mm ga yaqin, erkagining uzunligi — 1,2 — 1,6 mm, ularning eni 0,04—0,06 mm ga teng.

Jinsiy yetilgan trixonellalar ingichka ichakda, lichinka bosqichida esa odam va ko'pchilik hayvonlarning mushaklari orasida istiqomat qiladi. Yuqishi faqat lichinkalari orqali sodir bo'ladi. Chunki trixinellalar tirik (lichinka) tug'uvchi gjijadir. Yangi tug'ilgan lichin-kaning uzunligi — 0,08—0,11 mm bo'ladi va xo'jayini mushaklari orasida kattalashib 0,9—1,0 mm ga yetadi.

Ichakka tushgan lichinkalar tezda kapsulasidan ajraladi va ichak shilliq qavatiga kirib olib 1,5—2 sutka davomida jinsiy yetuk gjijaga

aylanadi. Ular tez orada urchib, 86 soatdan keyin, 10—30 kun, ba’zan 50 kun davomida tirik lichinkalar tug‘a boshlaydi. Bitta urchigan urg‘ochi gjija yuzlab va 2000 gacha tirik lichinka tug‘ishi mumkin. Ichakdagi jinsiy yetuk gjijalarning umri 1,5—2 oydan oshmasada mushak orasidagi lichinkalar yillab yashaydi.

Ichakning limfatik oraliqlari va tomirlarida tug‘ilgan lichinkalar limfa va qon oqimi orqali butun organizmga tarqaladi va asosan faqat ko‘ndalang-targ‘il mushaklarda ushlanib qolganlarigina yashab qoladi. Ko‘proq diafragma, til, chaynov, qovurg‘a oralig‘i va boldir mushaklari orasida joylashadi va jarohatlaydi.

Yuqqanidan 17—18 kun o‘tgach lichinkalar spiral shakliga kiradi va shu paytdan boshlab invazion xususiyatga ega bo‘ladi. 3—4-haftalarda lechinkalar atrofida fibrinli kapsula hosil bo‘ladi. Keyinchalik bu kapsulalar kaltsiy bilan ohaklanadi. Ohaklanish jarayonining o‘zi 2 yil va undan ortiq davom etadi. Kapsulaga o‘ralgan lichinkalar, xo‘jayini organizmida 10—40 yil yashaydi. Kapsula ohaklangach parazit o‘ladi. Lichinkalarning bir qismi hatto ohaklangan kapsula ichida ham o‘z hayotini ko‘p yillab saqlab qolishi mumkin.

**Epidemiologiyasi.** Trixinellez — og‘iz orqali yuquvchi biogelmintoz, zoonozdir. Tibiiy sharoitda trixinellez bilan zararlangan sut emizuvchi hayvonlarning 66 dan ortiq turi aniqlangan. Jumladan tabiiy o‘choqlarda yovvoyi hayvonlar: to‘ng‘iz, ayiq, bo‘rsiq, yovvoyi itlar, kalamush, sichqon, bo‘ri, tulki, bo‘rsuq va boshqalar. Aholi yashaydigan joylardagi o‘choqlarda esa, asosan uy hayvonlari (cho‘chqa, it, mushuk), kemiruvchilar va boshqa hayvonlar. Ular tabiatda, tarkibida trixinella lichinkalari bo‘lgan go‘sht va hayvon chiqindilarini iste’mol qilish orqali kasallanadi. Binobarin, invaziyaning tabiiy va sinantrop o‘choqlari mavjud.

Odamga trixinellalarning yuqishi asosan xom yoki yaxshi pishmagan (tarkibida trixinella lichinkalari bo‘lgan), go‘sht iste’mol qilish, ya’ni — to‘qima — og‘iz (Leykina E.S., 1970) yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Odamlar orasida trixinellezning tarqalishiga ko‘proq cho‘chqa go‘shtini (va go‘sht mahsulotlarini) veterinariya ko‘rigisiz sotilishi sabab bo‘ladi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Kasallikning rivojlanishi darajasi va jadalligi juda ko‘p omillarga (yuqqan lichinkalarning ko‘p-ozligi, organizmning nospesifik reaksiyalari holati va b.) bog‘liq. Trixinellezning patogenezida trixinellalardagi modda almashinuvi hosillalarining ta’sirida organizmda yuzaga keladigan sensibilizatsiya tufayli namoyon bo‘ladigan allergik o‘zgarishlar yetakchi o‘rin tutadi. Bu allergik o‘zgarishlar autosensibilizatsiya jarayoni (trixinellalar nobud qilgan to‘qimalarga nisbatan) tufayli yanada chuqurlashadi. Asosan qon tomirlar jarohatlanishi va ko‘pchilik a’zolarda distrofik o‘zgarishlar kuzatiladi. Qon tomir devorlarida — vaskulit, nekroz va boshqa o‘zgarishlar rivojlanadi. Vaskulit ba’zan tarqoq va kuchli bo‘ladi. Invaziya ko‘p bo‘lgani taqdirda, parazitlarni kuchli immunosuppressorlik ta’siri tufayli organizmda spetsifik antitelolarni to‘planishi sust, harorat reaksiyasi va qonda eozinofillar miqdorining ortishi yuqori darajada bo‘lmaydi. Mikrotsirkulatsiyaning keskin buzilishi oqibatida tezlikda gi poproteinemiyarivojlanadi vatanadaumumi shish paydo bo‘ladi. Shish mushaklarda, yog‘ to‘qimalarda va parenximatoz a’zolarda ham kuzatiladi. Og‘ir invaziyalarda miokardit, meningoensefalit, o‘choqli pnevmoniya, nefrit va gepatitlar rivojlanishi mumkin.

**Klinikasi.** Trixinellezning inkubatsion davri kasallikning og‘irligiga teskari mutanosiblikda ya’ni: noaniq va yengil kechimlarida 4—5 hafta, o‘rtacha kechimda 2—3 hafta bo‘lsa, og‘ir kechimida esa 7—10 kun, hatto 1—4 kungacha qisqarishi ham mumkin. Kasallikning boshlanishida, aksariyat hollarda, enterit alomatlari kuzatiladi.

Trixinellezning klinikasida quyidagi to‘rtta simptom: isitma, qovoqlarda, ko‘pincha butun yuzda shish, mushaklarda og‘riq va qondagi pereozinofiliyat takchi hisoblanadi.

Odatda, kasallikning boshlanishi ham tana haroratining to‘satdan ko‘tarilishi, qovoqlarni va yuzlarni shishishi, konyunktivit, mushaklarda og‘riq va qonda eozinofiliyaning ortib borishi bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha yuzlardagi shish va konyunktivit isitma ko‘tarilishidan oldin paydo bo‘ladi. 1—5 kun davomida ortib boradi va yengil hamda o‘rta og‘irlikdagi kechimda 1—2, ba’zan 3 hafta saqlanadi. Ayrim hollarda shish kuchli bo‘lib, asta-sekin

tananing boshqa qismlariga (bo'yin, qo'llar, oyoqlar, bel va boshqalarga) ham tarqaladi. Bunday shishlar uzoq saqlanadi va qaytalanib turish mumkin. Shishning bunday tarqalishi kasallikning og'ir kechimi va yomon oqibatidan darak beradi. Isitma yuqori ( $38-39^{\circ}\text{C}$ ) ko'pincha remittik, kamroq hollarda doimiy yoki intermitiktipdabo'lib, bir nechakun davom etadi. Ba'zan kasallik subfebril harorat bilan kechishi yoki harorat mutlaqo ko'tarilmasligi mumkin.

Mushaklardagi og'riq shish bilan bir vaqitda paydo bo'ladi va rivojlanadi, ba'zan juda kuchli bo'ladi. Og'riq butun tana muskullariga tarqalishi mumkin bo'lsada, ko'proq ko'z, chaynov, bo'yin, boldir mushaklarida va belda seziladi. Mushaklardagi og'riq, bemor tinch harakatsiz yotganida sezilmaydi, biroq ozgina harakat yoki paypaslanganda kuchayadi. Ayrim bemorlarda — kataral belgilar, quruq yo'tal, ba'zan nafas qisilishi (astmotik komponent) va boshqalar kuzatiladi. Invaziya kuchli bo'lgan taqdirda qorinda og'riq va ichning suyuq ketishi kuzatilishi mumkin. Ko'ngil aynashi va quşish faqat kasallikning og'ir kechimida bo'ladi.

Qondagi pereozinofiliyaning jadal rivojlanishi trixinellezning barvaqt va doimiy belgilaridan hisoblanadi. Uning qondagi miqdori kasallikning 3—4—haftasida 20—40% va hatto 60—70% ni tashkil qilishi mumkin. Ko'pinchabu gi pereozinofiliyayuqori leykotsitoz ( $10-30\cdot10^9/\text{l gacha}$ ) bilan birga kuzatiladi. Kasallik avjida eozinofilli leykotsitlar miqdorining kamayib ketishi xastalik oqibatining yomon bo'lishdan darak beradi.

Yuqorida aytilgan, kasallikning yetakchi belgilaridan tashqari bemorda noxushlik, uyqusizlik, bosh og'rig'i, bezovtalik yoki aksincha loqaydlik, karaxtlik, qorinda og'riq, ko'ngil aynashi singari alomatlar va turli xil toshmalar (eshakyemi, rozeola, papula va boshqalar) kuzatiladi. Ko'pchilikda bodom bezlari va boshqa limfatik bezlar hamda taloq kattalashadi. Trixinellez asoratsiz kechganda, kasallik 1—2 haftadan 5—6 haftagacha davom etishi mumkin.

Organizmning reaktivlik holati susaygan, invaziya esa kuchli bo'lgani taqdirda kasallik juda og'ir kechadi va ko'pchilik ichki a'zolar jarohatlanishi, jumladan: miokardit oqibatida o'tkir yurak yetishmovchiligi, meningoensefalit, pnevmoniya singari og'ir asoratlar

rivojlanishi va ko‘p (30% va undan ortiq) o‘lim berishi mumkin. Keyingi yillarda trixinellezni davolashda kortikosteroidli dorilardan keng foydalanilayotganligi tufayli ayrim bemorlarda kasallik surunkali kechimga o‘tishi kuzatilmogda. Bunga, kortikosteroidlar ta’sirida lichinkalarini kapsula bilan o‘ralishini buzilishi, ularni ko‘plab o‘lishi va mushaklarda yallig‘lanish o‘choqlarini paydo bo‘lishi sabab bo‘lsa kerak deb taxmin etiladi. Bularning barchasi organizmda sensibilizatsiya va autosensibilizatsiya holatlarini uzoq vaqt saqlanib turishiga olib keladi. Kasallikning surunkali kechimi, umumiy quvvatsizlik, tez toliqish, yurak va skelet mushaklarida og‘riq singari alomatlarni yillab davom etishi bilan namoyon bo‘ladi.

**Oqibati.** Trixenellezda umumiy o‘lim 1,5% ni tashkil etadi. Kasallikning og‘ir kechimida o‘lim 10—30% ga yetishi mumkin. O‘lim ko‘pincha kasallikning 4—8 haftalarida sodir bo‘ladi.

**Diagnoztikasa.** Trixinellezning diagnostikasida birinchi navbatda epidemiologik va klinik ma‘lumotlar hisobga olinishi kerak. Bunda xom yoki yaxshi pishirilmagan (cho‘chqa, kabon va boshqa yovvoyi hayvonlar) go‘shti iste’mol etilganligi, kasallikning o‘tkir boshlanganligi hamda shu kasallikka xos yetakchi to‘rtlik simptomlarni (shish, isitma, mialgiyavagi pereozinofiliya) mavjudligini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Bemor iste’mol qilgan go‘shtida trixinellalarni topilishi (trixinelloskopiya) diagnozni uzil-kesil tasdiqlaydi. Biroq, juda og‘ir kechimlarida kasallikning boshlang‘ich davri ati pik kechishi va unga xos bo‘lgan to‘rtlik simptomlar, birinchi (ba’zan hatto ikkinchi) haftasida bo‘imasligi mumkin ekanligini unutmaslik kerak.

Laborator usullaridan eng anig‘i — trixinelloskopiya usulidir. Bunda mushakdan (ko‘proq deltasimon muskuldan) biopsiya yo‘li bilan olingan material ko‘riladi. Biroq kasallik sust rivojlangan turlarini aniqlashda JSST (1969-y) tomonidan kiritilgan quyidagi serologik usullardan: bentonatli va lateksli flokkulatsiya, xolesterin—lesitinli flokulyatsiya, komplement biriktirish, sust gemagglutinatsiya reaksiyalari, flyuoressensiyalanuvchi antitelolar usullaridan foydalaniladi. Afsuski immunologik reaksiyalar kasallikning 2—4—haftasidan musbat natija beradi.

Trixinellezning diagnostikasida teri allergik sinamasidan ham foydalanish mumkin. U kasallikning ikkinchi haftasidan boshlab musbat natija beradi va kasallikdan so‘ng 5—10 yil davomida musbat bo‘lib qolishi mumkin.

**Davolash.** Kasallikning yengil turlarida bemor uyda qoldirilib asosan simptomatik va patogenetik davo (haroratni pasaytiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, antigistamin va b.) o‘tkaziladi.

Trixinellezning yengil kechimida yoki o‘rtा og‘irlidagi kechimining klinik simptomlari so‘nayotgan davrida bemorga spetsifik dorilar — vermoks yoki mintezol berish mumkin emas. Chunki bu preparatlarni berilishi kasallik belgilarining zo‘riqishi va uning davomiyligini ortishiga olib keladi.

Kasallikni o‘rtа og‘irlikda yoki og‘ir o‘tkazayotgan bemorlar albatta jadal davolash bo‘limi bo‘lgan yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yoki terapeutik shifoxonaga yotqizilib davolanadi.

Spesifik davo sifatida vermoks (mebendazol) yoki tiabendazol (mintezol) qo‘llanadi. Vermoks — 100 mg dan 3 mahal ovqatdan keyin, 7—10 kun (kasallikning og‘ir kechimlarida 14 kun) davomida beriladi. Vermoks bilan davolash, parazit yuqqandan keyin, 2—3-haftalarda o‘tkazilsa juda samarali natija beradi.

Tiabendazol — sutkada 25 mg/kg dan 2—3 marta 5—10 kun davomida beriladi. Biroq uning samaradorligi kam.

Vermoks bilan davolanganda, trixinellalarning ko‘plab o‘lishi tufayli, klinik belgilarni (isitma, shish, og‘riq va boshqalar) keskin hamda jadal ravishda zo‘rayishi va ayniqsa, xavflisi — ichki a’zolarning zararlanishi yoki mavjud jarohatlarining zo‘rayishi kuzatiladi. Buning oldini olish maqsadida vermoks bilan bir vaqtida prednizolon yoki deksametazon beriladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, vermoks kursi o‘tkazilayotgan vaqtida glukokortikoidlarni uzoqroq (10—12 kundan ortiq) berish, vermoksning samaradorligini keskin kamaytiradi, demak, qo‘srimcha ravishda vermoks berish kerak bo‘ladi. Kortikosteroidlar va boshqa desensibilizatsiyalovchi dorilar, shuningdek vitaminlar, yurak va qon tomirni mustahkamlovchi dorilar, invaziysi kuchli bo‘lgan bemorlarni davolashda qo‘srimcha patogenetik davo sifatida qo‘llanadi.

Kasalligi kuchli mushak yoki abdominal sindromlar bilan kechayotgan, shuningdek xastalikning distrofik fazasidagi bemorlarga glyukokortikoidlar qo'llash tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda antigistamin preparatlari, vitaminlar va boshqalar qo'llanadi.

Kasallikning kechikkan, distrofik fazasida — plazma, kokarboksilaza, B, C kompleksi vitaminlari, jigar preparatlari va boshqalar beriladi. Ayrim bemorlarda, rekonvalessensiya davrida qaytalanish (residiv) lar kuzatilishi mumkin. Bunda qayta davolash kurslari o'tkaziladi.

Kasallikni o'tkazgan shaxslarda 6 oy (og'ir kechimidan keyin 12 oy) davomida dispanser kuzatuv olib boriladi.

**Profilaktikasi.** Trixinellezga qarshi kurash choralari, veterinariya va tibbiyot xodimlari va asosan mahalliy aholi tomonidan birgalikda olib borilgandagina samarali bo'lishi mumkin.

Aholi orasida kasallik manbayi, uni yuqish yo'llari va oldini olish choralari keng tushuntirilmog'i zarur. Cho'chqa (to'ng'iz, ayiq va boshqalar) go'shtlari albatta sanitariya kuzatuvidan o'tkazilishi kerak. Kuzatuvdan o'tkazilmagan go'shtlar esa qalinligi 2,5 sm dan oshmaydigan bo'laklarga bo'linib 3 soat davomida qaynatilgandan keyin iste'molga yaroqli bo'ladi. Cho'chqa go'shtidan tayyorlangan, xom yoki chala pishirilgan holda iste'mol qilinadigan mahsulotlar 5 C va undan past haroratda 20—30 kun davomida saqlangandan keyingina iste'molga ruxsat etilishi mumkin (JSST, 1969). Trixinellalari bor bo'lgan go'sht darhol yo'qotilmog'i kerak.

## Ankilostomidozlar (Ancylostomidoses)

Ankilostomidoz — alohida qo'zg'atuvchisi bo'lgan ikki xil (ankilostomoz va nekatoroz) kasallik bo'lib, nematodlar guruhiiga kiradi. Bu ikkila gelmintoz ham oshqozon va ichakning jarohatlanishi hamda temirtaqchil anemiya rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi.

JSST ning (1989) ma'lumotiga qaraganda yer yuzida 450 mln dan ortiq odam ankolostomidalar bilan zararlangan. Ayrim o'lkalarda aholining ankilostomidozlar bilan invaziya darajasi 50% ga yetadi.

Ankilostomidoz asosan issiq iqlimli o'lkalarda — Afrika, Lotin Amerikasi, Sharqiy-Janubiy Osiyo, Xitoy, Yaponiya, AQSH,

Italiya, Portugaliya va shu jumladan Qora va Kaspiy dengiz atroflari hamda Markaziy Osiyoning qurg'oq hududlarida tarqalgan.

**Etiologiyasi.** Kasallikni qo'zg'atuvchi gjijalarning ikki turi mavjud — *Ancylostoma duodenale* va *Necator americanus*. Ular qizg'ish — oq rangli mayda nematodlar bo'lib, mikroskop ostida ko'rildiganda bir biridan keskin farqlanadi.

*A.duodemale* (og'zi qiyshiq gjija) urg'ochisining kattaligi 10—18·0,4—0,6 mm, erkaginining kattaligi — 7—11·0,4—0,5 mm. Bosh qismi qorni tomoniga qarab egilgan. Oval shaklidagi og'iz kapsulasi va ikkita yirik ilgaksimon tishlari bo'lib, ular yordamida ingichka ichakning shilliq pardasiga yopishib oladi.

Nekatoroz qo'zg'atuvchisi — nekator urg'ochisining uzunligi 7,7—13,5 mm., erkagi 5,2—10,0·0,18—0,24 mm. Bosh qismi orqasiga qayrilgan. Og'iz kapsulasi kichikroq, tishlari esa 2 ta o'tkir kesuvchi plastinka shaklida bo'ladi.

Ankilostom va nekator tuxumlari juda o'xshash, ularni mikroskop ostida ko'rildiganda (oval shaklida, yaltiroq pardaga o'ralgan) farqlash qiyin.

Ankilostomidlar ingichka ichakning yuqori qismida parazitlik qiladi.

Bitta urug'langan urg'ochi gjija bir sutkada 6000—25000 tuxum ajratadi. Axlat bilan ajralib tuproqqa tushgan tuxumdan (harorat 14—16 darajadan yuqori va namlik yetarli bo'lgan sharoitda) lichinka chiqadi va u rivojlanib 1—2 hafta davomida invazion, ya'ni yuqish xususiyatiga ega bo'ladi. Sharoit qulay bo'lgan taqdirda lichinkalar tuproqda 4—5 yilgacha saqlanishi mumkin. Tuproqning namligi 8% dan kam bo'lgan taqdirda lichinkalar tez nobud bo'ladi. Keyingi rivoji uchun lichinkalar odam organizmiga tushmog'i zarur.

Parazitning lichinkalari odam organizmiga ikki xil yo'l bilan yuqadi: 1) Teri orqali — tuproq yoki o'simliklar poyasidan yuqqan lichinkalar butunligi buzilmagan teridan ham o'tadi. Bu yo'l ko'proq nekatorozga xos, ankilostomozda ham bo'lishi mumkin; 2) Og'iz orqali — lichinkalar bilan ifloslangan ovqat (ko'proq sabzavotlar) va suv iste'mol qilinganda yuqishi. Bu yo'l bilan yuqish ko'proq ankilostomozga xos. Teri orqali yuqqanida lichinkalar qonga tushadi va xuddi askarida lichinkalari singari, o'pka kapillarlaridan

alveolalarga, bronxlarga, traxeyaga, tomoqqa tushib qayta yutiladi va nihoyat ichakda 4—5 hafta davomida jinsiy yetuk parazitga aylanadi. Yuqqan kundan boshlab to urg‘ochi parazit yetilib tuxum ajrata boshlaguncha nekatorda 5 hafta, ankistomda esa 6—8 hafta vaqt o‘tadi.

Og‘iz orqali yuqqan lichinkalar esa migratsiya qilmaydi, ular ichak shilliq qavatiga kirib oladi va 3—4 kundan so‘ng ichak bo‘shlig‘iga qaytib chiqadi. Ichak bo‘shlig‘ida ankilostom lichinkalari 4—5 hafta, nekator lichinkalari 8—10 hafta davomida jinsiy yetilib, tuxum qo‘ya boshlaydi.

Odam organizmida ankilostomlar 1—3, kamroq hollarda 5—6 yil, nekatorlar esa 15 yilgacha yashaydi.

**Epidemiologiyasi.** Ankilostomidoz — geogelmintoz antroponozlardir. Invaziya manbayi bo‘lib ankilostomidoz yoki nekatoroz bilan kasallangan bemor odam hisoblanadi. O‘zbekistonda bu kasallikning mahalliy o‘choqlari kamdan-kam hollarda Buxoro, Toshkent, Andijon, Samarcand, Surxandaryo va Farg‘ona viloyatlarida to 1962-yilgacha kuzatilib turgan. Ankilostomidozning O‘zbekistonda eng ko‘p aniqlangan davri 1962—65-yillarda Buxoro viloyatida kuzatilgan (Djumayev M.D., 1996).

Ankilostomidoz bilan ko‘proq 12—50 yoshdagি odamlar kasallanadi. Axlat orqali tuproqqa tushgan gijja tuxumidan ma’lum sharoitda (harorat 14—37°C va namlik yetarli bo‘lganda) — 60—85 soat davomida yetilib, undan invazion xususiyatga ega bo‘lgan lichinkalar chiqadi. Hosil bo‘lgan lichinkalar tuproqda (ayniqsa go‘ngli tuproqda) — 7—8 haftadan 1,5 yilgacha tirik saqlana oladi. Shuning uchun ham ankilostomidoz bilan ko‘proq tuproqda (qishloq xo‘jaligida, shaxtalarda) ishlaydigan odamlar va bolalar kasallananilar. Bunday zararlanish ayniqsa tuproqda odam go‘ngi ishlatilgan joylarda ko‘p bo‘ladi. Lichinka organizmga teri orqali yoki og‘iz kiradi.

Ankilostomozda mavsumiylik ko‘proq — mart—apreldan to oktabr oyigacha kuzatiladi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Organizmga tushgan parazitlar, patogenetik jihatdan asosan to‘rt xil ta’sir ko‘rsatadi. Ankilostomidoz patogenezida yetakchi rol migratsiyadagi lichinka-

larning hosilalari va parchalarining organizmning sensibilizatsiya-lovchi ta'siriga bog'liqdir. Ikkinchidan — lichinkalar migratsiyasi davomida o'tgan a'zolarini mexanik jarohatlab o'tadi. Parazit yetilgan davrida esa ichak devorida faqat qon bilan ovqatlanadi. U har 1—3 daqiqa davomida ichak shilliq pardasida qon so'rib bo'lgach, joyini o'zgartirib turadi. Binobarin ichak shilliq pardasining muttasil jarohatlab turadi, ham o'z navbatida nerv—reflektor yo'l bilan zararli ta'sir ko'rsatadi.

Og'iz orgali kirgan *A.duodenale* lichinkasi — 4—5 hafta davomida, *Nec.americanus* esa 8—10 haftada rivojlanib balog'atga yetadi. Lichinka teri orgali kirganda qon orgali o'pkaga boradi. Terida esa papulyoz toshmalar paydo bo'lishi mumkin. O'pkadan esa lichinkalar nafas yo'llari orgali ko'tarilib, tomoqqa chiqadi va yutilib, oshqozon-ichakka tushadi. Aytganimizdek, lichinkani butun o'tish yo'lida turli xil jarohatlanish sodir bo'ladi. Jumladan: o'pkada — gemorragiyalar, eozinofiliyali infiltratlar; bronxlar va traxeyallarda — allergik o'zgarishlar (yo'tal, bo'g'ilishlar, tovushning bo'g'ilishi va b.) kuzatiladi.

Kasallikning boshlang'ich davri toksikoz va allergiyaga xos belgilarga boy bo'lsa, surunkali davri esa asosan kamqonlik alomatlari bilan namoyon bo'ladi. Kuzatishlarga qaraganda 1 kunda bemorning yo'qotadigan qoni bitta *Nec. Americanus* hisobiga — 0,005—0,1 ml bo'lsa, bitta *A. duodenale* hisobiga — 0,08—0,34 ml ni tashkil qiladi. Agar ichakda ankilostomalar soni 2000 tagacha bo'lishi mumkinligi hisobga olinsa, unda bemor bir kunda 100 ml gacha qon yo'qotishi va hatto invaziya unchalik ko'p bo'lmasganda ham bemor kuniga o'rtacha 30 ml gacha qon yo'qotishi va juda holsizlanishi sababi ma'lum bo'ladi. Ankilostomalar qonning ivishiga to'sqinlik qiluvchi sekret ham ajratishligini unitmasligimiz kerak (Zarvaraqdagi 11-rasmga qarang).

Surunkali ravishda qon yo'qotilishi organizmda temir moddasining taqchilligiga olib keladi. Binobarin temirtaqchil anemiya, ankilostomidoz kasalligining yetakchi belgisi hisoblanadi.

**Klinikasi.** Kasallikning boshlang'ich davri asosan nospetsifik allergik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Terida, lichinka kirgan joyda bir kundan keyin ayrim hollarda birinchi soatlardayoq,

qichishish bo‘lib, papulyoz va eritematoz toshma paydo bo‘ladi. Bu toshma 10—12 kundan keyin yo‘qoladi. Qayta yuqish bo‘lgan taqdirda bu toshmalar kuchliroq (allergik dermatit) bo‘ladi. Shu kunlarda nafas yo‘llari ham jarohatlanib, o‘pkada eozinofilli infiltratlar paydo bo‘ladi hamda bronxit, traxosit, laringit singari alomatlar kuzatiladi. Ba’zan bemorda zotiljam alomatlari rivojlanib tana harorati ko‘tariladi, ayrim hollarda qorin og‘rib, ichi suyuq kelishi ham mumkin. Bu davrda qonda eozinofillar soni 30—60% gayetadi. Gi pereozinofiliya 75% bemorlardakuzatiladi. Organizmda lichinkaning migrantsiyasi 2—3 hafta davomida namoyon bo‘lib turadi va so‘ng yo‘qoladi.

Gijja og‘iz orqali yuqqanda bu belgilar ko‘rinmasdan, oradan 30—60 kun o‘tgach oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi, shuningdek duodenit, peroduodenit va eyunit singari jarohatlanishlar rivojlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik bemorlar quvvatsizlik, bosh aylanishi, tez charchash, ishtahasizlikka shikoyat qiladilar. Vaqtı—vaqtı bilan ko‘ngil aynab qusadi, qorining yuqori qismi og‘riydi, ichi ketadi. Ba’zan qorinda kuchli og‘riq — sanchiqli bo‘lib, oshqozon yoki 12 barmoq yarasi og‘rig‘ini eslatadi. Aksari og‘riq o‘ng tomonida bo‘lib appenditsit xurujini eslatishi ham mumkin.

Umuman sekin—asta kamqonlik kuchayib, bemor holsizlanib, ozib, ish qobiliyati pasayib boradi. Ankilostomidozning asosiy xususiyati ko‘pchilik bemorlarda temir taqchil anemianing rivojlanishidir.

O‘z vaqtida davolanmagan bemorlarda gemoglobin miqdori hatto 10—20% gacha kamayib ketishi mumkin. Anemianing og‘ir kechimi tufayli ayrim bemorlarda nerv-asab va jinsiy a’zolar faoliyatida o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin.

Yuqorida aytilgan sindromlarning qanchalik namoyon bo‘lishiga qarab, ankilostomozning — anemiya bilan, ko‘proq og‘riq, astenonevrotik yoki dispeptik sindromlar bilan kechuvchi hamda subklinik (noaniq) shakillari farqlanadi.

**Diagnostikasi.** Ankilostomidozning diagnostikasi klinik epidemiologik ma’lumotlardan tashqari bemor axlatidan parazitning

tuxumini topilishiga asoslanadi. O'zbekistonda ankilostoma lichinkalarini filtrlanuvchi qog'ozda o'stirish usuli ham keng qo'llanilmoqda (Jitnitskiy E.A., 1968). Filleborn va Kalantaryan usullari bilan o'tkaziladigan tahlil eng qulay, arzon va samarali laborator usullardan hisoblanadi.

**Davolash.** Ankilostomidozni davolashda etiotrop va patogenetik dorilar qo'llanadi. Etiotrop dorilardan kombantrin (pirantil, pamoat), vermoks va naftamon (alkopar) lardan foydalanamiz. Bular orasida *n a f t a m o n* samaraliroq hamda kam zararliroq sanaladi. Uni nahorda ovqatdan 1—2 soat oldin beriladi. Kundalik (1 marta beriladigan) dozasi 5 yoshgacha bo'lgan boallarga — 2,5 g katta yoshdag'i bolalarga va kattalarga — 5 g. Uni 30—50 ml suvda yaxshilab aralashtirib bir marta ichiladi. Surgi berilmaydi. Davolash kursi, odatda, bir kun. Faqat ayrim hollarda 3—5 kun davom etishi mumkin. Zarurat bo'lsa 2—3 haftadan so'ng takroriy kurs o'tkazish mumkin. Bu dori ichilganda ba'zan ko'ngil aynash, qusish va ich ketishi mumkin.

Bu preparatni faoliyatni keskin buzulgan jigar kasalligi bor bemorlarga berish mutlaqo man etiladi.

*K o m b a n t r i n* — 10—12 mg/kg hisobidan qatorasiga 3 kun (ovqatlanish paytida) beriladi. Preparat nekatorozda ko'proq samara beradi. *V e r m o k s* (mebendazol) 100 mg dan kuniga 2 martadan 3 kun davomida beriladi. Etiotrop dorilar qatorida levomizol (150 mg dan 1 marta) hamda tiabendazol (25 mg/kg dan 2 marta ovqatdan keyin 2 kun davomida) ham ishlatalishi mumkin. Kasallikning og'ir anemiyalik kechimida (gemoglobin 40% dan kam) gijja haydovchi dorilar berishdan oldin anemiyani davolash kerak. Buning uchun temir preparatlari, gemostimulin, ferrokal, feramid, vitamin B<sub>12</sub> yoki ferrum-lek, ektafor singari dorilar qo'llanadi.

**Profilaktikasi.** Avvalo kasallik tarqalgan o'choqlarda va umuman aholi yashaydigan va ishlaydigan joylarda (ayniqsa shaxtalar va yer osti inshootlarida) tuproqni ozoda saqlash, ayniqsa odam axlati tushmasligi choralarini ko'rish kerak. Gijjasi bor odamlarni ajratish va davolash zarur.

---

## IV. ICHAK SISTODOZLARI

Teniarinxoz — surunkali kechimga moyil, ko‘proq oshqozon—ichak yo‘lining yuqori qismini jarohatlash bilan kechadigan gijja kasalligidir.

Teniarinxoz — og‘iz orqali yuquvchi (peroral), antroponoz biogelmintozdir.

**Etiologiyasi.** Kasallikning qo‘zg‘atuvchisi — *Taeniarhynchus saginatus* — (sepenp bichiy), rivojlanib yetilgan davrida bu gjijaning uzunligi 7—10 metrgacha, eni 1,5—2,0 sm ga boradi. Gijjani tasmali (lentasimon) bosqichida — yirikkina (1,5—2,0 mm diametrli) boshi (skoleks), bo‘yni va bo‘lakchalardan iborat uzun — tasmasimon tanasi bor. Tumshug‘ida 4 ta kuchli so‘rg‘ichi bor. Tanasi esa 2000 ga yaqin bo‘lakchalardan (proglotid) iborat. Proglotidning paydo bo‘lishi va rivojlanishi gjijaning bo‘yin qismidan boshlanib, yetilgan sari quyi qismiga surilib boradi (Zarvaradagi 12-rasmga qarang).

Parazitni tasmali bosqichi odam (asosiy xo‘jayini) ning ingichka ichagida parazitlik qaladi. Ichakda rivojlanib yetilgan gjijadan uzilib chiqqan bo‘lakchalar najas orqali tashqariga chiqariladi. Barcha sestodlar singari *T.Saginatus* ham germafrodit bo‘lib, har bir bo‘lakcha ichida ham erkak, ham urg‘ochi a’zolar yetiladi. Har bitta gijja bo‘lakchasida juda etilgan (18—32 gacha shoxlangan) bachadon bo‘lib, ularning ichida 145000—175000 tagacha tuxum bo‘ladi. Tashqariga ajralgan gijja bo‘lakchalari har xil yo‘llar (ifloslangan xashak, yem, suv va boshqalar) bilan shoxli qoramollar organizmiga kiradi. Qoramol ichagida gjijaning lichinkalari parda ichidan chiqib, qonga tushadi va muskullar orasidagi biriktiruvchi to‘qimalarga o‘rnashib, yumaloq pufakka o‘xshash shaklga kiradi — ya’ni finnalar hosil bo‘ladi. Ana shunday tarkibida finnalar bo‘lgan qoramol go‘shtini yetarli yaxshi pishirmasdan iste’mol qilinganda bu finnalar odam ichagiga tushadi va rivojlanib balog‘atga yetadi. Ba’zan odam ichagida bir vaqtda bir necha gijja parazitlik qilishi mumkin.

**Epidemiologiyasi.** Teniarinxozning birdan—bir manbayi ichagida shu gjija bo‘lgan (ya’ni, invaziyalangan) odam hisoblanadi. Invaziyalangan odam shoxli hayvonlar uchun kasallik manbayi bo‘ladi. Odamga esa parazit lichinkalari, asosan, tarkibida finnalar bo‘lgan mol go‘shtini pishirmsandan yoki chala pishirilgan holda iste’mol qilinganda yuqadi. Qassoplar va ularning oila a’zolari, uy bekalari, xom go‘sht iste’mol qiluvchilar va maktab yoshidagi bolalar ko‘proq kasallananadi. Odam organizmida bu gjija 25 yil, va undan ortiq parazitlik qiladi. Bu parazitni yashash va rivojlanishi jarayoni murakkab. Parazitning jinsiy yetilgan (yetuklik) bosqichi, asosiy xo‘jayini bo‘lmish odam organizmida o‘tsa, lichinkali bosqichi, asosan oraliq xo‘jayini — yirik shoxli qoramollar organizmida o‘tadi va o‘rtacha 1—1,5 yil davom etadi. Ba’zan shimol bo‘rilar, qo‘toslar va boshqalar. Ham oraliq xo‘jayin bo‘lishlari mumkin. Kasallikni keng tarqalashi ko‘proq kuz va qish oylarida kuzatiladi. Bunga, shu mavsumda shoxli mollarni nazoratsiz ko‘p so‘yilishi sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda gijjaning bu turi ko‘proq Xorazm, Buxoro, Toshkent, Samarqand viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog‘istonda tarqalgan. Umuman bu kasallikning eng ko‘p tarqalgan endemik zonasi (zararlanish ko‘rchatgichi 10% dan ortiq) Janubiy Afrika hamda O‘rla yer dengizining sharqida joylashgan o‘lkalar hisoblanadi. Shuningdek, teniarinxoz Kavkaz orti, Dog‘iston, Markaziy Osiyo va Sibir o‘lkalarida ham tarqalgan.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Odam ichagiga tushgan gjija lichinkasi pardalaridan ajralib chiqqach so‘rg‘ichlari yordamida ingichka ichak shilliq pardasiga yopishib oladi. Ichakda u yetilib 2,5—3 oyda yirik gjijaga aylanadi va yillab parazitlik qilib yashaydi.

Gijja va uning ajralmalari odam organizmida kuchli mexanik, toksik va allergik ta’sir ko‘rsatadi. Gijjaning so‘rg‘ichlari va shuningdek uzun tanasi ichak shilliq pardasini shikastlaydi va ichakda keng nerv—reflektor qo‘zg‘alish o‘choqlarini paydo qiladi. Gijja bo‘lak-chalarining tez-tez aktiv holda ichakdan chiqib turishi esa orqa peshob sohasini jarohatlaydi. Nerv-reflektor ta’siri tufayli oshqozon shirasi va o‘t moddasini ajralishi buziladi. Ba’zan gjija ichakka taqilib qolishi, shuningdek appenditsit, xolesistit yoki pankreatit alomatlari

rivojlanishi mumkin. Bulardan tashqari, bir necha metrli gjijani doimiy ravishda xo‘jayini hisobiga ovqatlanishi ham organizmni (ayniqsa gjija ko‘p bo‘Isa) juda toliqtiradi va shuning uchun bunday bemorlar doimo ochlik his etadilar.

Gijjadagi modda almashinuvni tufayli hosil bo‘ladigan chiqindilari zaharli va allergik ta’sir ko‘rsatadi. Allergik reaksiyalar — terida toshmalar toshishi, qonda eozinofiliya ortishi bilan namoyon bo‘ladi (Zarvaraqdagi 13-rasmga qarang).

**Klinikasi.** Kasallikning klinik belgilari asosan surunkali kechimi davrida namoyon bo‘lib, juda turlicha (bilinar—bilinmas simptomlardan tortib, to juda og‘ir kechimlargacha) bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha teniarinxoz juda kam belgilar bilan, faqat ichakdan gjija bo‘lakchalarini yoki, ayniqlas, gjija to‘dasini ajralib chiqishi bilan namoyon bo‘ladi. Boshqa belgilari: biroz quvvatsizlik, bosh aylanishi, serzardalik ochiqish, qorinda (ayniqsa, ko‘richak sohasida) og‘riq kabi alomatlardan iborat bo‘ladi. Og‘riqning ko‘proq qorinning o‘ng pastki qismida sezilishining boisi, gjija bo‘laklari (proglotidlar) ning reseptorlarga boy bo‘lgan bu aginiev qopqog‘idan o‘tish davrida bo‘ladigan kuchli qitiqlanishidir. Ayrim bemorlarda — tez toliqish, tinka qurishi, tajanglik, tez-tez ochiqish (keyinchalik esa aksincha ishtahasizlik), o‘qtin—o‘qtin qorin og‘rig‘i, qorin kepchishi, ko‘ngil aynash, ba’zan ich ketishi kabi alomatlar kuzatiladi. Ba’zi bir bemorlarda uyquning buzilishi, tez-tez bosh aylanishi, ayrim hollarda hatto tutqanoq tutishi va boshqa nevrologik alomatlar ko‘rilishi mumkin. Qonda — leykopeniya, eozinofiliya ba’zan biroz kamqonlik kuzatiladi.

**Asoratlari.** Ba’zan gjija bo‘lakchalari chuvalchangsimon ichakka, o‘t pufagiga, o’n ikki barmoq ichakka, oshqozon osti beziga o‘rmalab kirishi mumkin. Ayrim hollarda gjija qorin bo‘shlig‘ida, vaginada va hatto burun bo‘shlig‘ida ham topiladi. Kamdan-kam holatlarda (ichakda bir vaqtda bir necha parazit bo‘lgan taqdirda) bu gjija, ichak tutilib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

**Diagnostiksi.** Teniarinxoz tashxisi asosan — gjija bo‘lakchalarini vaqt-vaqt bilan ichakdan faol ravishda o‘rmalab chiqib turishi yoki axlat bilan ajralib turishini kuzatishga asoslanadi. Teniarinxozning diagnostikasida qo‘llanadigan laborator usullar orasida najasdan

Kato va Geyn usulida taylorlangan surtma bilan bir vaqtda flatatsion usulni qo'llash eng yuqori samara beradi. Bunda o'tkazilgan tahlillarning 94,7% da onkosferalar aniqlanadi. Bemor axlatida yoki anus atrofidan olingen surtmada aniqlangan gijja tuxumini cho'chqa solityori tuxumidan farqlash juda qiyin.

**Davolash.** Teniarinxozni davolashda oxirgi yillarda asosan yuqori samarali va kam zaharli bo'lган **fenosal** (yomezan, niklozamid, sestotsid, vermitin va boshqalar) keng qo'llanmoqda.

Fenosal — bir berishda (sutkalik dozasi ham shu): 5 yoshgacha bo'lган bolalarga — 0,5—1,0 g, 6—9 yoshdagilarga — 1—1,5 g, 10—12 yoshda — 1,5—2,0 g, 13 yosh va undan kattalarga — 2 g dan beriladi. Fenosalni yotishdan oldin yoki nahorga berilgani ma'qul. Uni berishdan oldin chorak stakan suvda 1—2 g sodani eritib ichiriladi.

Fenosal zaharsiz bo'lsada uni homilador ayollarga ayniqsa homiladorlikning boshlang'ich davrida berish man etiladi. Ayrim bemorlarda preparat ko'ngil aynash, qushish, qorinda og'riq, bosh aylanishi, quvvatsizlik qabziyat yoki ich ketish kabi noxush alomatlar berishi mumkin.

Fenosal bilan davolash uchun maxsus tayyorgarlik qilish shart emas. Surgi ham berilmaydi, huqna ham qilinmaydi. Faqat yengil hazm bo'lувчи taomlar parhezi tavsija etiladi.

Fenosal bilan davolash ko'pincha faqat 1 kun davomida (ambulatoriya yoki uyda) o'tkaziladi. Birgina fenosalning o'zi bilan davolanganda faqat 79,5% bemorlar gijjadan to'liq forig' bo'ladi. O'tkazilgan davo natija bermagan taqdirda preparatni yana 3 kundan keyin takroran berish mumkin.

Hozirda fenosaldan tashqari boshqa, tarkibida fenosal bo'lган — dixosal yoki trixosal singari dorilar ham ishlatilmoqda. Jumladan, fenosalni trixlorofen bilan qo'shma preparati, ya'ni «trixosal» (yoki «dixosal») bir kun berilganda samaradorlik 85,6%, ikki kun berilganda esa 93,2% bo'ladi (Djumaev M.D., 1996). Bu preparatlarni xomilador ayollarga va bolalarga ham berish mumkin. Trixosal boshqa shu qatori preparatlardan o'zining zaharsizligi va noxush ta'sir ko'rsatmasligi bilan farqlanadi. Bu preparatlar ovqatlanishdan 1—1,5 soat oldin shirin choy bilan ichiriladi. Agar,

nahorga 2 g sodani suv bilan ichirib, 5—10 daqqa dan so‘ng preparatni (fenosal 2g trixlorofen 1 g) suvli suspenziya holatida ichirilsa, natija yanada samaraliroq bo‘ladi.

Bu kasallikni davolashda qadimda keng qo‘llab kelingan — qirqquloqning efirdagi ekstrakti, qovoq urug‘i yoki akrixin singari dorilar hozirda (kam samarali hamda ayniqsa qirqquloq, zaharli bo‘lganligi uchun) juda kam qo‘llanadi.

**Profilaktikasi.** Bu kasallik oldini olishda ayniqsa aholining sanitariya madaniyatini ko‘tarish (go‘shtni faqat yaxshi pishirilgan holda iste’mol qilish, yaylovlarni ifloslantirmaslik, chorva xo‘jaliklarini ozoda saqlash), bemorlarni aniqlab davolash, go‘shtlarni albatta veterinarlar ko‘rigidan o‘tkazish katta ahamiyatga egadir.

## Tenioz (Taeniosis)

Tenioz — asosan oshqozon-ichak yo‘lining yuqori qismini jarohatlash bilan surunkali kechadigan gjija kasalligidir.

Gijjaning bu turi nisbatan kam tarqalgan bo‘lib, ko‘proq Yevropa, Afrika, Markaziy va Sharqiy Amerika singari davlatlarda tarqalgan. O‘zbekistonda ahyon—ahyonda uchrab turadi.

**Etiologiyasi.** Tenioz kasalligini qo‘zg‘atuvchi gjija *Taenia solium*, ya‘ni cho‘chqa soliteridir. U o‘zining tuzilishi jihatidan qoramol soliteriga o‘xshab ketadi, biroq tumshug‘ida 4 ta so‘rg‘ichidan tashqari 22—32 ta ilmoqli hartumi ham bor. Shuning uchun uni qurollangan soliter deb ham atashadi. Bu gjija ham tasmasimon, nisbatan biroz kaltaroq (1,5—2,0 m) bo‘lib, 1000 ga yaqin bo‘lakchalardan (proglottidlardan) tashkil topgan. Yetilgan bo‘lakchalarda tuxumga to‘lgan bachadoni bo‘ladi.

Bo‘lakchalar, odamning axlati orqali, asosan uzilib tushgan holda ajraladi, proglotidlarning faol ajralishi esa teniozda kuzatilmaydi. Ajratadigan tuxumi morfologik jihatdan qoramol soliteri tuxumidan deyarli farqlanmaydi. Bu gjijaning rivojlanishi ham asosiy (odam) va oralig (asosan uy cho‘chqasi) xo‘jayinlar a’zolarida almashinib o‘tadi (Zarvaraqdagi 14-rasmga qarang).

**Epidemiologiyasi.** Tenioz, peroral biogelmintoz antropozondir. Kasallik manbayi invaziyalangan odam hisoblanadi. Balog‘atga yetgan

gijja odam ichagida (asosan ingichka ichakda) yashaydi. Yetilgan bo'lakchalarida gijja tuxumi (onkosfera) bilan to'lgan bachadoni bo'ladi. Gijja bo'lakchalari vaqtı-vaqtı bilan tanasidan bo'linib (uzilib) axlat orqali tashqi muhitga ajralib turadi.

Ifloslangan suv va turli yem-xashak ozuqalar orqali oraliq xo'jayin bo'lmish uy cho'chqalari (kamdan-kam hollarda — yovvoyi cho'chqalar, itlar, mushuklar va hatto odam) organizmiga tushadi va ularning mushaklari orasidagi biriktiruvchi to'qimada tuxumlardan, diametri 7—10 mm bo'lgan lichinkalar — sistitserkalar (*Cysticercus sellulosus*) paydo bo'ladi. Demak, bu gijja uchun odam nafaqat xo'jayin balki, ayrim hollarda, oraliq xo'jayin ham bo'lishi mumkin.

Cho'chqa soliteri odamga asosan yaxshi pishirilmagan cho'chqa go'shti iste'mol qilganda yuqadi. Bundan tashqari, gijja tuxumi sog'lom odamga boshqa bemor odamdan yoki gijjali odamni o'zidan-o'ziga yuqishi mumkin. Bunda yuqish yo'llari — bemorning najasi bilan ifloslangan qo'l, sabzavotlar, mevalar va turli oziq-ovqatlar bilan gijja tuxumini og'izga tushishi tufayli yuzaga keladi. Autoinvaziya esa, asosan, tuxumli gijja bo'lakchalarini ingichka ichakdan oshqozonga qusuq orqali o'tishi tufayli sodir bo'ladi. Bu kasallikka barcha birdek moyildir, immunitet masalalari xali yaxshi o'rganilmagan.

**Patogenezi.** Teniozda — ya'ni gijja odam ichagida istiqomat qilgan taqdirda (odam asosiy xo'jayin bo'lganda) bir yoki bir necha yetilgan parazit ingichka ichakda, ko'p yil davomida yashaydi. Bunda organizmda bo'ladigan patogenetik o'zgarishlar xuddi teniarinxozdagi kabi bo'ladi.

Sistitserkozda esa (ya'ni, odam oraliq xo'jayin bo'lganida) — odam organizmiga gijja tuxumlari (finnalar) kirganidan 2—2,5 oy o'tgach turli a'zolarda (ko'proq til, bo'yin, qovurg'a va skelet muskullarida, teri osti to'qimasida, ko'zda, bosh miyada, kamroq — yurak, jigar, o'pka, qorin bo'shlig'ida) sistitserkalar (lichinkalar) rivojlanadi. Bu lichinkalarning diametri 5—8 mm bo'lib, ular bir necha yil davomida halok bo'lmay saqlanadi. Sistitserkalar asosan mexanik ta'sir ko'rsatib atrofdagi to'qimalarning ezilishiga va yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Ular ko'p bo'lgan taqdirda toksik ta'sir ko'rsatadi va antigenlari organizmda sensibilizatsiyaning ya'ni

allergik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Barcha a’zolarda (ko‘zdan tashqari) sistitserkning atrofi fibrozli kapsula bilan o’ralib kistalar hosil bo‘ladi. Keyinchalik kistalar devoriga kaltsiy tuzlari o‘tirib ohaklanib qoladi.

**Klinikasi.** Ko‘pchilik holatlarda tenioz klinik belgilarsiz kechishi mumkin. Bunday hollarda kasallik faqat gijja bo‘lakchalarining axlat orqali ichakdan ajralib chiqishi bilan oshkor bo‘ladi.

Yuqorida aytganimizdek, bu gijjaning bo‘lakchalari ichakdan aktiv holda ajralib chiqmaydi. Ba’zan bemorlarda ko‘ngil aynash, vaqtı-vaqtı bilan quşish, ich ketishi, qorinda og‘riq, bosh aylanishi, uyquning buzilishi, xushdan ketish, kamdan-kam hollarda tutqanoq xuriji kuzatiladi. Surunkali davrida kasallikning belgilari teniarinxoz belgilariga o‘xshab ketadi. Biroq barcha simptomlar kuchli namoyon bo‘ladi va kasallik nisbatan og‘ir kechadi.

Sistitserkozning klinikasi esa juda xilma-xil bo‘lib, uning joylashgan qismiga, ko‘p-ozligiga va rivojlanish bosqichiga bog‘liq bo‘ladi. Sistitserkalar terida, teri osti to‘qimasida yoki mushaklar orasida joylashganida ko‘pincha klinik namoyon bo‘lmaydi yoki teri ostida qattiq tuguncha sifatida aniqlanishi mumkin.

Sistitserkozni markaziy nerv sistemasida va ko‘zda bo‘lishi eng ko‘p uchraydigan va og‘ir kechadigan invaziyalardan hisoblanadi.

Yetilgan gijja bilan invaziyalangan shaxslarda, sistitserkoz teniozning asorati deb, agarda yetilgan gijjalar yo‘q bo‘lsa — mustaqil nozologik shakli (ya’ni kasallik) deb baholanadi.

Sistitserkoz kasalligi umuman surunkali (15 yilgacha va undan ortiq) kechishga moyil bo‘lib, u xatarli kasallikdir.

**Oqibati.** Teniozning oqibati sistitserkoz rivojlanishi mumkin bo‘lganligi tufayli murakkabdir. Sistitserkoz rivojlanganda esa oqibati yomon bo‘lishi ham mumkin.

**Diagnostikasi.** Teniozning tashxisi ham xuddi teniarinxozdagи singari axlat bilan ajralib chiqqan gijja parchasini ko‘rish yoki tuxumini aniqlashga asoslangan. Lekin, sistitserkozni aniqlashda esa ancha murakkab usullarni (biopsiya, rentgenologik, miyada—bosh miyani rentgenografiyasi, angiografiyasi, tomografiyasi, ultratovush va boshqalar) qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Serologik usullardan — komplement biriktirish reaksiyasi, sust gemagglu-

tinatsiya reaksiyasi hamda FAR (qonda va miya suyuqligida) qo'llanadi. Bu reaksiyalarni qo'yishda sistitserka antigenidan foydalilanildi.

**Davolash.** Teniozni davolashda, sistitserkoz rivojlanishi xavfining oldini olish maqsadida, ichakka gjijani bevosita parchalovchi dorilarni (fenosal, dixlorofen, trixlorofen) qo'llash, parchalangan gjija bo'laklaridan onkosferalar ajralib chiqib sistitserkoz rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin degan xavf mavjud edi. Biroq N.N.Ozereskovskaya va boshqalar (1985) bu xavfni asossiz ekanligini isbotladilar. Teniozda fenosal qo'llashning eng samarali tizimi ishlab chiqilgan (Marsinovskiy E.A. nomli TPITI xodimlari). Unda fenosal (dozasi xuddi teniarinxozdagi singari) ertalab nahorda ichirilib, 2 soatdan keyin yengil nonushta va yana 1 soatdan keyin — tuzli surgi beriladi. Yana 2 haftadan keyin shu kursni takrorlash tavsiya etiladi.

Teniozni davolashda, shuningdek, qirqquloqning efirli ektrakti ham ishlatiladi.

Sistitserkozni davolashda esa prazikvantel (biltritsid) — kuniga 16,6 mg/kg hisobidan 14 kun beriladi, yoki 50 mg/kg hisobidan 10 kun beriladi. Bu dori qo'llanishi davrida allergik reaksiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida glikokortikoidlar ham berib boriladi. ?n davomida) qo'llash ham samara berishi mumkinligi haqida ayrim ma'lumotlar bor. Zarurat bo'lganida sistitserka kistalari jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi

**Profilaktikasi.** Tenioz tarqalishining oldini olish ham xuddi teniarinxozda o'tkaziladigan chora-tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Birinchi navbatda va ayniqsa cho'chqachilik xo'jaliklarida veterinariya xizmati bilan hamkorlikda epidemiologik chora-tadbirlar o'tkaziladi.

## Gimenolepidoz (Hymenoleidosis)

Gimenolepidoz — asosan oshqozon-ichak sistemasi faoliyatining buzilishi bilan namoyon bo'ladigan surunkali parazitar kasallikdir. Gimenoledoz peroral antropoz, kontagioz

gelmintozdir. U barcha (ayniqsa issiq) o'lkalarda, shu jumladan Markaziy Osiyoda keng tarqalgan gijja turlaridandir.

### **Etiologiyasi.** Gimenolepidozning qo'zg'atuvchilarini:

- 1) *Hymenoleris nana* (pakana gijja, karlikoviy sepenp) nisbatan kichkina (bo'y 1,5—2,0 sm, ayrimlari 5 sm gacha, eni 0,55—0,7 mm) gijja bo'lib, uning boshi (skoleks) da 4 ta so'rg'ichi, kichkina hartumi va 20—30 ta ilmoqlari bor, tanasi — strobila, 160—1000 tagacha germofradit bo'lakcha (proglotit) lardan tashkil topgan.
- 2) *Hymenoleris diminuta* (kalamush gijjasи, krisiniy sepenp) — uzunligi 10—60 sm, eni 2,5—4,0 mm li gijja bo'lib, boshida ilmoqlari bo'lmaydi.

Pakana gijja rivojlanish jarayonini odam organizmini o'zida to'liq o'tkaza oladi, shuning uchun ham odam shu gijjaga ham oraliq, ham asosiy xo'jayini hisoblanadi. Gijja tanasidagi bo'lakchalar tuxumlar bilan liq to'la, bachadondan iborat bo'ladi. Har bir bachadonda 180 ta gacha lichinkali tuxumi bo'ladi.

Bu gijjalar odamning ingichka ichagida yashaydi va ularning soni har bir bemorda 200 va undan ortiq bo'ladi. Boshqa tenidlardan farqli o'laroq, bu gijjaning tuxumlari faqat gijja bo'laklari tashqariga chiqarilgandan keyingina emas, balki ichakni ichida ham (bo'lakchaning yorilishi yoki undan siqib chiqarilishi yo'li bilan) ajraladi (**Zarvaraqdagi 15-rasmga qarang**).

Bu holat bemor ichagida autoinvaziya hodisasi yuz berishiga olib keladi.

**Epidemiologiyasi.** Bemorning axlati bilan tashqariga ajratilgan gijja bo'lakchalarida (va alohida ajralgan holda ham) ko'plab tuxumlari bo'lib, ularda yetilgan lichinka — onkosfera bo'ladi va atrofdagi har xil buyumlarni ifloslantiradi. Shu ifloslangan buyumlardan (ayniqsa hojatxona eshigining bandlari, unitazlar, tuvaklar, o'yinchoqlar) va oziq-ovqatlar orqali kontakt yo'li bilan og'izga tushadi. Bu gijja tuxumlarining tarqalishida pashshalar ham ma'lum rol o'ynashi mumkin.

Ichakda gijjadan ajralgan onkosferalar, qaytatdan ichak shilliq qavatiga kirib olib, ichak ichki autosuperinvaziyasini yuzaga keltirish qobiliyatiga ega.

**H.diminuta** — zoonoz, og‘iz orqali yuquvchi gelmintozdir. Bu gijjaning manbayi va oxirgi xo‘jayini — kemiruvchi (sichqon, kalamush) lar, oraliq xo‘jayini — burga, suvarak va boshqalarning lichinkalari hisoblanadi. Parazitni odamga yuqishi bunday hasharotlar lichinkalarini sezmagan holda yutib yuborish orqali sodir bo‘ladi. Ichak ichki autosuperinvaziya hodisasi kuzatilmaydi.

Gimenolepidoz — ko‘proq shahar aholisini, ayniqsa 4—14 yoshdagi boallarni zararlaydi. Kasallikni o‘tkazgan shaxslarda immunitet masalalari xali yaxshi o‘rganilmagan. Tashqi muhitda, ayniqsa quruqlikda va issiqlikda gjija tuxumlari tez nobud bo‘ladi. Uy haroratida 3—4 sutka, suvda esa 18—20°C da 35 kungacha saqlanadi. Karbol kislotasi, xlor ohagi singari dezinfeksiyalovchi moddalar ta’sirida 5—30 daqiqada nobud bo‘ladi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi. Immunitet.** Og‘iz orqali odam organizmiga tushgan gjija tuxumining ustki qobig‘i oshqozon-ichak fermentlari ta’sirida eriydi va ichakka lichinkalari (onkosferalar) tushadi. Lichinkalar ingichka ichak vorsinkalari orasida joylashib olib, sistitserkoidga aylanadi; 4—7 kundan keyin sistitserkoid vorsinkalarni parchalab ichak bo‘shlig‘iga tushadi va ichak shilliq pardasiga yopishib olib 14—15 kunda yetilgan gjijaga aylanadi. Yetilgan h.nana odam ichagida 2 oydan ortiq yashamaydi, biroq, ichak ichida autosuperinvaziya xususiyatiga ega bo‘lganligi tufayli u odam organizmida, ayniqsa immunitet ojizligida, ko‘p martalab qayta-qayta sikillar berishi va ko‘plab miqdorda to‘planishi mumkin.

Boshqa gjijalar singari bu gjija ham organizmga turli xil (patogenetik, mekanik, toksik va allergik) ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy mekanik qitiqlanish oqibatida, ayniqsa parazitlar soni ko‘p bo‘lgan taqdirda, avvaliga ichak devorida infiltrativ yallig‘lanish, keyinchalik esa nekroz (ba’zan chuqur, hatto ichak mushak qavatigacha) rivojlanadi va yara paydo bo‘ladi, bundan tashqari, vorsinkalarni yemirilishi oqibatida ichakda so‘rilish qobiliyatি ham keskin buziladi. Invaziya yuqori (ichakda o‘nlab va yuzlab ming parazit) bo‘lgan taqdirda ichakning jarohatlanishi og‘ir va xavfli bo‘lishi mumkin.

Gijjadagi modda almashinuvi va ularning parchalanishi oqibatida paydo bo‘lgan hosilalarning toksik va allergik ta’siri hamda autosensibilizatsiya sababli organizmda ko‘plab patologik jarayonlar

yuzaga keladi. Buning oqibatida, ichakdan tashqari boshqa a'zolarda ham, jumladan: jigarda, limfa tugunlari va boshqalarda granulematoz o'zgarishlar va nekrozlar kuzatiladi. Doimiy ravishda nerv-reflektor ta'sirlar bo'lib turishi oqibatida MNS faoliyati ham buziladi. Ba'zan miyada turg'in o'choq paydo bo'lishi va oqibatda tutqanoq-simon tirishishlar kuzatilishi mumkin. Gijjaning umum—toksik ta'siri tufayli organizmda immunogenez susayadi, bu holat boshqa yuqumli kasalliklarni (dizenteriya va b.) og'ir yoki surunkali kechimiga sabab bo'ladi. Gimenolepidoz, odatda, qisqa vaqt 1—3 oy davom etadi. Immunitet taqchilligi tufayli superinvaziyalar bo'lgan taqdirda esa ko'proq yosh bolalarda, kasallik uzoq va turg'un davom etadi. Ko'pchilik bolalar 10—14 yoshga yetganlarida bu kasallikdan butunlay tuzalib ketadi.

**Klinikasi.** Bemorlarning deyarli uchdan bir qismida gimenolepidoz klinik belgilarsiz, yoki subklinik tarzda o'tishi mumkin. Klinik namoyon kechganida esa bemor ishtahaning pasayganligi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynashi, goho quşish, kindik atrofida og'riq, ba'zan ichning suyuq kelishi, ko'p so'lak oqishi, kekirish kabi alomatlarga shikoyat qiladi. Qorinning og'rishi asosan kechqurun bezovta qiladi, ba'zan kuchli hurujli bo'ladi. Qorinning og'rig'i ovqat yeyilishi bilan bog'liq bo'lmay, najas ko'pincha suyuq, ba'zan shilimshiq aralash bo'lishi mumkin. Ko'pchilik bemorlar tajang bo'lib qoladi, ularni bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tez toliqish bezovta qiladi. Bolalarda vaqt-vaqt bilan mushaklar tortishishi, tutqanoq singari tirishishlar, qisqa muddatli xushini yo'qotishlar bo'lishi mumkin. Ayrim bemorlarda (1—6%) allergik toshma, terining qichishishi, vazomotor rinit, Kvinki shishi, astmatik bronxit singari alomatlar, ba'zan jigar kattalashishi va uning faoliyati buzilganligi kuzatiladi. Ayrim bemorlarda tana harorati vaqt-vaqt bilan subfebril darajada, ba'zan esa qisqa muddatli, biroq yuqori darajada ko'tarilib turadi. Kasallik uzoq davom etganda anemiya rivojlanib, bemor ozib ketadi. Gimenolepidoz uzoq davom etib, uni davolash uchun ko'p kimyoviy dorilar olgan shaxslarning ko'pchiligidagi jigar kattalashishi va uning faoliyatining buzilganligi (aminotransferazalar aktivligini va bilirubin miqdorini ortishi, oqsil sintezi kamayishi) kuzatiladi.

Qon tekshirilganda, ayrim bemorlardabiroz gi poxrom anemiya, leykopeniya, kamdan-kam hollarda eozinofiliya, EChT ortganligini ko'rish mumkin.

**Oqibati.** Ko'pchilik bemorlarda yaxshi, biroq takroriy autoinvaziyalar kasallik oqibatini og'irlashtirishi mumkin.

**Diagnostikasi.** Asosan bemor najasidan gijja tuxumini, yoki gijjaning o'zini aniqlashga asoslangan. Bu maqsadda Folleborn va Kalantaryan yoki Katoning sellofanli qalin tomchi usullari keng qo'llanadi. Biroq bu usullarning hammasi ham to'liq ishonarli bo'limganligi tufayli 1969-yilda P.M.Lerner va V.A.Gogollar yangi, ikki marta ortiq, ijobiy natija beradigan — flotatsiya usulini taklif etishgan. Bu usul, ayniqsa invaziyasi kam bo'lgan bemorlarda tashxis qo'yishda qo'l keladi. Tekshiruvni uch marta takrorlash tavsiya etiladi.

**Davolash.** Gimenolepidozni davolashda fenasal yaxshi samara beradi. Uni turli sxemalarda qo'llanadi. P.M.Lerner — 1969-yilda taklif etgan va 1975-yil VOZ tavsiya etgan tizim bo'yicha fenoosal 2 kundan, 5 kun oralab, 6—7 sikl beriladi. Fenoosal 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga 1 g, 6—9 yoshda — 1,5 g, 9 yoshdan ortiq va kattalarga — 2 g dan butun sikl davomida shu dozada beriladi. Uni nahorda ovqatlanishdan 1,5—2 soat oldin, teng miqdorda shakar qo'shib, ozgina suv bilan xuddi quyuq bo'tqadek qilib, ustidan 50 ml iliq suv bilan ichiladi. Bunday davolash kursini o'tkazish uchun alohida tayyorgarlik talab etilmaydi. Biroq parhezi yengil hazm bo'ladigan taomlardan iborat bo'lishi kerak. Surgi dori berish, yoki xuqna qilishga ham xojat yo'q. Davolanish davrida va yana 3—4 kun keyin bemor har kuni dushda yuvinishi va kiyimini almashtirib turishi kerak. Bundan boshqa ham bir qancha davolash tizimlari mavjud. Fenoosal bilan birga dixlorofen yoki trixlorofen berilsa davo kursining samaradorligi yanada ortadi.

Keyingi yillarda keng qo'llanayotgan p r a z i k v a n e l p (25 mg/kg dan bir marta) parazitning sistitserkoidlariga ham ta'sir etadi, shuning uchun ham u juda samaralidir. Spetsifik davolashdan tashqari bemorga vitaminlar berib turiladi.

Davolash natijasini nazorat qilish — 1 oydan keyin boshlanib, har oyda bir marta 6 oy davomida o'tkaziladi.

**Profilaktikasi.** Aholi (ayniqsa, bolalar) sanitariya madaniyatini orttirish — shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, o'choqlarda sanitariya gigiyenik tadbirlarni olib borish, pashshalar, suvaraklar va kemiruvchilarga qarshi kurashish, hojatxonalarini tez-tez dezinfeksiya qilib turish singari choralar kasallik profilaktikasining asosini tashkil qiladi. Biroq gimenolepidozda ichakni o'zidan qayta-qayta yuqish (autoinvaziya) va organizmga moslashib olish (adaptatsiya) hodisasi bo'lganligi tufayli, yuqorida aytilgan tadbirlar yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham gimenolepidozni yo'qotish uchun avvalo invaziya manbayini yo'qotmoq kerak. Ya'ni barcha invaziyali bemorlarni aniqlab, ularni fenasal bilan to'liq davolan-gandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

### O'lat (chuma, pestis)

O'lat — isitma, kuchli intoksikatsiya, limfatik tugunlarni jarohatlanishi, septicsemiya va pnevmoniya bilan namoyon bo'luvchi, o'tkir yuqumli kasallikdir.

O'lat epidemiyasi va hatto pandemiya, turida tarqalishga moyil bo'lganligi tufayli o'ta xavfli karantin (konvension) infeksiyalar qatoriga kiradi va unga barcha «Xalqaro tibbiyot—sanitariya qoidalari» taalluqlidir.

**Tarixiy ma'lumotlar.** Kasallikning «chuma» deb atalishi arabcha «djumba» (yirik loviya) so'zidan kelib chiqadi. Chunki ko'pchilik o'latli bemorda limfatik tugunlar yallig'lanib loviyasimon kattalashadi.

O'latning epidemiyalari juda qadim (eramizdan ancha oldin) ham kuzatilib turgan.

Insoniyat tarixida o'latning uchta yirik pandemiyalari kuzatilgan. Birinchi pandemiya yilnomalarga «yustinian o'lati» deb kiritilgan bo'lib, VI asr (530—580-yillar) da, asosan Yaqin Sharq va Yevropa davlatlarida tarqalgan va 100 mln. odamning yostig'ini quritgan. Ikkinci pandemiya 1334-yilda Xitoydan boshlanib, Hindiston, Afrika va so'ngra (1348-yil) Yevropaga tarqalgan. Bunda Yevropaning 1/4, aholisi, ya'ni 50 mln. odam nobud bo'lgan. Shu pandemiya davrida avval Venesiyada, keyinroq Rossiya tarixda birinchi marotaba

o'latga qarshi karantin choralari (guarantena, guaranta giorni — qirq kun so'zidan) ko'rila boshlandi. Uchinchi pandemiya, 1894-yilda Kanton va Gonkongdan boshlanib, yaqin o'n yil ichida barcha qit'alarning 87 port shaharlariiga tarqaldi va bunda 12 mln. odam halok bo'ldi.

Shu pandemiya davrida yirik kashfiyotlar qilinib, ular o'latga qarshi kurash ishlarini ilmiy asosda tashkil etishga imkon berdi. Fransuz olimi A.Iersen 1894-yilda bemor odamda, 1897-yilda yovvoyi kalamushlarda o'lat mikroblarini aniqladi va shuning bilan o'latni kasal kemiruvchilardan sog'lom kemiruvchilarga va ulardan odamlarga burgalar orqali tarqalishini isbotladi. 1912-yilda D.K. Zabolotnoy o'latni tabiiy o'choqli kasallik ekanligini aniqladi. 1926-ylda V.A. Xavkin o'latga qarshi vaksina taylorlashga muvofiq bo'ldi.

Ko'p yillar davomida o'lat epidemiyasiga qarshi o'tkazilgan, ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tufayli yer yuzida o'lat epidemiyalarini tugallashga muvofaq bo'lindi. XX asrning 30-yillardidan boshlab keskin kamayib kelayotgan o'lat, keyingi yillarda sporadik holda Avstraliyadan boshqa barcha qit'alarda kuzatilmogda.

**Etiologiyasi.** O'latning qo'zg'atuvchisi *Iersinia pestis*, *Iersinia* lar urug'iga, *Enterobacteriaseae* oilasiga mansub, harakatsiz, tuxumsimon, bi polar bo'yaluvchi, 1,5—0,7 mkm kattalikdagi bakteriyadir. U turli shakillarda (ipsimon sharsimon, kolbasimon) bo'lishi mumkin, grammanfiy, spora va xivchinlari yo'q, nozik kapsula hosil qiladi, oddiy ozuqa—muhitida 28°C (0°C dan 45°C gacha) haroratda va 6,9—7,2 pH li sharoitda yaxshi o'sib, virulentli R va virulentsiz — S shakilli koloniylar hosil qiladi. Ozuqa muhitiga hayvon qoni yoki sulfit natriy qo'shilsa mikrobynning o'sishi tezlashadi (**Zarvaraqdagi 16-rasmga qarang**).

O'lat qo'zg'atuvchisining antigenlik tizimi ancha murakkab. U, haroratga chidamli somatik, harotga chidamsiz kapsulasi bilan bog'liq bo'lgan (virulent shtammlariga xos) va boshqa 30 ga yaqin immunogen faol antigenlarga ega. Uning patogenlik xususiyati, ajratadigan ekzo- va endotoksinlari bilan bog'liq. Iersiniyalar tajavuzkor fermentlar — gialuronidoza, koagulaza, gemolizin, fibrinolizin va boshqalarini ishlab chiqaradi.

Iersiniyalarning tashqi muhitda chidamliligi unga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq. Haroratning pasayishi bilan mikrobning turg'unligi ortadi. O'lat mikrobi —22°C da 4 oy, Q50—70°C — 30 daqiqa, 100°C da esa 1 daqiqa yashaydi. Oziq ovqatlarda , suvda va uy jihozlarida *I.restis* 3 oygacha, bubondan olingan yiringda — 40 kun, qon va balg'amda — 30 kun va undan ortiq saqlanadi. O'lat mikrobi odatdagи dezinfeksiyalovchi moddalarning ishchi konsentratsiyasida (sulema 1:100, 3—5% li lizol eritmasi, 3% li karbol kislotasi, 10% li oxak suti eritmasi) va antibiotiklar (streptomitsin, levomitsetin, tetratsiklin) ta'sirida tez nobud bo'ladi.

**Epidemiologiyasi.** O'lat — tabiiy—o'choqli transmissiv zoonoz kasallik. Uni tabiiy, birlamchi («yovvoyi o'lat») va sinantrop, ikkilamchi (antropourgik) o'choqlari («shahar», «port», «kema», «kalamush» o'latlari) farqlanadi.

O'latning tabiiy o'choqlari, **I.pestis** ning tabiiy rezervuari bo'l mish — yovvoyi kemiruvchilar va ularning burgalari bilan bog'liq bo'lib, insonnинг hayotiy jarayoniga aloqador emasdir. Tabiatda o'lat mikrobini tashib yuruvchi kemiruvchi hayvonlarning 300 ga yaqin turlari ma'lum. Yovvoyi kemiruvchilardan tashqari ba'zan epizootik jarayonga kalamushlar, sichqonsimonlar, shuningdek quyonsimonlar va tulkilar ham qo'shilib qolishi mumkin. Qish uyqusiga ketuvchi kemiruvchi hayvonlarda o'lat surunkali kechadi va epidemiyalar oraliq'ida latent infeksiya sifatida saqlanadi (**Zarvaraqdagi 17 rasmdagi qarang**).

Sinantrop o'choqlarda infeksiya manbayi va rezervuari bo'lib asosan uy kalamushlari va sichqonlari xizmat qiladi. Ularda ham o'lat infeksiyasi ko'pincha surunkali kechadi yoki klinik belgilarsiz infeksiyani tashib yuruvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Kasallik asosan burgalar orqali yuqadi. Ularni 120 dan ortiq turlarida *I.restis* topilgan. Bularning ichida eng faol yuqtiruvchilari — kalamush burgalari, odamlar xonadonlarida yashovchi burgalar va surka burgalari hisoblanadi. Kasallangan kemiruvchi qonini so'rgan burganing jig'ildonida o'lat mikrobi ko'payib tiqilib ("blok") qolganidan so'ng u kasallikni boshqa hayvonlarga yuqtira oladi. Shunday qilib — "kemiruvchi — burga — kemiruvchi" halqasi hosil bo'ladi va tabiatda o'latning doimiy o'chog'i saqlanadi.

Kasallikdan o'layotgan kemiruvchini tashlab qochgan burgalar boshqa hayvonlarga va odamlarga ham o'tib ularga kasallikni yuqtiradi. Aniqlanishicha o'latni yuqishi zararlangan burgani chaqishidan ko'ra ko'proq, uni teriga tushgan qusuq va najasini chaqilgan joyga surkalishi (qashlash) tufayli sodir bo'ladi (**Zarvaraqdagi 18-rasmga qarang**).

O'latni odamlarga yuqishini bir necha yo'llari mayjud: t r a n s m i s s i v — zararlangan burgalarni chaqishi; k o n t a k t — zararlangan xo'jalik kemiruvchilarining terisini shilish yoki so'yilgan tuyani go'shti bilan ishslash; a l i m e n t a r — infeksiya bilan zararlangan oziq-ovqatni iste'mol etish; a c r o g e n — o'latni o'pka turi bo'lgan bemorlardan yuqishi.

Odamlarda o'lat kasalligiga moyillik yuqori — kasallanish indeksi birga yaqin.

O'latni o'pka turi bilan kasallangan bemorlar atrofidagilar uchun eng xavfli hisoblanadi. Kasallikning boshqa turlari esa burga ko'p bo'lgan taqdirda tarqalishi mumkin.

Hozirgi vaqitda odamlarning o'lat bilan kasallanishi nisbatan kam kuzatilmogda. JSST ning ma'lumotiga ko'ra 1980-yilda qayd etilgan bemorlar soni 500 kishiga yaqin bo'lgan. Faol enzootik o'choqlar Janubiy—Sharqiy Osiyo, Afrika va Amerikada saqlanib qolgan.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Kasallikning patogenezi va klinik turini shakillanishi ko'p jihatdan infeksiyani organizmga kirish (teri, shilliq parda, nafas yo'lli) bilan bog'liq bo'ladi. Infeksiya tushgan joyda (terida) birlamchi affektning hosil bo'lishi kamdan-kam hollarda (3—4% bemorlarda) kuzatiladi. O'lat bakteriyalari limfa oqimi bilan yaqin oradagi regionar limfatik tugunga tushib juda tez ko'payadi va joyida o'tkir gemorragik yallig'lanish jarayoni yuzaga keladi va birlamchi bubon hosil bo'ladi. Mikroblarni neytrofil va mononuklear hujayralar yemiradi (fagotsitoz). Biroq fagotsitoz to'liq bo'lmaydi va bu holat immunologik jarayonni qiyinlashtiradi. Limfatik tugunlarni baryerlik xususiyatini yo'qolishi tufayli infeksiyaning generalizatsiyalanish jarayoni yuzaga keladi. Bakteriya limfogen yo'l bilan tarqalganda birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo tartibdagi birlamchi bubonlar hosil bo'ladi. Infeksiya

gematogen yo‘l bilan tarqalganda esa ikkilamchi bubon va boshqa ichki a’zolarda yallig‘lanishning ikkilamchi o‘choqlari paydo bo‘ladi. Ikkilamchi bubonlar infeksiyaning organizmiga kirish joyi bilan bog‘liq bo‘lmaydi, ular maydarov va ko‘p bo‘ladi. Iersiniyalarning ikkilamchi o‘choqlarda ko‘payishi o‘latning septik shakli rivojlanishiga olib keladi. Bunda turli ichki a’zolarda septikopiemik o‘choqlar paydo bo‘lib, infektion-toksik shok rivojlanadi. Bakteriyalar qon orqali o‘pkaga tushganda ikkilamchi o‘lat zotiljami yuzaga kelib, o‘pkada tarkibida ko‘p miqdorda iersiniylar bo‘lgan seroz—gemorragik ekssudat to‘planadi. Ayrim hollarda ichak jarohatlanadi (o‘latning ichak shakli), va u juda og‘ir kechib deyarli har doim o‘lim bilan yakunlanadi. Ba’zan toksik miokardit, nefrit rivojlanishi mumkin. Shuningdek, ekximozlar, teri, shilliq va seroz pardalarga, yirik va o‘rtal qon tomir devorlariga qon quyilishlar kuzatiladi. Qon tomirlari ichida tarqoq holda qonning ivib qolishi (DVS—sindrom) o‘latning og‘ir kechimi patogenezida muhim rol o‘ynaydi.

O‘latda kuzatiladigan infektion—toksik shok, qon tomir devorlarining jarohatlanishi, DVS—sindromning rivojlanishi va ko‘pchilik a’zolardagi og‘ir distrofik o‘zgarishlar asosan o‘lat bakteriyalarining (ekzo- va endo-) toksini va uning tarkibidagi fermentlar ta’siri tufayli yuzaga keladi.

O‘latning septik shaklida o‘lgan mурдаларинг ўрак, жигар, талоқ, буярак ва бoshqa ichki a’zolarida og‘ir distrofik o‘zgarishlar aniqlanadi.

**Klinikasi.** Kasallikning inkubatsion davri o‘rtacha 6—8 kun bo‘lib, birlamchi o‘pka va septik shakllarida bir necha soatgacha qisqarishi va emlanganlarda 10 kungacha uzayishi mumkin. O‘lat, odatda, kuchli qaltirash va tezlikda tana haroratini 39—40°C gacha ko‘tarilishi bilan o‘tkir boshlanadi. Bemor qaltirab, eti junjikadi, so‘ng tanasi qizib muskullarda va ayniqsa boshda qattiq og‘riq xis etadi, boshi aylanadi ba’zan ko‘ngli aynab quсади. Yuzi va ko‘zi qizargan, lablari quruq, tili shishgan, kattalashgan, quruq, qaltri-roq, qalin oq (xuddi bo‘r surtilgandek) karash bilan qoplangan bo‘ladi. Gapirganda g‘o‘ldirab gapiradi, so‘zлари noaniq.

O‘latda asab sistemasining jarohatlanishi juda xos bo‘lib, u turli darajada namoyon bo‘ladi. Ba’zi bemorlarda karaxtlik,

tormozlanish holat bo'lsa, boshqalarda aksincha, qo'zg'alish, alahlash, gallutsinatsiya, qochib ketishga intilish, harakat koordinatsiyasining buzilishi, gandiraklab yurish kabi alomatlar kuzatiladi. Og'ir kechimida bemorning yuz ko'rinishi ham o'ziga xos — yuzi kepchigan, ko'kargan, qarashlari isterobli, qayg'uli va qo'rquvni isxor etuvchi bo'ladi (*faciec restica*).

Yurak-tomir sistemasining jarohatlanish alomatlari ham yetakchi o'rinni tutadi. Yurak chegaralarining kengayganligi, tonlari xiralashgan, taxikardiyaning muttasil ortib borishi (daqiqasiga 120 dan 160 gacha), pulsda aritmiya, arterial bosimining keskin (og'ir kechimida 40—30 mm gacha) pasayishi, ko'karish va xansirash ko'rildi.

Qorinda og'riq, taloq, ba'zan jigar ham kattalashgan bo'ladi, qabziyat ba'zan esa ich ketishi kuzatiladi.

Kasallikning og'ir kechimida qonli yoki qahva quyqasi ko'rinishida quşish, ichning suyuq shilimshiq va qon aralashmasi bilan kelishi ko'rildi. Siyidik esa kamayib, tarkibida qon va oqsil aralashmasi bo'ladi.

Qonda neytrofilli leykotsitoz bo'lib, leykotsitar formula chapga siljigan, EChT ortganligi ko'rildi. Eritrotsitlar va gemoglobin miqdori kam o'zgaradi.

Aytib o'tilgan umumiy klinik belgilardan tashqari o'latning har qaysi klinik shakillariga xos alomatlari ham namoyon bo'ladi. G.P.Rudnevning (1970) tasnifiga ko'ra o'latning quyidagi klinik shakillari farqlanadi:

A. Ko'proq cheklangan shakllari: teri, bubon, teri-bubon.

B. Ichki tarqoq, yoki generalizatsiyalashgan shakillari: birlamchi—septik, ikkilamchi—septik.

D. Tashqi tarqoq shakllari: birlamchi—o'pka, ikkilamchi—o'pka, ichak.

**T e r i s h a k l i.** Teriga infeksiya tushgan joyda avval dog' paydo bo'lib, keyin tezlikda bosqichma-bosqich bo'rtma, pufakcha, pustula, nekrotik yara, furunkul va karbunkulga aylanib boradi. O'lat yarasi uzoq saqlanadi, sekinlik bilan chandiq hosil qilib bitadi. O'lat karbunkuli bosganda juda og'riqli bo'lib, ichi qonli—yiring, ba'zan qoramtir, tarkibida juda ko'p o'lat mikrobi bo'lgan ajralma

bilan to‘lgan bo‘ladi. Yaraning atrofi qizorgan, infiltratsiyalashgan va teridan ko‘tarilgan (bagroviy val) bo‘ladi (**Zarvaraqdagi 19-rasmga qarang**).

Pustula yaraga aylanganda yara tubida oldin sarg‘ish rangda keyin qora (xuddi kuydirigidagi singari) qoplama (*pestis anthracicus*) paydo bo‘ladi.

Terida ikkilamchi o‘zgarishlar — gemorragik toshma, ichida suyuqligi bo‘lgan pufakchalar, ikkilamchi gematogen pustula va karbunkullar o‘latning barcha klinik turlarida ham kuzatilishi mumkin.

**B u b o n l i sh a k l i** ning asosiy belgisi limfatik bezlarni kattalashishi, ya’ni og‘riqli bubon hosil bo‘lishidir. Bubon, ko‘proq chovda, qo‘ltiq ostida, yoki bo‘yinda, bitta kamdan-kam hollarda ikkita yoki undan ortiq bo‘ladi.

Birinchi kunlarida bo‘lajak bubon o‘rnida kattalashgan alohida—alohida juda og‘riqli limfatik tugunlar aniqlanadi. Keyinchalik atrofdagi barcha limfatik tugunlar va to‘qima yallig‘lanib yaxlit yirik (8—10 sm gacha), qattiqlashgan og‘riqli tugun (bubon) hosil bo‘ladi. Bubon ustidagi teri taranglashgan, silliqlashgan, biroz ko‘kimir, qizargan. Limfangait alomatlari ko‘rinmaydi. Bubon juda og‘riqli bo‘ladi. Og‘riq hatto hali bubon shakillanmasdan oldin bo‘lajak bubon o‘rnida (barvaqt belgi sifatida) paydo bo‘ladi. Og‘riq tufayli bemor turli notabiiy holatda (bir qo‘lini yoki oyog‘ini yonga ko‘tarib) yuradi. Mayda bubonlar, odatda, kattalarga qaraganda og‘riqliroq bo‘ladi (**Zarvaraqdagi 20-rasmga qarang**).

Kasallikning 6—8 kunidan intoksikatsiya alomatlari kamayadi. Bubon yumshab, xamrsimon bo‘lib qoladi va 8—12 kunlarda teshiladi, undun qon aralash yiringli—seroz suyuqlik ajraladi. Hosil bo‘lgan oqma (fistul) uzoq vaqt bitmaydi, ikkilamchi infeksiyalar qo‘silsa — yirik adenoflegmonalar rivojlanadi. Bemor yaxshi davolangan taqdirda 15—20 kun ichida bubon butunlay so‘rilab ketishi yoki sklerozlanib qotib qolishi ham mumkin.

Bubon eng ko‘p (55%) chovda va sonda uchraydi. Eng xavfli bubon — bo‘yin va qo‘ltiq ostida joylashganidir. Qo‘ltiq osti buboni eng xavfli bo‘lib, 5—10% bemorlarda og‘ir ikkilamchi o‘pka shakli bilan asoratlanadi. Kasallikning bu turida, infeksiya generalizatsiya-

lashgan taqdirda, o'latning eng og'ir asoratlari — ikkilamchi septik, ikkilamchi yiringli meningit shakillari rivojlanib, odatda, o'lim bilan yakunlanadi.

Tegishli davo o'z vaqtida o'tkazilmagan taqdirda o'latning bubonli shaklida o'lim 40% dan 90% gacha o'rtacha 75% bo'ladi. Antibakterial va patogenetik davo barvaqt boshlangan bemorlarda o'lim juda kam bo'ladi.

**B i r l a m c h i — s e p t i k s h a k l i.** Inkubatsion davri juda qisqa — bir necha soatdan 1—2 sutkagacha. Kasallik shiddat bilan rivojlanib, septik belgilarning tez ortib borishi, ko'pchilik ichki sistemalarning jarohatlanishi bilan namoyon bo'ladi. Bemorning eti qaltirab, tana harorati keskin ortadi, boshi qattiq og'riydi, boshqa intoksikatsiya alomatlari — yurak tomir sistemasi faoliyatining buzilishi, asab sistemasida o'zgarishlar (alaxlash, bezovtalik yoki aksincha bedarmonlik) va gemorragik sindromlar (terida yirik qon quyilishlar, ko'karishlar, ichki a'zolarga qon quyilishlar, oshqozonichak, o'pka, buyrak va bachadondan qon ketishlar) tez ortib boradi. Meningoensefalist belgilari yuzaga kelishi mumkin. Kasallikning bu turida bemorni sog'ayib ketishi juda kamdan-kam bo'ladi. Ko'pchilik holatda infektion-toksik shok ortib borib tezlikda koma rivojlanadi va bemor juda kuchli intoksikatsiya, gemorragik sindrom hamda yurak-tomir yetishmovchiligi tufayli qisqa vaqtida (bir necha soatdan 3 kungacha) o'ladi.

**I k k i l a m c h i — s e p t i k s h a k l i** o'latning boshqa klinik shakllarini, ko'proq bubonli shaklini asoratlantiradi. Kasallik juda kuchli intoksikatsiya, gemorragik sindromlar bilan kechadi va ko'plab ikkilamchi o'choqlar, bubonlar namoyon bo'ladi.

Kasallikning septik turlarini bemorning hayotligi davrida aniqlash juda qiyin.

**B i r l a m c h i — o' p k a s h a k l i** eng og'ir, epidemiologik jihatdan eng xavfli turidir. Kasallik to'satdan boshlanadi. Bemorning qayta-qayta eti qaqshab, tana harorati 39—40°C gacha ko'tariladi va quсади. U, odatda, qo'zg'alish holatida bo'ladi, boshi va mushaklari qaqshab og'riydi, ko'zi va yuzi qizargan, kepchigan bo'ladi. Keyinroq ko'kragida qattiq sanchiqli og'riq paydo bo'lib, yo'taladi, yurak urishi va nafasi tezlashadi. Yo'talganda oldin tiniq

oynasimon ko‘pikli shilimshiqdan iborat, so‘ng qon aralash, keyinchalik qonli balg‘am tashlaydi. Ba’zan (atipik kechimlarida) balg‘am zangsimon bo‘lishi mumkin. Balg‘am miqdori ham turlich (bir necha tupukdan, to juda ko‘p miqdorgacha) bo‘ladi. Balg‘am bilan juda ko‘p miqdorda o‘lat mikrobi ajraladi. O‘lat zotiljamida fizikal (auskultativ va perkutor) belgilar uncha ko‘p bo‘Imagani holda, bemorning ahvoli juda og‘ir bo‘ladi.

**Kasallikning avj davori** bir necha soatdan 2—3 kungacha davom etadi. Bemorning ahvoli og‘ir, tana harorati yuqori, yuzi qizargan, ko‘zлari qizil «qon quyilgan», nafasi juda tezlashgan (bir daqiqada 50—60 marta) bo‘ladi. Ko‘pchilik bemorlar qonaralash qusadi. Yurak juda tez uradi, tonlari bo‘g‘iq bo‘lib, puls noritmik, arterial bosim keskin pasaygan bo‘ladi. Intoksikatsiya holati ortib borib bosh og‘rig‘i juda kuchayada, bemor ko‘p bezovtalanadi, alaxsiraydi.

Oxirgi — **terminal davorida** bemorning ahvoli nihoyatda og‘ir, u soporoz holatiga tushadi, nafasi juda tezlashgan, yuzaki bo‘lib, yuzlari ko‘karib ketadi. Ko‘karish ortib borib, kulrang—yer rangiga o‘tadi, burni qirralashadi, ko‘zлari botiq, qarashlari istirobli bo‘ladi. Terisida petexiyalar yoki yirik qon quyilishlar ko‘riladi. Pulsi tezlashgan, judasust, ipsimon bo‘ladi. Arterial bosimni aniqlash qiyin bo‘ladi. Keyinchalik bemor alaxlaydi, karaxtlanib, ko‘maga tushadi va ko‘pincha o‘lishi mumkin.

**Ikkila mch i o‘pkashakli.** Ko‘pincha o‘latning bubonli shaklini (ayniqsa qo‘ltiq osti bubonining) asorati tarzida rivojlanadi va og‘ir kechib ko‘p o‘lim bilan yakunlanadi.

**Icha k shakli** kam uchraydi. U, odatda, o‘latning septik kechimi fonida rivojlanadi. Kuchli intoksikatsiya va yuqori harorat holatida yotgan bemorning ichi tez-tez va suyuq, shilliq va qon aralash keta boshlaydi, ko‘ngli aynab, qayta-qayta qusadi, qorni (ko‘proq yuqori qismi) qattiq og‘riydi, og‘riq ayniqsa kuchaniq vaqtida zo‘rayadi. O‘latning bu shakli tez va deyarli har doim o‘lim bilan yakunlanadi.

O‘latning oqibati hamma shakllarida ham og‘ir generalizatsiyalashgan kechimlarida o‘lim 80—90% ga yetadi.

**Tashxisoti.** Epidemiya davrlarida o'latning tashxisoti qiyin bo'lmasada, epidemiyadan oldin kuzatiladigan sporadic tarqalishlar davrida kasallikni aniqlash ancha murakkab bo'lishi mumkin. O'lat bilan kasallangan birinchi bemorlarda noto'g'ri qo'yilgan tashxis esa, qanchalik noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin ekanligini aslo unitmaslik kerak. O'lat bo'yicha xavfli bo'lgan enzootik o'choqlarda bo'lgan, isitmalovchi (limfadeniti yoki zotiljami bo'lgan) har bir shaxs albatta o'latga gumon qilinib, maxsus tekshiruvlardan o'tkazilishi kerak. Epidemiologik va klinik ma'lumotlarga asoslangan taxminiy tashxis, laborator (bakterioskopik, bakteriologik, biologik va serologik) tekshiruvlar bilan tasdiqlangandagina asosli hisoblanadi. Bunday laborator tekshiruvlar o'latga qarshi ish tartibi bo'yicha mavjud ko'rsatmalarga amal qiluvchi, maxsus laboratoriyalarda o'tkaziladi.

Laborator tekshiruv uchun, ehtiyyot choralariga qat'iy amal qilgan holda teridagi yiringli va yiringsiz pufakchalar karbunkul yoki, bubonlardan so'rma, yara ajralmalari, balg'am, qon, siydiq, qusuq, orqa miya suyuqlig'i; va shuningdek, bemor yotgan xonadan havo va turli buyumlardan yuvindi olinadi. Bularidan tashqari, o'lgan odamlar, tuyalar va kemiruvchi havonlar murdalarining turli a'zolaridan kesma olib tekshiriladi.

Birlamchi tashxis uchun tezkor usul sifatida — flyuoressensiyanuvchi antitelolarni aniqlash juda qo'l keladi. Buning uchun, maxsus usul bilan ishlov berilgan materialni Gram usuli bilan bo'yab, mikroskop ostida ko'rilganda — nurlanuvchi, ikki cheti ko'proq (bi polar) bo'yagan tuxumsimon, bakteriyalar ko'rinadi. Faqat shu tahvilning musbat natijasi uzil-kesil tashxis qo'yish uchun yetarli bo'lmaydi. U, boshqa klinik, patologoanatomik, epidemiologik va epizootologik ma'lumotlar bilan mos kelgan taqdirdagina «o'lat» taxminiy tashxisi qo'yiladi va kasallikning qo'zg'atuvchisi aniqlanguncha bo'lgan barcha chora-tadbirlar o'tkaziladi. Uzil-kesil tashxis qo'yish uchun esa, albatta bemordan olingan materialda *I. pestis* aniqlanmog'i shart. Buning uchun olingan material maxsus agarga ekiladi. Agar natija musbat bo'ladi gani bo'lsa, u holda 12—24 soatdan keyin ekma yuzasida o'lat mikrobiga xos tiniq, chetlari hoshiyali koloniylar paydo bo'ladi.

Suv cho'chqalari va oq sichqonlarda o'tkaziladigan biologik sinamalar o'lat qo'zg'atuvchisini aniqlash imkoniyatini oshiradi. Buning uchun bemordan olingan material suv cho'chqasi yoki oq sichqonning qorin bo'shlig'iga, terisi ostiga yoki terisi orasiga yuboriladi. Agar yuborilgan materialda o'lat mikroblari bor bo'lsa, hayvon 3—9 kun ichida o'ladi. O'lган hayvonning ichki a'zolarida o'latga xos o'zgarishlar ko'rildi va ulardan olingan surtmada ko'п miqdorda o'lat bakteriyalari aniqlanadi.

O'latning tashxisotida — IFA, BGAR (RNGA), antitelolarni neytrallash (RNAt), antigenlarni neytrallash (RNAG), bilvosita gemagglutinatsiyani tormozlash (RTNGA) reaksiyalaridan ham keng foydalaniladi.

O'latning teri shaklini — kuydirgi yarasidan, bubonli shaklini — tulyaremiya, o'tkir yiringi limfadenit, limfogranulematoz kasalliklaridan farqlash kerak. O'latning o'pka turini — kuydirgining o'pka shakli, og'ir zotiljam, toshmali tif, bezgak va shuningdek, o'pkajarohatlanishi bilan kechuvchi tulyaremiya, gripp, manqa kasalliklari bilan taqqoslash zarur. Kasallikning septik turlarini esa — barcha infektion—toksik shok va gemorragik alomatlar bilan kechuvchi sepsislar, yashin tezligida kechuvchi meningokoksemya, gipertoksik gripp, kuydirgi singari kasalliklardan farqlash zarur.

**Davolash.** Bemor tezlikda maxsus kasalxonaga yotqizilishi va qat'iy izolyatsiya etilishi lozim. Davolash tizimi — etiotrop, patogenetik va simptomatik dorilar majmuidan tashkil topadi.

Etiotrop davoda — streptomitsin, tetratsiklin va levomitsetin qatori antibiotiklar asosiy o'rincutadi. Bu preparatlar davolashning boshlang'ich davrida katta dozalarda beriladi. Bu preparatlar orasida eng samaralisi streptomitsin hisoblanadi. Uni o'latning barcha turlarini davolashda qo'llash mumkin.

Streptomitsin o'latning bubonli shaklini davolashda 0,5—1,0 g dan sutkada 3 marta, septik va o'pka shakillarini davolashda — 1 g dan sutkada 4 marta 4—5 kun davomida, 5—6—kundan boshlab esa 0,75— g dan 3 marta yuboriladi.

Oksitetratsiklin — mushak orasiga 0,2 g dan sutkada 6 marta yuboriladi. Boshqa tetratsiklin qatori preparatlar (doksitsiklin, metatsiklin, morfotsiklin) ham qo'llanishi mumkin.

Levomitsetin (xloramfenikol, xlorotsid) — sutkalik dozasi 6—8 g hisobidan berilib, tana harorati normallashgandan keyin dazosi yarmiga kamaytiriladi.

O'latning septik va o'pka turlarini davolashda tetratsiklin qatori antibiotiklar bilan birga streptomitsin, digdrostreptomitsin yoki boshqa aminoglikozidlar qo'llanadi. Bu preparatlar birga ishlatilganda streptomitsinning dozasi 0,25—0,5 g gacha kamaytirilib, sutkada 3 marta yuboriladi. O'latning barcha klinik turlarini davolash kursi 7—10 kundan kam bo'lmasligi kerak.

O'lat bubonning so'riliishi juda sekin boradi. Uni tezlatish maqsadida streptomitsinni 0,5 g dan (yoki boshqa antibiotiklarni) bubon ichiga yuborish tavsiya etiladi. Antibiotik 3—5 marta yuborilganda bubonning so'riliishi tezlashadi. Mahalliy davo sifatida yana turli xil malham dorilar ishlatiladi.

O'latni davolashda antibakterial davo bilan bir qatorda patogenetik dezintoksikatsion davo ham o'tkaziladi. Bu maqsadda dezintoksikatsion suyuqliklar (poliglyukin, reopoliglyukin, gemedez, neokompensan, albumin, plazma, standartli tuzli eritmalar), siydiq haydovchi dorilar (furosemid, yoki laziks, monnitol va b.) — organizmda suyuqlik yig'ilib qolganda, glukokortikosteroidlar, qon tomir va nafas analeptiklari, yurak glikozidlari, vitaminlar qo'llanadi.

Davo tadbirlari tugallangach 2—6 kundan keyin albatta uch marta bakteriologik nazorat (bubondan so'rma, balg'am nafas yo'llaridan olingen shilliq va najasdan ekmalar) o'tkaziladi.

Kasalxonadan bemor to'liq klinik tuzalgandan so'ng va bakteriologik tekshiruvlar manfiy natija bergach chiqariladi.

**Profilaktikasi.** O'lkamizda o'latga qarshi tizim mavjud bo'lib, ular respublikamiz hududida uchraydigan o'latning tabiiy o'choqlarida doimiy ravishda profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni olib boradilar.

O'tkaziladigan profilaktik tadbirlar quyidagilardan iborat:

a) odamlar kasallanishini va tabiiy o'choqlarda kasallik tarqalishining oldini olish;

b) o'lat bakteriyalari bilan ifoslangan yoki ifoslangan deb gumon qilingan ashyolar bilan ishlovchi shaxslarning zararlani-shining oldini olish;

d) o'lkamizga o'latni chetdan kirib kelishining oldini olish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda Sog'liqni Saqlash vazirligining maxsus buyruqlari va ko'rsatmalariga amal qilinadi.

Infeksiyalarni chet ellardan kirib kelishining oldini olish «Xalqaro sanitariya qoidalari» ga muvofiq olib boriladi.

Enzootik hududlarda yashovchi odamlarga, o'ta xavfli infeksiyalar bilan ishlovchi shaxslarga o'latni yuqishining oldini olish, shuningdek infeksiyani o'choqlardan boshqa hududlarga tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini, sog'liqni saqlash tizimidagi o'latga qarshi va boshqa tashkilotlar amalga oshiradi.

O'latga gumon qilingan shaxslar, darhol ajratilishi va kasalxonaga yotqizilishi kerak. Infeksiya o'chog'ida karantin joriy etiladi. Infeksiya yuqishi xavfida bo'lgan shaxslar 6 kun davomida ajratilib, kuzatuv olib boriladi va shoshilinch profilaktika (preventiv davo) o'tkaziladi. Shoshilinch profilaktika maqsadida streptomitsin (digidrostreptomitsin) 0,5 g dan bir kunda 2 mahal yoki tetratsiklin qatori preparatlar 0,5 g dan 3 mahal 6 kun beriladi. Bu kurs tugallangach 2 kundan keyin vaksinatsiya yoki revaksinatsiya o'tkaziladi.

Kasalxonada o'latli bemorlar bilan ishlovchi xodimlar maxsus himoyalovchi kostyumladan foydalanishlari hamda uni kiyish va yechish tartibiga qat'iy rioya qilishlari shart.

O'latning o'choqlarida epidemik ko'rsatmaga ko'ra profilaktik vaksinatsiya o'tkaziladi. Vaksinatsiya birinchi navbatda yuqish xavfi yuqori bo'lgan (cho'ponlar, ovchilar, geologlar, o'latga qarshi ish yurituvchi) shaxslarga qilinadi. Bu maqsadda o'lat bakteriyasini EV shtammidan tayyorlangan tirik vaksinadan foydalaniлади. Uni teri ustiga surtiladi yoki teri orasiga yuboriladi. Vaksinatsiyadan so'ng paydo bo'ladigan immunitet 6 oy saqlanadi. Emlanganlar orasida kasallanish kam bo'lsada bo'lishi mumkin.

O'lat o'choqlarida joriy va yakunlovchi dezinfeksiya, dezinfeksiya va deratizatsiya o'tkaziladi hamda aholi orasida doimiy ravishda sanitariya—oqartuv ishlari olib boriladi.

## **Vabo (cholerae)**

Vabo — og‘iz orqali yuqadigan, asosan ingichka ichakning zararlanishi, ich ketish va quisish tufayli ko‘p suv hamda tuz yo‘qotilishi oqibatida barcha a‘zolar faoliyati buzilishi bilan kechadigan o‘tkir yuqumli ichak kasalligidir.

Vabo boshqa yuqumli ichak kasalliklaridan keng va tez tarqalishi (epidemiya va hatto pandemiyalar berishi), tez va kuchli rivojlanishi, ko‘pchilik hollarda og‘ir kechishi va o‘lim hollari ko‘p sodir bo‘lishi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham vabo, Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasining qarori bilan (1969), o‘ta xavfli kasalliklar, jumladan, karantin infeksiyalar guruhiga kiritilgan.

Vabo qadimda, asosan Hindiston hududida kuzatilib, vaqtiga qit’asidan nariga o‘tgan emas.

XIX asr boshlarida, Hindiston va unga qo‘shni davlatlarda bo‘lgan qurg‘oqchilik va ocharchilik tufayli vabo o‘zining endemik o‘chog‘i bo‘lgan Osiyodan boshqa qit’alarga ham tarqalib — 1875—1925-yillarda vaboning olti marotaba pandemiyasi kuzatilgan.

Quyidagi jadvalda vaboning pandemik tarqalgan yillari va jug‘rofiyasi keltirilgan:

Pandemiyalar	Yillar	Jug‘rofiy tarqalishi
I	1817—1823	Osiyo, Afrika, Ovrupo
II	1826—1837	Osiyo, Afrika, Ovrupo, Amerika, Avstraliya
III	1846—1862	Osiyo, Afrika, Ovrupo, Amerika
IV	1864—1875	Osiyo, Afrika, Ovrupo, Amerika
V	1883—1896	Osiyo, Afrika, Ovrupo, Amerika
VI	1902—1926	Osiyo, Afrika, Ovrupo
VII	1961 —	Davom etmoqda

Pandemiyalar vaqtida vabo Osiyodan Afrika, Ovrupo va hatto Amerika qit’alariga ham tarqalib, millionlab kishilarning yostig‘ini quritgan.

Jumladan, 1872-yilda vabo Turkiston o'lkasiga ham tarqalib aniq bo'lмаган ма'lумотларга қараганда 38000 киши ҳалок бўлган.

1961-yildan boshlab esa El—Tor vabosining yettinchi pandemiyasi boshlanib, uning qoldiqlari xanuz davom etmoqda. Shu, yettinchi pandemiya davomida 1965-yilda vabo epidemiyasi Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatida ham ro'y berdi. El—Tor vibrioni qo'zg'atgan bu kasallikni uzoq vaqt vabo deb tan olinmadidi. El—Tor vabosi o'zining endemik o'chog'i Indoneziyadan chiqib o'zga o'lkalarga tarqala boshlanganidan keyingina — 1962-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti XV assambleyasining qaroriga ko'ra u klassik vabo bilan bir qatorda karantin infeksiyalar turkumiga kiritildi.

Keyingi yillarda esa El—Tor vabosi klassik vaboni siqb chiqarmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining aniqlashicha 1993—yilgacha vabo qayd etilgan davlatlar soni 121 ga yetdi va ularda 500 mingdan ortiq bemor aniqlandi.

**Etiologiyasi.** Vabo vibrioni 1884-yilda Robert Kox tomonidan aniqlangan. Xoleravibronining El—Tor biotipi esa, 1906-yilda F.Got Shlixt aniqlagan. Vabo kasalligining qo'zg'atuvchilari — klassik xolera vibrioni hamda vabo vibronining El—Tor biotipi, aslida o'zlarining antigenlikxususiyatlari jihatidan bir tipga(01 antigenli tipga) mansubdir.

Vabo vibronining issiqlikka chidamlı samotik O—antigeni va xipchinidabo'ladigan, issiqlikka chidamsiz N—antigeni bor. O—antigenning xususiyatiga qarab vibronning uch xil serovari aniqlangan: 1) Ogava vibrioni — unda O—antigenning A va B fraksiyaları bor; 2) Inaba — A va C fraksiyalariga ega; 3) Gikashima — oraliq (O—AVS) vibrion, kislota ta'siriga chidamsiz.

O'zining morfologik va boshqa xususiyatlari bilan vabo vibroniga juda o'xshash vibronlarning, hozirgi kunda 200 ga yaqin turlari aniqlangan. Bu vibronlarning bir qismi shartli patogen bo'lib, ayrim sharoitlarda diareyali kasallik rivojlanishiga sabab bo'lsada, vaboni qo'zg'ata olmaydi. Shartli patogen vibronlar — 01 antigeni bilan agglutinatiya bermaydigan (NAG) vibronlar deb ataladi va ularning suv havzalarida topilishi suvning ifloslanganligi, binobarin bu suvda vabo vibronlari ham bo'lishi mumkinligidan darak beradi.

Vabo vibrionining kasallik qo‘zg‘atishi, uning toksigenlik xususiyatlariiga bog‘liq. Vabo vibrionining toksini uch tipdagi toksinlar yig‘indisidan iborat. Vaboning asosiy klinik belgisi bo‘lmish diareya va degidratatsiyaning rivojlanishida 2-tip toksin — xolerogen asosiy rol o‘ynaydi.

Vabo vibrionining bu xususiyatlari klassik vabo vibroni biotipi ga ham, El—Tor biotipi ga ham bir xilda taalluqlidir.

El—Tor biotipi klassik biotipidan faqat qo‘y, (echki) qizil qon tanachalarini gemoliz qilish xususiyati borligi bilan farqlanadi.

Vabo vibroni — anilin bo‘yoqlarida yaxshi bo‘yaluvchi grammanfiy, to‘g‘ri, yoki vergulsimon bukilgan shakldagi tayoq-cha, quyi qismida bitta xivchini bo‘lib, shuning yordamida tez harakatlanadi. Spora va qobiq hosil qilmaydi. Vabo vibroni aerob bo‘lib, oddiy ozuqali muhitda, 37°C haroratda (+10+40°C) va kislorod mo‘l joyda yaxshi o‘sadi. Ularning rivojlanishi uchun qulay muhit 1% peptonli suv va pH — 7,6—8,0 ga teng bo‘lgan ishqoriy muhit hisoblanadi.

Vibronning tashqi muhitda chidamliligi nisbatan kam. U yorug‘lik, havo ta’sirida hamda quritilganda bir necha kunda o‘ladi. Qaynatilganda — darhol, 80° gacha qizdirilganda 5 daqiqada, 56°C gacha qizdirilganda esa 30—40 daqiqada nobud bo‘ladi. Tarkibida tuz va organik ozuqa moddalar bo‘lgan suvda 20° iliqlikda vibron uzoq saqlanibgina qolmay, hatto ko‘payadi ham. Ochiq suv havzalarida bir necha hafta, hatto oylab, oqar suvda esa, 3—5 kun, mevalarning yuzasida — 1 kun, sabzavotlarda — 2—8 kun, qora nonning yumshoq qismida, kislotosi ortiq bo‘lganligi uchun, vibron faqat 4—9 soat saqlansa, oq nonning yumshoq qismida esa 20 kungacha yashaydi. Jihozlarda va ich kiyimlarda — 12 kungacha saqlanadi

### **(Zarvaraqdagi 21-rasmga qarang).**

Vibron dezinfeksiyalovchi moddalar ta’siriga juda chidamsiz — sulema, karbol kislotosi va xlor eritmali ta’sirida 5—10 daqqa davomida, kislotalar ta’sirida esa, undan ham tezroq nobud bo‘ladi. Masalan; xlorid kislotasining 1:10000 ga eritmasi ta’sirida 1 daqiqada halok bo‘ladi.

Tabiiy sharoitda vabo bilan faqat odamlar kasallanadi, biroq vabo vibroni baliq, qisqichbaqa, baqa va pashshalar ichagidan ham

topiladi va ularda uzoq vaqt saqlanadi. El—Tor vibrioni klassik vabo vibrioniga nisbatan tashqi muhitda ancha chidamlidir. Ular ayniqsa ifloslangan suv xavzalarida bemalol qishlay oladi, shuningdek baqa, baliq singari suv hayvonlarining ichaklarida ham uzoq saqlanib, keyingi yillarda ham kasallik tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida respublikada vabo vibrionlarining 3 xil xususiyatlari shtammlari aniqlanmoqda. Eng ko‘p uchraydigani — virulent, yoki virulentligi kuchsiz, gemoliz musbat, tetratsiklin va levomitsetin kabi antibiotiklarga sezgir vibrionlar. Ikkinci xili — virulentligi yuqori, o‘ta toksigen, gemoliz manfiy, tetratsiklin va levomitsetinga sezgir bo‘lmagan vibron. Ularga sifloks, tarivid antibiotiklari kuchli ta’sir etadi. Uchinchi xili — 0139 (Bengal) tip shtamm. Uning xususiyatlari 2 xil shtammlarga yaqin.

**Epidemiologiyasi.** Kasallikning birdan-bir manbayi bemor odam, rekonvalessent yoki «sog‘lom vibron tashuvchi» shaxs hisoblanadi. Ba’zi shaxslar kasallikning subklinik turini o‘tkazayotgan, yoki o‘tkinchi (tranzitor) vibron tashuvchi bo‘ladi. Ulardan tashqi muhitga vibron ajralishi juda qisqa muddatli bo‘ladi. Kasallik tipik yoki noti pikkinik belgilari bilan namoyon bo‘lgan shaxslarda ham vibrionni tashqi muhitga ajralishi nisbatan qisqa muddatli — kasallik davomida (ko‘pi bilan 20 kun) ro‘y beradi. Ayrim bemorlarda (7%), davolash kursi tugallangandan keyin ham vibron ajratilib turishi kuzatiladi va ular kasallik tarqalishida katta epidemiologik rol o‘ynaydi.

Kasallik uzoq masofalarga tarqalishida asosiy epidemiologik rolni sog‘lom vibron tashuvchi shaxslar o‘ynaydilar. El—Tor vabosida bakteriya tashuvchilik klassik vabodagiga nisbatan 50—500 marotaba ko‘p kuzatiladi. Shuni ham aytish kerakki, najas bir marta tekshirilganda vibron tashuvchilarning faqat 40—50 foizi aniqlanadi, xolos. Shuning uchun, najasni yig‘ishdan oldin surgi bergen holda, kamida 3 marta takroran tekshirish kerak.

Vibron bemor odam yoki vibron tashuvchi shaxslardan faqat najasi yoki quisish moddasi orqali ajraladi va sog‘lom odamga faqat og‘iz orqali yuqadi. Kasallanish ko‘proq idish-tovoqlar, suv, oziq-ovqatlar vibronli najas bilan ifloslanganda sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham kasallanish xavfi yoz oylarida, qaynatilmagan suv,

yoki qayta isitilmagan ovqat, sabzavot va mevalar iste'mol qilinganida ortadi. Kasallikni epidemiya shaklida tarqalishi juda ko'p omillarga, jumladan — hududning iqlimi va sanitariya holati, aholining sanitariya madaniyati, ovqatlanish tarzi va ayniqsa taminoti va boshqalarga bog'liq. Ilagrilar vabo bir hududdan qo'shni hududga o'tish bilan tarqalib borgan bo'lsa, hozirda qo'shni hudud qolib, uzoq o'lka va hatto boshqa qit'alarga qisqa vaqt ichida yetib borishi mumkin. Uzoq o'lkalardan vabo vibrionlari kirib kelgan joyda esa mahalliy epidemiya o'chog'i hosil bo'ladi.

Chetdan kirib kelgan vaboning epidemik tarqalishi suv orqali sodir bo'lganida, kasallik tez va keng tarqaladi. Mahalliy epidemiyaning tarqalishi oldiniga suv yo'li bilan boshlansa, keyinchalik kontakt yo'li bilan tarqalish qo'shiladi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Epidemik o'choqlarda vabo bilan barcha yoshdagi aholi, ayniqsa bolalar ko'p kasallananadilar, chetdan kirib kelgan mahalliy epidemiik o'choqlarda esa bolalar nisbatan kam kasallananadilar.

Vabo epidemiyasini ko'p takrorlanib turadigan joylarda epidemiyaning bir mavsumning o'zida ham takrorlanishi hollari borligi, immunitetning turg'un emasligidan dalolat beradi. Vaboga qarshi tabiiy immunitet mavjudligini isbotlovchi dalillar unchalik ishonchli emas.

Vaboga qarshi emlanganda hosil bo'ladigan immunitet vaksina yuborilgandan keyin 6 oy davomida saqlanadi deb hisoblanadi. Keyingi yillarda vaksina epidemiologik nuqtayi nazardan samarasini deyarli yo'qligi isbotlandi.

**Patogenezi.** Vabo vibrioni tushganda har doim ham odam organizmida patologik o'zgarishlar sodir bo'lavermaydi. Ayrim shaxslarda qisqa muddatli (tranzitor) bakteriya tashuvchilik kuzatilsa, ayrimlarida kasallik belgilari namoyon bo'lmasdan, juda yengil (subklinik) shaklida kechishi mumkin. Ko'pchilik hollarda esa organizmda bo'ladigan patologik jarayonning rivojlanishi bir qancha bosqichda o'tadi: 1 bosqich — vaboning yuqishi, u faqat og'iz orqali sodir bo'ladi. Keyingi bosqich — eng muhim bosqichlardan bo'lib, oshqozonga tushgan vabo vibrionlarining ko'pchilik qismi kislotali shira ta'sirida nobud bo'ladi.

Oshqozon shirasida kislotaning yo‘q, yoki kam bo‘lishligi vabo vibrionlari osonlik bilan ingichka ichakka o‘tib olishiga imkon yaratadi. Vibronlar asosan ingichka ichakning shilliq qavatida joylashadi.

3-bosqich — vibronlarning ingichka ichakda ko‘payishidir. Ingichka ichak muhitining ishqoriy reaksiyaga egaligi (pH — 7,8—8,0) va yaxshi ozuqa — parchalangan oqsil (pepton) ning mayjudligi hamda ichakdagagi haroratning (37—38°C) mosligi, vibronlarning rivojlanishi va ko‘payishiga juda qulay sharoit yaratadi. Vibronlar ichakdan tashqari o‘t qopi va o‘t yo‘llarida ham ko‘payadi. Vibronlar juda tez ko‘payish xususiyatiga ega. Vibronlarning rivojlanishi va o‘lishi jarayonida ulardan toksin ajralib chiqib turadi (4-bosqich). Vabo kasalligida ro‘y beradigan asosiy patologik o‘zgarishlar va namoyon bo‘ladigan klinik belgilar shu toksinlarning ta’siri bilan bog‘liqdir (5-bosqich). Vabo vibrioni ajratadigan toksin 3 tipda bo‘lib kasallikning asosiy belgilari — degidratatsiyaning namoyon bo‘lishi II tipdagi toksinning xolerogen qismi bilan bog‘liq. Xolerogen (ekzotoksin) speifik omil bo‘lib, u qonga so‘rilishi (toksimiya) va ichak fermentlariga ta’sir etishi, jumladan adenilsik-laza fermentini faollashtirib 3—5 adenozin monofosfat (3—5AMF) sintezini kuchaytirishi tufayli to‘qima oralig‘idagi, qon va hatto to‘qimalarning o‘zidagi suyuqlik (uning bilan birga turli tuzlar va oqsil) ichak bo‘shlig‘iga intiladi. Ichakda so‘rilish ham buziladi, natijada ichakda juda ko‘p miqdorda izotonik suyuqlik to‘planib, ich ketish va quşish sodir bo‘ladi. Ichakdan suyuqlik so‘rilishi bilan birga turli ozuqa moddalar va tuzlarning ham so‘rilishi buziladi. Bir tomondan, suyuqlikning ichak bo‘shlig‘iga intilishi, ikkinchi tomondan, ichakdan so‘rilish buzilishi, umuman organizmning suvsizlanishi, tuz va oqsil tanqisligiga olib keladi va qon hajmi kamayib, quyuqlashishga sabab bo‘ladi. Natijada qonning yopishqoqligi ortib, uning mayda qon tomirlardagi harakati buziladi. Binobarin, barcha a’zolarga (to‘qimalarga) qonning yetib borishi qiyinlashadi va oqibatda hujayralarda kislород va boshqa zarur ozuqa moddalarning yetishmovchiligi boshlanadi.

Buning oqibatida barcha a’zolar hujayralarida modda almashinuvi buziladi va metabolik atsidoz rivojlanadi. Metabolik o‘zgarishlarning ortib borishi oqibatida a’zolarda chuqr, bir-birini kuchaytirib

boradigan, patologik jarayonlar yuzaga keladi. Qonda oqsil miqdorining kamayishi, umumiy modda almashinuvi buzilishi, issiqlik almashinuvi, gaz almashinuvining izdan chiqishi, atsidoz rivojlanishi, siyidik ajralishi va yurak tomir faoliyati buzilishi kuzatiladi. Qonda K va Na tuzlari mutanosibligi buzilishi oqibatida nerv sistemasi va mushaklar faoliyati buziladi — barcha mushaklarda keskin quvvatsizlik (metabolik falajlik) kuzatiladi. Ca — tuzlarining yetishmovchiligi esa mushaklar tirishishiga sabab bo‘ladi. Kasallikning og‘ir-yengilligiga qarab bemorning bir sutkada (najas va qusig‘i orqali) yo‘qtadigan suyuqligi tana og‘irligini 3% dan 9—12% gacha bo‘lishi mumkin. Shuni ham yodda tutish kerakki, tana og‘irligining 12% dan ortiq miqdorda suyuqlik yo‘qtishi o‘limga olib keladi.

Kasallik vaqtida aniqlanib, bemorga kerakli tarkib va miqdorda suyuqlik yuborilsa, ko‘pchilik hollarda qon suyulib, harakati yaxshilanadi va barcha patologik o‘zgarishlar to‘xtab, a’zolarning faoliyati tiklanadi va bemor tuzalib ketadi.

**Patolo—anatomik o‘zgarishlar.** Vabo kasalligida — murda o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘ladi. Jumladan: murda terisi keskin qaqrab—qurshagan, yuz chizmalari keskinlashgan, ko‘zlar cho‘kkani, burun va yonoq suyallari keskin bo‘rtgan, tishlar qisilgan, terisi ko‘kargan, ayniqsa quloq, burun va oyoq-qo‘l barmoqlarining terisi siyoh rangida bo‘ladi. N.I.Pirogov tabiri bilan aytganda, murdaning ko‘rinishi, kurashchining yoki gladiatorining holatini eslatadi. Yorib ko‘rliganda a’zolar, ayniqsa qorin, o‘pka va yurak pardalari quruq. Ichakning ichida har doim ko‘p miqdorda suyuqlik bo‘ladi. Yurak mushaklari, buyrak, jigar va taloqda distrofik o‘zgarishlar kuzatiladi.

**Klinik manzarasi.** Inkubatsiya davri bir necha soatdan 5 kungacha, o‘rtacha 2—3 kunga to‘g‘ri keladi. Ximioprofilaktikani chala olganlarda bu davr 9—10 kungacha uzayishi mumkin.

Akademik I.K.Musboev (1966, 1990) vaboning quyidagi tasnifini taqlif qiladi: gastritik shakli (6,1%), enteritik (27,7%), gastroenteritik (48,7%) va algid shakli (17,4%) lardan tashkil topgan. Bundan tashqari kam uchraydigan vabo shakllari: quruq vabo, yashin tezligida o‘tadigan vabo, vaboni tifsimon shakli va vaboni boshqa yo‘ldosh kasalliklari bilan o‘tadigan shakllariga o‘rin berilgan.

Vaboda bemor organizmining suvzislaniши, ya’ни degidratatsiya darajasi kasallikning og‘ir-yengil kechimi va oqibatini ham aniqlab berishi mumkin. El—Tor vabosida ko‘pincha infekzion jarayon subklinik tarzida kechishi mumkin, buni vibrion tashuvchilik deb qaraladi.

Kasallik (22% bemorlarda) tez, ba’zan to‘satdan shiddat bilan boshlanadi. Kamdan-kam hollarda prodromal belgilardan bosh og‘rishi, bosh aylanishi, umumiy darmonsizlik, haroratning ba’zan 37,1—38°C gacha ko‘tarilishi ko‘riladi. Aslida ich ketishi tunda, yoki saharda boshlanadi. Ich ketishi to‘satdan boshlanib, to‘xtatib bo‘lmaydigan darajada bo‘lsada, qorinda og‘riq sezilmaydi. Ko‘pincha qorinda noxush alomatlar: ichak quldirashi va suyuqlikning ichaklardagi harakati eshitiladi. Bemor, ichi avval najasga xos ko‘rinishda, so‘ngra axlat suyuqlanib, ko‘kимtir-sariq rangda suvsimon bo‘ladi, ichida suzib yuruvchi ipir-ipir mayda bo‘lakchalar ko‘rinadi va pirovardida tinib, oqarib guruch qaynatmasining ko‘rinishida bo‘ladi, hid sezilmaydi yoki baliq hidi yoinki, qirilgan xom kartoshka hidi keladi. Ba’zi bir bemorlar axlatida shilimshiq modda va qon bo‘lishi mumkin. U ko‘pincha boshqa o‘tkir ichak infeksiyalarini vabo bilan birga kechishi hollarida ro‘y beradi.

Vaboda bemor najasi — ichak suyuqligi (transsudat) deb aniqlangan, ya’ni unda qattiq moddalar kam 1—2% ni tashkil qiladi. Tarkibidagi oqsil 0,1 g %. Qattiq qoldiqning 60—70 foizi natriya xlorga to‘g‘ri keladi.

Kasallik boshlanishining birinchi kunida ich ketishi bir necha marotabidan, 10—30 va undan ko‘p marta, hatto behisob bo‘lishi mumkin. Har bir ichi ketganda ajraladigan najasi 400—600 ml ga teng bo‘ladi. Organizmning suvsizlanishi oqibatida, bemorlarda tashnalik, tez holsizlanish, darmonsizlik, boldir va boshqa mushaklarda tirishish va og‘riq paydo bo‘ladi. Ba’zan umumiy darmonsizlik, bosh aylanishi, o‘zidan ketib qolishi (obmorok), ko‘ngil aynashi kuzatiladi.

Tana harorati ko‘tarilmaydi, lekin ba’zilarda harorat subfebril darajaga ko‘tarilishi mumkin. Bemorning tomir urishi tezlashgan,

terisi quruq, qorni ichiga tortilgan, lekin tarang emas, og‘riq sezilmaydi, faqat ichakda quldirish va ingichka ichak bo‘ylab suyuqlik quyilishlari eshitiladi. Bunday diareya bir necha soatdan 1—2 kungacha davom etib, shu bosqichda to‘xtab qolishi ham mumkin. Agar kasallik tuzalmasdan davom etaversa, diareya (enterit davri) avjlanib borishi bilan bunga ko‘pincha to‘satdan quшив qo‘shiladi. Qusuq modda ham tez orada suyuq suvdek bo‘lib, guruch qaynatmasini eslatadi. Quшив ham tez-tez qaytalanadi (lekin ko‘ngil aynashi ko‘rilmaydi) va ko‘p miqdorda bo‘lib bemor og‘zidan favoradek otilib chiqadi.

Gastroenterit davrida bemorda suvsizlanish jarayoni va vibron ajratish juda tezlashadi. Bu epidemiologik jihatdan eng xavfli davr hisoblanadi. Uzluksiz quшивning qo‘shilishi bemor ahvolini yanada mushkullashtirib, organizmda tiklanishi mushkul bo‘lgan suvsizlanish holatini yuzaga keltiradi.

Degidratatsiya oqibatida bemor organizmi asosiy sistemalarining faoliyatida ikkilamchi metabolik o‘zgarishlar sodir bo‘lib, uning oqibatida kelib chiqadigan klinik belgilar ustivorlik qiladi. Bu davrga kelib bemorda ich ketish va quшив kamaya borishi va pirovardida to‘xtashi mumkin. Bemorda bunday holatni, ya’ni vaboni juda og‘ir shakli — a l g i d n i vujudga kelishi, tez — bir necha soat ichida sodir bo‘lishi mumkin (**Zarvaraqdagi 22-rasmga qarang**).

Vabo kasalida isitma va qorinda og‘riq bo‘lmaydi, lekin so‘nggi yillarda ayrim bemorlar qornida kuchsiz og‘riq bo‘lishi va tana harorati subfebril darajasigacha ko‘tarilganligi kuzatilgan. Harorat aksariyat bemorlarda 36—37°C dan oshmaydi, aksincha suv—tuz tanqisligining III—IV darajasida, ya’ni aglid (algidus—sovuj) bosqichida tana harorati me’yordan ham pasayib ketadi, eksikoz zo‘rayishi bilan harorat ham pasaya borib, 34°C gacha ham tushishi mumkin. Bu xatarli belgi. Bemorlarda harorat pasayishiga organizmda gemodinamik o‘zgarishlar, ya’ni periferik qon aylanishi izdan chiqishi sabab bo‘ladi.

Bemorning terisi quruq, elastikligi va tarangligi pasaygan, terining qon bilan taminlanishini buzilishi va gi poksiyanatijasida terida ko‘karish (sianoz) paydo bo‘ladi. Vaboni og‘ir shakllarida teri kul rang gunafshaga o‘xshash ko‘rinishga ega bo‘ladi. Teri

qoplami sovuq, yopishqoq ter bilan qoplangan bo‘ladi. Shilliq qavvatlar ham quruq — ayniqsa konyunktivalar, og‘iz bo‘shlig‘i, til karash bilan qoplangan va quruq bo‘ladi.

Og‘iz shilliq pardasining quruqligi, lablari hamda tili sekinlik bilan qimirlashi va ovoz bog‘lamlari quruqligidan tortishib tirishishi natijasida bemor ovozi bo‘g‘iq va hatto chiqmay qoladi. Bemor pichirlab gapirishga majbur bo‘ladi.

Mushak tortishib-tirishishi kasallikning boshlaridayoq, hali eksikoz avj olmasdan boshlanishi ham mumkin. Bunday holat ba’zan chaynash va boldir mushaklarida ko‘riladi. Keyinchalik tarishish kuchliroq va uzoqroq davom etib, umumiy tus oladi. Tirishish sabablari murakkab — to‘la oksidlanmagan moddalar yig‘ilishi, gi pokaliemiya va qonda sut hamda pirovinograd kislota to‘planishi sabab bo‘ladi. Biroq, bemorning yurak-tomir faoliyati uzoq vaqt yetarli darajada saqlanib, mikrotsirkulatsiya va metabolitik holatni qo‘llab turadi. Ba’zi bemorlarda yurak tonlari pasayib, taxikardiya va qon bosimi pasayishi ko‘riladi. Organizm suvsizlanishi davom etaversa, qon quyuqlashadi, mikrotsirkulatsiya bo‘g‘iladi vagi pokaliemiya, atsedozlarning ortib borishi gi povolemikshokka olib keladi.

To‘xtovsiz ich ketishi va uzlusiz quşish sindromi ko‘pincha 36—48 soatgacha davom etadi. Ana shu davr ichida bemor ich ketishi bilan 30 litrgacha va quşish bilan 7 litrgacha suyuqlik yo‘qotadi. Bunda organizm suyuqlik bilan birga oqsil va muhim tuzlar yo‘qotadi. Qonning quyuqlanishiga va gemodinamik o‘zgarishlar oqibatda sirkulator gipoksiya rivojlanib kompensator ravishda nafas olish tezlashadi.

Degidratatsiya, qon quyuqlanishi, kislород va elektrolit tanqisligi, gipovolemikshok, bular bari buyraklar faoliyatini izdan chiqaradi oqibatida oliguriya va hatto anuriya (uremik koma) bo‘lishi mumkin.

Bemor organizmining degidratatsiya darajasi qancha chuqr bo‘lsa hayotiy muhim a’zolar faoliyatida shuncha ko‘p ikkilamchi patologik o‘zgarishlar ro‘y beradi.

V.I.Pokrovskiy bemor organizmi suvsizlanishi jarayonini 4 darajaga bo‘ladi:

I—darajada, tana og‘irligiga nisbatan 1—3% hajmida suyuqlik yo‘qotadi; II—darajada — 4—6%; III—darajada — 7—9%; IV—darajada — 10%va undan ortiq hajmida suyuqlik yo‘qotadi.

Kasallik vaboga xos belgilar bilan kechganda: I—daraja degidratatsiya — yengil (56%), II—daraja — o‘rta og‘irlikda (18,8%), III—IV—daraja degidratatsiya (8.2% bemorlarda) og‘ir shaklda kechishi tafovut qilinadi.

I va II darajali degidratatsiyada bemorlarda vujudga kelgan ba’zi klinik belgilar: eksikoz, sianoz, teri tarangligining pasayishi, oliguriya, mushak tortishishlari va boshqalar — og‘ir ko‘rinishga o‘tmay davolash jarayonida tez yo‘qolib ketadi.

III darajali degidratatsiyada — suvsizlanishning barcha sindromlari ham yaqqol namoyon bo‘ladi va kompensatsiya holati turg‘un bo‘lmaydi. Shilliq qavat lablar, til qurishi zo‘rayadi, terisi quruq—bo‘shashgan, ayniqsa qo‘l—panja terilarini qat-qat bo‘lib bujmayishi «kir yuvuvchining qo‘li» ni eslatadi. Bemorning yuzko‘zлari kirtayib ich-ichiga kirib ketgandek, ovozi chiqmay qoladi, shivirlab gapiradi. Mushaklarning tirishishi zo‘rayadi. Tana harorati me’yordan ham pasaya boradi (to 35,7—35,5°C) chaga. Bemor tanasining sovishi va umumiy sionoz kuchayadi.

Sirkulator buzilishlar va gemodinamikani izdan chiqishi oqibatida bemorda gi potoniya, taxikardiya (tomir urishi 120—130 marta 1 m) kuzatiladi. Yurak tonlari juda sust, nafas olishi tezlashadi, siyidik ajralishi kamayadi yoki butunlay ajralmay qoladi.

Bu davrda qonning nisbiy zichligi ortadi (1030—1035), gematokrit indeksi — 0,55—0,65 ga teng bo‘ladi. Binobarin, III darajali degidratatsiyada kuzatiladigan klinik belgilar kasallikning dekompensatsiya darajasiga mos bo‘ladi. Agar zdulik bilan davolash choralar o‘tkazilsa, barcha salbiy metabolik o‘zgarishlar muvozani tezda qayta tiklanadi. Agar kasallik zo‘raya borsa bemorda o‘ta og‘ir holat — gi povolemikshok, ya’ni kasallikning so‘nggi marrasi *a l g i d* sodir bo‘ladi.

Algid davriga kelib bemor maksimal miqdorda (10% dan ortiq) suyuqlik yo‘qotadi, diareya va quşish kamaya borib to‘xtaydi va bemorda gi povolemik shok sodir bo‘ladi. Bemor juda ko‘karib ketgan bo‘lib, yuz-ko‘zлari juda sezilarli darajada kirtayib, ich-

ichiga kirib ketadi, ko‘z oqi xiralashadi, tanasi shalpayib, «yelkada osilib turgan o‘zgani kostyumidek» ko‘rinadi. Bemorning terisi sovuq yopishqoq ter bilan qoplangan, yuz qiyofasi — ser ajinli va qarashlari alom-iztiroblı bo‘ladi («vaboga xos bashara» — «fatsies xolerika»). Ko‘z atroflarini qorayib qo‘rinishi (qora ko‘zoynakka o‘xshash belgi) yaqqol ajralib turadi.

Yotgan bemorda ko‘z qorachig‘i peshona tomonda botib ko‘rinishi, «chiqayotgan quyosh» ni eslatadi.

Bemor harorati pasaya borib 35 va hatto  $34^{\circ}\text{C}$  ga yetadi, yurak tonlari juda past eshitiladi yoki butunlay eshitib bo‘lmaydi, arteriya bosimi va tomir urishining aniqlanishi qiyin yoki umuman aniqlanmaydi.

Bemorda nafas olish tezlashadi (1 daqiqada 40—50 martaga-chacha), nafasi yuzaki yoki noritmik bo‘ladi.

Buyraklarda ikkilamchi, qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar rivojlanib anuriya sodir bo‘ladi. Bemorlarning es-xushi o‘zida bo‘ladi, biroq bemor, chuqur hayol surgandek (prostratsiya), atrofdagilarga befarq bo‘lib ko‘rinadi. Shu holatda mushak tirishishlari xuruji qaytalab bemorga azob beradi. Soporoz va koma kasallikning eng og‘ir holatlari, ya‘ni bemorning o‘limidan oldingi daqiqalarida ro‘y berishi mumkin.

Bemorlarda aniqlanadigan gemokonsentratsiya, leykotsitoz, neytrofillyoz, gi pokaliemiya, gi poxloremiya, dekompensirlangan metabolikatsidoz, gi poksiyavai-II fazagon ivishini, fibrinolizinni ko‘payishi va trombotsitopeniyalar, suvsirash dekompensatsiyasiga xos laboratoriya belgilari.

Periferik qonda eritrotsitlar soni 1 mkl da to  $7 \times 10^6$ , leykotsitlar — 1 mkl dato  $20-60 \cdot 10^3$  oshganligi, gi pokaliemiya 2,5 mmol/l, gi poxloremiya 80,5 mmol/l; qonning nisbiy zichligi to 1,038—1,050 gacha oshadi, gematokrit indeksi 0,60—0,70 ga yetadi; elektrokardiogrammada o‘pka gi pertenziyasi belgilari, taxikardiya va yurakning o‘ng bo‘limida diastolik zo‘riqishlar aniqlanadi.

Vaboda kasallik belgilari har doim ham yuqorida yozilgan tartibda bo‘lavermaydi. Chunonchi kasallik bemorda ich ketish bilan o‘tishi mumkin. Bunda quisish ko‘rilmaydi va aksincha bemorda faqat quisish belgisi namoyon bo‘ladi yoki oldin quisish so‘ngra ich ketish yoki

bir vaqtida birdan ham ich ketish, ham quşish bilan o'tadi. Bunday hollarda albatta bemorga tashxis qo'yish murakkablashadi.

## Vaboni notipik kechinmalari

**Quruq vabo** kasallikning kam uchraydigan formasi bo'lib, kam quvvat — sillasi qurigan odamlarda uchraydi. Kasallik to'satdan, shiddat bilan boshlanib, o'tkir intoksikatsiya, ayniqsa markaziy asab sistemasining zararlanishi belgilari, turli mushak guruhlarini tirishib tortishishi, minengial va ensefalit simptomlarini vujudga kelishi ko'riladi. Bunda arterial qon bosimining juda pasayib ketishi, havo yetishmasligi, sianoz va boshqa degidratatsion shok belgilari tezda namoyon bo'ladi. Ammo bemorda ich ketish yoki quşish ro'y bermaydi, aniqrog'i bu belgililar vujudga kelguncha bemor bir necha soat ichida halok bo'ladi. Ich ketish va quşishni bo'lmasligining bemorning ichak silliq mushaklarini parezlanishi natijasida vujudga keladi deb taxmin qilinadi. Chunki o'lgan bemor ichaklarida 5—10 litrgacha ko'p miqdorda (yovg'on xo'rda yoki go'sht yuvindisiga o'xshash) suyuqlik yig'ilganligi ko'riladi.

**Vaboni yashin tezligida** o'tadigan juda og'ir shakli (**Cholera fulminans**) ham quruq vabodagidek, o'ta darmonsiz odamlarda rivojlanadi, lekin kam uchraydi. Kasallik to'satdan shiddat bilan boshlanib tezlik bilan rivojlanadi. Intoksikatsiya zo'rayib meningial va ensefalit va boshqa belgilari ko'riladi. To'xtovsiz ich ketish va quşish bemorda o'ta rivojlangan degidratatsiyani vujudga keltiradi, umuman bunday gi pertoksik holatda (gi pertoksik shakli), to'liq gi povolemik shok belgilari namoyon bo'ladi. Agar zudlik bilan davolanmasa kasallik boshlangandan bir soat davomida bemor o'lishi mumkin.

**Vaboni bilinar-bilinmas belgilar** bilan kechadigan shaklida ich ketish va quşish yengil-yelpi va qisqa muddatli bo'lib, bemor ahvolida kasallik holati bilinmaydi. Bemor o'zining xastaligini ham unchalik sezmaydi.

**Vaboni subklinik shaklida** — bemorda hech qanday klinik belgilari ko'rilmaydi, u «sog'lom» ko'rinishli bo'ladi. Ammo qonda vibriotsid

antitelolarning ortib borishi bemor organizmini hufyona xastaligidan darak beradi. Bunday shaxslarda tashxis qo'yish, najasida vabo vibrioni aniqlanishiga asoslanadi.

I.K.Musaboev va boshqalar (1966) 6,1% bemorlarda vabo, faqat gastrit simptomlari bilan o'tganligi, bunda bemor husug'ida vabo vibrioni topilganligi sababli uni «gastritik shakli» deb atashni tavsiya etganlar.

**El—Tor vibrioni vabosi.** El—Tor vibrioni vabosi qator belgilari bilan klassik vabodan ajralib turadi. Jumladan, bemorlarda haroratning ko'tarilishi, qorinda yengil og'riq, quşish va ich surishini bir vaqtida boshlanishi kuzatiladi. Bemorlarda kasallikning og'ir formalari kam uchraydi. El—Tor vabosida vibron tashib yuruvchilik ko'proq uchrashi va uzoqroq (4 oy) davom etishi qayd etilgan.

Klinik manzarasi namoyon bo'limgan vibron tashib yuruvchi shaxslarning 95% da (Pokrovskiy V.I.) vaboni subklinik formasi aniqlangan. Hozirgi vabo epidemiyalarida vabo bilan kasallanganlarning har bittasiga 50—100 s i m p t o m s i z v i b r i o n t a s h i b y u r u v c h i t o 'g'ri keladi.

Vaboning a s o r a t l a r i undagi degidratatsion shok rivojlanishi hamda ikkilamchi infeksiya qo'shilishi bilan bog'liq bo'ladi. Quvvatsizlangan ojiz bemorlarda ikkilamchi infeksiyaning ishtirokida pnevmoniya, absesslar, flegmonalar va nihoyat sepsis va boshqalar vujudga kelishi mumkin. Sepsis ilgarilari «tifoid—vabo» deb nomlanib kelingan.

**Bolalarda vaboning klinik kechimida** — trishish, haroratni ko'tarilishi va bola organizmini juda tez suvsizlanishi kabi sindromlar muhim o'rinn tutadi. Aksariyat bolalarda kasallik avval ich ketishi va kamdan-kam quşish bilan boshlanadi. Og'ir hollarda bolalarda quşish uzluksiz ko'p miqdorda (qusug' fontani) bo'lishi mumkin. Bemor bola organizmi qisqa muddat ichida ko'p miqdorda suyuqlik va elektrolitlar yo'qotadi va oqibatda organizmda izotonik ti pdagi suvsizlanish bo'ladi. Bolalar kattalarga nisbatan 1,5 barovar ko'p kaliy yo'qotadi. Haroratni subfebril darajasigacha ko'tarilishi go'daklarga xos belgi hisoblanadi. Lekin suvsirash dekompensatsiyaga yetganda aksariyat bolalarda gi potermiya ko'riladi.

Go‘daklarda va yosh bolalarda intoksikatsiya sindromi juda tezlik bilan rivojlanadi (ichak toksikozi va eksikozi). Vaboni og‘ir kechimida bola karaxt bo‘lganday bir necha kun davomida esishushi ravon bo‘lmaydi. Kichik yoshdagagi bolalarda kasallik davrlarini yaqqol farqlash qiyin, ularda davrlar qisqa muddat davomida o‘tadi.

Bolalarda degidratatsiyani 3 bosqichga ajratishini tavsiya etiladi:

1. Yengil degidratatsiya — tana vaznidan 5% gacha bo‘lgan suyuqlik tanqisligi,
2. O‘rtacha og‘ir degidratatsiya — tana vazniga nisbatan 6—8%,
3. Og‘ir degidratatsiya — tana vaznidan 10—11% gacha suyuqlik yetishmovchiligi.

Tana vaznidan 10—12 foizdan ortiq suyuqlik yo‘qotgan bemor bola hayotini saqlab qolib bo‘lmaydi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar va chaqaloqlarda vabo kam uchraydi. Bu yoshda pnevmoniya eng ko‘p uchraydigan asoratlardan hisoblanadi. Kasallik umuman og‘ir o‘tadi va 15—20 foizgacha bemor o‘ladi.

Agglyutinatsiya bermaydigan vibrion (NAG—lar) tomonidan chaqiriladigan kasallik klinikasida inkubatsiya davri bir necha soatdan to 1 sutkagacha (ba’zan 3—4 kungacha) davom etadi. Kasallik tez boshlanadi, bemorning ichi suyuq keta boshlaydi, qorinda yengil-yelpi og‘riq seziladi va quсади. Ko‘philik bemorlarda kasallik o‘tkir gastroenterit, kamroq — enterit, ba’zan enterokolit yoki gastroenterokolit shaklida namoyon bo‘ladi.

Kasallik o‘rtacha og‘irlikda o‘tganda intoksikatsiya (darmonsizlik, bosh aylanishi) va suvsirab chanqash, organizmning suvsizlanishi belgilari kuzatiladi. Ich ketish sutkada 2—5, ba’zan 6—7 martagacha bo‘ladi. Najasi bo‘tqasimon va enterit ko‘rinishida ko‘p miqdorda, suvdek, qon va shilliq aralashmasiz bo‘ladi. Ich ketish va quşish bemorlarning yarmidan ko‘prog‘ida uchraydi. Aksariyat hollarda avval ich ketish so‘ng quşish yoki ikkalasi ketma-ket boshlanadi. Kasallik bir haftagacha davom etishi, ayrim bemorlarda harorat subfebril darajada 1—3 kungacha saqlanishi mumkin.

Ayrim bemorlarda og‘ir o‘tib, bemor organizmining suvsizlanishi va tuz tanqisligi bemor vaznidan 8—10% gacha yetib, algid belgilari namoyon bo‘lishi mumkin. Xullas NAG diareyalarini

faqat bakteriologik tekshirishlar natijasiga asoslanib boshqa diareyali kasalliklardan farqlash mumkin.

**Tashxisoti.** Vabo bilan kasallangan birinchi bemorning tashxisini qisqa muddat ichida aniq asoslab qo'yilishi o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Umuman vabo tashxisi bemordagi klinik manzaraga, sinchkovlik bilan aniqlangan epidemiologik tekshirish ma'lumotlari va bir qator laboratoriya usullari: bakteriologik usul bilan tekshirish; qonning fizik va kimyoviy xossalalarini aniqlash natijalarini tahlil qilish bilan asoslanadi. Epidemiologik tashxis — vaboda juda muhim ahamiyatga ega.

Davlatlararo xavfli karantinli infeksiyalar bo'yicha konvensiyada vabo kasalligi ham mavjud bo'lib, har bir davlat bu kasalliklarga nisbatan tegishli qo'llanmalarga amal qiladilar.

Kasallikning tez boshlanishi, suvdek shirillab to'xtovsiz ich ketishi va quisishi, qorinda og'riq bo'lmasligi, bemorda degidratatsiya belgilarining orta borishi, gemodinamik o'zgarishlar, siydiq ajralishining kamayishi, mushaklarni tirishishi kabi belgilar va tana haroratining pasayib ketishi asosan vaboga xos belgilar hisoblanadi. Yengil kechimlarida vabo tashxisini klinikaga suyanib qo'yish juda murakkab ish. Bunday hollarda epidemiologik anamnez va laboratoriya usullari qo'l keladi.

Vaboda suvsirash jarayonida bemorlar 10—30 litrgacha suyuqlik yo'qotishi mumkin. Bu holat qonning quyuqlanishiga olib keladi, eritrotsitlarni nisbiy soni ba'zan  $7,5-8,0 \cdot 10^{12}$  1 ga yetadi. Deykotsitlar soni  $20 \cdot 10^9$  1 neytrofillar hisobidan ko'payadi. Kasallik avjida trombotsitlar  $140-150 \cdot 10^9$  1 gacha kamayadi. Degidratatsiya darajasiga qarab qonni elektritolitlar tarkibi o'zgaradi: gi poka-liemiya(me'yorda 3,8—4,6 mmol/l), gi poxloremiya(me'yorda 95—103 mmol/l) va metabolik atsidoz rivojlanadi (me'yorda pH=7.38). Qon quyuqlanganligi natijasida gematokrit indeksi (me'yorda 40—50%), plazma zichligi (me'yorda  $1023-1025$  g/sm<sup>3</sup>) va qon yopishqoqligi (me'yorda 4—5 ed) ortadi.

Bakteriologik tekshiruv uchun bemor najasi, qusug' modda, 12 barmoq ichak suyuqligi, murdadan kesib olingan ingichka ichak va o't pufagi bo'laklari va boshqalar olinadi. Rekonvalessentlarda va

vibrion tashib yuruvchi shaxslarda organizmni vibriondan forig‘ bo‘lgan — bo‘lmaqligini aniqlash uchun o‘n ikki barmoq ichagini dan ekma olinadi (**Zarvaraqdagi 23-rasmga qarang**).

Vabo vibrionlari tashqi muhitga chidamsiz bo‘lganligi sababli bakteriologik tekshirishga olinadigan materiallar toza, sterillangan shisha idishiga, ichida boyitilgan ishqoriy 1% li peptonli suvga (pH 8,0—8,5), kaliy telluritli 1% li peptonli suvga sterillangan paxtali tamponlar yordamida ekiladi. Bakteriologik tekshirish uchun barcha materiallar bemor antibiotik va boshqa ximiopreparatlar qabul qilmasdan oldin olinishi shart, chunki antibiotik va ximiopreparatlarni qabul qilgandan 1—2 soat o‘tgach bemor najasida vibrionlar juda kamayib qoladi, 1—3 sutkadan so‘ng vibrionlar yo‘qolib ketadi.

Kasallikning og‘ir kechimida 50 ml pepton suviga 0,1—0,5 ml material, ekish uchun yetarli bo‘lsa, yengil shaklida esa 1—2 g najas ekiladi.

Vibrion tashib yuruvchilarni aniqlash maqsadida bakteriologik tekshirish uchun avval tuzli surgi (20—30 g sulfat magniy) ichiriladi.

Olingan materiallar laboratoriya qilishda 3 soatdan kechikmasdan (xavfli materiallarni transportirovka qilish qoidalariga rioya qilgan holda) yetkazilishi zarur, chunki vabo vibrioni najasda, ayniqsa issiq kunlarda tez halok bo‘ladi.

Serologik diagnostik usulda — qon zardobida agglyutininlar, gemagglyutininlar, vibriotsid antitelolar aniqlanadi. Asosan zardoblar 7—10 kun oraliqda (juft zardob usulida) tekshiriladi va ular asosan — retrospektiv tashxisda ishlataladi. Agglyutinatsiya reaksiyasi (AG) ni minimal diagnostik titri 1:40 va juft reaksiyada zardob titrini oishishi hisoblanadi. Vibriotsid antitelolarni titri kasallikni 3—4 haftalariga bo‘lib  $10^{-4}$ — $10^{-6}$  ni tashkil etadi.

Qo‘llaniladigan tezkor (ekspress) usullar 15 daqiqadan 2 soatgacha bo‘lgan vaqt ichida tekshiriladigan material ichida vabo vibrionlarini ko‘rish va tezlikda identifikasiya qilib me’yorni aniqlash imkonini beradi. Lekin bu darakchi usul bo‘lib, u bakteriologik usul natijasi bilan tasdiqlanishi lozim.

Lyuminissent—serologik usulda — immunoflyuoressirlovchi zardob bilan nishonlangan surtma lyuminissent mikroskopida ko‘riladi.

Surtmada atrofi tiniq yorug'lik bilan nurlanib turgan gardishli vibrionlar ko'rindi. Bunda javob 1 1/2—2 soatda olinadi.

Vibrionlarni immobilizatsiya va mikroagglyutinatsiya qilish usuli spesifik O—zardobi ta'sirida bemor najasini yoki rektal tamponidan olingan chayindini: maxsus usulda mikroskopda ko'rilganda harakatlanuvchi vabo vibrionlari kuzatiladi, yana bir tomchi O-zardob tomizilgandan so'ng ularni harakati to'xtaganini ko'riladi.

Shuningdek, tezkor usul sifatida makroagglyutinatsiya hamda fagni adsorbsiya qilish reaksiyalaridan ham foydalanish mumkin.

Umuman vaboni boshqa ichak kasalliklaridan klinik farqlash qiyin. Shuning uchun uzil-kesil diagnostikada oxirgi hal qiluvchi so'z laboratoriya tekshirish usullariga, aynan bakteriologik usulga beriladi.

Bunda dastlabki ma'lumot 5—6 soatdan so'ng, hal qiluvchi natija 18—48 saat davomida tayyor bo'ladi. Serologik usullar tashxisda yordamchi usul hisoblanadi.

**Taqqoslash tashxisida** vaboni avvalo o'tkir ichak infeksiyalari: salmonellyozlar, shigellyozlar, esherixiozlar, ovqat—toksikoinfeksiyalari va boshqalar, shuningdek vaboni—qo'ziqorindan zaharlaniш, organik va noorganik kimyoviy moddalar yoki zaharli ximikatlardan zaharlanishlardan farqlash lozim bo'ladi.

*Salmonellyozning gastrointestinal shakli* — tana haroratining tez va baland ko'tarilishi, ko'ngil aynashi va quşish bilan boshlanadi, keyin qorni og'rib ichi keta boshlaydi, najasi suvdek ko'kintir, hidi juda sassiq bo'ladi. Tashxismi farqlashda epidemiologik ma'lumot va asosan bakteriologik usul bilan tekshirish natijalari hal qiluvchi rol o'yndaydi.

*Ovqat toksiko* infeksiyalarida ham klinik jihatdan vaboga o'xshash gastritik va gastroenteritik belgilar namoyon bo'ladi. Kasallik tez boshlanadi, bemorning harorati baland bo'ladi, bemor ko'ngli aynab quşadi, qorni qattiq og'rib ichi ketadi, ichi suyuq ko'p miqdorda ko'kintir qo'lansa hidli bo'ladi. Vaboda esa kasallik ich ketishidan boshlanadi qorni og'rimaydi, ko'p miqdorda yovg'on xo'rдaga o'xshash suyuq, hidsiz najas ajraladi, ko'ngil aynash ko'rilmaydi, bemor harorati ko'tarilmaydi, aksincha pasayib ketadi.

Ilgarilari «xolerina» (Cholera nostras) deb ataluvchi o'tkir gastroenteritlarda — bemor ichi shir-shir ketib, qusadi, ichi xuddi yovg'on xo'rdaga o'xshash suyuq ketib organizmda suvsizlanish sindromi vujudga keladi.

Zaharli qo'ziqorinlar (muxomor, oq—maraz), ayniqsa ammanit turi odama vaboning algid bosqichidagi kasallik belgilarini vujudga keltiradi, ammo bu belgilar qorinda qattiq og'riq bilan kuzatiladi.

Margimush, sulema va simob bilan o'tkir zaharlanish ro'y berganda ham qorinda og'riq bo'ladi, bemor qusadi, ich qon aralash ketadi, harorati ko'tarilishi mumkin. Kanakunjutdan zaharlanish sodir bo'lganda ham vabo algidiga xos kasallik belgilari namoyon bo'ladi.

Bunday hollarda kasallikning farqlash barcha diagnostik usullar: epidemiologik anamnez, kasallikning klinik belgilari va laboratoriya usullarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Bolalarda diareya sindromini, ko'pincha salmonellalar, shigellalar, esherixiyalar, stafilokokklar, kolibakteriyalar, enteroviruslar, rotaviruslar, xolerasimon vibrionlar (NAG—vibron) va boshqa mikroblar vujudga keltiradi. Shuning uchun bolalarda vabo bilan boshqa turli — tuman o'tkir ichak infektion kasalliklarni farqlash kompleks ravishda olib boriladi, bunda klinik belgilari, epidemiologik holat, immunologik, laboratoriya va instrumental usullarga asoslanib diagnoz qo'yiladi.

**Davolash.** Vaboning barcha turlarida ham bemor tezlikda ixtisoslashgan kasalxona (yoki bo'limga) yotqizilib, patogenetik va etiotrop davo choralar o'tkaziladi. Bemorning ahvoliga qarab regidratatsiya va remineralizatsiya, ya'ni suv-tuz eritmalar bilan davolash hech kechiktirmay tezkorlik bilan amalga oshiriladi.

Regidratatsiya ikki bosqichda olib boriladi.

*Birinchi bosqich regidratatsiya* — bu birinchi bor bemor organizmini yo'qotgan suv va elektrolitlar miqdorini aniqlab, o'rnini qoplash jarayoni hisoblanadi.

*Ikkinci bosqich regidratatsiyada* — bemorda ich ketish va quisish hisobiga yo'qotilayotgan suv hamda tuz miqdorini har kuni aniqlab, unga yetarli miqdorda tuzli eritmalar yuborib korreksiya yoki

kompensatsiya qilib turiladi, shu maqsadda bemorlarga quyidagi tarkibda ishqoriy bufer, poliiionli apirogen izotonik tuz eritmalaridan tashkil topgan suyuqliklar ishlataliladi:

T r i s o l — (uch tuzli eritma, Fillips eritmasi №1, «5—4—1» — eritmasi), tarkibida xlorid natriya — 5 g, gidrokarbonat natriya — 4 g, xlorid kaliy — 1 g bo‘lib, bu tuzlar 1 litr, ikki marta distillangan, apirogen suvda eritilgan bo‘ladi. Ammo 6 soatdan so‘ng gidrokarbonat buferi natriy karbonatga aylanib buferlik xususiyatini yo‘qotadi.

D i s o l (ikki tuzli eritma, Fillips eritmasi № 2), tarkibidaxlorid natriya — 6 g, gidrokarbonat natriy — 4 g, va 1 litr bidistillangan apirogen suv.

A s e s o l xlorid natriya — 5 g, atsetat natriy — 2 g, xlorid kaliy — 1 g, 1 litr apirogen suvdan tarkib topgan.

X l o s o l — tarkibida xlorid natriya — 4,75 g, atsetat natriy — 3,6 g, xlorid kaliy — 1,5 g, 1 litr suv bo‘ladi.

K v a r t a s o l (to‘rt xil tuzli eritma) tarkibida xlorid natriya — 4,75 g, atsetat natriya — 2,6 g, bikarbonat natriy — 1,0 g, xlorid kaliy — 1,5 g, 1 litr suvdan tashkil topgan.

L a k t o s o l (sut tuzli eritma) — tarkibi xlorid natriy — 6,2 g, laktat natriy — 3,3. g, gidrokarbonat natriy — 0,3 g, xlorid kaliy — 0,3 g, xlorid kaltsiy — 0,16 g, xlorid magniy — 0,1 g, 1 litr suvdan iborat.

Tuzli eritmalarни yuborishdan oldin bemorning ahvolini har tomonlama sinchiklab o‘rganib bemor organizmini suvsizlanish darajasini aniqlash lozim.

I va qisman II darajali degidratatsiya holatida bemorning ahvoli unchalik og‘ir bo‘lmaydi va yo‘qotilgan suyuqlik va tuzlar o‘rnini to‘ldirish uchun eritmalarни bemorga og‘iz orqali ichirilishining o‘zi ham samara beradi.

Kasallikning og‘ir kechimi — III—IV darajadagi birlamchi degidratatsiyada, ayniqsa gi povolemik shok holatida bemorga tezkorlik bilan regidratatsiya choralarini amalga oshirish lozim. Bunda asosan Fillips 1—2 va kvartasol eritmaları samaraliroq natija beradi.

Eritmalar yuborishdan oldin 38—40°C gacha ilitib, kattaroq venalardan tanlab (zarur bo‘lganda arteriya ichiga ham yuboriladi)

zudlik bilan 1 daqiqada 100—120 ml tezlikda 2—4 litrgacha yuboriladi, umuman 1,5—2 soat ichida bemorga 5—7 litrgacha suyuqlik quyish mumkin. Zarurat bo‘lsa bu eritmalarini to‘xtovsiz yoki bir vaqtning o‘zida ikkita vena tomirdan ham yuborish mumkin. So‘ng bemor ahvoliga qarab suyuqlikning yuborish tezligi kamayadi va qolgan suyuqlik miqdori 1 daqiqada 30—60 ml dan tomchilatib yuboriladi.

Birlamchi—qoplovchi regidratatsiya davosini olgan bemordarda ich ketish va quisish davom etgan taqdirda, suvsizlanish ham davom etadi. Shuning uchun bemor najasi va qusug‘ini har 2 soatda o‘lchab turiladi va shu miqdorda suv-tuz eritmasini quyib turiladi. Bu bemorning ich ketishi va quisishi to‘xtagunga qadar davom etadi, so‘ngra davolash, suyuqlikni bemorga og‘iz orqali ichishi bilan olib boriladi. Regidratatsiyaning bu usuli kompensator, ya’ni kundalik moslangan davo deyiladi.

Suyuqlikni bemorga tez yoki sekin yuborilishi bemordagi kasallik belgilarining o‘zgarishiga ham bog‘liq.

Suyuqlikni tez surat bilan yuborilishi, bemor umumiy ahvoli yaxshilanishi, pulsni paydo bo‘lishi, arterial bosim, tana harorati normal holga qaytishi, gi povolemiya, gemokonsentratsiya, atsidoz belgilarining yo‘qolishi, o‘pkagi pertenziyasini normallashishi bilan to‘xtatiladi.

Suyuqlik tez surat bilan yuborilganda davolash jarayoni 40—90 daqiqani tashkil qiladi. Suyuqlik yuborish tezligini vaqtidan oldin kamaytirish buyraklar, miokard va boshqa a’zolarda qayta tiklab bo‘lmaydigan metabolik o‘zgarishlarga olib keladi.

Korreksiyalovchi regidratatsiya davrida bemor tomiriga har bir daqiqada eritmadan 5—10 ml dan tomchilab yuborish kifoyadir.

Bemordan ko‘p miqdorda siydiq ajralishi ijobiy darak bo‘lib, olib borilayotgan regidratatsion davo samarali ekanligini bildiradi. Siydiqda xlor va natriy konsentratsiyasini, najasda natriyni ko‘payishi bemor organizmini suvsizlanish belgilaridan xalos bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bemorda ich ketish va qusuq miqdori har 4—6 soatda o‘lchab boriladi va shu yo‘qotilgan suyuqlik miqdoriga qarab poliion suyuqliklarini yuborib correksiya qilinadi. Agar bemordagi yo‘qotilayotgan suyuqlikni o‘lchashni iloji bo‘lмаган taqdirda

bemorning har bir kg vazni og‘irligiga hisoblab bir daqiqada 60 ml suyuqlik yuborish mumkin.

Bemorga ko‘p suyuqlik yuborish, qonda Na miqdorini oshishi, plazmadagi perosmotikholat rivojlanishi vahujayralarning ikkilamchi suvsizlanishiga olib keladi. Yana xlor miqdori plazmada oshib atsidozni zo‘raytiradi. Ayrim bemorlarda xavfli gi perkaliemiya rivojlanishi mumkin. Shuning uchun ham regidratatsion davo davrida qonning kislota—ishqoriylik holati va qon plazmasining nisbiy zichligini, gematokritni, Na, K ko‘rsatkichlarini aniqlab turiladi.

Vaboning 2-daraja degidratatsiyasida bemorga 24—36 soat davomida, 3-darajasida — 36—48 soat davomida va 4-darajada — 3—4 kun davomidasuyuqlikyuboriladi. Bemordagi pokaliemiyajuda zo‘raygan taqdirda qo‘s Shimcha 1% kaliy xlorid eritmasini yuborish tavsiya etiladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalilaniladi (Filli ps—Bulichevaformulasi):

$$R \cdot 1,44 \cdot (5-X)qV$$

$V$  — 1% li kaliy xlor miqdori (ml da),  $R$  — bemorning tana vazni (kg da),  $X$  — kaliyning bemor qon plazmasida konsentratsiyasi (mmol/l), 5 — kaliyning normal konsentratsiyasi (mmol/l), 1,44 — koeffitsienti.

Kaliy yetishmasligini qo‘s Shimcha korreksiya qilishdan qat’iy nazar, bemorga 3—4 kundan boshlab kaliy xloridni 1 g dan bir kunda 3 mahal berib turish zarur.

Vaboni og‘ir kechimida ba’zi bemorlarda buyraklar shikastlanib, ko‘p miqdorda «trisol» eritmasini yuborish natijasida gi pokaliemiya vujudga keladi. Bunda yurak sohasida noxushlik, aritmiya va EKG da o‘zgarish ko‘riladi. Bu holatda darhol ikkinchi nomerli (Filli ps №2) eritmasigao‘tish zarur. Bemorga yuboriladigan eritma hamda K miqdorini bolalarda ham kattalarda ham birdek aniq o‘lchov beradigan bir necha formulalar mavjud.

Vaboni yengil va o‘rtacha og‘irlidagi kechimini davolashda glukoza eletrolitik suyuqliklarni og‘iz orqali ichirish (ORD — oral regidratatsion davo), ayniqsa bolalarda davolashning fiziologik usuli bo‘lib, deyarli asorat bermaydi. Suvsizlanish sindroma — vaboga, enterotoksigenli esherixiozlarga va boshqa o‘tkir ichak infeksiyalarga

xos gastroenterit, enterit, enterokolit bilan o‘tadigan sekretor diareyalar oqibatidir. Ularni davolashda JSST tavsiya etgan standart shakar—tuz eritmasini quyidagi tarkibi tavsiya etiladi.

1. Gidrokarbonat aralashmasi: natriy xlorid — 3,5 g, natriy bikarbonat — 2,5 g, kaliy xlorid — 1,5 g, glukoza — 20 g. Bir litr ichimlik suv (yaxshisi qaynatib sovitilgan suv).

2. Sitratli aralashma — «Regidron»: natriya xlorid — 3,5 g, natriy sitrat (tritsitrat) — 2,9 g, kaliy xlorid — 1,5 g, glukoza — 20 g va 1 litr ichimlik suv.

Eritmaga glukozani qo‘shilishi natriy va suvni ichakda qayta so‘rilishini taminlaydi.

JSST ning ma’lumotiga ko‘ra o‘tkir ichak kasalliklari diareyasida ORD usulida barvaqt davolanganlarni shifoxonaga yotqizish o‘rtacha 56% gacha, shifoxonaga yotqazilgan bemorlarni o‘lishi esa 41% ga kamaygan.

ORD usulini barcha o‘tkir diareya bilan o‘tadigan ichak infeksiyalarida shu jumladan vaboda ham kasallik boshlanishi bilan uyda to tibbiyot xodimi, kelib ulgurgancha yoki shifoxonagacha bo‘lgan vaqt ichida qo‘llash o‘ta muhim va bebahoh tadbir hisoblanadi, ORD ham ikki biosqichda amalga oshiriladi.

Ichirilishi lozim bo‘lgan eritma miqdori quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

$$X_{\text{ml/soat}} = \frac{R \cdot h}{6} \cdot 10$$

$X_{\text{ml/soat}}$  — bir soat ichida ichirilishi lozim bo‘lgan eritma miqdori;  $R$  — bemor tana vazni (kg da);  $h$  — bemorni keskin yo‘qotgan tana vazni; 10 — mutanosiblik koefitsienti; 6 — birinchi bosqichda davolash muddati.

Davolashning 1-bosqichida oral regidratatsiya punkti (ORP) da 6 soat davomida qusib, ichi ketib, siydiq bilan qancha suyuqlik ajratgan bo‘lsa, shuncha miqdordagi eritma keyingi 12—24 soat davomida ichiriladi. Bu ish bemorning ich ketishi to‘xtaguncha davom ettiriladi.

Bolalarda vaboni davolash murakkab va mas’uliyatli chora hisoblanadi. Kichik yoshdagи bolalarda regidratatsiya uchun

qo'llaniladigan eritmalariga albatta glukoza qo'shilishi (11 ga 15—20 g) va suyuqlikni biroz sekinroq yuborish zarur. Bunda suyuqlik va tuz kamomadining 40% birinchi 2 soatda, qolgani esa keyingi 2—4 soatda to'ldiriladi. Suyuqlikni tez yuborish bolalarda o'pka shishishi yoki miya shishiga olib kelishi mumkin.

Bolalarmi eritmalar bilan davolash jarayonida albatta va doim qon zardobida elektrolitlarni, ionogrammanini o'rganish, plazmaning solishtirma og'irligini aniqlash, qon yopishqoqligi va gematokritlarni aniqlab, nazorat qilib borish zarur.

Agar regidratatsion davo to'g'ri olib borilsa, barcha yoshdag'i vabo bilan og'rigan bolalarning o'limi 1% dan oshmaydi.

Vabo kasalligida, bolalarda asosan kaliy tuzlari kamayib ketishini nazarda tutish va kaliyli eritmalarini faqat diurez paydo bo'lgandan so'ng yuborish tavsiya etiladi.

Vaboda antibiotiklar, etiotropik ta'sir ko'rsatsada kasallikni davolashda hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Antibiotiklar patogenetik davolash usulining samarasini oshiradi, jumladan bemorda diareya muddatini qisqartirish bilan organizmning suv-tuz tanqisligini kamaytiradi hamda vibrion ajratish muddatini qisqartiradi.

Antibiotiklar og'iz orqali ichiriladi. Agar bemor qusayotgan bo'lsa, antibiotiklar avval parenteral ravishda (morfotsiklin — 150 g, sigmamitsin — 500 mg 2 mahaldan) qon tomirga bir necha litr regidratatsion eritmalar bilan birga yuboriladi. Bundan tashqari, antibiotiklardan: tetratsiklin (0,3—0,5 g 4 mahal), levomitsetin (0,5 g x 4 mahal) va furazolidonlar (0,1 x 4 mahal) 5 kun davomida ichiriladi.

Vabo vibronini tashib qayta-qayta ajratib yuruvchi shaxslarga ham antibiotiklar (tetratsiklin, levomitsetin va b.) 3—5 kun davomida beriladi. Faqat bir marta vibron ajratgan, amalda sog'liom kishilarga antibiotik berilmaydi.

So'nggi yillarda vabo vibronlarining ba'zi antibiotiklarga nisbatan chidamliligi ortib bormoqda. Shuning natijasida ilgaridan keng qo'llanib kelinayotgan antibiotiklardan tetratsiklin guruhi, levomitsetinlarning vabo vibroniga ta'sir kuchi juda pasayib ketgan. O'zbekistonda, keyingi yillarda odamlardan topilgan vibronlar hammasi 01 guruhi El-Tor vibronlariga, Ogava serovariga mansubligi aniqlangan, ularning barchasi tetratsiklin va levomitsetin

ta'siriga chidamli; ampitsillinga nisbatan o'rtacha; sifloks, tarivid, peflatsin kabi antibiotiklarga o'ta sezgirligi ma'lum bo'lgan.

Vaboning og'ir formalarida antibiotiklar regidratatsiya jarayoni tugashi bilan tavsiya etiladi. Davolashning korreksiya davrida antibiotiklarni qo'llash samarali, chunki ular diareyaning davom etishini 50% ga qisqartiradi va diareya miqdorini 60% ga kamaytiradi.

Kasallikning birinchi kunidanoq bemorlarga parxez taomlar (Pevzner bo'yicha 4-stol) tayin etiladi va davolashning 3—5-kunlaridan boshlab odatdagি taomlar, faqat biroz kamaytirilgan miqdorda beriladi.

Ich ketish to'xtagandan so'ng kaliyga boy bo'lgan meva va sabzavotlar (o'rik, pomidor, apelsin) va ularning sharbatlari yeyishga ichishga ruxsat beriladi.

### **Vabo bilan og'rib o'tgan shaxslarni kasalxonadan chiqarish tartibi**

1. Ixtisoslashgan shifoxonada davolangan bemorlar (yoki vibrion tashuvchilar), to'liq davo kursi tagallangach, kasallik alomatlari mutlaqo yo'qolib, bakteriologik tekshiruvlarda manfiy natijalar olingandan so'nggina (odatda, 8—10-kunida) shifoxonadan chiqariladi.

2. Bakteriologik—nazorat tekshiruvlari, etiotrop (antibiotik) davolash yakunlangandan keyin 24—36 soat o'tgach qatorasiga 3 kun o'tkaziladi.:

— oziq-ovqat sanoati xodimlari va unga tenglashtirilgan guruhlarda — undan (najasdan) tashqari yana qo'shimcha safroning B va C porsiyalari ham 1 marta bakteriologik usulda tekshiriladi.

3. Bunday shaxslar shifoxonadan chiqarilgandan so'ng, kasbidan qat'i nazar, birdaniga ishga chiqishga ruxsat beriladi va yashash joyidagi poliklinika hamda SES da ro'yxatga olinib (forma 30a) uch oy davomida dispanser nazorati o'rnatiladi.

4. Najaasnii bakteriologik tekshirish va tibbiy ko'rik har oyda bir marta o'tkaziladi. Birinchi marta olinishida najaas surgi (20—30 g sulfat magniy) berilgandan keyin olinadi.

5. Nazoratdagi rekonvalessentlar orasida vibrion tashuvchilik aniqlansa ular davolash uchun vabo shifoxonasiga yotqiziladi va shifoxonadan chiqqandan so'ng qaytadan dispanser nazorati o'rnatiladi.

Dispanser kuzatuvida bo'lgan barcha shaxslar, nazorat muddati tugagach hamda dispanser nazorati davomida vabo vibrioni ajratilishi

biron marta ham kuzatilmagan taqdirdagina dispanser hisobidan o'chiriladi.

**Profilaktikasi.** Vaboning oldini olishga qaratilgan tadbirlar, avvalo davlat sarhadlarini vabo va boshqa karantin infeksiyalar kirib kelishidan muhofaza qilish va ularni boshqa davlatlarga tarqatib yubormaslikka qaratilgan bo'lib, Respublika bosh sanitariya vrachi tasdiqlagan, sanitariya qoidalari asosida olib beriladi. U mavjud xalqaro talablarni e'tiborga olgan holda tuzilgan.

JSST ning tavsiyasiga ko'ra, hozirgi vaqtda vabo kasalligi o'chog'ida karantin e'lon qilinmaydi.

Vatanimiz hududiga vaboning chetdan kirib kilishining oldini olish maqsadida barcha vaboli o'lkalardan bizga kirib keladigan shaxslar 5 kun davomida nazoratga olinib, bir marta bakteriologik tekshiruvdan o'tkaziladi. Agar ularda biron-bir ichak kasalligi alomati aniqlangan taqdirda darhol kasalxonaga yotqizib kuzatiladi. Hududda vabo tarqalish xavfi tug'ilgan taqdirda o'tkir ichak kasalligi bilan xastalangan barcha bemorlar darhol kasalxonaga yotqiziladi va bakteriologik tekshiruv o'tkaziladi. Shu hududdagi barcha aholi vaboga qarshi emlanadi.

Vabo o'chog'ida tezkorlik bilan: 1) vaboli bemor va vibrion tashuvchi shaxslarni kasalxonaga yotqizib tekshirish va davolash; 2) kasallanganlarni faol (xonardonlardan so'rab—so'rishtirib) aniqlash va barcha oshqozon-ichak kasalligi bo'lgan shaxslarni provizor gospitalga yotqizib vaboga tekshirish; 3) kontaktda bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularni alohidalash yoki 5 kun davomida faqat tibbiy kuzatuv olib borib, bakteriologik tekshirish; shuningdek — o'choqda epidemiologik tekshirish o'tkazish; dezinfeksiya, sanitariya-gigiyenik, sanitariya-oqartuv singari qator epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkaziladi.

Bemor bilan bevosita muloqatda bo'lganlar 5 kun kuzatuvda bo'lgan davrida bemordan ajratilgan shtammining sezgirligiga qarab JSST tavsiyasiga ko'ra quyidagi antibiotiklardan birortasi beriladi:

1. Doksasiklin 300 mg 1 marta (faqat katta yoshdagilarga).
2. Tetratsiklin bolalarga 12,5 mg/kg kumiga 4 mahal 3 kun. Kattalarga 500 mg dan 4 mahal 3 kun.

3. Furazolidon — homilador ayollarga 100 mg (2 tab) dan kuniga 4 mahal 3 kun. Bolalarga 1,25 mg/kg kuniga 4 mahal 3 kun.

4. Sifloks yoki tarivid: peflotsin kattalarga 250 mg dan kuniga 2 mahal 3 kun.

Vaboga qarshi emlash uchun anotoksin—xolerogenden foydalaniлади. Revaksinatsiya epidemiologik ko'rsatma bo'lgan taqdirda, 3 oydan keyin o'tkaziladi.

Bu vaksinatsiyaning samaradorligi juda yuqori, emlanganlarning 90—98% da faqat vibrionlarga qarshi antitelolargina emas, balki toksiniga qarshi antitoksin ham yuqori titrda ishlanadi. Hozirda yanada samaraliroq, og'iz orqali beriladigan vaksinalar yaratilgan.

## **Kuydirgi (сибирская язва, anthrax)**

Kuydirgi — terida o'ziga xos yara paydo bo'lishi, yoki septik tarzda, o'pka va ichaklarning zararlanishi bilan hamda kuchli intoksikatsiya bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallikdir.

Kuydirgi o'ta xavfli zoonoz kasalliklar guruhiga kiradi.

**Tarixiy ma'lumotlar.** Kuydirgi qadim zamonlardan qishloq xo'jaligi hayvonlari va insoniyatga katta talofat yetkazib kelgan. Bu kasallikdan har yili millionlab uy hayvonlari nobud bo'lgan, ko'plab odamlar kasallangan.

1780—1789-yillarda Sibirda bo'lib o'tgan epizootiya davrida rus olimi S.S.Andreevskiy kasallikni hayvonlardan o'ziga yuqtirib o'rgandi va uni «сибирская язва» — «sibir yarası» deb atashini taklif etdi. U kasallikning har tomonlama o'rGANIB, kuydirgida bo'ladigan patologo-anatomik o'zgarishlarni, klinik kechimi shakillarini tasvirladi hamda davo choralarini va profilaktik tadbirlarni tavsiya etdi.

**Etiologiyasi.** Kuydirgi kasalligini qo'zg'atuvchi mikrob — *Bac. Anthracis* deb ataladi. Uni 1855-yilda rus olimi Brauer aniqlagan. Kuydirgi mikrobi yirik (uzunligi 5—8 mkm, yo'g'onligi 1—1,5 mkm), harakatsiz, anilin bo'yoqlari bilan yaxshi bo'yaldigan, grammusbat, aerob bakteriyadir. U oddiy ozuqa moddalarda ko'payadi. Tashqi muhitda kapsula va sporalar hosil qiladi. Mikroskop ostida ko'rildganda, kuydirgi tayoqchalari zanjirga o'xshab qator

joylashgan bo‘ladi. Tayoqchaning vegetativ turi yuqori harorat va turli dezinfeksiyalovchi moddalar ta’siriga chidamsiz — bir necha daqiqa ichida nobud bo‘ladi. Sporali turi esa tashqi muhitda yillab saqlanishi mumkin, quritishga, dezinfeksiyalovchi moddalar ta’siriga chidamli — qaynatilganda 50 daqiqada, 70 daraja qizdirilganda bir necha soatda nobud bo‘ladi.

**Epidemiologiyasi.** Kasallik manbayi asosan yirik va mayda shoxli hayvonlar, shuningdek otlar, eshaklar, bug‘ular va cho‘chqalar hisoblanadi. Kasallik hayvonlarda og‘ir, generalizatsiyalangan shakilda kechadi. Kasallangan hayvon najasi, siydig'i, so‘lagi bilan kuydirgi mikrobini ajratib, atrof-muhitni (tuproq, suv, teri, jun va b.) ifloslantiradi. O‘lgan hayvonning qoni, terisi, juni va ichki a’zolari ham ancha vaqtgacha xavfli bo‘ladi. Infeksiya asosan kontakt yo‘li bilan, kamroq hollarda alimentar, havo—chang va transmissiv yo‘llari bilan yuqadi.

Odamga kuydirgi asosan teri va shilliq parda orqali: kasallangan hayvonlarni parvarish qilishda, ularning chiqindilari, xomashyosi (terisi, juni, mo‘ynasi, go‘shti), o‘lgan mollarni jasadlari bilan ishlaganda, shuningdek, qushxona, teri, jun va mo‘yna bilan ishlovchi korxonalarda yuqadi. Kuydirgi kasal hayvon so‘yilganda, nimtalanganda, go‘shti iste’mol qilinganda, shuningdek infeksiyali chang havodan nafas olinganda ham yuqishi mumkin. Ayrim hollarda kuydirgini qon so‘rvuchi pashshalar (so‘na, chaqar pashsha) ham yuqtirishi mumkin.

Kuydirgiga moyillik uning yuqish yo‘liga va organizimga tushgan mikrob miqdoriga bog‘liq.

Kuydirgining tarqalishi qishloq xo‘jalik mollari bilan bog‘liq bo‘lganida, yozgi-kuzgi mavsumiylik kuzatiladi.

**Patogenezi va patologik anatomiysi.** Kuydirgi mikrobi organizmga asosan jarohatlangan teri orqali, kamdan-kam hollarda nafas yo‘llari va oshqozon-ichak shilliq qavati orqali tushadi.

Organizmga tushgan joyda mikroblarning bir qismi nobud bo‘ladi (fagotsitar reaksiya), qolgan qismi ajratgan ekzotoksin ta’sirida terida (karbunkul) kamroq hollarda — shishli, pufakchali, qizil dog‘li o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Jarohatlangan o‘choqda seroz — gemorragik yallig‘lanish va koagulatsion nekroz alomatlari, atrof

to‘qimalarda shish aniqlanadi. Limfa oqimi orqali mikroblarni o‘choqdan yaqin-atrofdagi limfa bezlariga o‘tishi tufayli regionar limfadenit rivojlanadi. Kuydirgi mikrobi ajratadigan ekzotoksinning ta’sirida qon aylanishi — mikrosirkulatsiya buziladi, oqibatda atrof to‘qimalarda shish, gemorragik o‘zgarishlar va ichki a’zolarda qon dimlanishi alomatlari ko‘riladi.

Kasallikning generalizatsiyalangan tarzda kechishi, ya’ni kuydirgi sepsisi, infeksiya organizmga nafas yo‘li yoki oshqozon-ichak yo‘li shilliq pardasi orgali tushganda sodir bo‘ladi. Kuydirgining teri xilini sepsis bilan asoratlanishi juda kam kuzatiladi. Infeksiyaning generalizatsiyalashuvi traxeobronxopulmonal yoki mezenterial limfatik bezlarni mudofa faoliyati buzilgan taqqirda yuzaga keladi.

Infeksiya bilan birga ko‘plab toksinning qonga tushishi infeksion-toksin shok rivojlanishiga olib keladi.

Kasallikning septik shaklidan o‘lganlarda — jigar va taloqning kattalashganligi, ko‘plab a’zolarda (yurak, o‘pka, oshqozon-ichak shilliq qavati) seroz-gemorragik shish va turli a’zolarning jarohatlanish alomatlari ko‘riladi. O‘pkada seroz-gemorragik pnevmoniya, ba’zan o‘pkada gemorragik shish, plevra bo‘shlig‘ida qonli-seroz suyuqlikni to‘planishi kuzatiladi. Bunday suyuqlik qorin bo‘shlig‘ida ham to‘planishi mumkin. Qorin va ichak shilliq pardasida ko‘plab gemorragiyalar, miokardda va epikardda o‘choqli qon quyilishlar aniqlanadi. Jigar, taloq va charv bezlarida qon dimlanib, ular kattalashgan bo‘ladi, miya pardasida ko‘plab mayda qon quyilishlar, miyaning o‘zida esa qon dimlanishi belgilari ko‘riladi. Jarohatlangan teri o‘chog‘ida kuchli yallig‘lanish, atrof to‘qimalarda shish va gemorragik o‘zgarishlar kuzatiladi. Regionar limfatik tugunlarda seroz-gemorragik yallig‘lanish belgilari ko‘riladi.

Jarohatlangan barcha a’zolar va to‘qimalarda shuningdek qonda hamda orqa miya suyuqligida ko‘plab kuydirgi batsillalari aniqlanadi.

**Klinikasi.** Kuydirgining yashirin davri, o‘rtacha 2—3 kun, ba’zan 6—8 kunga cho‘zilishi, yoki bir necha soatgacha qisqarishi mumkin.

Kasallik 98—99% bemorlarda cheklangan (teri) shakilda, qolganlarda generalizatsiyalashgan (septik) tarzda kechadi.

Teri shakli asosan ***t e r i k a r b u n k u l i*** ***ko‘rinishida*** namoyon bo‘ladi. Ayrim bemorlarda terida kuchli shish yoki qizarish

yoki pufakchalar paydo bo‘lishi kuzatiladi. Jarohatlanish ko‘proq terining ochiq qismida bo‘ladi. Karbunkul bosh, bo‘yin terisida yoki og‘iz va burun shilliq pardalarida joylashgan taqdirda kasallik ayniqsa og‘ir kechadi.

Kasallikning birinchi kuni bemor darmonsizlik his etib, biroz badani qaqshaydi va boshi og‘riydi, keyingi kuni eti uvishib, qaltiraydi va tana harorati tezlikda 39—40°C gacha ko‘tariladi, bosh va tana og‘rig‘i kuchayadi, uyqusi buziladi.

Terida kuydirgi tayoqchasi kirgan joyda avval 1—3 mm kattalikda ko‘kintir—qizg‘ish dog‘ ko‘rinib so‘ngra u qizil tuguncha (papula) ga aylanadi. Tuguncha atrofi qichishib, qizib turadi. Bir necha (12—24) soatdan so‘ng tuguncha ichida seroz suyuqlik yig‘ilib, diametri 2—3 mm li pufakcha (vezikula) hosil bo‘ladi. Keyinchalik pufakcha ichidagi suyuqlikka qon aralashadi. Pufakcha yorilgach, o‘rnida yara (karbunkul) paydo bo‘ladi. Yaradan seroz—gemorragik suyuqlik ajralib turadi, atrofi ko‘tarilgan bo‘lib, bir sutkada yaraning diametri 8—15 mm ga yetadi. Keyinchalik yara tezda qotib, quriydi va qo‘ng‘ir rangli qora qo‘tir bilan qoplanadi. Qora qo‘tir doirasi asta-sekin kattalashib boradi, gardishida qizil xoshiyali bo‘rtma va mayda ikkilamchi pufakchalar paydo bo‘ladi. Bu pufakchalar ham birlamchi pufakchalar singari o‘zgarib yaraga aylanadi va asosiy yaraga qo‘shilib kattalashib boradi. Bunday karbunkullarning kattaligi bir necha millimetrdan 10 sm gacha yetadi. Yara atrofida bunday hoshiya va pufakchalarning paydo bo‘lishi, ancha keng joyda shishning bo‘lishi va bu karbunkul hamda shishning og‘riqsizligi kuydirgiga juda xos bo‘lib, boshqa o‘xhash yaralardan farqlashimizda juda qo‘l keladi.

Yara markazida nekroz bo‘lganligi tufayli (1—2 haftadan keyin) qoplama qalin va ko‘mir singari qora rangli bo‘lib qoladi, atrofida qizil yallig‘lanish hoshiyasi ko‘rinadi. Kuydirgini lotincha “Anthrax” (ko‘mir) deb atalishining boisi ham shundadir.

Karbunkul atrofida paydo bo‘ladigan shish ayrim hollarda, ayniqsa teri osti kletchatkasi bo‘sh-g‘ovak bo‘lgan joylarda (masalan: yuzda) keng tarqaladi. Uni bolg‘acha bilan urib ko‘rilganda, ba’zan liqildoq singari titrash kuzatiladi (Stefanskiy simptomi). Karbunkul yuzda (burunda, labda, lunjda) joylashgan taqdirda shish, yuqori

nafas yo'llariga tarqalib, bo'lib qo'yishi va o'limga sababchi bo'lishi mumkin.

Kuydirgida rivojlangan limfadenit og'riqsiz bo'ladi va yiringlamaydi.

Kuydirgining teri shaklini sh i sh 1 i (e d e m a t o z) turi terida aniq karbunkul bo'Imagani holda shish rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi. Keyinchalik to'qima nekrozga uchrab yirik karbunkul vujudga keladi.

P u f a k ch a l i (b u 11 o z) turida esa teriga infeksiya tushgan joyda pufakchalar paydo bo'lib, ichida gemorragik suyuqlik yig'iladi. Pufakchalar yorilganda yoki to'qima nekrozga uchraganda keng yaralangan yuza paydo bo'lib, karbunkul ko'rinishini oladi.

E r i z i p e l o i d l i turida — terining jarohatlangan joyida, ichida tiniq suyuqlik to'plangan, ko'plab pufakchalar paydo bo'ladi. Pufakchalar yorilganda yaralar paydo bo'ladi va ular qalin po'st bilan qoplanadi.

Kuydirgining teri shakllarida isitma va kuchli intoksikatsiya alomatlari 5—6 kungacha saqlanib turadi, so'ngra isitma pasayib, bemorning ahvoli yaxshilanadi, yara ham qayta boshlaydi — avval shish kamayadi, 2—3-hafta oxirida qora qo'tir ko'chib, o'rnida chuqr chandiq paydo bo'ladi.

Kuydirgining teri shakli 80% bemorlarda yengil va o'rta og'irlidka, 20% da — og'ir kechadi.

Ye n g i l kechimida — intoksikatsya alomatlari sust, tana harorati ko'tarilmagan yoki subfebril darajada bo'ladi. Yara tubidagi qora qo'tir, kasallikning 2—3-haftasi oxirlarida ko'chib, yara chandiqlanib bitadi.

Kasallikning o g'i r kechimida esa intoksikatsiya alomatlari kuchli namoyon bo'ladi. Tana harorati xastalikning 2—3-kunlarida 39—40°C gacha ko'tariladi va kasallik kechimi xayirli bo'lgani taqdirda, 5—6 kundan keyin keskin (kritik tarzda) pasayadi. Bemorning umumiylahvولي kundan-kunga yaxshilanib boradi, terida shish yo'qoladi, karbunkuldagi qora qo'tir 3—5-hafta oxirlarida ko'chadi va yara chandiqlanib bitadi (**Zarvaraqdagi 24-rasmga qarang**).

Kuydirgining teri shakli og'ir kechganda u **i k k i l a m c h i k u y d i r g i s e p s i s i** bilan asoratlarnishi mumkin.

Kuydirgining ***b i r l a m c h i s e p t i k*** shakli kam uchraydi. U asosan infeksiya og‘iz orqali, yoki havo—chang yo‘li bilan yuqqan hollarda rivojlanadi. Kasallik alomatlari tez rivojlanadi. Bemor eti uvishib, qaltiraydi, tana harorati tezda 39—40°C gacha ko‘tariladi, yurak urishi va nafas olishi tezlashadi, u hansirab nafas oladi. Ko‘pchilik bemorlarda intoksikatsiya alomatlari tez ortib boradi, ayrimlarida infektion-toksik shok yuz beradi. Ba’zan bemor ko‘kragida qattiq sanchiq xis etib, kuchli yo‘taladi. Yo‘talganda qon aralash ko‘pukli balg‘am ajratadi. Rentgenologik va fizikal tekshiruvlarda pnevmoniya va ekssudativ (seroz-gemorragik) plevrit alomatlari aniqlanadi. Ko‘pincha, ayniqsa infektion-toksik shok rivojlangan bemorlarda, o‘pkaning gemorragik shishishi kuzatiladi. Bunday bemorlar ajratayotgan qonli balg‘ami xuddi olcha murabbosi singari ivib qoladi.

Ayrim bemorlarning qornida keskin qattiq og‘riq paydo bo‘ladi, ko‘ngli aynab, qon aralash qusadi va qon aralash ichi ketadi. Keyinchalik ichak parezi, ba’zan peritonit alomatlari yuzaga kelishi mumkin.

Ko‘pchilik bemorlarda gemorragik alomatlар va ayrimlarda meningoensefalit alomatlari ham kuzatiladi.

Meningoensefalit rivojlanganda bemorning xushi joyda bo‘lmaydi, meningial va o‘choqli o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Kuydirgining septik shakilda, o‘pka yoki ichak sistemasining ko‘p yoki oz zararlanishiga qarab, kasallikning ***o‘p k a*** yoki ***i ch-a k t u r l a r i*** ham farqlanadi.

Kuydirgining ***i ch a k t u r i*** infeksiya og‘iz orqali yuqqanida yuzaga keladi. Kasallik qorinda, ba’zan belda o‘tkir, ayrimlarda juda kuchli og‘riq bilan boshlanib, tezlikda safro va qon aralash quşish, hamda qon aralash ich ketishi bilan namoyon bo‘ladi. Bemorning ahvoli tez og‘irlashib, tana harorati 40—41°C gacha ko‘tariladi, intoksikatsiya alomatlari kuchayib boradi va nihoyat infektion-toksik shok rivojlanishi va yurak-tomirlar faoliyatining buzilishi natijasida o‘lim ro‘y beradi.

Septik kechimining ***o‘p k a t u r i*** infeksiya nafas yo‘li orqali yuqqanida rivojlanadi. Bunda bemorning eti junjikib, tana harorati

ko‘tariladi, tumov, ko‘krak va nafas qisilishi, ko‘krakda og‘riq, yo‘tal va hansirash singari alomatlar avj oladi. Ko‘krakda og‘riq va yo‘tal kuchli bo‘lib, ko‘p miqdorda qon aralash, ko‘pikli balg‘am ajraladi. Tekshirib ko‘rilganda pnevmoniya va ekssudativ plevrit aniqlanadi. Kuydirgining bu turi ham juda og‘ir intoksiatsiya, infeksion-toksik shok va yurak-tomir faoliyatining keskin buzilishi bilan kechadi va ko‘pincha 2—3 kun ichida bemorning o‘limi bilan yakunlanishi mumkin.

Infeksion-toksik shok, bosh miyaning bo‘kishi va shishishi, oshqozon-ichakdan qon ketishi va peritonit rivojlanishi bemorning barvaqt o‘limiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Kasallikning septik turini o‘tkazayotgan bemorlar atrofdagilar uchun juda katta xavf tug‘diradilar. Chunki ularning chiqindilarida (balg‘am, nafas, qusuqlari) va qonida kuydirgi mikrobi juda ko‘p miqdorda bo‘ladi.

**Oqibati** — kuydirgining teri shaklida ko‘pincha yaxshi. Septik shaklining barcha turlarida ham oqibati xavfli bo‘ladi.

**Tashxisi.** Kasallikning xos klinik belgilari va epidemiologik (kasallangan hayvon bilan muloqot, qassopchilik, kasal hayvonning go‘shtini iste’mol qilganlik haqida) ma’lumotlar, shuningdek laborator tekshiruv va allergik sinama natijalariga asoslanib tashxis qo‘yiladi.

Bakteriologik va bakterioskopik tekshiruvlar laborator tashxisning asosini tashkil etadi. Teridagi vezikula, karbunkullardan olingan so‘rma, balg‘am va qondan yupqa surtma tayyorlanadi. Kasallikning septik (o‘pka, ichak, meningoensefalitik) turlari gumon qilingan bemorlardan qon, balg‘am, najas va orqa miya suyuqliklari olib tekshiriladi. Bu tekshiruvlar maxsus laboratoriyalarda, o‘ta xavfli infeksiyalar bilan ishslash qoidalariiga to‘la amal qilgan holda o‘tkaziladi. Barvaqt tashxis qo‘yish maqsadida immunoflyuoressent usulidan foydalanish mumkin. Shuningdek, tashxis uchun teri allergik sinama ham keng qo‘llanadi. Buning uchun teri orasiga 0,1 ml antraksin yuboriladi. Bu sinama kasallikning 5-kunidan keyin musbat natija beradi.

Kuydirgining teri shaklini — chipqon, ko‘zyara, saramas, manqa kasalliklaridan farqlash hamda o‘lat va tulyaremiyaning teri shakillari bilan taqqoslash lozim.

Kuydirgining septik turlarini boshqa septik kasallikkardan farqlash ancha qiyin. Bunday hollarda bakteriologik va bakterioskopik tekshiruvlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

**Davolash.** Kuydirgi bilan kasallangan yoki unga gumon qilingan barcha bemorlar kasalxonaga yotqizilib, ajratiladi. Bemor bilan ishlovchi xodimlar rezinkali qo‘lqop va maxsus xalat kiyib (kasallikning septik shakillarida — himoyalovchi ko‘zoynak va doka-paxtali niqob taqib) ishlashlari lozim.

Kuydirgini davolashda etiotrop davo sifatida antibiotiklar (penitsillin) bilan birga kuydirgiga qarshi immunoglobulin qo‘llash eng samarali usul hisoblanadi.

Penitsillin — kasallikning shakli va og‘ir-yengilligiga qarab sutkada 6—24 mln TB miqdorida to kasallikning asosiy belgilari yo‘qolguncha (biroq 7—8 kundan kam emas), sutkada 6 marta mushak orasiga yuboriladi. Kasallikning septik turini davolashda sefalosporinlarni — sutkada 4,0—6,0 g dan, levomitsetin suksinat natriyni — sutkada 3,0—4,0 g, gentamitsinni — sutkada 240—320 mg dan qo‘llash ancha yaxshi samara beradi.

Immunoglobulin — xastalikning yengil kechimida 20 ml, o‘rtalama og‘ir kechimida — 40—80 ml dozada yuboriladi. Umumiy kurs dozasi 400 ml gacha bo‘lishi mumkin. Immunoglobulinni yuborishdan oldin albatta teri orasiga 0,1 ml (100 marta suyultirilgan) immunoglobulin yuborib allergik sinama o‘tkaziladi. Agar 20 daqiqadan so‘ng terida paydo bo‘lgan shish va qizarishning diametri 1 sm dan ortiq bo‘lsa, 0,1 ml suyultirilmagan immunoglobulin teri ostiga yuboriladi va 30 daqiqadan so‘ng reaksiya bo‘lmasa qolgan dozaning hammasi mushak orasiga yuboriladi.

Kuydirgini patogenetik davolashda kristalloidli eritmalar, yangi olingan qon, plazma, albumin, gemodez, polidez, reopoliglyukin yoki poliglyukin singari suyuqliklar tomirga yuboriladi. Kasallikning og‘ir kechimida, ayniqsa intoksikatsiya va shish kuchli bo‘lganida glyukokortikosteroidlar qo‘llanadi. Bemorda infektion-toksik shok holati bo‘lgan taqdirda uni tezlikda bartaraf qilish choralar (umumiy qabul qilingan tartibda) o‘tkaziladi.

Kuydirgi teri shaklida mahalliy davo (malham dorilar) qo‘llanmaydi, jarrohlik yo‘li bilan davolash esa juda xavfli asorat — kasallikning tarqoq shakilga o‘tishiga olib kelishi mumkin.

Bemor kasalxonada teridagi yarasi bitib chandiqlangach chiqariladi. Kuydirgini septik, o'pka yoki ichak shakillarini o'tkazgan shaxslar esa kasallikning klinik belgilari yo'qolgach, 5 kun oralatib ikki marta o'tkazilgan bakteriologik tekshiruv manfiy natija bergandan keyin chiqariladi.

Kasallikning generalizatsiyalashgan shaklini o'tkazgan shaxslar poliklinikaning yuqumli kasalliklar xonasi (KIZ) da ro'yxatda turadilar.

**Profilaktikasi.** Olib boriladigan profilaktik chora-tadbirlar veterinariya xizmati bilan birqalikda tashkil etiladi. O'tkaziladigan tadbirlar kasallik manbayini (asosan kasallangan qishloq xo'jalik hayvonlarni) aniqlab ajratish va kuydirgi sporalari saqlanishi mumkin bo'lgan atrof-muhit (tuproq, molxona jihozlari, jun, teri va b.) ni zararsizlantirishga qaratiladi. Kasallangan hayvonlar ajratiladi, murdalari yoqiladi, ifloslangan jihozlar esa dezinfeksiya qilinadi. Kasallangan hayvonlarning go'shtini iste'mol etish yoki terisini shilish qat'yan man etiladi. Ifloslangan jihozlar turli yo'llar (yoqib yuborish, qaynatish yoki bug'li kamerada ishlov berish yo'li) bilan zararsizlantiriladi. Jun, mo'yna va teridan tayyorlangan kiyimlar va boshqalarini dezinfeksiyalashda patroformalinli kamera usulidan foydalaniлади.

Kasallangan hayvon yoki ifloslangan jihozlar va materiallar bilan muloqotda bo'lgan shaxslar 2 hafta davomida vrachning faol nazoratida bo'ladilar. Agar kasallik rivojlanishiga gumon qilinsa, shoshilinch profilaktika maqsadida antibakterial davo o'tkaziladi. Bu maqsadda — fenoksimetilpenitsillin 1,0 g dan 3 mahal yoki tetratsiklin 0,5 g dan 3 mahal 5 kun davomida beriladi. Boshqa antibiotiklar: ampitsillin, doktsitsiklin va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Kuydirgiga qarshi odamlarni va hayvonlarni emlash, rejali ravishda yoki epizootik vaziyatga ko'ra o'tkaziladi. Odamlarni emlashda quruq tirik sporali vaksinadan foydalaniлади.

---

## **YUQUMLI KASALLIKLAR FANIDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK INTERAKTIV O'YINLARDAN NA'MUNALAR**

### **MAVZU: BEZGAK**

“AKADEMIK MUNOZARA” uslubi bo'yicha dars o'tishning asosiy **maqsadi**:

- talabalarни saboq olishi uchun 100% jalb etish va ularning bir-biridan o'r ganishiga imkon berish;
- yo'l—yo'riq berib turadigan murabbiyni “SAHNADAN” chiqarib yuborish.

### **Uslubning asosiy vazifalari:**

- bu uslub, talabalarни shu mavzu yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lishini taqozo qilibgina qolmay, balki o'rtaga qo'yilgan muammoni obdon anglab olishga va dalillar bilan izohlab berishga o'rgatadi;
- bo'lg'usi shifokorga o'z hayotida shunga o'hshash muammo-larga duch kelganda esankirab qolmay ham amaliy, ham nazariy olgan bilimlariga asoslangan holda masalaga ongli ravishda yondashib, tahlil qilib, to'g'ri yechimini topishga o'rgatadi.

### **SENARY**

Mashg'ulot vaqt 45 daqiqa.

Guruh ikki jamoadaga bo'linadi, bularning har biriga vaziyatga doir topshiriq beriladi, masalan, “Vrach—bemor konsultatsiyasi”. Har bir jamoadada 1—2 talaba konsultatsiyaning ijobiy tomonlarini muhokama qiladi — bular “ADVOKATLAR” bo'ladi, boshqalar esa konsultatsiyaning salbiy tomonlarini tahlil qiladi — bular “PROKURORLARDIR”.

“ADVOKATLAR” bilan “PROKURORLAR”ning qo'lga kiritgan natijalari ma'lum qilinadi va butun guruh tomonidan muhokama qilib chiqiladi.

O'qituvchi “SUD ISHI”ning qanday borayotganini, vaziyatni himoyasiga yoki uni ayblashga qaratilgan qanday dalillar keltirilayotganini kuzatib boradi.

Akademik munozaraga misol keltiramiz.

Bemor A. 52 yosh, klinikaga kasallikning 34-kuni, ya’ni 31,08 da “Gripp” tashxisi bilan yotqizilgan, ahvoli o’rtacha og’irlilikda. Shikoyatlari: vaqtı-vaqtı bilan isitma ko’tarilib qaltirash, terlash umumiy madorsizlik. O’zini 29.07 dan boshlab kasal hisoblaydi, chunki shu kundan boshlab qaltirab isitmasi 39°C gacha ko’tarilib boshi og’rigan, bo’g’imlari, mushaklari qaqshab og’rigan. 4—5 kundan so’ng isitmasi tushgan. Uchastka terapevti “O’RVI” deb o’ylagan, muolaja tavsiya etgan. Shundan so’ng bemor sanatoriyaga dam olgani ketgan. Sanatoriyada 6—7 kun oralab yana isitmasi ko’tarilgan. Navbatdagi isitma 30,08 da ko’tarilgan. Vrachga murojaat qilgan va shifoxonaga yotqizilgan. Anamnezidan ma’lum bo’lishicha, bemor fevral oyidan to 23.07 gacha Sudanda komandirovkada bo’lgan. Komandirovkadan qaytib kelgach, bezgakka qarshi kimyoviy profilaktikani davom ettirmagan.

Umumiy ko’ruvdan: isitmasi 39,4°C. Terisi subikterik. O’pkasida vezikulyar nafas. Yurak tonlari bo’g’iq, tomir urishi daqiqasiga 100 marta, ritmik, to’laligi qoniqarli, arterial qon bosimi 140/80 mm.s.u., tili nam, oq karash bilan qoplangan. Qorni yumshoq, jigar +3,0 sm, talog‘i +1,0 sm, qovurg‘a ostidan chiqib turibdi, zichroq. Esi o’zida. Meningeal belgilar va o’choqli belgilar yo’q. Yo’g’on tomchida *Plasmodium falcifarum* topildi.

### MUHOKAMA

“PROKURORLAR”: Bemor birinchi marotaba vrachga murojaat qilganda vrach bemorni epidanamneziga e’tibor bermagan, ya’ni uni Sudanda bo’lganligiga, qaytib kelgach kimyoviy profilaktikani davom ettirmaganligiga, o’tkir respirator infeksiyalariga tana haroratining ko’tarilishi, bosh og’rig‘i va qaltirashdan tashqari yana qanday klinik belgilar xarakterli ekanligiga e’tibor bermagan. Bemordan tahlilga namuna olmagan. Yuqori va davomli isitma bilan kechuvchi kasalliklar bilan taqqoslash tashxisoti o’tkazmagan. Natijada tropik bezgak tashxisini qo’ymagan. Bemorni 39 C isitma bilan noto’g’ri muolaja tavsiya qilib, uyiga yuborgan. Bemor bilan yaxshi suhbat o’tkazmagan. Unga rejim haqida tushuncha bermagan, aktiv nazorat qilmagan. Natijada bemor sanatoriyaga ketib qolgan.

Aslida isitmalayotgan, tashxisi aniqlanmagan bemor sanatoriyaga borsa ahvoli og‘irlashishini tushuntirishi kerak edi.

“**ADVOKATLAR**”: O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini hamma bo‘g‘inlarida, shu jumladan, ayniqsa birinchi bo‘g‘inlarida, O‘RVI kasalliklarida virusologik, serologik hamda ekspress usullar uchun namunalar olish yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi uchun bemordan virusologik tekshirish uchun namuna olinmagan.

“**PROKURORLAR**”: bemor ikkinchi marotaba vrachga murojaat qilganda, vrach yanada qo‘polroq hatoga yo‘l qo‘yan, chunki 34 kundan beri isitmalayotgan bemorga agarda u boshlanishida haqiqatan ham “Gripp” bo‘lgan bo‘lsaham, “Gripp” deb tashxis qo‘yilmaydi. Gripp bo‘lgan bemor 5—6 kundan so‘ng yanaisitmalashdadavom etsa, uning sababi grippning asorati bo‘ladi. Vrach bemorda grippning asoratlariga (otit, frontit, gaymorit, zotiljam, ekssudativ plevrit, nefrozo—nefrit va h.k.) xos klinik belgilar ko‘rmagan. Balki bemorda 4—5 kun davomida paroksizmal xuruj bo‘lganligi so‘ngra birlamchi latent davriga o‘tib, keyinchalik bezgakning erta residiviga xos klinik belgilar namoyon bo‘lganligi kuzatilayapti. Shunga qaramasdan vrach “Gripp” tashxisini qo‘yib, o‘zining bilimini qay darajada ekanligini ko‘rsatib turibdi.

O‘qituvchi dars davomida munozara qanday davom etayotganligini, vaziyatning himoyasiga yoki uni ayblashtga qaratilgan dalillarni qanday keltirilayotganligini kuzatib boradi. Munozara tugagach, o‘qituvchi “**ADVOKATLAR**” bilan “**PROKURORLAR**”ning qo‘lga kiritgan natijalarini ma’lum qiladi va baholaydi.

### MAVZU: “MENINGOKOKKLI INFEKSIYA”

“Meningokokkli infeksiya” mavzusini “**ASALARI UYASI**” nomli interaktiv usul yordamida guruhlarda amaliy mashg‘ulot darsini olib borish

**Maqsad.** Talabalarni meningokokk infeksiyasi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq etish, bemorlarga aniq tashxis qo‘yish va davolashga o‘rgatish.

Muallim kichik guruhlarga jumboqli masala beradi. Guruhlar 10 daqiqa davomida masalani hal qilib, o‘zaro muhokama qiladilar va natijalarini izohlaydilar.

**Masala.** Bemor A. 20 yosh, kasalxonaga kasalligi boshlangandan so‘ng 22 soat o‘tgach, qattiq bosh og‘rig‘i,sovqotish, yuqori isitma 39,8°C, ko‘p marotaba quşish kabi shikoyatlar bilan qabul qilindi. Kasallik o‘tkir boshlanib,sovqotishdan so‘ng harorati 39°C gacha ko‘tarilib boshi og‘rigan, 3 soat o‘tgach ahvoli og‘irlashgan, harorati 40°C gacha ko‘tarilib ko‘ngil aynishi, bosh aylanishi kuzatilgan. Kun bo‘yi uyda bo‘lib, kechga yaqin xushdan ketgan. Kasalxonaga kelgan vaqtida bemorning ahvoli og‘ir, harorati 38,7°C, majburiy holatda — yoni bilan g‘ujanak bo‘lib yotibdi, yuzi qizargan. O‘pkasida vezikular nafas, yurak tonlari susaygan, puls 98 bir daqiqada, kuchsiz, yarim to‘liq. Qon bosimi 120/70 mm.sim.ust.ga teng, qorin yumshoq, og‘riqsiz. Meningeal belgilari aniq seziladi. Ensa mushaklari taranglashgan, Kernig, Brudzinskiy simptomlari ijobjiy. Yotoqxonada talabalar orasida bir necha hafta davomida nazofaringit aniqlangan.

**Birinchi kichik guruhgaga savol:**

1. Bemorga taxminiy tashxis qo‘ying va yuqoridagi simptomlar asosida MNS ning qaysi bo‘limi zararlanganligi haqida o‘ylash mumkin?

2. Bemorni tekshirish rejasini tuzing.

**Javoblar:**

1, Yotoqxonada yashayotgan talabalar orasida nazofaringit borligi, kasallik belgilari (yuqori harorat, bosh og‘rig‘i, quşish), meningokokkli infeksiya, meningitlar haqida o‘ylash imkonini beradi.

Bemordagi meningial simptomlar (ensa mushaklari tarangligi, Kernig, Brudzinskiy simptomlari) kabilarni yuqori harorat fonida rivojlanganligi bosh miya pardalari yallig‘lanishi haqida o‘ylash imkonini beradi.

2. Bemorni tekshiruv rejali umumiy va maxsus tekshiruvlardan iborat.

Umumiy tekshirish: qon, siydik tahlil, siydikda qand miqdorini aniqlash va hokazo

Maxsus tekshiruvlar: orqa miya suyuqligini tekshirish (klinik, bakteriologik va bakterioskopik), burun halqum ajralmasini tekshirish, texnik anjomlar yordamida tekshirish.

**Ikkinchchi kichik guruhgaga savol:**

1, Tashxisni tasdiqlash uchun qanday laboratoriya ma'lumotlarini olishni mo'ljallayapsiz?

2, Bemorni davolash prinsplari (sindromlar bo'yicha).

**Javoblar:**

Meningokokcli meningit bilan og'rigan bemor qonida yuqori leykotsitoz, neytrofilyoz, yuqori EChT bo'ladi. Orqa miya suyuqligi loyqalangan, bosimi  $300-400$  mm suv ust.ga teng, sitoz juda yuqori ( $1\text{ mm}^3$  da  $1000$  va undan ortiq), neytrofilyoz  $100\%$  yoki shunga yaqin, oqsil cho'kma reaksiyalari ijobiylari (Pandiy va Nonney—Appelt). Bakteriologik tekshiruvda — likvor va burun—halqum ajralmasidan meningokokklarni topish mumkin.

2, Bemorlarni davolash prinsplari quyidagilardan iborat:

- A) Antibakterial davolash.
- B) Dezintoksikatsion davolash.
- C) Degidrotatsion davolash.
- D) Simptomlar bo'yicha davolash.

Olingan javoblar natijasiga asosan bir kunlik maksimal ball hisobida barcha talabalar baholanadi.

**MAVZU: "VABO"**

Vabo kasalligi mavzusini «ISHBILARMON O'YINLAR» nomli interaktiv usul yordamida guruhlarda amaliy mashg'ulot darsini olib borish

**SENARIY**

Mashg'ulot o'yini uchun poliklinika sharoiti yaratiladi. Guruhdagi talabalar orasidan **BEMOR**, **HAMSHIRA**, **SHIFOKOR** tayinlanadi va mashg'ulot o'yini quyidagi tarzda olib boriladi:

**BEMOR** — Mumkinmi?

**HAMSHIRA** — Mumkin, kiring.

**BEMOR** — Assalomu alaykum doktor, menga yordam bering, tobim yo'q.

**HAMSHIRA** — Anketa to‘latadi: bemorning F.I.Sh., yoshi, yashash manzili, ish joyi, lavozimi. Bemorga termometr qo‘yadi.

**SHIFOKOR** — Nima bezovta qilyapti?

**BEMOR** — Kechasi bilan ichim 4—5 marta suvdek surdi. Bugun ertalab nonushtadan oldin 1 marta qusdim, madorim yo‘q.

**SHIFOKOR** — Epidemiologik anamnez yig‘ish maqsadida bemorga quyidagi savollarni beradi. Bemor kasal bo‘lishdan 2—3 kun oldin xorijda bo‘lganmi yoki bo‘lмаганми, mehnat faoliyati, uyining sanitariya holati, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiladimi yo‘qmi, ochiq suv havzasidagi suvdan qaynatmay iste’mol qilganmi, xo‘jalik ishlari uchun foydalanganmi, diareya sindromi bo‘lgan bemorlar bilan muloqotda bo‘lganmi, qayerda va qanday ovqatlar iste’mol qilgan, horijiy fuqarolar bilan muloqotda bo‘lganmi, ...

**BEMOR** — Pokistonda bir hafta davomida tijorat ishlari bilan band bo‘lib, kecha Toshkentga qaytib kelganman — deydi. Pokistonda mehmonxonada o‘zi bilan birga borganlardan 3—4 tasini ichi surganini, ammo dori ichib ahvoli biroz yaxshilanganini aytadi.

**SHIFOKOR** — Kasallikning tarixiy bayonini yozish maqsadida — “Kasallik qanday boshlandi?” — deb savol beradi.

**BEMOR** — Kechasi soat 22 larda birdan ichim surdi. Birinchi marta bo‘tqasimon edi, lekin tez orada qaytadan ichim surdi, bu galgisi suvdek edi.

**SHIFOKOR** — Isitmangiz ko‘tarildimi, sovuq qotib, qaltiradingizmi? Qorningiz og‘riyaptimi?

**BEMOR** — Umuman isitmam ko‘tarilmadi, hozir ham 36,2°C ekan, qaltiramadim, qornim og‘rimayapti.

**SHIFOKOR** — Najasingizda qon, yiring, shilliq modda bormi, ich kelishida kuchanayapsizmi, najasingizning rangi qanaqa, o‘ta badbo‘y hidmi?

**BEMOR** — Najasimda qon, yiring, shilliq modda yo‘q, badbo‘y hid emas, kuchanmasdan kelyapti.

**SHIFOKOR** — Hozir ahvolingiz qanday?

**BEMOR** — Og‘zim quriyapti, madorim yo‘q, yuragim bezovta bo‘layapti, panjalarim muzlayapti, boldir mushaklarim biroz tortilayapti.

**SHIFOKOR** — Ilgari siz qaysi kasalliklar bilan kasallangansiz? Nasliy kasalliklar bo‘lganmi? Dori-darmonlarga, oziq-ovqatlarga allergiya kuzatilganmi?

**BEMOR** — Ilgari tumov, tomoq og‘rig‘i, yoshligimda sariq kasal bo‘lganman, bir marta ot tepib jag‘ suyagim singan, shifoxonada davolanganman. Allergiya kuzatilmagan. Naslimiz toza.

**SHIFOKOR** — Bemorni umumiyo ko‘ruvdan o‘tkazadi.

**HAMSHIRA** — Ambulator kartaga ma’lumotlarni qayd qiladi: bemorning qo‘l-oyoq panjalari muzdek, terisi toza, toshmalar yo‘q, elastikligi biroz pasaygan, tomir urishi 1 daqiqada 96 marta, ravon, yurak tonlari biroz bo‘g‘iq, AQB — 100/50, nafas olishi 1 daqiqada 20 marta, o‘pkasida — vezikulyar nafas eshitiladi, qorni — tortilgan, paypaslanganda og‘riqsiz, ammo suvning shildirashi sezilyapti, jigari va qora talog‘i kattalashmagan, sigmasimon ichak elastik holatda, og‘riqsiz, Pasternatskiy simptomi, meningeal belgilari salbiy, umumiy ahvoli o‘rtacha og‘irlikda.

**BEMOR** — Hojatga borish istagini bildiradi.

**SHIFOKOR** — Hamshiraga — bemorning najasi “guruch qaynatilgan suv”ga o‘xshayapti. Bemorda “Forma №30” kasalligi bo‘lsa kerak.

1. Tezda eshik va derazalarni bekiting.

2. Bemor qabul qilishni to‘xtating.

3. Qabulni kutib turgan bemorlarni biri yordamida biron bir tibbiyot xodimini chaqirtirib, bosh shifokorga “Forma №30” kasalligi aniqlanganligi to‘g‘risida xabar beriladi va himoya kiyimlari, tezkor profilaktika uchun dori—darmonlar, bemorni parvarishlash uchun lozim bo‘lgan predmetlar, dori—darmonlar, dezinfeksiyalovchi dori-vositalar, najasini ekish uchun ozuqa muhitlar so‘raladi.

4. Tibbiyot xodimlari himoya kiyimlarini kiyadi (II tip kostyumi).

5. Bemorga lozim bo‘lgan tibbiy yordam ko‘rsatiladi va epidemiyaga qarshi tartibga rioya qilgan holda bemorning parvarishlanishini tashkil qiladi.

6. Joriy dezinfeksiya qiladi (najasini, yuz-qo‘lini yuvgan suvlarni, idish—tuvaklarni va parvarishlashda ishlatilgan predmetlarni).

7. Bemor bilan muloqotda bo‘lganlarning ro‘yhatini tuzadi.
8. Lozim bo‘lsa maslahatchi chaqiradi.
9. Bemorni sanitar avtotransportida evakuatorlar yordamida VABO GOSPITALiga yuboriladi. Evakuatorlar vrach yoki o‘rta tibbiy xodim va 2 ta sanitarkadan iborat bo‘ladi. Ular pijama, jarrohlik halati, shapka yoki kostinka o‘ragan bo‘ladi. Evakotransport xodimlari ish tamom bo‘lgach sanitar zararsizlantirishdan (sanitar obrabotka) o‘tishadi.
10. Dezinfeksiya qilishga kelgan xodimlar o‘latga qarshi II tip kostyum vaungaqa‘shimchaklienkali narukavnik vafartuk, respirator RU—60M yoki RPG—67, A markali patron bilan kiyishadi va ishga kirishadilar.

ShIFOKOR — Forma № 058 to‘ldirib SESga yo‘llaydi.

#### MAVZU: “DIFTERIYA”

Difteriya mavzusini “KIM KO‘PROQ? KIM TEZROQ” nomli interaktiv usul yordamida guruhlarda amaliy mashg‘ulot darsini olib borish

**Uslubning maqsadi:** ma’ruza va amaliy mashg‘ulot bilimlarini mustahkamlash. Kasallikning qiyosiy tashxisi, tashxisini, davolashi va tez yordam ko‘rsatishni bilish.

#### SSENARIY

Davomiyligi 15 daqiqa.

O‘qituvchi 1 daqiqa davomida har bir talabaga savollar beradi. Shu vaqt ichida to‘g‘ri javoblar hisoblanadi. Qancha ball olganiga qarab talaba bilimi baholanadi.

Beriladigan savollar:

1. Difteriya qo‘zg‘atuvchisi qaysi guruuhga kiradi?  
(*Corynebacterium diphtheriae, bakteriya*)
2. Difteriya qo‘zg‘atuvchisining asosiy xossalari ni ayting.  
(*fakultativ aerob. Spora va kapsula hosil qilmaydi, harakatsiz, grammusbat, ekzotoksin ajratadi*)
3. Difteriya tayoqchalari qanday shtammlardan tashkil topgan?  
(*toksigen shtamm, antigenlarga boy, toksigen bo‘lmagan antigeni bo‘yicha toksigenga yaqin, toksigen bo‘lmagan antigenlari miqdor jihatdan turli hil*)

4. Difteriyaning yuqish yo‘llari?

(*havo—tomchi, kontakt, alimentar, uchinchi shaxs orqali*)

5. Difteriyada kasallik manbayini aytинг.

(*bemor odam va bakteriya tashuvchi*)

6. Difteriyaning qanday klinik shakllarini bilasiz?

(*lokalizatsiyalashgan, tarqalgan, kombinirlangan, toksik*)

7. Difteriyaning a‘zolar bo‘yicha qanday shakllarini bilasiz?

(*tomoq, burun, jinsiy a’zolar, ko‘z, krup*)

8. Tomoq difteriyasining qanday klinik shakllarini bilasiz?

(*kataral pardali, subtoksik, toksik, gipertoksik*)

9. Tomoq difteriyasi kataral shaklining qanday 2 ko‘rinishini bilasiz?

(*orolchali, karashlar faqat murtaklarda*)

10. Tomoq difteriyasi subtoksik shaklining qanday 2 ko‘rinishini bilasiz?

(*edematoz — tomoq shishi, bir tomonlama — Morfen shakli*)

11. Tomoq difteriyasi toksik shaklining 2 ko‘rinishini ko‘rsating.

(*gemorragik holatlarsiz, gemorragik holatlar bilan: 1-darajasi — shish bo‘yin o‘rtasigacha; 2-darajasi — shish o‘mrov suyagigacha; 3-darajasi — shish o‘mrov suyagidan pastda joylashadi*)

12. Tomoq difteriyasi orolchali shakli uchun qanday harorat reaksiyasi xos?

(*subfebril 38 C gacha, ayrimlarda normal*)

13. Tomoq difteriyasi orolchali shakli uchun xos og‘riq xarakterini aytинг.

(*bo‘lmaydi yoki sust rivojlangan*)

14. Tomoq difteriyasi orolchali shaklida tomoqning holati qanday bo‘ladi?

(*o‘rtacha giperemiya, karash nuqtasimon, yo‘simon, fibrinoz ko‘rinishida*)

15. Tomoq difteriyasi orolchali shaklida qondagi o‘zgarishlar qanday bo‘ladi?

(*leykotsitoz, neytrofilyoz, EChT ning o‘rtacha oshishi*)

16. Difteriyada asosiy mahalliy patogenetik mexanizmlar nima?

(*epiteliy nekrozi, kapillarlar o‘tkazuvchanligining oshishi, ekssudatsiya, fibrin, trombokinaza ta’sirida fibrinoz plynokanining hosil bo‘lishi*)

17. Difteriyada asosiy umumiy patogenetik mexanizmlar nima?  
*(toksiemiya, qon-tomir sistemasi, buyrak, buyrak usti bezi, nerv sistemasi, ayniqsa periferik zararlanishi)*
18. Tomoq difteriyasi pardali lokalizatsiya shakliga qanday temperatura xos? ( $38\text{--}39^\circ\text{C}$ , *ayrimlarda normal*)
19. Tomoq difteriyasi pardali shaklida og'riqlar xarakteri qanday bo'ladi? (*o'rtacha*)
20. Tomoq difteriyasi pardali shaklida limfa tugunlarining reaksiyasi (*jag' osti limfa tugunlari kattalashgan, kam og'riqli*) qanday o'tadi?
21. Tomoq difteriyasi pardali shaklida murtaklardagi karashning xarakteri qanday?  
*(birinchi kunlarida nozik o'rgimchak ko'rini shida, kulrang, oson ko'chadi, fibrinozli, keyingi kunlarda qalin, shilliq qavat ustidan chiqib turadi, kulrang-oq, qiyinchilik bilan ko'chadi)*
22. Tomoq difteriyasi pardali shaklida qondagi o'zgarishlar qanday?  
*(leykotsitoz, mikrofilyoz, EChTning ortishi)*
23. Tomoq difteriyasi toksik shaklida temperatura reaksiyasi qanday bo'ladi?  
*(yuqori,  $39\text{--}40^\circ\text{C}$  bo'lishi mumkin)*
24. Tomoq difteriyasi toksik shaklida bemorning umumiy ahvoli qanday?  
*(og'ir, holsizlik, adinamiya, yuzning oqarganligi)*
25. Tomoq difteriyasi toksik shaklida tomoqdagi og'riqning xarakteri qabday?  
*(kuchli, dinamikada kamayishi mumkin)*
26. Tomoq difteriyasi toksik shaklida limfa tugunlarining reaksiyasi qanday o'tadi?  
*(jag' osti limfa tugunlari kattalashgan, kam og'riqli)*
27. Tomoq difteriyasi toksik shaklida bo'yin kletchatkasini shishi qanday namoyon bo'ladi?  
*(turli xil darajalarda namoyon bo'ladi)*
28. Tomoq difteriyasi toksik shaklida murtaklarning holati qanday?  
*(o'rtacha giperemiya, murtaklarning, yumshoq tanglayning shishi)*

29. Tomoq difteriyasi toksik shaklida murtaklardagi karash qanday xarakterga ega?

(*fibrinoz, ikkala murtaklarga tarqalgan, tilchaga, ravoqlarga o'tishi mumkin*)

30. Tomoq difteriyasi toksik shaklida qon o'zgarishlari qanday bo'ladi?

(*leykotsitoz, neytrofilyoz, EChT ning ortishi*)

31. Hiqildoq difteriyasining boshlanishi qanday?

(*sekin-astalik bilan*)

32 Hiqildoq difteriyasida harorat reaksiyasi qanday bo'ladi?

(*normal, subfebril*)

33. Hiqildoq difteriyasida yo'talning xarakteri qanday?

(*dag'al, «vovullovochi»*)

34. Hiqildoq difteriyasida ovozning xarakteri qanday bo'ladi?

(*zo'rg'a gapiradi, so'ng afoniya*)

35. Hiqildoq difteriyasida kataral simptomlarning xarakteri qanday? (*bo'lmaydi*)

36. Hiqildoq difteriyasida toshmalar bo'ladimi?

(*bo'lmaydi*)

37. Tomoq difteriyasi orolchali shaklini qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkazish kerak?

(*follikulyar, lakunar angina, zamburug'li—faringomikoz*)

38. Tomoq difteriyasi pardali shaklini qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkazish kerak?

(*Simonovskiy—Rauherusa anginasi bilan, infektion mononukleoz, skarlatinadagi nekrotik angina, leykozdagi nekrotik angina, murtaklarning sifilisi*)

39. Tomoq difteriyasi toksik shaklini qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashhis o'tkazish kerak?

(*paratonzillyar abscess, epid.parotit, infektion mononukleoz, skarlatirnali adenoflegmona*)

40. Hiqildoq difteriyasini qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkazish kerak?

(*gripp, paragripp, adenovirus infeksiyasi, qizamiqli krup, skarlatinali krup, yot jism, halqum papillamatozi*)

41. Difteriyada qanday asoratlar bo‘ladi?  
(*miokardit, polinevrit, pnevmoniya, buyrak va buyrak usti yetishmovchiligi*)
42. Difteriyaning tashxis usullari qanday?  
(*klinik, epidemiologik, bakterial va serologik*)
43. Difteriyani davolashning qanday asosiy usullari bor?  
(*difteriyaga qarshi, antitoksik zardob, degidratatsiya bilan infuzion terapiya, antibakterial terapiya, stimullovchi terapiya*)
44. Difteriyali krupni davolash qanday bo‘ladi?  
(*tinchlik, toza havo, chalg‘ituvchi terapiya, gormonlar, operativ davolash*)

**MAVZU: “QIZAMIQ”  
“QORA QUTICHA” USULI**

1. Qizamiq qo‘zg‘atuvchisi qaysi guruhgaga kiradi?
  - miksovirus guruhiga mansub, RNK tutuvchi, tashqi muhitga chidamsiz, barcha antibiotiklarga chidamli.
2. Qizamiqnini qanday o‘ziga xos asosiy epidemiologik xossalari ni bilasiz?
  - havo oqimi bilan uzoq masofalarga tarqalishi mumkin, yoriqlardan ham o‘tadi.
3. Qizamiqdagi kasallik manbayi nima?
  - turli xil klinik shakli bilan og‘rigan bemor odam.
4. Qizamiqnining yuqumli davri necha kun davom etadi?
  - inkubatsion davrning oxiridan boshlab, asoratlanganda esa toshmalar paydo bo‘lgandan boshlab 10 kungacha.
5. Qizamiq qanday yo‘llar bilan yuqadi?
  - havo—tomchi, yo‘talganda va aksa urganda o‘tadi.
6. Qizamiqdagi kirish yo‘llarini ko‘rsating.
  - yuqori nafas yo‘llarining shilliq qavati shuningdek, ko‘z kon‘yunktivasi bo‘lishi mumkin.
7. Qizamiqdagi kontagiozlik indeksi nechaga teng?
  - kontagiozlik indeki 0,95%ga teng, ko‘proq yosh bolalar 6 oydan 7 yoshgacha kasallanshadi.

8. Qizamiqning faslliligini ko‘rsating.
  - kuz—qish oylarida.
9. Qizamiqda qanday immunitet qoladi?
  - umrining oxirigacha turg‘un.
10. Qizamiqning patogenezi nechta bosqichlardan iborat?
  - virusning kirishi, virusemiya, limfoid retikulogistotsitar hujayralarning zararlanishi.
11. Qizamiq virusi qanday tropizm xususiyatga ega?
  - neytrotrop, dermatrop, epiteliotrop.
12. Qizamiqda inkubatsion davr qancha kun davom etadi?
  - 9—11 kun, 17 kungacha cho‘zilishi mumkin, immunoprofilaktikada 21 kungacha.
13. Qizamiqning boshlang‘ich davrida qanday simptomlar kuzatiladi?
  - tana haroratining ko‘tarilishi, yo‘tal, rinit, kon'yunktivagi peremiyasi, yorug‘likdan qo‘rqish, ko‘zdan yosh oqishi, ovozning bo‘g‘iqlashuvi, yuzning biroz shishganligi, yumshoq tanglay shiliq qavatining enantemasi.
14. Boshlang‘ich davri qancha davom etadi?
  - 3—4-kun.
15. Filatov—Koplik dog‘lari nechanchi kun paydo bo‘ladi?
  - kataral davrning 2—3-kuni.
16. Qizamiqda nechanchi kun toshmalar paydo bo‘ladi?
  - 4—5-kun.
17. Qizamiqda toshmalarning o‘ziga xosligi qanday?
  - toshmalarning etapliligi xos, 1-kun yuzda, bo‘yinda, 2-kun ko‘krakda va qo‘llarda, 3-kun oyoqlarda.
18. Qizamiqda toshmalar xarakterga ega?
  - toshmalar makulopapulyoz, o‘zgarmagan teri fonida qo‘shilish tendensiyasi bilan.
19. Qizamiqdagi toshmalar qanday rangda bo‘ladi?
  - pushti, qizil, sianotik.
20. Pigmentatsiya davri nima bilan xarakterlanadi?
  - ahvoli yaxshilanadi, kataral holatlar kamayadi, toshmalar to‘qlashib, pigmentatsiyalanadi.

21. Pigmentatsiya necha kun bo‘ladi?  
— 1—1,5 hafta.
22. Qizamiqda pigmentatsiya davri nima bilan davom etadi?  
— maydakepaksimon qi piqlanish bilan.
23. Qizamiq qanday klinik shakllarga bo‘linadi?  
— tipik, atipik.
24. Qizamiq kechishi bo‘yicha qanday bo‘ladi?  
— yengil, o‘rtacha og‘ir, og‘ir shakli.
25. Qizamiqning atipikshakli qanday bo‘linadi?  
— emlanganlardagi qizamiq (mitigirlangan qizamiq), yosh bolalardagi qizamiq, boshqa infeksiyalar bilan birgalikdagi qizamiq, kattalardagi qizamiq.
26. Yosh bolalar qizamig‘i mitigirlangan kechganda qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?  
— inkubatsion davrning cho‘zilishi (17—21 kun), kataral davr 1—2 kun, kataral simptom va rinit kuchsiz ifodalangan, pigmentatsiya davri kuchsiz yoki umuman bo‘lmaydi.
27. Yosh bolalardagi qizamiq kechishining o‘ziga xos xususiyatlarni ayting?  
— kataral davri qisqa 1—2 kun, subfebril harorat, kon'yunktivit va rinit kuchsiz ifodalangan, Belskiy—Filatov—Koplik dog‘lari doimiy emasligi, toshmalar ko‘p emas tez yo‘qoladi, pigmentatsiya yaqqol ifodalangan, og‘ir intoksikatsiya, asoratlarning erta rivojlanishi.
28. Qizamiqda qanday asoratlar kuzatiladi?  
— laringit, faringit, traxeobronxit, pnevmoniya, rinit, sinusit, stomatit, ensefalit, meningit, blefarit, keratit.
29. Qizamiqda qanday laborator tekshiruvlar o‘tkaziladi?  
— RTGA, RSK, RN — bu reaksiyalar 2 marta juft zardoblar bilan bajariladi.
30. Qizamiqda qanday davolash bajariladi?  
— yotoq rejimi, ko‘z, burun va og‘iz bo‘shlig‘ini parvarish qilish;  
— ko‘p suyuqlik ichish, sutli, har xil ko‘katlarga boy, vitaminlashgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilish;

- antigistamin preparatlar;
  - simptomatik davo, asoratlangan va og‘ir shakllarida antibiotiklar va glyukokortikosteroidlar.
31. Qizamiq profilaktikasi qanday o‘tkaziladi?
- Tirik qizamiq vaksinasi bilan faol emlash o‘tkazish (JKV L—16, Ruvaks, MMR (qizamiq, qizilcha, tepki).
  - Vaksinatsiya sxemasi — 9 oy va 16 oy.
  - Passiv immunizatsiya — qizamiqqa qarshi donor immunoglobulini, muloqotning 3—5-kuni yuboriladi.
  - Umumiy epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar — toshma toshgandan to 5—kunigacha, asoratlar bo‘lganda esa 10-kunigacha bemorni izolyatsiya qilish.
  - Bolalar muassasalarida 21 kunlik karantin e’lon qilinadi.
32. Qizilchaning qo‘zg‘atuvchisi qaysi guruhga kiradi?
- virus RNK tutadi, *Togaviridae* oilasi, *Rubivirus* turiga mansub, tashqi muhitga chidamli, antibiotiklarga sezuvchan emas.
33. Infeksiya manbayi nima?
- bemor odam, sog‘lom virus tashuvchi.
34. Qizilchaning yuqumli davri qancha davom etadi?
- 1—2 kun toshma paydo bo‘lganigacha va toshma paydo bo‘lgach 5 kundan so‘ng tugallanadi.
35. Qizilcha qanday yo‘llar bilan yuqadi?
- havo—tomchi, shiningdek onadan homilaga o‘tishi mumkin.
36. Qizilchaning kirish yo‘llarini ko‘rsating.
- yuqori nafas yo‘llarining shilliq qavati.
37. Qizilchada qanday yoshdagilar ko‘proq kasallanadi?
- 2 yoshdan 10 yoshgacha shuningdek, ko‘pincha kattalar ham.
38. Qizilchada qanday immunitet qoladi?
- turg‘un, umrining oxirigacha.
39. Qizilchaning faslliligi?
- qish—bahor oylarida.
40. Qizilcha patogenezinining o‘ziga xosligi?
- limfatik va embrional to‘qimani zararlaydi.

41. Qizilchada inkubatsion davr qancha davom etadi?
- 11 kundan 24 kungacha (ko‘pincha 16—20 kun).
42. Qizilchada prodromal davr kechishining o‘ziga xosligi?
- ko‘pincha bo‘lmaydi, ayrimlarda 1—2 kun.
43. Qizilchada kasallikning nechancha kunidan boshlab toshmalar paydo bo‘ladi?
- kasallikning 1—3-kunlaridan.
44. Qizilchada ko‘pincha qayerda toshmalar joylashadi?
- yozuvchi yuzalarda, dumbada va bo‘yinda.
45. Qizilchada toshmalar xarakteri qanday bo‘ladi?
- toshmalar mayda, dog‘simon, pushti—qizil rangda.
46. Toshmalar necha kun bo‘ladi?
- 3 kundan 5 kungacha.
47. Qizilchaning kattalarda kechishidagi o‘ziga xos tomonlarini aytинг?
- kasallik og‘ir kechadi, yuqori harorat bilan, bosh va mushak og‘riqlari, limfa tugunlari keskin kattalashadi.
48. Qizilchada qanday asoratlar bo‘ladi?
- meningokokkli meningoensefalit, homiladorlarda bolasining majruh tug‘ilishi, bola tashlash, homilaning o‘limi.
49. Qizilchada laborator diagnostikasi?
- RTGA, juft zardob 10 kun interval bilan, periferik qonda — leykopeniya, limfotsitoz, plazmatik hujayralarning paydo bo‘lishi.
50. Qizilchani qaday davolanadi?
- simptomatik.

---

## **TALABALAR BILIMINI MUSTAHKAMLASH UCHUNVAZIYATLI MASALALARDAN NA'MUNALAR**

### **1-vaziyatli masala.**

Ich terlama bilan og'igan bemorda kasallikning 14-kuni qornining o'ng yarmida og'riq paydo bo'ldi.

Ko'rikda: tili quruq, kir—kulrang karash bilan qoplangan. Puls daqiqasiga 120 ta, ritmik. Qorni taranglashgan, nafas olishda qatnashmaydi. Najas va siyidik ajratishi tutilishi kuzatilmoxda.

1. Bemor ahvolining og'irlashishiga sabab nima?
2. Bemorda siz qanday obyektiv tekshiruvlarni o'tkazishingiz kerak?
3. Bemorning umumiy qon tahlilida qanday natijalarini kutayapsiz?
4. Qaysi kasalliklar bilan taqqoslash kerak?
5. UASH taktikasi.

### **2-vaziyatli masala.**

Bemor K., 16 yoshda, litsey o'quvchisi. Kasallik 7 kun oldin quvvatsizlik, lohaslik, bosh og'rig'i, tana haroratining ko'tarilishi ( $38^{\circ}\text{C}$ ) bilan boshlangan. Uchastka vrachi O'RVII tashxisini qo'yib, uyda davo buyurgan. Kasallikning 3-kuni isitmasi tushgan, siyidik rangi o'zgargan. Keyinchalik atrofdagilar bemorning ko'zi va terisida sariqlik ko'rganlar.

Obyektiv: teri qoplamlari va ko'z skleralari ikterik (++) . Yurak tonlari bo'g'iqlashgan, puls daqiqasiga 64 ta, AQB 100/60 mm.sim.ust., tili oqish—kulrang karash bilan qoplangan. Qorni yumshoq, o'ng qovurg'a ostida og'riqli. Jigar qovurg'a ravog'idan 3 sm, pastda, qattiqlashgan, sezgir. Taloq kattalashmagan. Peshob — «pivo» rangida. Najasi aholik.

1. Taxminiy tashxis qo'ying?
2. Qanday laborator tekshiruvlar sizga tashxis qo'yishga yordam beradi?

3. Qaysi kasalliklar bilan taqqoslash kerak?
4. UASH taktikasi.

### **3-vaziyatli masala.**

Bemor M., 39 yoshda. Kasallikning 12-kuni murojaat qildi. Shikoyatlari: keskin quvvatsizlik, ko‘ngil aynishi, qayta quşish, teri va sklerasining sariqligiga. Kasallikning birinchi 10 kunida holsizlik, ishtahaning pasayishi, ko‘ngil aynishi, quşish kuzatilgan. Tana harorati subfebril darajada bo‘lgan.

Obyektiv: teri qoplamlari va sklerasi ikterik (+++). O‘pkada vezikular nafas. Yurak tonlari biroz bo‘g‘iq. Tili karash bilan qoplangan. Jigar qovurg‘a ostidan +4 sm, chiqqan, qattiqlashgan. Taloq kattalashgan.

Anamnezida: 2 oy oldin yara kasalligi tufayli, qon yo‘qotganligi sababli unga qon quyilgan.

1. Sizing taxminiy tashxisingiz?
2. Qanday laborator tekshiruvlar sizga tashxis qo‘yishga yordam beradi?
3. Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy taqqoslash kerak?
4. UASH taktikasi.

### **4-vaziyatli masala.**

Bemor K., 25 yoshda, kasallikning 7-kuni bosh og‘rishi, holsizlik ishtahasizlik, tana haroratining ko‘tarilishi kabi shikoyatlar bilan murojaat qilgan. Kasallik tana haroratini 38 C gacha ko‘tarilishi va bosh og‘rishidan boshlangan. Keyingi kunlarda tana harorati yana 39 C gacha va undan yuqori ko‘tarilishi, bosh og‘rishi kuzatilgan, holsizlik kuchaygan, uyqusi buzilgan.

Ko‘rikda bemor lanj, adinamik, tormozlangan, muloqotga xohlamay kirishadi. Yuzi kerkkan, shishgan. Puls daqiqasiga 76 ta, o‘rtacha to‘liqlik va taranglikda. Yurak tonlari bo‘g‘iqlashgan. AQB 100+60 mm sim.ust. Qorni shishgan, Padalka simptomni musbat. Jigar qovurg‘a ravog‘idan 1,5 sm pastda, o‘rtacha qattiqlikda. Ichi kelmagan.

1. Qaysi kasallik haqida o‘ylash mumkin?
2. Qanday laborator tekshiruvlar sizga tashxis qo‘yishga yordam beradi?

3. Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy taqqoslash kerak?
4. UASh taktikasi.

### **5-vaziyatli masala.**

Bemor G., 35 yoshda, kasallikning 10-kuni yuqori harorat, bosh og‘rishi, ishtahaning susayishiga shikoyat qilib murojaat qilgan.

Kelganda bemor ahvoli og‘ir. Bemor xushida, tormozlangan. Teri qoplamlari va shilliq qavatlari rangpar. Puls daqiqasiga 100 ta. Tana harorati 39°C. Klinikada qorin tifi tashxisi qo‘yilgan. Kasallikning 19-kuni bemorning tana harorati birdan 35,5 C gacha tushgan, taxikardiya, yuzida ter, qoramoysimon najas paydo bo‘lgan.

1. Bemorda qanday asorat rivojlangan?
2. Tashxisni tasdiqlash uchun siz qanday laborator tekshiruvlar o‘tkazishingiz kerak?
3. UASh taktikasi.

### **6-vaziyatli masala.**

Bemor M., oshxonada tovuq go‘shti iste’mol qilgan, 2 soatdan so‘ng keskin holsizlik, qorinda og‘riq, ko‘ngil aynishi va quşish kuzatilgan. Tana harorati 37,8°C. Ichi kelmagan.

Kelganda ahvoli o‘rtacha og‘irlikda, tana harorati 38,5°C, yuzi gi peremiyalangan. Puls minutiga 88 ta. AQB 135/75 mm, sim.ust., yurak tonlari o‘zgarmagan. Tili nam, quyuq karash bilan qoplangan. Qorni yumshoq, najasdan bakteriologik tekshiruvda *Salm. typhimurium* ajratib olingan. Klinik sog‘ayish kasallikning 3-kuni kuzatildi.

1. Bemorga tashxis qo‘ying.
2. Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash kerak?
3. UASh taktikasi.
4. Infeksiya o‘chog‘ida qanday epidemiyaga qarshi chora—tadbirlar o‘tkazilishi kerak?

### **7-vaziyatli masala.**

Bemor P., 19 yoshda, qorindagi keskin xurujsimon og‘riqqa, tez-tez og‘riqli ich ketishiga (kasallikning birinchi 6 soatida ich

kelishini hisoblab bo‘lmagan), bosh og‘rishiqa, bosh aylanishiga, tana haroratining 38°C gacha ko‘tarilishi kabi shikoyatlar bilan murojaat qilgan.

Anamnezidan kasallik o‘tkir, 6 soat oldin boshlangan.

Ko‘rvuda: bemor umumiyligi ahvoli og‘ir, lanj, rangpar, teri qopqlamlari quruq, toza. Puls daqiqasiga 100 ta. Nafas — vezikular. Yurak tonlari bo‘g‘iqlashgan. AQB 90/60 mm sim.ust., tili nam, kulrang karash bilan qoplangan. Qorni biroz shishgan, yo‘g‘on ichak bo‘ylab og‘riq kuzatiladi. Sigmamonichakda infiltratsiya va og‘riq aniqlanadi, tenezmlar kuzatiladi.

1. Taxminiy tashxisni qo‘ying.
2. Bemorga tekshiruv rejasini tayinlang.
3. Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash kerak?
4. UASH taktikasi.

## **8-vaziyatli masala.**

Bemor I., 40 yoshda, kasallik o‘tkir boshlangan. Kasallik ich kelishlar sonining tezlashishi bilan boshlangan, keyin quшив qo‘shilgan. Anamnezidan aniqlandiki: 1 hafta oldin Hindistondan kelgan, u yerda bir necha oylar davomida vabo bilan kasallanish hollari uchragan.

Ko‘rvuda shifokor suvsizlanish belgilari bilan enterit klinikasini aniqlagan.

1. Bemorga tashxis qo‘ying.
2. Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashhislash kerak?
3. UASH taktikasi.
4. Infeksiya o‘chog‘ida qanday epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazilishi kerak?

## **9-vaziyatli masala.**

Bemor S., 12 yoshda, bo‘limga quyidagi shikoyatlar bilan kelgan: qorinning kindik atrofi sohasidagi og‘riqqa, ko‘ngil aynishiga, ovqat bilan bog‘liq bo‘lmagan to‘satdan quшивга, holsizlikka, uyqusining buzilishiga. Bu shikoyatlar onasining so‘ziga qaraganda yarim yildan beri bor. Shifokorga murojaat qilishmagan. 2 kun oldin onasi qusuq massasida 20—30 sm keladigan oq pushti

rangli chuvalchang ko'rib qolgan. Shundan so'ng mahalla shifokoriga murojaat qilishgan va statsionarga yuborilgan.

Ko'rikda yuzi rangpar, teri qoplamlari toza, yurak tonlari biroz bo'g'iqlashgan, puls 80 ta, ritmik. Qorni yumshoq, palpatsiyada kindik atrofi sohasida va ko'r ichakda og'riq bor. Jigar va taloq kattalashmagan. Ich kelishi odatdagidek, umumiy ahvoli o'rtalig'li. Og'irlikda.

1. Dastlabki tashxis.
2. Tekshiruv rejasini tuzing.
3. UASh taktikasi.

### **10-vaziyatlari masala.**

Bemor 29 yoshda. Kasallik o'tkir boshlangan: qayt qilgan, bosh og'rishi, peshona, qosh ustida og'riq, mushak—bo'g'img'indan og'riq, adinamiya kuzatilgan. Kasallangandan bir necha soat oldin hushini yo'qotgan.

Klinikaga kelganda — umumiy ahvoli og'ir, harorati 39,5°C, atrofga noadekvat munosobatda, nojo'ya harakatlar qilgan.

Ko'rikda yuz giperemiyasi, kon'yunktivit. Lablariga uchuqlar toshgan, o'pkada quruq xirillashlar, perkutor o'pka tovushi. Puls ritmik 75 ta. Yurak tonlari bo'g'iqlashgan. AQB 90/60 mm sim.ust. Ensa mushaklarining rigidligi oshgan. Orqa miya punksiya qilindi. Likvor bosimi 250 mm<sup>3</sup> suv ust. Likvor tekshiruvda: rangsiz, tiniq, sitoz — 51/mm<sup>3</sup>, qand — 1,8 mmol/l. Pandi reaksiyasi manfiy.

1. Dastlabki taxminiy tashxis qo'ying.
2. Tashxisni asoslash uchun zarur bo'lgan tekshiruv usullarini ko'rsating.
3. UASh taktikasi.

---

## YUKUMLI KASALLIKLAR FANIDAN 3-DARAJALI TESTLARDAN NA'MUNALAR

1, Bemor, 25 yosh. Kasalxonaga kasallikning 7-kuni quyidagi shikoyatlar bilan keltirildi: bosh og'rig'i, ishtahasizlik, yuqori tana harorati. Kasallik tana haroratining 38°C ko'tarlishi, bosh og'rig'i bilan boshlangan. Keyingi kunlar tana harorati 39°C va undan yuqori bo'lgan, bosh og'rig'i kuchaygan. Ko'rik vaqtida tana harorati 39,5°C, bemor holsiz, kamharakat, savollarga xohlamay javob bermoqda. Yuzi oqarinqiragan. Puls 78 marta. AQB 100/60 mm sim.ust. Qorin damlangan, Padalka belgisi ijobiy. Jigar 1,5 sm kattalashgan. Ichi kabziyatga moyillik.

A. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying:

- A) vabo;
- B) ichburug';
- C) qorin tifi (ichterlama)\*;
- D) iersinioz
- E) salmonellyoz;

B. Tashxisni asoslash uchun qanday laborator tekshiruvlar o'tkazish kerak?

- A) o'tli bulonga gemokultura\*;
- B) qorin bo'shligini rentgenda tekshirish;
- C) siydiq va najasdan bakteriologik ekma\*;
- D) orqa miya suyuqligi olish;
- E) Vidal serologik reaksiyasi\*;

D. Bemorni kasalxonadan chiqarish shartlarini ko'rsating:

A) tana harorati me'yoriga kelgach 7 kundan keyin va najas ekmasingin bir marta salbiy natijasidan so'ng;

B) najas va siydikning 3 marotaba, o't suyuqligi ekmasingin bir marotaba salbiy natijasidan keyin\*;

- C) tana harorati me'yoriga kelgach 21 kundan keyin\*;
- D) tana harorati me'yoriga kelgach 3 kundan keyin;

E. Bemorni davolash rejasini tuzing:

- A) yotoq holati, parhez stol № 1a\*;

- B) antibiotiklar, dezintoksikatsion terapiya\*;
- C) jarrohlik yo‘li bilan davolash;
- D) oshqozonni chayish va tozalovchi klizma;
- E) belgilar bo‘yicha davolash\*

F. Bemorda yurak-qon tomirlar sohasida qanday o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin?

- A) nisbiy bradikardiya\*;
- B) AQB ning ko‘tarilishi;
- C) puls dikrotiyasi\*;
- D) taxikardiya;

J. Bemor ingichka ichagida kasallikning avj olgan davrida qanday patomorfologik o‘zgarishlar kuzatiladi?

- A) shilliq qavatlar atrofiyasi;
  - B) limfa tugunlarida yaralar\*;
  - C) limfa tugunlarida nekrotik yallig‘lanishlar\*;
  - D) shilliq qavatlarga qon quyilishlar;
- H. Bemorda kasallikka xos qanday asoratlarni ko‘rish mumkin?
- A) ichaklar tutilishi;
  - B) ichakdan qon ketishi\*;
  - C) to‘g‘ri ichakning chiqib ketishi;
  - D) infeksion-toksyk karaxtlik\*;
  - E) ichaklar invaginatsiyasi;

I. Bemorda ichakdan qon ketishida ko‘rsatiladigan davolash choralar:

- A) izotonik eritmalar quyish;
- B) tezda jarrohlik muolajasi;
- C) qoringa muzli halta qo‘yish, muz bo‘lakchalari yuttirish\*;
- D) qat‘iy yotoq holati, 15 soat davomida ovqatlanmaslik\*;
- E) qon ivishini oshiruvchi dorilar\*.

2. Bemor K. Bozordan olingan somsa yeganidan so‘ng 4—5 soat o‘tgach kasallingan. Shikoyatlari qorinda og‘riq, qizib ketish, qaltirash, tana haroratining ko‘tarilishi, ikra mushaklarida tirishishlar, ich ketishi, ko‘ngil aynash, qayt qilishga. Ich kelishi suyuq, tez-tez, ko‘kimir, badbo‘y hidli, shilliq va qonsiz.

A. Bemorga taxminiy tashxis qo‘ying;

- A) salmonellyoz gastroenterit shakli\*;  
B) o'tkir ichburug' kolit shakli;  
C) vabo og'ir kechishi;  
D) stafilokokk infeksiyasi;  
E) ichak amebiazi;
- B. Tashxisni asoslash uchun laborator tekshiruvlarni ko'rsatning:  
A) ichaklarni rentgen yordamida tekshirish;  
B) salmonellyoz diagnostikumi bilan RNGA reaksiyasi\*;  
C) najasning bakteriologk ekmasi\*;  
D) qorin bo'shlig'i laparoskopiyasi;  
D. Bemorni davolash rejasini tuzing:  
A) dezintoksikatsion davolash\*;  
B) degidratatsion davolash;  
C) regidratatsion davolash\*;  
D) vaksina bilan davolash;  
E. Bemorda qanday asorat kuzatilishi mumkin?  
A) gi povolemik karaxtlik\*;  
B) anafilaktik karaxtlik;  
C) postgemorragik karaxtlik;  
D) ichaklardan qon ketishi;  
F. Kasallikni qanday kasalliklar bilan taqqoslash kerak?  
A) brutsellyoz;  
B) ichak iersiniozi\*;  
C) esherixioz\*;  
D) ornitoz;  
E) ichburug'\*.

3. Bemor A. 19 yosh. Shikoyatlari qorinda tez-tez xuruqli og'riq borligiga, ich kelishidan oldin bo'ladigan og'riqqa, bosh og'rig'i, qaltirash, tana haroratining 38 C gacha ko'tarilishiga, ichning oz-ozdan tez-tez ketishiga. Umumiy ko'rikda: o'pka va yurak sohasida o'zgarishlar yo'q. Qorin bir oz damlangan, yo'g'on ichaklar bo'ylab og'riqli, sigmasimon ichak qalinlashgan.

- A. Bemorga qanday taxminiy tashxis qo'yish mumkin?  
A) o'tkir ichburug' kolitik shakli\*;

- B) salmonellyoz enterit shakli;  
C) iersinioz tarqalgan shakli;  
E) brutsellyoz yarim o'tkir shakli;
- B. Bemorda ko'rikdag'i belgilarga ko'ra qanday sindromlar kuzatilmoqda?
- A) gipertenziy sindrom;  
B) intoksikatsiya sindromi\*;  
C) meningial sindrom;  
D) kolit sindromi\*;  
E) enterit sindromi;
- D. Ichburug'da yo'g'on ichaklarda qanday patomorfologik o'zgarishlar kuzatiladi?
- A) mayda va yirik granulemalar;  
B) o'tkir kataral va fibroz—nekrotik yallig'lanish\*;  
C) yaralar paydo bo'lish bosqichi, yaralar bitishi va yuzaki chandiqlar\*;  
D) yo'g'on ichaklar shilliq qavati atrofiyasi;  
E) ichaklarda chuqur va yirik chandiqlar;
- E. O'tkir ichburug'ni qanday kasaliklar bilan taqqoslash kerak?
- A) brutsellyoz;  
B) ichak amebiaizi\*;  
C) to'g'ri ichak o'sma kasalligi\*;  
D) ichterlama;  
E) nospesifik yarali kolit\*
- F. Bemorni davolash rejasini ko'rsating:
- A) garmonlar bilan davolash;  
B) dezintoksikatsion va regidratatsion davolash\*;  
C) zardoblar bilan davolash;  
D) vaksina bilan davolash;  
E) antibiotiklar berish\*;
- G. Bemorga tashxis qo'yishda asos bo'ladigan tekshirish usullarini ko'rsating:
- A) najasning bakteriologk ekmasi\*;  
B) qorin bo'shlig'ini skanirovaniya usulida tekshirish;  
C) kolonofibroskopiya\*;

D) qorin bo'shlig'ini rentgen qilish;  
E) ichburug' diagnostikumi bilan RNGA\*;  
H. Bemordagi kasallikda kasallik manbayi bo'lib hisoblanadiganini ko'rsating:

- A) bemor hayvonlar;
- B) bakteriya tashuvchi\*;
- C) bemor odam\*;
- D) bemor qushlar;
- E) bemor baliqlar.

4. Bemor 40 yosh. Kasallik o'tkir boshlanib avval ich ketishi, keyinchalik qayt qilish kuzatilgan. Bemor 3—4 kun oldin Hindistondan kelgan va u yerda shunga o'xshash bemorlar borligini aytgan. Ko'rik vaqtida bemorda enterit va suvsizlanish belgilari kuzatilmogda.

- A. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying:
  - A) vabo, kolit shakli;
  - B) vabo, enterit shakli\*;
  - C) salmonellyoz gastroenterokolit shakli;
  - D) iersinioz tarqalgan shakli;
- B. Tashxisni asoslash uchun qanday laborator tekshiruvlar o'tkazish kerak?
  - A) gemokultura;
  - B) siyidik ekmasi;
  - C) qusuq moddalarini 1% li pepton suviga ekish\*;
  - D) najas moddalarini 1% li pepton suviga ekish\*;
  - E) virusologik tekshirish;
- D. Kasallik o'chog'ida qanday epidemik choralar o'tkazilishi kerak?
  - A) bemorni tez yordam mashinasida kasalxonaga yuborish;
  - B) bemorni maxsus mashinada kasalxonaga yuborish, shoshilinch xabarnoma yuborish\*;
  - C) epidemiolog vrachga berish uchun muloqatda bo'lganlar ro'yxatini tuzish\*;
  - D) bemor ajratmalaridan olib bakteriologik ekma o'tkazish uchun yuborish\*;

E) bemorni tezda alohidalash\*;  
E. Bemorni davolash rejasini ko'rsating:

- A) kimyoterapiya;
- B) regidratatsion davolash\*;
- C) degidratatsion davolash;
- D) dezintoksikatsion davolash\*;
- E) gormonoterapiya;

F. Vabo kasalligi qo'zg'atuvchisini ko'rsating:

- A) vibriolar\*
- B) rikketsiyalar;
- C) viruslar;
- E) klibsiellalar;

G. Bemorda qanday asorat kuzatilishi mumkin?

- A) Kvinke shishi
- B) o'tkir buyrak yetishmovchiligi\*;
- C) anafilaktik karaxtlik;
- D) bosh miya shishishi;
- E) gipovolemik karaxtlik\*;

5. Bemor K. 49 yosh. Shikoyatlar: suv ichganda qalqib ketish, ovqatlarni yuta bilmaslik, ovozning bo'g'ilishi, ko'rishning xiralashishi, diplopiya, havo yetishmasligiga. Kasallikuy sharoitida tayyorlangan konservali bodring yeganidan so'ng 48 soat o'tgach boshlangan. Umumiyo ko'rikda: tili quruq, oq-sarg'ish karashli, yumshoq tanglay til o'zagiga osilib tegib turibdi, gapirishi mankalangan, ko'z qovoqlari yumilgan, ko'proq o'ng tomonda. AQB 120/80 mm sim.ust. Ahvoli og'ir.

A. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying:

- A) meningoensefalit;
- B) stafilokokk infeksiyasi;
- C) botulizm, og'ir kechishi\*;
- D) salmonellyoz og'ir kechishi;
- E) halqum difteriyasi;

B. Botulizmni qanday kasalliklar bilan taqqoslash kerak?

- A) salmonellyoz og'ir kechishi;
- B) zaharli ximikatlar, qo'ziqorinlar bilan zararlanish\*;

- C) metil spirti bilan zaharlanish\*;  
D) meningokokksemya va meningo;  
E) ishemik insultlar\*;
- D. Tashxisni asoslash uchun qanday laborator tekshiruv o'tkazish kerak?
- A) qon va najasning bakteriologik ekmasi;  
B) botulotoksinni qonda va siyidikda aniqlash\*;  
C) koproovoskopiya usuli;  
D) virusologk tekshiruv;  
E) biologik sinama\*;
- E. Bu bemorni davolash rejasini ko'rsating:
- A) botulizmga qarshi zardob yuborish\*  
B) dezintoksikatsion va antibiotiklar\*;  
C) garmon va vaksina bilan davolash;  
D) to'g'ridan-to'g'ri qon quyish;  
E) vitaminoterapiya\*;
- F. Bemorda qanday asoratlar kuzatilishi mumkin?
- A) infeksion miokardit\*;  
B) gipovolemik karaxtlit;  
C) nafasning to'xtab qolishi, asfiksiya\*;  
D) oyoq—qo'llar falaji;  
E) leptomeningit.

6. Bemor 12 yosh, shikoyatlari vaqtiga vaqtiga bilan qorinda kindik atrofida og'riq bo'lishiga, ko'ngil aynashga, ayrim vaqtlar to'satdan qayt qilishga, uyquning notinchligiga, tez-tez charchab qolishga. Bu holatlar bemorda bir yildan beri kuzatilmoqda. 2 kun oldin bemor onasi qusuq moddasidan 10—12 sm kattalikdagi oqimtir qizg'ish rangli chuvalchang ko'rgan va vrachga murojaat etgan.

- A. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying:
- A) askaridoz\*;  
B) enterobioz;  
C) trixotsefalyoz;  
D) tenioz;  
E) trixinellyoz;

B. Tashxisni asoslash uchun qanday laborator tekshiruvlar o'tkazish kerak?

- A) ilik holda koproovoskopiya\*;
  - B) najas va siydikning bakteriologik ekmasi;
  - C) qonda yuqori eozinafilalar bo'lishi, serologik tekshiruv\*;
  - D) lozim topilganda ichaklarni va o'pkaning rentgen tekshiruvi\*
  - E) gemokultura va bilikultura;
- D. Anamnezida qo'shimcha qanday ma'lumotlar yig'ish kerak?
- A) jarohat olganligi;
  - B) organizmdagi har turli allergik o'zgarishlar\*;
  - C) teri qoplamlari jarohati;
  - D) yaxshi yuvilmagan meva va sabzavotlar yeyish, ochiq suv havzalarida cho'milish\*;
  - E) sut mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish;
- E. Kasallikda kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratni ko'rsating:
- A) mexanik sariqlik, asfiksiya\*;
  - B) ichki a'zolarda va qon tomirlarda tromboz;
  - C) jigar absessi, peritonit\*;
  - D) mayda suyaklar sinishi;
  - E) ichaklar tutilishi\*
- F. Bemorni davolash usullarini ko'rsating:
- A) piperazin adipinat\*;
  - B) degidratatsion davolash;
  - C) vermoks, kombantrin\*;
  - D) keng doirada ta'sir qiladigan antibiotiklar berish;
  - E) dekaris (levomizol)\*

7. Bemor S, 64 yosh, kasalxonaga kasallikning 16-kuni quyidagi shikoyatlar bilan keltirildi: uyquning yomonligi, ishtahasizlik, ko'ngil aynash. Kasallik asta-sekin nohushlik, kuchayib boruvchi holsizlik, ishtahasizlik, o'ng qovurg'a ostida simillab og'riq bo'lishi, ko'ngil aynash kuzatilgan. Kasallikning 12-kuni siydiq rangi to'qlashgan va ko'z sklerasi sarg'aygan, terisi qichishgan. Anamnezida 4 oy oldin jarrohlik muolajasi olgan va qon quyilgan.

- A. Bemorga qanday taxminiy tashxis qo'yish mumkin?
- A) iersinioz;

- B) virusli hepatit C\*;  
C) leptospiroz;  
D) virusli hepatit B\*;  
E) infekzion mononukleoz;
- B. Tashxisni asoslash uchun qanday laborator tekshiruvlar o'tkazish kerak?
- A) gemokultura;  
B) qonda BGB va BGS markerlarini aniqlash\*;  
C) timol sinamasi va ishqoriy fosfotazani aniqlash\*;  
D) oshqozon-ichak sistemasini rentgenografiya qilish;  
E) qonda bilirubin va fermentlar miqdorini aniqlash\*;  
D. Virusli hepatitlardagi sitolitik sindromni ko'rsating:  
A) qonda ALT va AST miqdorining ortishi\*;  
B) qonda HBsAg ning ko'payishi;  
C) qonda timol sinamasining ko'tarilishi;  
D) qonda sulema sinamasining ortishi;  
E. Virusli hepatitlarda xolestatik sindromni ko'rsating:  
A) protrombin indeksining kamayishi;  
B) qonda sulema sinamasining ortishi;  
C) qonda timol sinamasining ko'tarilishi;  
D) qonda ALT va AST miqdorining ortishi;  
E) qonda bilirubinlar miqdorining ortishi\*;  
F. Bemorni qanday kasalliklar bilan taqqoslash kerak?  
A) bezgak;  
B) stolbnyak;  
C) mexanik sariqlik\*;  
D) gemolitik sariqlik\*;  
E) salmonellyoz;  
G. Bemorni davolash rejasini ko'rsating:  
A) fizioterapiya;  
B) kimoterapiya;  
C) vaksina bilan davolash;  
D) katiy yotoq holati, parhez stol № 5a\*;  
E) dezintoksikatsion davolash\*;

8. Bemor Z. 36 yosh, kasallikning 5-kuni, sariqlikning 4-kuni keltirilgan. Kasallik o'tkir boshlanib ko'p marotaba qayt qilgan, notinchlik, kuchli ishtahasizlik, terisi va ko'z sklerasida sariqlik kuzatilgan va bu belgilar tezda kuchaygan. Kelganda ahvoli o'ta og'ir, alahsirash, og'zidan «jigar hidi», «kofe quyqasi» ko'rinishida qayt qilish kuzatilgan. Inyeksiya o'rinalarida qontalashishlar bor. Anamnezida 2 oy oldin jarrohlik muolajasi olgan.

- A. Bemorga to'liq taxminiy tashxis qo'ying:
- A) iersinioz mahalliy shakli;
  - B) leptospiroz tarqalgan shakli;
  - C) virusli gepatit B, gepatodistrofiya, koma 2-darajasi\*;
  - D) brutsellyoz septikometastatik shakli;
  - E) listesteroz tarqalgan shakli;
- B. Tashxis qaysi klinik belgilarga asoslangan holda qo'yilgan?
- A) kasallikning o'tkir boshlanishi, sariqlikning ortishi, og'izdan jigar hidi kelishi\*;
  - B) kuchli notinchlik, «kofe quyqasi» simon qayt qilish, gemorragik sindrom\*;
  - C) sariqlknig ortishi, inyeksiya o'rinalarida qon quyilishlar\*;
  - D) qorinda og'riq, tirishishlar, ichning suyuq ketishi, tenezmlar;
  - E) teri rangining oqorganligi, bradikardiya, artralgiya;
- D. Bemorga tashxis qo'yishda asos bo'ladigan laborator tekshiruvlarni ko'rsating:
- A) qon biokimyo analizi\*;
  - B) najas va o't suyuqligi bakteriologik ekmasi;
  - C) qonni BGB, BGS, BGD markerlariga tekshirish\*;
  - D) qon umumiy analizi, urinokultura;
  - E) qon ivish sistemasi ko'rsatgichlari\*;
- E. Bemorni davolash rejasini ko'rsating:
- A) degidratatsion davolash;
  - B) proteolitik fermentlar ingibitorlari — kontrikal, trasilol, gordoks\*;
  - C) gormonlar, qon va qon elementlari, vitamin\*;
  - D) kimyoviy usul va vaksinalar bilan davolash;
  - E) dezintoksikatsion davolash — gemodez, reopoliglyukin va h.k.\*;

9. Ilgari virusli gepatit o'tkazgan bemorda punksion biopsiya qilinganda yil davomida jigarda tarqalgan yallig'lanish jaroyoni kuzatilgan va bunda jigarning bo'lakchalari buzilmagan, parenximasni buzilmagan.

A. Bemorda kasallikning qanday yakuni kuzatilgan?

- A) jigar sirrozi;
- B) surunkali virusli gepatit\*;
- C) jigar karsinomasi;
- D) jigar kistasi;
- E) jigar abscessi;

B. Surunkali gepatitlarning tasnifi qanday?

- A) surunkali uzlusiz gepatit;
- B) surunkali replikativ gepatit\*;
- C) surunkali cho'zilgan gepatit;
- D) surunkali integrativnoy gepatit\*;
- E) surunkali tugunchali gepatit;

D. Jigar sirrozining tasnifi qanday?

- A) mayda nekrozli;
- B) yirik donachali;
- C) makronodulyar (nekrozdan keyingi)\*;
- D) mikronodulyar (portal septal)\*;
- E) biliar sirroz\*;

E. Bemorga yakuniy tashxis qo'yish uchun qanday laborator usullar qo'llaniladi?

- A) jigarni rentgenda tekshirish;
- B) UZI, jigarni skaner va radioizotop usulida tekshirish\*;
- C) jigar biopsiyasi, VGV, VGS markerlari\*;
- D) rektoromanoskopiya;
- E) irrigoskopiya.

10. Bemor I. 25 yosh, qandolatchilik sexida ishlaydi. Tekshiruvda najasdan Sh.Flexneri 3a topilgan. Klinikaga kelganida va anamnezida ichaklar faoliyatida o'zgarishlar bo'lmasligi.

A. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying:

- A) o'tkir ichburug' gastrointestinal shakli;
- B) tranzitor bakteriya tashuvchi\*;

- C) o‘tkir ichburug‘ — subklinik shakli\*;  
D) surunkali ichburug‘;  
E) o‘tkir ichburug‘ kolit shakli;
- B. Bemorda tashxisni asoslash uchun qanday tekshiruv o‘tkazish kerak?
- A) rektoromanoskopiya\*;  
B) gemokultura;  
C) virusologik;  
D) RNGA ichburug‘ diagnostikumi bilan\*;  
E) urinokultura;
- D. Bemorni davolash usulini ko‘rsating:
- A) gormonlar bilan davolash;  
B) sulfamilamid va nitrofuranlar berish\*;  
C) regidratatsion davolash;  
D) vaksina bilan davolash  
E) antibiotiklar berish\*;
- E. Bemorga kasalxonadan javob berish uchun ko‘rsatma:
- A) antibiotik bilan davolashning 8 kuni;  
B) antibiotik bilan davolashning 3 kuni;  
C) antibiotik kursidan so‘ng najas ekmasining 2 marta salbiy natijasidan keyin\*;
- D) antibiotik berishning 5 kuni;  
E) ahvoli yaxshilangach;
- E. Dispanser nazorati muddatini ko‘rsating:
- A) poliklinikada 3 oy davomida\*;  
B) har oyda najas bakteriologik ekmasi olish\*;  
C) dispanser nazoratida turmaydi;  
D) poliklinikada yil davomida;  
E) poliklinikada 8 oy davomida.

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. «Инфекционные болезни». Учебная литература для студентов медицинских институтов. Шувалова Е.П. Москва — 1999г.
2. «Инфекционные болезни и эпидемиология». Учебная литература для студентов медицинских институтов. В.И.Покровский и др. Москва-2003 г.
3. «Yuqumli kasalliklar». Tibbiyot oliv o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Madjidov V.M. — Toshkent — 1995-y.
4. «Инфекционные болезни у детей». Учебная литература для студентов медицинских институтов. Нисеевич Н.И., Учайкин В.Ф. Москва — 1985г.
5. Интернет маълумотлари қуйидаги сайтлардан олинади: [www.infectology.ru/](http://www.infectology.ru/).иммунология, [www.rmj.ru](http://www.rmj.ru), [www.rmj/infectology/2005/.ru](http://www.rmj/infectology/2005/.ru)
6. «Инфекционные болезни с экзантемами». Монография. Иванов А.И. — Л. — 1970.
7. «Геморрагические лихорадки». Монография. Сомов Г.П. — М. — 1981.
8. «Детские инфекционные болезни у взрослых». Монография. Постовит В.А. — Л. — 1982.
9. «Руководство по кишечным инфекциям». Монография. И.К.Мусабаев. — Т. — 1982. 600 с.
10. «Руководство по воздушно-капельным инфекциям». Монография. И.К.Мусабаев. — Т. — 1985.
11. «Менингококковая инфекция». Монография. Ходжаев Ш.Х., Соколова И.А. — Т. — 1986.
12. «Руководство по зоонозам и риккетсиозам». Монография. И.К.Мусабаев. — Т. — 1986.
13. «Эпидемический паротит». Монография. Казанцев А.П. — М. — 1988.
14. «Ротовирусная инфекция». Монография. Букринская А.Г., Грачева Н.М. — М. — 1989.
15. «Ботулизм». Монография. Под ред. Шубы Г.М., Саратов — 1991.
16. «Сальмонеллез». Монография. Пак С.Г., Турьянов М.Ю., Пальцев М.А. — М. — 1989.

17. «Вирусные гепатиты». Монография. Блюгер А.Ф. — Рига — 1990.
18. «Неотложные состояния у инфекционных больных». Монография. Соринсон С.Н. — Л. — 1990.
19. «Брюшной тиф и паратифы А и В». Монография. Маджидов В.М., Шайнский И.И. — Т. — 1991.
20. «Руководство по инфекционным болезням». Монография. Лобзин Ю.В. — С-Птб. — 2000г.
21. «Инфекционные болезни». Учебная литература для студентов медицинских институтов. Атлас. Р. Эмонд — М. — 1998г.
22. Дифференциальная диагностика инфекционных болезней. — Б.П.Богомолов. — Москва, 2000 г.
23. Руководство по инфекционным болезням — Ю.В.Лобзин - С-Петербург. 2000 г.
24. Инфекционные болезни- А.Г. Рахманова. И др. — С-Петербург. 2001 г.
25. «Инфекционные болезни и эпидемиология». Учебник для ВУЗов. В.И.Покровский и др. — М. - 2003 г
26. Медицинская паразитология- Р.Х. Яфаева - С-Петербург. 2003 г.
27. «Корь». Даминов Т.А., Таджиева Н.У. Ташкент-2005.
28. Паразитарные болезни человека — В.П.Сергиева и др.- С-Петербург. 2006 г.
29. Инфекционные болезни в деятельности врача общей практики. — Ташкент-2007 г.
30. Диагностический справочник инфекциониста.- Москва — 2007 г.
31. Детские инфекционные болезни - Ташкент-2007 г.
32. Инфекционные болезни и Эпидемиология- В.И.Покровский- М.: ГЭОТАР-Медиа-2008 г.
33. CECIL Textbook Of Medicine/ Paul B. Beeson, Walsh McDermott, James B. Wyngaarden, 1997, Philadelphia, USA
34. Textbook Of Pediatrics/ Victor C. Vaughan, III, R. James McKay, Waldo E. Nelson, 1995, Philadelphia, USA
35. Интернет мальумотлари қўйидаги сайтлардан олинади:  
[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru); [www.apteka.uz](http://www.apteka.uz); [www.med-site.narod.ru//htm](http://www.med-site.narod.ru//htm); [www.speclit.med-lib.ru/inf/index](http://www.speclit.med-lib.ru/inf/index); [www.infectious disease news.com](http://www.infectious disease news.com); [www.medicina.org.ua/dek](http://www.medicina.org.ua/dek); [www.speclit.spb.ru](http://www.speclit.spb.ru)

---

---

## MUNDARIJA

<b>Shartli qisqartmalar.....</b>	<b>3</b>
<b>Muqaddima.....</b>	<b>4</b>
I. Umumiy qism. yuqumli kasallik haqida tushuncha va uning kelib chiqish tarixi.....	5
II. Tropik tibbiyot.....	38
III. Protozoy va parazitar kasalliklar bezgak (malyariya, malaria).....	60
IV. Ichak sistodozlari.....	208
Yuqumli kasalliklar fanida qo'llaniladigan pedagogik interaktiv o'yinlardan na'munalar.....	268
Talabalar bilimini mustahkamlash uchunvaziyatli masalalardan na'munalar.....	284
Yukumli kasalliklar fanidan 3-darajali testlardan na'munalar.....	289
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>301</b>

**УДК: 616-002.8  
КБК 55.14**

**Muborak Djalilovna AHMEDOVA  
Xabibulla Abduqodirovich ABDUQODIROV  
Mavluda Turoqjonovna KARIMOVA  
Dono Bahodirovna MIRZAJONOVA**

## **YUQUMLI KASALLIKLAR**

*Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik*

*Toshkent — «Noshir» — 2012*

*Muharrir X. Po ‘latxo ‘jayev  
Badiiy muharrir Sh. Odilov  
Texnik muharrir X. Xamidullayev  
Musahih B. Tuyoqov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 200, 28.08.2011 y.  
Bosishga ruxsat etildi 20.08.2012 y. Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ .  
«Times TAD» garniturasi. Ofset qog‘ozsi. Ofset usulida chop etildi.  
Hajmi 19,0 b.t. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 50.

«NOSHIR» nashriyoti, Toshkent sh., Langar ko‘ch., 78.

«NOSHIR» O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasi bosmaxonasida  
chop etildi, Toshkent sh., Langar ko‘ch., 78.